

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

**SHODMONQUL AZIZOV**

# **SHAXS VA JAMIYAT**

*(ijtimoiyot asoslari)*

*Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun  
darslik*

Tuzatilgan va qayta ishlangan nashr

*Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

TOSHKENT  
«Niso Poligraf»  
2016

### Nashrning tahririy kengashi:

- R.A. Ubaydullayeva** – O‘zR Fanlar akademiyasining akademigi, rais,  
**M.Q. Quronov** – pedagogika fanlari doktori, professor,  
**I.S. Soifnazarov** – falsafa fanlari doktori, professor,  
**K.X. Abduraxmonov** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor,  
**Sh.O. Madayeva** – falsafa fanlari doktori, professor,  
**R.A. Abdullayev** – tarix fanlari doktori, professor,  
**U.A. Azizov** – sotsiologiya fanlari doktori (PhD in Social Sciences)

### Taqrizchilar:

- V. Qo‘chqorov** – siyosiy fanlar doktori, O‘zR OUMTV huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi markazi sektori mudiri,  
**R.P. Hakimov** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU prorektori,  
**A. V. Vaxobov** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU),  
**K.J. Tulenova** – falsafa fanlari doktori, professor (Nizomiy nomidagi TDPU),  
**M.Sh. Sharipov** – falsafa fanlari nomzodi, dotsent (M. Ulug‘bek nomidagi O‘zMU),  
**A. K. Nafasov** – oliy toifali o‘qituvchi (Toshkent Soliq kolleji)

### Shartli belgilar:



– asosiy tushunchalar



– ma’ruza va referatlar uchun mavzular



– savollar va topshiriqlar



– amaliy ish

Darslikda insonshunoslik (antroposotsiogenez, shaxsning maqomi, buyuklik mezonlari, o‘lim va barhayotlik masalalari) va jamiyatshunoslik (jamiyatning umumiy tavsifi asosiy sohalar, jarayonlarining yo‘nalganligi muammolari va sivilizatsiyaviy – madaniy ifodalanishi bosqichlari, mustaqil O‘zbekistonning umumsivilizatsiyaviy mo‘ljallari) masalalari yoritilgan. Shuningdek, unda hozirgi dunyo umumiy tavsifining tahlili doirasida liberalizm qadriyatlari va modernizatsiya masalalari hamda globallashuv jarayonlari tug‘dirgan muammolar hal etilishining shart-sharoitlari va axborot-texnologik sivilizatsiya shakllanayotganligi masalalari qarab chiqilgan.

Darslikda qo‘yilgan va yoritilgan masalalarning yangiligiga ko‘ra, undan oliy ta‘lim muassasalarining talabalari va barcha qiziquvchilar ham foydalana oladilar.

---

---

## MUNDARIJA

Muallifdan .....	5
Kirish .....	6

### ***BIRINCHI BO'LIM***

#### **INSON VA UNING SHAXS TAVSIFI**

##### ***I bob. INSON – JONLI MAVJUDOTNING ALOHIDA TURI***

I.1.1. Inson fenomeni .....	9
I.1.2. Insonning o'zini o'zi hamda tashqi dunyoni bilishi zarurligi va imkoniyatlari.....	13

##### ***II bob. INSON KELIB CHIQISHINING TABIIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIIY-TARIXIIY SHART-SHAROITLARI (ANTROPOSOTSIOGENEZ)***

I.2.1. Insonning kelib chiqqanligi (dinga ko'ra yaratilganligi) to'g'risidagi nazariyalar .....	20
I.2.2. Sotsiogenez. Ruhiyat.....	29

##### ***III bob. SHAXS***

I.3.1. Individ va shaxs.....	42
I.3.2. Shaxs: erkinlik va demokratiya.....	51
I.3.3. Buyuk shaxs: asosiy tavsiflar. O'lim va undan keyingi barhayotlik .....	57

### ***IKKINCHI BO'LIM***

#### **JAMIYAT – KISHILIK DUNYOSI (SOTSIIUM)NING TASHKILIIY SHAKLI**

##### ***IV bob. KISHILIK DUNYOSI***

II.4.1. Jamoa va jamiyat.....	67
II.4.2-3. Jamiyat hayotining asosiy sohalari .....	73

##### ***V bob. IJTIMOIIY-TARIXIIY JARAYONLAR***

II.5.1. Ijtimoiy tarix: ma'nosi va kechishi .....	89
II.5.2. Tarixni bilishga yondashishlar .....	96

### ***UCHINCHI BO'LIM***

#### **SIVILIZATSIIYALAR – IJTIMOIIY-MADANIY YAXLITLIK**

##### ***VI bob. JAMIYAT VA SIVILIZATSIIYA***

III.6.1. Sivilizatsiya: mazmuni va shakllanish bosqichlari.....	101
III.6.2. Madaniyat va qadriyatlar .....	106

## **VII bob. SIVILIZATSIYALAR TASNIFI**

III.7.1. Sharq va G'arb: sivilizatsiya tiplari .....	114
III.7.2. Islomiy sivilizatsiya .....	126
III.7.3. Turon – Movarounnahr – Turkiston: sivilizatsiyaviylik mezonlari va bosqichlari.....	135
III.7.4. Mustamlakachilik va Turkistonda ijtimoiy-madaniy turg'unlikning chuqurlashuvi.....	148

### **TO'RTINCHI BO'LIM**

#### **MUSTAQIL O'ZBEKISTONNING ZAMONAVIY SIVILIZATSIYAVIY MO'LJALLARI**

#### **VIII bob. DAVLAT ISTIQLOLI VA IJTIMOVIY RIVOJLANISH YO'LINING TANLANISHI**

IV.8.1-2. Demokratik-huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurilishining zarurligi va shart-sharoitlari.....	163
IV.8.3. Barpo etilayotgan va rivojlanayotgan iqtisodiyotning ilg'or sivilizatsiyaviy mo'ljallari .....	182

#### **IX bob. BARKAMOL AVLODNI VOYAGA YETKAZISH VAZIFALARI**

IV.9.1. Davlat va jamiyatning yosh avlodining muammolarini hal etishidagi vazifalari .....	191
IV.9.2. Ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar.....	198

### **BESHINCHI BO'LIM**

#### **HOZIRGI DUNYO: CHUQUR SIVILIZATSIYAVIY O'ZGARISHLAR**

#### **X bob. LIBERALIZM, MODERNIZATSIYA, GLOBALLASHUV VA UMUMSAYYORAVIY MUAMMOLAR**

V.10.1. Liberalizm va modernizatsiya: hozirgi bosqich.....	206
V.10.2. Globallashuv: mohiyati, mazmuni, yo'nalishlari va oqibatlari.....	213
V.10.3. Hozirgi umumsayyoraviy (global) muammolar .....	218

#### **XI bob. SHAKLLANAYOTGAN YAGONA JAHONIY SIVILIZATSIYANING ASOSIY BELGILARI**

V.11.1. Hozirgi jamiyatlar – jahoniy tizim.....	229
V.11.2. Axborot-texnologik jamiyat .....	234
XOTIMA .....	242
Ilova. «Shaxs va jamiyat (ijtimoiyot asoslari)» o'quv predmetining dasturi (30 soat).....	245

---

---

*Otam Aston Abdulaziz oqsoqol o'g'li  
va onam Shirin Shomurod elbegi qizi  
xotiralariga bag'ishlanadi*

## MUALLIFDAN

Darslik bundan 10 yilcha oldin Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Falsafa fakultetida tayyorlanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga va O'zR Tarix institutida hamda poytaxtdagi 5 ta oliy ta'lim va 2 ta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi taniqli faylasuflar (professorlar Q.N. Nazarov, S.O. Otamurodov, B.T. To'ychiyev, I. Karimov, K.J. Tulenova, A.Q. Qodirov), sotsiologlar (professorlar M. Bekmurodov, N. Aliqoriyev), tarixchi (professor D.A. Alimova) va tajribali uslubiyotchi o'qituvchilar (A.K. Nafasov va D. Mahkamova) taqrizlardan o'tkazilib o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida chop etilgandi. Uning matni ustida ishlar davom ettirilib, amaldagi ajratilgan soatlar va so'nggi tasdiqlangan dasturga moslab qayta ishlandi, hamda yangi bo'lim, boblar va fasllar bilan to'ldirildi. Unda so'nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar bilimlarda ko'tarilib hal qilingan, shuningdek, pedagogikaning ham tegishli sohalarida erishilgan yutuqlar e'tiborga olindi. Ushbu nashrda darslikning uslubiy ta'minlanishi kuchaytirildi. Xususan, uning har bir fasli boshi va oxirida mavzu mohiyatini ochishga qaratilgan savollar, asosiy tushunchalarga izohlar, struktura-viy-mantiqiy sxemalar berildi, hamda yangi muhim adabiyotlar bilan to'ldirildi.

Muallif darslik sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha fikrlari uchun ushbu nashrning tahririyat kengashi a'zolari va taqrizchilarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

---

---

## KIRISH

XXI asrning ikkinchi o'n yilligi ham yarimladi. Jahon miqyosida kechayotgan jarayonlar ko'lami va chuqurligi, birinchi navbatda, fan, texnika va texnologiya sohalarida yuz berayotgan inqilobiy o'zgarishlar sur'ati nafaqat miqdoriy – matematik aniqlikda baholanishni, balki, eng muhimi, insoniy mezonlarda qarab chiqishni dolzarb qilib qo'ymoqda. Zero, bu sohalardagi misli ko'rilmagan jarayonlar Sayyoramizni beqaror qilib, insoniyat kelajagi nuqtayi nazaridan ekspertiza qilishni to'g'ridan to'g'ri taqozo etmoqda.

O'zbekiston xalqi bolsheviklarning inson tabiati bilan hisoblashmay, barchani baxtli qilish da'vosi bilan o'tkazgan va g'oyat katta qurbonliklarni keltirib chiqargan ijtimoiy eksperimentidan qutulib, milliy davlat istiqloli yillarida turmushning barcha sohalarida tub o'zgarishlarni amalga oshirdi.

Endigi vazifa – *yuksak ma'naviyatga ega bo'lish, huquqiy demokratik davlat qurish va iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlarini qaror toptirishni jadallashtirishdan iborat*. Buning uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni muvofiqlashtirish orqali jahon hamjamiyatining ko'p jihatlardan mushtarak, ilg'or sivilizatsiyaviy yangi tartibotiga qo'shilib ketishni ta'minlash muhimdir.

Bularni zarur nazariy bilim mezonlarida o'zlashtirish va ta'lim sohasida kechayotgan yangilanishlarda keng aks ettirish muhimligi ayon.

Ma'lumki, insonga tug'ilganidan berilgan, uni o'rab turgan olamni o'zlashtirishning biologik imkoniyatlari barkamol shaxs bo'lib yetishishi uchun poydevor hisoblanadi. Ayni vaqtda, shaxs-

ning shakllanishida ta'lim, ayniqsa, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. XX asrning oxirgi o'n yilliklarida bu sohalar fanlari o'zining ahamiyatiga ko'ra, markaziy o'ringa chiqib, boshqa sohalar bilimlariga ijroiya vazifalarini topshira boshlagan edi. Hozir esa bu jarayon tobora kengayib va chuqurlashib bormoqda. Zero, bu sohadagi bilim va tajriba tufayli inson nafaqat o'tmish avlodlar qoldirgan qadriyatlarini o'zlashtiradi, saqlab qoladi, balki yangi ma'naviy boyliklar ham yaratadi.

Yuqoridagilar ta'lim tizimida «Shaxs va jamiyat» o'quv predmeti doirasida umumiy tarzda o'z ifodasini topadi. Predmetning mazmuni inson, uning *shaxsiyati, kishilik dunyosi, jamiyat* va uning *sivilizatsiyaviy tarzlari* hamda *hozirgi dunyo* muammolarining eng asosiy jihatlarini bevosita o'z ichiga oladi. Ayni vaqtda, bular dolzarb *dunyoqarash mo'ljallarini* ham tegishli tarzda ifodalaydi. Inson, uning jamiyatini o'rganishda antropologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, ba'zi o'rinlarda siyosatshunoslik, davlat va huquq asoslari, iqtisodiy bilim asoslari, dinshunoslik va umumiy tarixga tegishli bilimlarga ham tayaniladi. Albatta, bunda predmet o'qituvchisining ushbu bilimlar sohalari bo'yicha ham tayyorgarlik darajasi muhim hisoblanadi. Ko'rinadiki, «Shaxs va jamiyat» predmetini o'rganish orqali ko'pgina fanlarning umumiy jihatlari bo'yicha ham muayyan tasavvurlar hosil etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar tizimida bularni chuqurroq o'rganishga bo'lgan qiziqish talabalarning ma'lum qismini oliy ta'lim muassasalaridagi muayyan kasbiy yo'nalishlarda o'qishni davom ettirishga olib keladi, deyish mumkin.

Bulardan ko'rinadiki, «Shaxs va jamiyat» predmetining o'qitilishiga jiddiy munosabat talab etiladi. Darslik bunda asosiy tayanch manba hisoblanadi. O'quvchilar predmetni o'zlashtirganligi natijasida, *birinchidan*, ijtimoiy hodisa, jarayon yoki faktlarni qiyosiy farqlash va bularga oid bilimlarni «Shaxs va jamiyat» predmeti tushunchalarida ifodalay olishi, *ikkinchidan*, o'rganilayotgan obyektlarni shaxslararo, shaxs va jamiyat, jamiyat va tabiat, har xil kichik

tizimlar o'rtasidagi aloqalarda ko'rsata bilishi va tushuntira olishi, *uchinchidan*, shaxs, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, xalqaro subyektlarning xatti-harakatlarini axloqiy me'yorlar, siyosiy demokratiya va ilmiy ratsionallik nuqtayi nazaridan baholay olishi, *to'rtinchidan*, referat, og'zaki chiqishlar, ijtimoiy muammolar bo'yicha ijodiy ishlar, taqrizlar va hokazolar tayyorlay olishi, *beshinchidan*, turli maslak va qadriyatlar tashuvchilari bilan muloqot qila bilish va hokazolarni uddalay olishi lozim.

Aziz o'quvchilar, muallif mazkur kitob haqidagi tanqidiy fikrlarni hisobga olishga tayyorligini bildirgan holda o'rganayotgan bilimlaringizni o'zlashtirishda muvaffaqiyatlar tilaydi.



# **BIRINCHI BO‘LIM**

## **INSON VA UNING SHAXS TAVSIFI**

---

---

### ***I bob.* INSON – JONLI MAVJUDOTNING ALOHIDA TURI**

#### **I.1.1. Inson fenomeni**

*Insonning umumiy tabiati qanaqa? Hozirgi zamon fani uni qaysi jihatlardan o‘rganadi? Inson fenomenini mulohaza qilishda falsafa, fan va dinning o‘zaro muvofiqlashtirish zarurati nimada?*

***Insonning tabiati.*** Insoniyat tarixida kishilar eng ko‘p o‘ylagan va o‘rganilishi zarur bo‘lgan muammolardan biri – o‘zlarining tabiati masalasidir. Ajdodlarimiz aqlini taniganidan beri, o‘zlarining kelib chiqishi, mohiyati va tutgan o‘rnini hamda aqli doirasida bajaradigan vazifalarini har doim diqqat markaziga qo‘yib keladi. Qadimda Sharqda ham, G‘arbda ham insonga nisbatan Koinotning buyuk mo‘jizasi, noyob hodisasi sifatida qarashgan. Bundan 2,5 ming yilcha avval Yunonistonda dramaturg *Sofoklning* sahnaga qo‘yilgan «*Antigona*» fojiasida «*Mo‘jizalar ichida eng ajoyibi – insondir*» degan fikr yangi ragan. O‘sha davr mutafakkiri *Empedokl* «*Inson har doim inson uchun qiziq hodisadir*», desa, boshqa yunon donishmandi *Protogor* fikricha: «*Inson o‘zini o‘zi yaratgan. Shunga ko‘ra, u barcha narsalarning o‘lchovidir*». Hozirgi fanda ham insonning qiyosi yo‘q, noyob va universal, deb hisoblovchilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ayni vaqtda uni *barcha mavjudotlarning eng baxtsiz*, uning *kelajagi yo‘q*, deb aytadiganlar ham topiladi.

Inson va uning tabiati maxsus o‘rganilishiga, tadqiqotlar turli tomonlardan olib borilgani, ularning har biri o‘zining tahliliga va xulosasiga egaligi, juda ko‘plab nazariyalar ilgari surilgani holda hozirgacha aniq va manzur javob yo‘q. Qiyinchilik shundaki,

kishilar g'oyat darajada turlicha va takrorlanmasdir. Ichki dunyosi to'g'risida gapirmaganda ham ular nafaqat tashqi ko'rinishlari, balki xatti-harakatlari bilan ham bir-biriga o'xshamagan va, ayni paytda, juda murakkabdirlar ham.

Yer yuzida yashayotgan yetti milliarddan ortiq odamdan ikkita bir-biriga aynan o'xshashi topilmaydi. Agar tadqiqotchi inson tabiatini u mansub bo'lgan madaniy olam bilan taqozo etilganini hisobga olib ish ko'rsa, murakkablik ko'lami qanchalar katta bo'lishi oydinlashadi. Shunga qaramay, insoniyat oldida *o'z-o'zini anglash* vazifasi o'tkir muammo bo'lib turibdi. Zero, insonning ko'lami tobora oshib borayotgan xatti-harakati, nazoratsiz faoliyati natijasida ko'pgina jiddiy muammolar paydo bo'ldi. Bular hozirgi insoniyat turmush-faoliyati barcha sohalarini qamraydi va erishilgan sivilizatsiya taqdirini xavf ostiga qo'ymoqda. Faqatgina keyingi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarning ba'zilarini keltirishning o'ziyoq xavfning naqadar kattaligini ko'rsatadi. Masalan, *yadro sanoati chiqindilarini xavfsizlantirish, Sayyora iqlimining yalpi isib ketishining oldini olish, terrorchilikka, narkomaniya va narkobiznesga qarshi samarali kurashish, irqiy kamsitishlarga barham berish* kabilar oldinroqdan davom etib kelayotgan va yechimini kutayotgan global miqyosdagi muammolar sonini ancha oshirdi.

Bundan tashqari, insonning murakkab tabiati Sayyora miqyosida noyobligi bilan ham alohida ajralib turadi<sup>1</sup>.

***Hozirgi ilmiy bilimda inson sifatlarining umumlashtirilishi.*** Hozirga qadar inson haqida *ruhshunoslik, etnologiya, fiziologiya, tibbiyotshunoslik* va h.k. sohalarda to'plangan bilimlarni eng umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:

*Birinchidan, inson tabiiy-biologik jihatdan yetuklik cho'qqisida turganligi bilan hayvonlardan farqli o'laroq tana tuzilishiga ko'ra,*

---

<sup>1</sup> Albatta, har qanday jonivor ham o'zining noyobligi, betakrorligi bilan ajralib turadi. Ulardan ayrimlarining xatti-harakati, tabiatini fan hozirgacha tushuntirib berganicha yo'q. Masalan, oqcharloq qushining inkubatsiya davridagi holati, shimpanze maymunlarining karnaval uyushtirishlari, fillarning o'z turi murdalarini ko'mishga bo'lgan urinishlari, kit baliqlarining halok bo'lish maqsadida o'zlarini quruqlikka otishlari, lemminglarning shu maqsadda o'zlarini suvga tashlashlari sabablari va hokazolar o'zining ilmiy yechimini topgan emas.


jumladan, odatdan tashqari *qayishqoqligi* bilan ajralib turadi va barcha asosiy darajalariga ko'ra o'ziga xoslikka ega; *anatomik* tuzilishiga ko'ra tik yurishga moslashgan, bosh suyagi qobig'ining, *miya yarimsharlarining o'lchami, qo'llari va oyoqlarining* o'ziga xos tuzilishi bilan farqlanadi. *Biologik* mavjudot sifatida baquvvat hayvonlarga qiyoslaganda, kuchsiz va nozikligiga qaramay, Yer yuzida *eng katta quadratga ega* bo'lgan mavjudotdir. Unda to'rt oyoqli mavjudotlarda bo'lmagan sifat – *tananing barcha a'zolari ijodiy murakkab mehnat jarayonlarini bajarishga moslashgan*. Bular quyidagilarda ko'rinadi: qo'llar va ulardagi barmoqlarning turli yumushlarni bajara olishi; ko'z a'zolarining uch o'lchovda ko'ra olishi bilan makonda mo'ljalni to'g'ri olishi va hokazo.

*Ikkinchidan*, inson *ijtimoiy* tabiatiga ko'ra *mehnat qurollari* yasaydi, *olovdan* foydalanadi. *Tilga* ega bo'lib, o'z fikr-o'ylari va g'oyalarini ifodalay oladi; o'ziga ma'lum bo'lgan va bo'lmagan narsalarni *yarata oladi*, ishlab chiqara oladi, unga hech narsa yot emas: *nozik did* egasi, *saxiy* va *xudbin*, *yumshoq* va *qat'iyatli*, *mehrli* va *g'azabli* va h. k.

*Uchinchidan*, inson o'zining *ruhiy-ma'naviy* mavjudot maqomiga binoan yuksak *intellekt, xotiraga*, tengsiz *hissiyotga* egaligi, *o'ylash, rad qilish, hisob-kitob* qilish, *rejalashtirish, xayol surish* va hokazo imkoniyatlari bilan mo'jizalidir. Faqat u o'zining *o'limini* oldindan ko'ra oladi. Voqelikka eng yuksak darajada *mehr* qo'ya bilishi, *aldashi, va'da berishi, hayratlanishi, qayg'urishi, nafratlanishi*, kinoya qilishi, *rollarni* bajarishi mumkin va h.k. Bularni mulohaza qilish o'z navbatida inson bilishining falsafa, fan va din kabi sohalaridagi jiddiy muammolardandir.

Insondagi bio-ijtimoiy-ruhiy jihatlar birligi doirasida tadqiqotchilar ulardan u yoki bunisining roliga alohida ahamiyat beradilar. Xususan, *sotsiobiologlar* insonni tabiatning uzviy bo'lagi, tanasi nafaqat biologik muayyan tur belgilarining yig'indisi, balki jonsiz tabiatning fizik va kimyoviy jarayonlari ham kechadigan manbadir, deb qaraydilar. Insonga xos xatti-harakatlar va holatlarning aksariyati hayvonot olamida mavjud. Uning *flongenetik* rivojlanishi ham, *ontogenezi* ham irsiyatga bog'liq. Genetik o'tadigan belgilar madaniyat orqali mustahkamlanadi, aytish o'rinliki, ruhshunoslar

I. Pavlov, V Bexteryov, xirurg va mexanik olim N. Amosov («Inson biologiyasi ancha murakkab bo'lgani uchun kommunistik eksperiment o'zini oqlamadi»), Z. Freyd va boshqalar ham har biri o'ziga xos sotsiobiologlar bo'lgan.



1-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Inson* – Sayyoradagi jonli tabiatning eng yuksak bosqichini ifodalab, jamoaviy va anglangan hayot tarziga ega mavjudot.
- *Inson tabiati* – odamzod mavjudligining biologik, ruhiy, ijtimoiy va hozirgi vaqtda koinotiy jihatlar yig'indisi sifatida qaralishi.
- *Donishmand* – inson va uning olamga munosabatini mulohaza qilish hamda boshqalarga tushuntirish salohiyatiga ega mutafakkir.
- *Sotsiobiologiya* – uning asoschisi E.O. Uilson fikricha hayvon va insondagi xatti-harakatlarning barcha shakllari biologik asoslarga egaligini o'rganish sohasi.
- *Filogenez va ontogenez* (yunonchada: urug'; narsa va kelib chiqish) – organizmning tarixan va individual rivojlanishi.

### Savollar va topshiriqlar



1. Inson fenomenining ko'p tavsifligi ijobiy hodisami yoki salbiy hodisami?
2. Insonni hayvondan farqlaydigan eng umumiy jihatlar nimalarda ko'rinadi?

3. Ijtimoiy-ruhiy jihatdan inson qanday tavsiflanadi?
4. «Mo'jizalar ichida eng ajoyibi insondir» iborasini siz qanday tushunasiz?
5. Sotsiobiologiyaga munosabatingizni bildiring.

### **I.1.2. Insonning o'zini o'zi hamda tashqi dunyoni bilishi zarurligi va imkoniyatlari**

*Nega inson voqelikni bilishga mahkum? O'z-o'zini bilish nima? Falsafiy bilish qanday tarkibiy qismlardan iborat? Haqiqat muammosi nima? Falsafiy va ilmiy bilimlar nisbati qanday?*

**Bilish – insonning ehtiyoji.** Inson o'zini o'rab turgan voqelik bilan munosabatga kirishishiga, uni bilishga majbur. Bilish inson bilan dunyo o'rtasidagi asosiy munosabatdir. *Birinchidan*, inson tabiatan har narsaga qiziquvchan mavjudot. U o'zi atrofida yuz berayotgan voqealardan hayratlanadi, ularning tag ildizlarini bilishga harakat qiladi. *Ikkinchidan*, insonning muayyan ehtiyojlari uni atrof-muhitga moslashishini taqozo qiladiki, bu ham bilishga undaydi. *Uchinchidan*, insonda oqilona tushuntirish qiyin bo'lgan ichki bir jihat ham borki, u insonning bilishga doir xatti-harakatini stixiyali bo'lsa-da, belgilaydi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, biluvchi mavjudot bo'lgan inson o'zini o'zi bilishga ham harakat qiladi. Odatda, insonning qaysi ijtimoiy-madaniy muhitda shakllanganligiga ko'ra, uning bilishi belgilanadi. Sharqona an'analarda insonning o'zini o'zi bilishiga katta ahamiyat berilgan.

O'zini o'zi bilish tashqi dunyoning bilishi zaruriyati bilan bog'liqlikda kechadi. Lekin inson har doim ham o'zi to'g'risida obyektiv va mukammal bilimga ega bo'lavermaydi. Uning o'zini o'zi bilishi boshqalarning u to'g'risidagi bilimlari va tashqi dunyoni bilishi natijalari bilan muqoyasa etilmog'i, to'ldirilmog'i lozim. Bunda nazarda tutish kerakki, G'arb-Yevropa madaniyatida insonning tashqi dunyoni o'zlashtirishi, egallashi muhim hisoblanadi.

Insonning bilishida har doim tevarak-atrof hodisalarini (*dunyo qanday tuzilgan? Uning sir-u sinoati nimada? va h.k.*), o'zining imkoniyatlarini (*dunyoni bilishi muammolari*) va yashashi shartlarini

(*yashashning ma'nosi, maqsadi va h.k.*) mulohaza qilishi lozim. Bular, ayni vaqtda bilishning eng katta tarzida, falsafiy bilishda tegishli uchta qismni – ontologiya (qadimgi yunoncha ontos – voqelik, borliq, logos – ta'limot), *gnoseologiya* (gnosus – bilish) va *antropologiya* (antropos – inson) muammolarni o'rganishni tashkil qiladi.

***Bilish darajalari.*** Bilish insonning ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va tuyish *sezgilari* orqali voqelikdan olgan ta'sirlaridan boshlanib, shu sezgilarning oddiy tarzi – tuyg'ular, so'ngra *idrok* yoki hissiy qabul qilish va tasavvurdan tashkil topadi. Bu uning *hissiy bilish* deb atalgan birinchi darajasini bildiradi.

Hissiy bilishdan boshlangan jarayon *aqliy (ratsional) bilish* darajasi bilan yakunlanadi. Uning shakllari bo'lib *tushuncha* (muayyan turdagi narsa, hodisa yoki voqea to'g'risida umumlashma fikr), *hukm* (tasdiq yoki inkorni bildirgan fikr) va *xulosa* (olingan yangi fikr) hisoblanadi. Umuman olganda, bilish hissiylik va ratsionallik birligidan iboratdir.

Bilishning bu o'zaro taqozolangan ikki darajasi inson hayot – faoliyatining barcha sohalarida va u aloqada bo'lgan voqelikni o'rganishda ham amal qiladi.

Bilishning natijasi *bilim* bo'lib, xilma-xil tarzlarda mavjuddir.

Voqelik haqida bilimlarga ega bo'lishda bilish jarayoni doirasida *xotira, xayol, intuitsiya* va *ijod* hodisalari ham kuzatiladi. Agar xotira yordamida inson hissiy va aqliy shakllarda olingan bilimlarni saqlab qolsa va tiklasa, xayol yordamida esa ilgari ma'lum bo'lgan yoki yangi his-tuyg'ular va fikrlar gavdalantiriladi. Odatda, xayolda har doim yangilik unsurlari bo'ladi.

Intuitsiya (e'tiborli qarash) yordamida inson dalillar va mulohazalarsiz muayyan bilimga ega bo'ladi. Qator mutafakkirlar intuitsiyani inson va uni o'rab turgan Olam o'rtasidagi har doim mavjud bo'lgan muvofiqlik deb qaraydilar.

Bilish insonning ajralmas salohiyati ekanligidan uning tabiatan ijodkorligi kelib chiqadi. Ijod – bu ilgari bo'lmagan bilimni yoki uning asosida u yoki bu moddiy obyektни yaratishdir. Ijodkorlik darajalari farqlanadi. *Geniallik* tufayli eng

ko'p natijaga erishish mumkin. Talantlilik ham insonning yuksak salohiyati ifodasidir.

**Haqiqat muammosi.** Bilimning voqelikka qanchalik mos kelishligi – haqiqat masalasi qadimdan hozirgacha mutafakkirlarni o'ylantirib keladi. Bunda, ayniqsa, hozirgi davrda bu xususda xilma-xil fikrlar o'rtaga tashlanmoqda. Ulardan biriga, *muvofiqlik konsepsiyasi* deb atalganiga ko'ra, fikrning u ifodalagan obyektga aynan mos kelishi haqiqat bo'lib, uni har qanday sharoitda tekshirish mumkin.

Haqiqatning *boshqa bir konsepsiyasiga* ko'ra, obyekt haqidagi bilimlar o'zaro olinganda ziddiyatli bo'lmasligi kerak. Bu jihatdan olganda, ushbu konsepsiya muayyan darajada o'zidan oldingisini to'ldiradi.

Haqiqatning foydaliligiga asoslangan *pragmatik konsepsiyaga* ko'ra, bilimlarning tekshirilishi amalda ish-harakat jarayonida bajarilishi lozim. Muvofiqlik konsepsiyasida olinadigan haqiqat tabiatshunoslikdagi bilimlar tabiatini ifodalasa, haqiqatning pragmatikligi texnologik va iqtisodiy sohalardagi bilimlarni ifodalaydi. Abstrakt bilimlar haqiqiylikini ifodalaydigan konsepsiya, ayniqsa, matematika va mantiqda, shuningdek, filologik fanlarda qo'l keladi.

Bilimlarning haqiqatlilik tabiati undagi *mutlaqlik* va *nisbiylik* tomonlardan hamda *konkret* vaziyatlarda qaralishi mumkin. Ulardan birinchisi bilimlar tarkibidagi davom etib kelayotgan, o'zgarmas jihatlarni anglatasa, ikkinchisida bilimlarning tobora chuqurlashib, boyib borishligi tushuntiriladi.

Haqiqatning konkretligi shundaki, bilimlar qaysi konkret joy va vaqtda olingan bo'lsa, asosan o'sha sharoitlarda to'g'ridir.

**Fan – ilmiy bilim.** Haqiqatlilik masalasi, dastavval, ilmiy bilimlar bilan bog'liq. Chunki fan mohiyat-e'tibori bilan voqelikni tadqiq etib haqiqiy bilimni berishi lozim. Bunda fanning turli sohalar bilimlarini ifodalaganiga ko'ra tasnif etish zarur bo'ladi. Eng umumiy tarzda uni *umumgumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, aniq fanlar va tabiatshunoslik* fanlari ko'rinishida olish mumkin.

Tabiatshunoslik fanlaridan hosila sifatida *tibbiyot, qishloq xo'jaligi* va *texnik* fanlar farqlanadi.

Falsafiy bilimlar haqiqat bilan ish ko'radigan ilmiy bilimlardan farqli o'laroq donolik asosida erishilgan dunyoqarashni ifodalaydi.

**Falsafiy bilish.** Kishilar hayotini falsafiy *dunyoqarashsiz* tasavvur qilib bo'lmashligini quyidagilarda ko'ramiz:

*Birinchidan*, falsafiy dunyoqarash hamma vaqt ilg'or, zamonaviy bilim bilan o'zaro bog'langan va unga hamisha ehtiyoj sezadi. Tarixan fan falsafa tarkibida qaror topgan, amaliyotda dalil-isbotlari sinalgan, qo'yilgan aniq savollarga uzil-kesil javob berishi, umumahamiyatli natijalar, umum tan olingan bilimlarning tobora ko'payib borishi bilan undan ajralgan.

*Ikkinchidan*, falsafiy dunyoqarashda muammolar hech qachon bir ma'noli, qat'iy yechimga ega bo'lmaydi. U har doim yangicha yondashishga, masalani yangicha qo'yishga o'rin qoldiradi. Binobarin, falsafada yakdillik hech qachon bo'lmagan.

*Uchinchidan*, falsafiy dunyoqarashning mavjudligi – zaruriyat. Bu fan va undan tashqarida olingan bilimlar (masalan, *din, mistika*) nisbatidagi nomatlub muqobilliklarni bartaraf etish ehtiyoji bilan bog'liq.

G'arb dinshunosligi ilmi vakillari *diniy dunyoqarashga* bo'lgan zaruriyatni quyidagicha izohlaydilar:

1. Hozirgi dunyo o'zining ko'pgina adolatsizliklari bilan boshqa adolatli dunyo to'g'risida o'ylashga majbur qiladi.

2. Turmush qiyinchiliklari ma'lum kishilarda qator axloqiy masalalarni kun tartibiga qo'yadiki, ularni mulohaza etish ko'p hollarda diniy masalalar tusini oladi.

3. Sivilizatsiya ilgarilama harakati tufayli din ta'siridan qutulishga bo'lgan mayl (*sekulyarizatsiya*) qanchalik kengaymasin – bu *ateizm* (dahriylik) mafkurasini shunchalik kuchayishini bildirmaydi. Diniy va dunyoviy tafakkurning bir butun kengayishiga xizmat qiladi.


4. Har bir insonda bo'ladigan so'nggi orzu-umid, uning borlig'i bilan bog'liq bo'lgan munosabatning ijtimoiy ifodasi hisoblanadi.

5. Inson borlig'ining ayni jihati xudoga bog'liq deb idrok qilinadi.




6. Insonning tabiati shundayki, ma’lum kishilar borliqning ma’nosini *millatda* (millatchilik), *xalqda* (nastional sotsializm, fashizm), *irqda* (irqchilik), *sinfda* (markscha-lenincha ta’limot), *partiyada* (partiyaviy totalitarizm), *buyuk shaxsda* (xarizmatizm), *fanda* (ssiyentizm – inglizchada fan degani) va hokazolarda ko’radiki, bu ham oxir-oqibatda dindan boshqa narsa emasdir.

Hozirgi zamon bilimlari postnomumtozlik davri belgilari bilan tavsiflanadi. Bu belgilar ichida asosiysi bo’lib intersubyektivlik hisoblanadi. Subyekt o’rning oshib ketganligi falsafa va fandagina emas, balki ma’naviyatning boshqa shakllariga tegishli bilimlar sohasiga ham oiddir.



2-sxema



3-sxema



4-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Bilish* – insonning tashqi dunyo hodisalari va o'zi to'g'risida zarur bilimlarga ega bo'lish salohiyati.
- *Bilim* – bilish jarayonining yakuniy ifodasi.
- *Haqiqat* – bilimlarning voqelikka mos kelishi.
- *Fan* – tartiblangan va turmushda qo'llanilayotgan bilimlarning keng maqomda, ijtimoiy institut sifatida olinishi.
- *Falsafa* – alohida taxlitdagi bilimlar tizimi bo'lib, har qanday dunyoqarashning umummag'zini tashkil etadi.

### Savollar va topshiriqlar



1. Inson bilishi o'z-o'zidan kechadimi yoki maxsus amalga oshiriladimi?
2. Inson bilishi o'zini o'zi bilishdan boshlanadimi yoki tashqi dunyoni bilishdan?
3. Bilish jarayoni qanday tarzda kechadi?
4. Haqiqat muammolarini mulohaza qilib ko'ring.
5. Falsafiy donolik bilan fan haqiqati umumiylikka egami?
6. Hozirgi zamon bilimlarining postnomumtoz tabiatini tushuntirib bering.

### Amaliy ish



1. Inson tabiati murakkabligining siri nimada? Buni mulohaza qilib yozma ish tayyorlang.

2. Inson sifatlarining qanday asoslarda umumlashtirish mumkin? Bularni mulohaza eting.
3. Insonning bilishsiz yashay olmasligini o'zingizga ma'lim bo'lgan bilimlarga tayanib asoslang.
4. Bilishda, xususan, haqiqat masalasida murosai madora qilish to'g'rimi? Bunga doir qanday misollarni keltira olasiz?
5. Dunyoqarashlar to'qnashuvi yuz bersa, uni bartaraf etishning qanday vositasi eng zamonaviy hisoblanadi? Bu to'g'rida o'zingizga ma'lum bo'lgan faktlar asosida referat tayyorlang.

### **Ma'ruza va referatlar uchun mavzular:**



1. Insonning mohiyati.
2. Hozirgi zamon fani inson to'g'risida.
3. Inson – biluvchi mavjudot.
4. Bilish bosqichlari.
5. Bilishning tarkibi.
6. Haqiqat – bilish natijasi.
7. Ilmiy bilimlar.
8. Falsafiy bilim.
9. Dunyoqarash va uning shakllari.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. *Islom Karimov*. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
2. *Islom Karimov*. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.// Xavfsizlik va taraqqiyot yo'lida. 1-jild. – T., «O'zbekiston», 1998.

\* \* \*

3. Qur'oni Karim. – T., «Cho'lpon», 2009.
4. Injil. Shvetsiya–Stokgolm. 1993.

\* \* \*

5. Bilish falsafasi. Tuzuvchi va tarjimon Q. Nazarov. – T., 2010.
6. Sharipov M. Mantiq. O'quv qo'llanma. – T., Faylasuflar milliy jamiyati, 2012.
7. Erkayev A. Tafakkur erkinligi. – T., «Ma'naviyat», 2012.
8. Falsafa. Darslik. M. Ahmedova umumiy tahriri ostida. – T., 2013.
9. A. Choriyev. Inson falsafasi. 1-kitob. – T., 1999.
10. П.С. Гуревич. Основы философии. – М., 2002.
11. Обществознание. Под редакцией Боголюбова Л.П. и Лазебниковой А.И. – М., 2009.

---

---

## **II bob. INSON KELIB CHIQUISHINING TABIIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIY-TARIXIY SHART-SHAROITLARI (ANTROPOSOTSIOGENEZ)**

### **I.2.1. Insonning kelib chiqqanligi (dinga ko'ra yaratilganligi) to'g'risidagi nazariyalar**

*Miflar va dinlarda insonning yaratilishi qanday tushuntirildi? Insonning paydo bo'lishi to'g'risida tabiatshunoslik bilimlari qanchalik dalillangan? Antropogenezning an'anaviy va zamonaviy nazariyalaridagi umumiylik nimada?*

*Asotirlar va dinlarda insonning yaratilganligi to'g'risida.* Dastlabki asotiriy tasavvurlardan boslab inson yaratilgan mavjudot hisoblanadi. *Shumerliklarning* saqlanib qolgan miflaridan birida tasvirlanishicha, erkak va ayol xudolar suv xudosi bo'lgan eng dono *Enkiga* oziq-ovqat va ichimlik miqdorini ko'paytirish usulini topishini so'rab murojaat qiladilar. U Yer boyligi xudosi bo'lgan xotini *Ninmax* bilan birgalikda mastlik holatida loydan birinchi odamni nuqsonli qilib yasaydi. Loydan ikkinchi yasalgan odamlar erkak va ayol bo'lgan.

Birinchi insonning paydo bo'lishi xususida qadimgi yunon miflarida hikoya qilinishicha, *Olimp* cho'qqisida yashagan xudolardan odamlar tug'ilgan.

*Nasroniylikning* muqaddas kitobi «*Injil*»da aytilishicha, «...*Yana Xudo: «O'z suratimizga ko'ra, O'zimizga o'xshash odamni yarataylik. U dengizdagi baliqlar, ko'k yuzidagi parrandalar, chorvalar, ha, butun yer yuzi va yerda harakat qiluvchi barcha maxluqot ustidan hokimlik qilsin»*, dedi ... Xudovandi karim yerning tuprog'idan

odamni yasab, uning dimog'iga hayot nafasini pufladi. Shu yo'sinda odam tirik jon bo'ldi»<sup>1</sup>.

*Qur'oni karimda* bu jarayon quyidagicha ifodalangan: «...Biz insonni (Odamni) loyning sarasidan yaratdik. So'ngra uni (inson naslini, avvalo) mustahkam qarorgoh (bachadon)da maniy qildik. So'ngra (bu) maniyni laxta qon qilib yaratdik, bas, laxta qonni parcha go'sht qilib yaratdik, bas, parcha go'shtni suyaklar qilib yaratib, (bu) suyaklarga go'sht qopladik, so'ngra (unga jon kirgizib, oldingi holidan butunlay) boshqacha bir vujudni paydo qildik»<sup>2</sup>.

*Buddaviy* dinida ta'kidlanishicha, voqelik nomoddiy zarracha hisoblangan dxarma harakatidan iborat. Bunda har bir alohida mavjudotga doim harakatda bo'lgan kuchlarning o'tkinchi yig'indisi sifatida qaraladi. Jumladan, hayot ham abadiy qonunlarga ko'ra va ularga bog'liqlikda paydo bo'lib, yana yo'qolib turadi.

Ko'rinib turibdiki, diniy nuqtayi nazarlarda ham javoblar xilma-xil. Shuning uchun qadimdanoq kishilar muqobil javoblarni topishga harakat qilishgan. Albatta, bunda tayanch nuqta bo'lib asta-sekin to'planib borgan ilmiy dalillar xizmat qilgan.

***Tabiatshunoslik dalillari.*** Yangi zamonning boshlaridan Yevropada to'plangan ma'lumotlar diniy yondoshishlarga qarama-qarshi kelib qolgan edi. Masalan, tasodifan yoki maxsus izlanishlar tufayli topilgan turli xil *suyaklarning*, garchi ular boshqa biologik tur – hayvonlarga tegishli bo'lsa-da, inson suyaklariga ham o'xshashligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, hayvonlarning ayrim yuqori turlaridagi ba'zi sifatlar maymunlarning *morfologik* tuzilishi va qushlarning *ikki oyoqda yurishi*, ko'pgina jonzotlarning eng sodda qurollar yordamida «*uy-joy*» *qurish*, o'ziga xos tarzda *tildan, raqsdan* foydalanishi, *jamo*a bo'lib yashashi va hokazolar ham e'tibordan tashqarida qolmagan. O'z navbatida, bular odamning yaratilishi to'g'risidagi diniy qarashlarga bog'liq bo'lmagan holda tushuntirilishi lozim edi. Yoki topilgan *tosh qurollarning* kimga tegishliligi ko'p bahslarga sabab

---

<sup>1</sup> Injil. 2–3-betlar.

<sup>2</sup> «Qur'oni karim». «Mo'minun» surasi. 12–14-oyatlar. – T., «Cho'lpon», 2001, 342-bet.

bo'ldi. Bu qurollarni hayvonlar yasamaganliklari uchun ularniki bo'lolmasligi aniq edi.

Tabiatshunoslik dalillariga tayangan holda aytish mumkinki, insonning kelib chiqishi to'g'risida turli-tuman qarashlar mavjud. Jumladan, ulardan biriga ko'ra, o'tmishi 100 million yillarga borib taqaladigan *xordalilar* (Chordata) tipiga mansub bo'lib, qandaydir koinotiy falokat tufayli qirilib ketgan umurtqalilarning kichik avlodi – *dinozavrlardan* bundan 60 million yil avval *sutemizuvchilar* (Matalia) sinfi, undan kelib chiqqan so'nggi *primat* (Primates)ning *gominid* (Hominid) oilasi insonning qadimiy ajdodlaridir. 2–3 million yil avval tadrijiy shakllana boshlagan inson (Homo) zoti dastlabki *mohir odam* (Homo habilis)ning turli avlodlari nutq kurtaklariga, rivojlangan panjalariga ega, qo'l cho'qmorlari tayyorlashga qodir *maymun-odam* (Pitekos antropos), keyin esa *qadimgi odam* (Arhantropos) va 150 ming yil avval kelib chiqqan, miyasi rivojlangan, nutqi ravon va xilma-xil *mehnat qurollarini yasay oladigan* va *tik yuruvchi odam* (Homo erectus) bosqichlarini bosib o'tgan. Hozirgi odam – *aqlli odam* (Homo sapiens) turi Yer sharida, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 90–100 ming yildan beri yashab keladi.

Inson kelib chiqishi to'g'risidagi ilmiy yo'nalish organik olam rivojlanishi doirasida XIX asrdayoq olimlar tomonidan xiyla asoslab berilgan. Xususan, qiyosiy anatomiya, fiziologiya va hozirgi mavjud turlarning rivojlanishi tarixiy ma'lumotlar, shuningdek, qirilib ketgan turlar haqidagi *paleontologiya* materiallari har tomonlama o'rganilgan edi. Bunday o'rganish o'z ichiga kishilik dunyosini tadrijiy rivojlanishi masalalarini ham qamrab olmasligi mumkin emasdi.

***Tadrijiylik ilmiy yo'nalishi.*** Antropogenezning tadrijiylik nazariyasi ba'zi jihatlardan XVIII asrda Yevropada ilgari surilgan turli qarashlarning davomi sifatida maydonga kelgan. Masalan, shotlandiyalik geolog olim *Jeymas Petton* (1726–1795) ilgari surgan *geologiyaviy farmatsiyalar* to'g'risidagi tadrijiylik nazariyasida Yer sayyorasining geologik tarixi, uning u yoki bu qismining yemirilishi

va boshqa qismi kelib chiqishining qaytarilib turishi sikllari sifatida talqin qilingan edi. Keyinroq, 1796-yilda fransuz olimi *Pyer Simon Laplas* (1749–1827) Quyosh tizimining kelib chiqqanligi nazariyasida *Olamning I. Nyuton* mexanikasi oʻrniga, tadrijiy mexanika qiyofasi toʻgʻrisidagi qarashlarini ifodalagan edi.

*Erazm Darvin* (Charlz Darvinning bobosi) oʻzining «Zoonomiya» dostonida (1796) ilgari surgan nazariyasida tashqi muhit taʼsirida hayvonlar hayotini tadrijiy tushuntirib berdi.

*Jan Batist Lamark* (Fransiya, 1744–1829) organik dunyo tadriji toʻgʻrisida xiyla mukammal nazariyani asosladi. Olim tadrijiylik tamoyilini jonli tabiatning yagona qonuni deb koʻrsatgan.

Tadrijiylik doirasida *Charlz Robert Darvin* (Angliya, 1809–1892) taʼlimotiga koʻra insonning kelib chiqishi va mavjudligi tirik dunyodagi tabiiy tanlanish, irsiyat va oʻzgaruvchanlik omillari bilan belgilanadi.

Darvin «*Tabiiy tanlanish yoʻli bilan turlarning kelib chiqishi yoki yashash uchun kurashda maqbul zotlarning saqlanishi*» (1859), «*Madaniy oʻsimliklarning va uy hayvonlarining oʻzgarishi*» (1859), «*Madaniy oʻsimliklar va uy hayvonlarining oʻzgarishi*» (2 jildlik, 1871), «*Inson va hayvonlarda emotsiyaning ifodalanishi*» (1878) va boshqa asarlarida tirik tabiatning tadrijiy qiyofasini ishlab chiqdi. Biologiyaviy tushuntirish meʼyorlari va ideallarini qayta qurdi. Lamarkning *chiziqli determinizmi* bartaraf etilgan edi.

**Mehnat nazariyasi.** Darvinning tadrijiylik nazariyasi nuqsonlarini dastlab mehnat nazariyasi toʻldirishga qodirday koʻringan edi. Bunga koʻra insonga tirik mavjudotlar ichida, alohida maqom berilib, uning kelib chiqish sakrashlar, inqilobiy jarayonlar tarzida talqin etildi. Bunda mehnatning tutgan oʻrni belgilovchi deb olinadi. Ayni vaqtda insonning qaysi hayvondan va qanday tarzda kelib chiqqanligini tushuntirish lozim edi.

Darvin va uning maslakdoshi *Alferd Uollesning* tarafdori boʻlgan ingliz tabiatshunosi *Tomas Gekslining* 1863-yilda bosilib chiqqan «*Tabiatda insonning oʻrni*» asarida birinchi marta maymunlar bilan insonning oʻxshashi asoslangan. Oʻn yilcha oʻtgandan soʻng

Darvinning – «*Insonning kelib chiqishi va jinsiy tanlov*» asarida allaqachonlar qirilib ketgan qandaydir neytral mavjudotlardan inson kelib chiqqan, degan g'oya ilgari surilgan. Lekin bu fikrlarga qaramay F.Engelsning «*Maymunning odamga aylanishi jarayonida mehnatning roli*» asari ta'sirida insonning maymunlardan kelib chiqqanligi to'g'risidagi faraz keng tarqaldi.

Mehnat nazariyasida insonning maymundan uchta asosiy farqi – *tik yurishi, qo'llarining rivojlanganligi* hamda katta hajm va vaznli *miyaga* egaligi o'z izohini hanuz kutmoqda.

***Bextereva nazariyasi.*** Rus fiziolog olimi, inson miyasi bo'yicha katta mutaxassis akademik N.P. Bexterevaga ko'ra inson koinotdan Yerga kelib ko'payib ketgan. Haqiqatan ham, hozirgi zamon fani inson miyasini o'rganishda juda ilgarilab ketganligi tufayli, uning beqiyos imkoniyatlari to'g'risida ko'pgina ma'lumotlar to'plangan. Masalan, inson miyasidagi  $10^{14}$  miqdordagi neyronlar yordamida butun insoniyat to'plagan ma'lumotlarni unga singdirish mumkin. Lekin Yerda inson miyasiga qo'yiladigan talablar uning imkoniyatlari darajasidan ancha past. Binobarin, uning miyasidagi beqiyos imkoniyatlar o'z vaqtida koinotdagi sayyora shart-sharoitlari va talablari bilan bog'liq bo'lib, hozirgacha saqlanib qolgan.

Bu nazariya doirasida shveysariyalik *Erix Fon Denikenning* 1968-yilda bosilib chiqqan «*Kelajak haqida xotiralar*» kitobida ilgari surilgan qarashlar ham e'tiborga molikdir. Uning ta'kidlashicha, Yerdan tashqaridagi sivilizatsiya vakillari o'zlarining qaysidir maqsadlari bilan sayyoramizga kelganidan so'ng insonning gominid ajdodlarida irsiy jihatdan muayyan o'zgarishlar yuz bergan. Natijada aql va nutqqa ega yangi mavjudotlar kelib chiqqan. Koinot vakillari ma'rifiy maqsadlar bilan yana bir necha marta Yerga kelib ketgan. Misol tariqasida Yerda (Iroq va Misrda) topilgan kristall linzalarni, to'qima materialdan tikilgan kiyim parchasini, galvanik tamoyilda ishlaydigan elektr batareyasini va boshqa qator ashyolarni keltiradi va «Iroq va Misrda ishlov berilgan kristall linzalar topildiki, ular hozirgi vaqtda elektrokimyoviy yo'l bilan olinadigan seziiy oksidi qo'llangandagina tayyorlanadi».



Lekin hozirgi vaqtda Koinotning insoniyat ixtiyoridagi barcha vositalar yordamida tekshirilgan qismida qandaydir sivilizatsiyalar bo'lish ehtimoli tasdiqlanmadi.

**Anomal hodisalar nazariyasi.** Insonning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan nuqtayi nazarlarning yuqorida qayd qilingan kamchiliklarini bartaraf qilish maqsadida keyingi yillarda antropogenezning ilk tabiiy zaminlariga e'tibor kuchaymoqda. Jumladan, bunda vulqonlarning tevarak-atrofga ko'rsatadigan ta'siri, Yerda iqlimning o'zgarishi, Quyosh va boshqa koinot obyektlaridan keladigan ta'sirlar, radiatsiyaviy fon va hokazolar to'g'risida ko'p gapirilmoqda.

Yana shuni ta'kidlash joizki, yuqorida sanalgan tabiiy asoslar avval ko'rib chiqilgan nuqtayi nazarlarning ba'zilari, masalan, mehnat nazariyasi komponentlari bilan chambarchas bog'liq. Bu tasodifiy emas. Chunki hozirgi tadqiqotchilar ham qadimgi gominidlarning insonga aylanishi jarayonini o'rganishdi. Faqat gap bu yerda mehnat nazariyasi to'g'risida bormay, balki tabiatdagi anomal hodisalarning inson kelib chiqishi jarayonida tutgan o'rni haqidadir.

Darhaqiqat, normal holatdagi o'simlik yoki hayvon, shuningdek, inson ham anomal ta'sir ostida ijobiy yoki salbiy o'zgarishlarga uchrashi aniq. Masalan, ota-onalarga o'xshamaydigan odatdan tashqari qobiliyatli farzandlar dunyoga keladi.

Ma'lumki, Afrika qit'asining janubida jahondagi barcha uranning 70 foizi mavjud. Fan ma'lumotlariga ko'ra, ayni shu mintaqa odamzodning ilk paydo bo'lgan joyidir. *Radiatsiyaviy fon*, mutatsiyalar tufayli primatlarda to'la tarzda tik yurishga o'tish, bosh suyagi hajmining kattalashuvi, jinsiy instinkt tabiatining o'zgarishi va hokazolar ro'y bergan.

Inson kelib chiqishining anomal nazariyasida boshqa nuqtayi nazarlardan anchagina ustunlik mavjud. Bu nazariya ba'zi primatlarning insonga aylanishini, boshqalarining aylanmaslik sabablarini, dastlabki odamning ilk tosh qurollardan qadimyroq ekanini va hokazolarni mantiqan izchil tushuntirib bera oladi. Faqat unda tadrijiylik tamoyillari va ushbu nazariyani tasdiqlovchi misollar hozircha yetarli emas.

Antropogenez yuz berishining sabablari xususida keyingi 30 yilcha vaqt mobaynida maydonga kelgan, noan'anaviy bo'lgan

qator qarashlarni ham nazardan qochirib bo'lmaydi. Bularga quvvat-axborot (K. Pribram va D. Bom), oqsil (Foxt va boshqalar), madaniyat (L. Memford) o'zaro munosabatlar (L. Maklyuen), sinergetika (I. Prigojin) kiradi.


***Inson kelib chiqishining sinergetik tushuntirilishi.*** XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab an'anaviy, ratsionalizmga asoslangan mumtoz fan tamoyillarini qayta baholash, ko'rib chiqish jarayoni kechmoqda. Uning hozircha ko'zga tashlangan natijasi o'laroq, «insonning tabiat bilan yangi suhbat, muloqoti» qayd qilinmoqda. Ilmda *sinergetika* deb nomlangan yangi yo'nalish markazida voqelikning turli sohalari tizimlaridagi tashkillanish jarayonlari umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni bilish turadi. O'z-o'zidan tashkillanishda tashqi kuchlar va sabablar ishtirokisiz murakkab tizimning qaror topishi yuz beradi yoki takomillashadi. Sinergetika asoschilaridan bo'lgan belgiyalik olim va mutafakkir *I. Prigojinning* ta'kidlashicha, ayni shu tarzda, jumladan, Yerda ham hayot, uning turli-tuman shakllari rivojlanadi, yangi tizimlar paydo bo'ladi. Sotsium jarayonlari ham sinergetika doirasida tushuntirilishi hozir ko'pchilik tomonidan tan olingan.

Sinergetikada insonning kelib chiqish muammosi yechimiga noan'anaviy yondashiladi. Primatlardan insonga o'tish, ya'ni, hayotning sifat jihatdan yangi tarzi shakllanishi sinergetik tushuntirilganda, birinchi navbatda, jarayon yuz berishining ko'pdan ko'p variantlari nazarda tutiladi. Negaki, *alohida holatlar (bifurkatsiya nuqtalari)* atrofida tizim jarayonlari beqaror tus olgani tufayli eng kichik *tasodifiy ta'sirlar (fluktatsiya)* ham uning holatini o'zgartirib yuboradi. Masalan, tog'lardagi o'q ovozi yoki yumalatilgan tosh bo'lagi katta falokatga – qor ko'chishi, toshlar ko'chishi va hokazolarga sabab bo'ladi.


Bifurkatsiya nuqtalari insonning shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan jarayonning yangi yo'nalishini belgilaydi.

Primatlardan avstralipitekklar (qoldiqlari Avstraliyada topilganidan shunday ataladi) muzliklar davri boshlanishi bilan maydoni qisqarib boradigan o'rmonlardan yalangliklarga chiqishga majbur bo'lgan. Ular qirilib ketmaslik uchun yangi ekologik muhitni o'zlashtirganlar. Ta'sir ostida an'anaviy o'simlik mahsulotlari bilan birga oqsilga boy go'sht iste'mol qilish tajribasini ham egallaganlar. Bu, o'z navbatida, kuchli bo'lishni, orqa oyoqqa tayanib tik yurishni ta'minlagan.

Sinergetikaga ko'ra, inson shakllanishining ilk davrlari bemisil darajada tezlashganligi bilan xarakterlanadi. E'tiborga molik tomoni shundaki, xuddi ana shu davrda inson ajdodlarida aqlning (intellektning) nuqtalari muhim ahamiyat kasb etaveradi. Tadrijiylik mantiqining «o'ziga xos namoyon bo'lishi» natijasi o'laroq, ajdodlarimiz nochorgina yashab yurgan hayvondan mustahkam asab tizimi va rivojlangan miyaga ega bo'lgan mavjudotga aylandi. Endi bular avvaldan o'zlari yaratgan yangi qurollarni ishlatishni, olovdan foydalanishni yo'lga qo'ydilar.



5-sxema



6-sxema

## Asosiy tushunchalar



- *Antropogenez* (yunoncha, insonning kelib chiqishi) – inson zoti kelib chiqishi jarayoni, shart-sharoitlari va mexanizmini anglatadigan tushuncha.
- *Din* – insonning xudoga boʻlgan munosabatini ifodalaydigan dunyoqarashi, dunyosezishi va xatti-harakatlari tizimi boʻlib, oʻz ichiga ijtimoiy meʼyorlar, rollar, odatlar, eʼtiqodlar, standartlar, tashkiliy shakllarni oladi. Hozirgi vaqtda monistik nasroniy, islom va budda jahoniy dinlar hisoblanadi. Bundan tashqari, uning ilk koʻrinishlari saqlanib qolgan shakllari ham uchraydi.
- *Injil* (yunoncha: xushxabar, ezgu xabar) – iudaviy va nasroniy dinlarning muqaddas kitobi.
- *Mehnat* – insonning maqsadga muvofiq faoliyati.
- *Mif* (yunoncha: hikoya qilish, arabchada: asotir – ertak) – kishilar qadimgi davri dunyoqarashining oʻziga xos namoyon boʻlishi shakli sifatida oʻzida uning unsurlarini (masalan, gʻayritabiiylikni) jam etgan.
- *Muhit* – inson oʻzaro munosabatda boʻladigan jami shart-sharoitlar yigʻindisi.
- *Tadrijiylik* – keng maʼnoda Olam va uning turli sohalari-dagi oʻzgarishlar toʻgʻrisidagi falsafiy va ilmiy nazariya, tor maʼnoda esa sekin-asta boʻladigan oʻzgarishlar tavsifi.
- *Qurʻon* (arabcha: oʻqish) – islom dinining muqaddas kitobi.
- *Sinergetika* (yunoncha: hamkorlik) – global tadrijiylik, no-chiziqilik, oʻz-oʻzidan tashkillanish hodisalarining tadqiqi bilan bogʻliq yangi dunyoqarash, ilmiy yoʻnalish.
- *Bifurkatsiya* – jarayon kechishidagi maromning oʻzgarishini izohlaydigan tushuncha.
- *Flukatsiya* (yunoncha: tebranish) – oʻz-oʻzidan tashkillanishda tasodiflarni ifodalaydigan atama.

## Savollar va topshiriqlar



1. Antropogenezning mohiyati nimada?
2. Insonning yaratilishi masalasi afsonalarda qanday tushuntiriladi?
3. Jahoniy dinlarda inson yaratilishi talqinining umumiy va xususiy jihatlarini tushuntirib bering.

4. Antropogenezning tadrijiylik nazariyalariga olimlardan kimlar hissa qo'shgan?
5. Darvin ta'limotining nuqsonlari nimada?
6. Mehnat, Koinot to'g'risidagi nazariyalar haqidagi fikringiz?
7. Anomallik antropogenezda mustaqil hodisami yoki qo'shimcha omil?
8. Sinergetika antroposotsiogenezni tushuntirishda nimaga asoslanadi?
9. Antroposotsiogenezda tasodifiylarning turi qanday?
10. Inson shakllanishi ilk davrlari tezlashganini sinergetika qanday tushuntiradi?

### I.2.2. Sotsiogenez. Ruhiyat

*Nega antropogenez sotsiogenezsiz kechmagan? Inson xatti-harakatlarining anglanganligi va uning ruhiyatda tafakkur unsurlari qanday shakllanadi? Sotsiogenezda tanlovning roli qanday? Inson ajdodlari turmush faoliyatida jinsiy tabu qanday kelib chiqqan? Oilaviy munosabatlar tadriji qaysi bosqichlarni bosib o'tgan?*

#### **Antropogenezni sotsiogenez bilan to'ldirish zarurati.**

Insonning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalardan ko'rindiki, bunda aniqlanmagan va tushuntirilmagan jihatlar anchagina. Insondek murakkab mavjudot tadrijini izohlashda – bu tabiiy holdir. Bu nazariyalar bir-birini to'ldiradi, deb hisoblash mumkin. Ulardan mantiqan o'zini oqlaganlaridan (masalan, qurolsozlik, mehnat nazariyalaridan) *ishchi nazariya* sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Antropogenez jarayoni sotsiogenez (lotinchada *socialis* umumiy, ijtimoiy va *genesis* – kelib chiqish) jarayoni bilan to'ldirilganda xiyla oqilona tushuntirilishi mumkin.

Sotsiogenez haqidagi farazlar antropogenezni izohlaydigan ta'limotlardan anchagina ortiqligi bilan ajralib turadi. *Antropogenez tabiatshunoslik, birinchi navbatda, biologiyaviy fanlar bilan izohlansa, sotsiogenez kishilik hayoti turlicha tashkil etilganligini o'rganadigan ijtimoiy-gumanitar bilimlar orqali tushuntiriladi.* Bu bilimlar tabiatidagi o'ziga xosliklardan kelib chiqilsa, sotsiogenezning bayoni qanchalik murakkabligi ravshanlashadi. Shunga ko'ra, sotsiogenez nazariyalarida ko'p jihatlardan mantiq kuchiga tayanishga to'g'ri keladi.

Insonning sotsiogenetik tadriji (bu jarayon 2 million yildan beri davom etadi) uning sotsiumga mansub zot bo'lib shakllanishini anglatadi.

Sotsiogenez quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– *birinchidan*, qaysi ijtimoiy omillar kishilarning kelib chiqishiga ko'mak beradi?

– *ikkinchidan*, inson qaysi tadrijiy bosqichlarni bosib o'tdi?

– *uchinchidan*, insonning ijtimoiy shakllanish mexanizmi qanday kechdi?

– *to'rtinchidan*, Yer yuzi mintaqalarida kishilar tarqalishining shart-sharoitlari nimalardan iborat va uning mexanizmi qanday bo'lgan?

Ayni vaqtda, bular sotsium kelib chiqishining asosiy masalalarini ham qamraydi.

***Ishchi faraz.*** Insonning kelib chiqishi va tabiati to'g'risidagi ta'limotlarning ko'pchiligida *Homo sapiens (Aqli odam)* bosqichidan boshlab sodda tosh qurollar yarata boshlandi, deb ta'kidlanadi. Garchi yuqorida ko'p o'rinlarda ta'kidlanganidek, antropogenezning ham, sotsiogenezning ham qurol yaratish, undan foydalanish omillari bilan bog'liqligi yagona asos bo'lmasa-da, har holda dastlabki faraz sifatida ancha-muncha masalalarni oydinlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun sotsiogenezda qurolsozlik faoliyati nazariyasiga ko'proq tayaniladi.

Mohir odamlarning paleontologik qoldiqlari tasdiqlashicha, ular miyasining tegishli qismlarida qurollar yasash ko'nikmalari qayd etila boshlangan. Lekin insonning bevosita qurol yasash faolligi, anglaganligi, maqsadga yo'naltirilganligi keyinroq yuz bergan.

Shakllanayotgan inson davri pitekantroplardan boshlangan. Ularda nisbatan yuksakroq birdamlik, marhumlarni ko'mish va hokazolar mavjud bo'lgan. O'z navbatida, bular hayvonlar hamjamoalaridan tubdan farq qilgan yangi holatga o'tishni bildirar edi. Bu holat esa ajdodlarimiz turmushini ta'minlovchi ehtiyojlarini o'zaro muvofiqlashtirib qondirishni anglatgan.

### ***Qurolsozlikda insonning hayvondan farqlari to'g'risida.***

Antropogenezni tushuntiradigan ko'pgina ta'limotlarda inson ajdodlari hayot faoliyatining muhim jihati *qurollar yasash* ekanligi aytiladi. Antropogenezning markscha tushuntiradigan ta'limotida buni hayvondan insonga o'tishning *bosh bo'g'ini tarzida* qarash mavjud. Bu, albatta, o'zining mavhumligi bilan ba'zi chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Chunki insonning hayvon ajdodlaridagi sodda qurollarni yasash va ulardan foydalanishi to'raligicha *antropobiologik instinktivlikdan* iborat bo'lgan. Bunda, birinchi navbatda, bu ajdodlarning hayot faoliyati uchun yordamchi vosita bo'lib hisoblangan va, nihoyat, faoliyat orqali hayvonlar tashqi muhitga instinktiv moslashgan. Hayvonlarda instinktiv qurollar yasash faoliyati shakllarining kelib chiqishi gominidlardan insonga o'tishni amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qilgan.

Gominidlar rivojlanishida insoniylikning boshlang'ich davri bo'lib qurolsozlik faoliyati va undan yordamchi vosita sifatida instinktiv foydalanishning asta-sekin inson hayot faoliyatining o'ziga xos usuliga o'tishi hisoblanadi. O'ziga xoslik esa mehnat qurollarini yasash, ishlab chiqarish alohida ehtiyojga aylanishidan iboratki, busiz inson hayotining o'zi ham amalda bo'lmas edi.

Qurolsozlik faoliyati tufayli ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti kabi zaruriy munosabatlarning kurtaklari qaror topadi. Ya'ni, ibtidoiy jamoaning har bir a'zosi hayot kechirishni ta'minlash vositasining o'ziga tegishli qismini bajargan. Qurollar murakkablashib borgan sari jamoa a'zolarining o'zaro bir-birlariga bog'liqligi ham shunga muvofiq ortib borgan. Ayni vaqtda, bu holat individual qobiliyatlarni namoyon etish shart-sharoitlarini yaratib, birgalikda kechadigan faoliyatning unumdorligini oshirgan.

Insondagi bu mehnat taqsimoti eng tipik ko'rinishda bamisoli asalarilar oilasidagi tabiat tomonidan instinktiv belgilangan dasturlarni eslatadi.

***Miya va asab tizimi – ruhiyatning moddiy tashuvchilari.*** Sot-siogenez jarayonlari ruhiyat tadriji bilan o'zaro taqozolangan tarzda kechgan. Ruhiyatda faqat ichki, fiziologik jarayonlar emas, balki tashqi obyektlar ham ifodalanadi. Bu jihatlar bilan ruhiyat yuksak rivojlangan hayvon va insonda umumiylikka ega. Lekin

insondagi ruhiyat boshlang'ich ko'rinishlaridayoq, *dastavval, anglanganlik* tabiatiga ega. *Ikkinchidan*, qurolsozlik faoliyati bilan *jamoaviy* taqozolangan, deb hisoblanadi. *Uchinchidan*, kishilarning birgalikdagi faoliyatda erishiladigan *tajribaga* tayanadi. *To'rtinchidan*, rivojlangan *his-tuyg'ularni* ularni o'z ichiga oladi.

Sotsiogenez omili sifatida ruhiyatning ilk o'rni inson ajdodlaridan boshlangan *mizoj* va *fe'l-atvor* bilan belgilanadi.

Neyrofiziologiya ma'lumotlariga ko'ra, inson miyasining chap yarim shari so'zlar, belgilar bilan, o'ng yarim shari esa obrazlar, turli ko'rinishlar bilan bog'liq vazifalarni bajaradi. Ayni vaqtda, neyrofizilogik va ruhiy jarayonlarning o'zaro muvofiq kelishi kuzatilmaydi. Shuning uchun ham neyrofiziologiya jarayonlari bo'yicha hatto yetuk mutaxassislar ham o'z ruhiyati jarayonlarini tanlashga qodir emas. Gap shundaki, ruhiyat ideal tabiatga ega bo'lib, unda voqelik belgilardagi ma'no tarzida o'z ifodasini topadi.

Ruhiyatning tarkibiy tuzilishini, yuqorida aytilganidek, eng oddiy ko'rinishda *hislar, iroda* va *idrok* holida olish mumkin. Bu ularning har biri o'z tashuvchisi faoliyatining tegishli shaklini, masalan, hislar kishilarning ilk uyushmalari ichida *hamkorlikni*, iroda – dushmanlar bilan kurashishda *qat'iyatni*, idrok esa u yoki bu tarzda bularni *boshqarishni* ta'minlagan.

Hozirgi zamon fani ruhiy jarayonlar kechishini qator jihatlarga ko'ra irsiyat bilan ham bog'liqligini isbotladi. Ya'ni, inson eng qadimgi avlodlari populyatsiyalari o'rtasida genlar almashuvi – irsiy xususiyatlar ham ruhiyatning sotsiogenez omili bo'lishiga ko'mak bergan.

**Tafakkur va til.** Sotsiogenez tizimida inson shakllanishining uning ruhiyatida qaror topayotgan tafakkuri bilan aloqadorligi ham muhim hisoblanadi.

Inson tafakkuri markazida yashashga bo'lgan *intilishini*, erishilgan *tajribani* mulohaza qilib, undagi zarur jihatlarni ajratib olish orqali vaziyatga ta'sir etish yotadi. Ilk insonda dastlab tashqi dunyo jarayonlari o'rtasidagi aloqani *anglash*, yuzaki *qiyoslash* va *muvofiqligini* bilish tasodifiy yuz bergan deb hisoblanadi. Bunda



inson ajdodlari tafakkuri doirasi butun va bo'lak munosabatni tushunish, makon va vaqt bog'liqligini anglashdan iborat bo'lgan. Obyektlarni o'zaro solishtirishda ularning tafakkur mantiqi hali ratsionallikdan xiyla uzoq bo'lgan. Ya'ni, tabiiy, hissiy bo'lib, obyektни qamrashga harakat qilingan.

Ibtidoiy kishilar tafakkuri moddiy ifodasini tilda topgan. Tafakkur har doim muayyan tilda sodir bo'ladigan aqliy faoliyatdir. Til bundan farqli holda tashuvchisi guruhi doirasi bilan cheklangan. Uning moddiy ko'rinishi bo'lgan *nutqning* kelib chiqishi gominidlar kichik oilasi (pitekantrop, neandertal) davriga to'g'ri keladi. Har bir til o'ziga xos tarkib va ma'nodan iborat bo'ladi. Bu davrda til *og'zaki nutq* – vokalizatsiya shaklida, mimika, gavdaning holati va ishora yordamida olib borilgan aloqa ko'rinishida mavjud bo'lgan.

Sotsiogenez omili sifatida til ibtidoiy kishilarni birlashtirib, *axborotlarni* berish va olish imkoniyatini ta'minlagan. Hayot faoliyatining murakkablashuvi bilan axborotlarga bo'lgan ehtiyoj tilning yanada rivojlanishini taqozo etgan.

Tilda, uning keyingi rivojlanishi davomida *ifodalanish* orqali ta'sir etish va mansublikni aniqlash vazifalari farqlanadi.

Inson ajdodlari tili asta-sekin narsalar va jarayonlar *mohiyatiga* kirib borish vositasiga aylandi. Unda muhim bog'lanishlar va munosabatlar qayd etila borgan. Inson tashqi muhitga hayvonlarga qaraganda yaxshiroq moslashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayni vaqtda, olingan bilimlar tufayli inson tashqi voqelikni o'ziga moslashtirishga muayyan darajada erishib boradi.

**Tanlov.** Barcha hayvonlar hayotida bo'lganidek, gominidlar faoliyatida ham tadrijiylikning umumiy turi sifatida ruhiyat bilan bog'liq bo'lgan *tanlov* mavjud. Biroq sotsiogenezda uning o'rne ibtidoiy jamoa kishilari to'dasida boshqa hayvonlardagi eng kuchlisining yashab qolishi bo'lmay, balki birgalikdagi faoliyatini lozim darajada tashkil etgan individ tanlanadi. Chunki gominidlar jamoasi qanday tashkil etilganiga bog'liq holdagina ularning keyingi hayoti davom etadi. Aks holda ichki yoki tashqi ta'sirlar ostida ular qirilib ketgan bo'lar edi.

Tanlov baʼzan shunday yuz berishi mumkinki, bunda individlar oʻzlari uchun emas, balki mansub boʻlgan guruhi uchun zarur xatti-harakati orqali tanlanadi va shuning natijasida yashab ham qoladi. Bunda gominidlar jamoasining aniq tashkillashganligi yashash uchun kurashda hal qiluvchi vosita hisoblanadi.

Kishilar ajdodlarining areali kengayib borishi bilan ular xilmaxil sharoitlarga, birinchi navbatda, har doim ham qulay boʻlmagan tabiiy sharoitlarga duch keladi. Primatlarning sharoitlarga koʻnikishi natijasida ayrimlari ichida farqlanish yuz bergan. Bunda ham tanlov orqali yangi xususiyatlari mustahkamlanib borgan.

**Sotsiogenez davomiyligi.** Inson rivojlanishida sotsiogenez omillarining qanchalik muhimligi, ularning tutgan oʻrinlari va bajargan aniq rollarida yaqqol koʻrinadi. Bunda uning davomiyligini aniqlash zarur.

Bunda turli topilmalar muhimdir. Chunonchi, 1965-yilda Afrikaning *Rudolf koʻli* yonida topilgan yelka suyagi mohir odamning shunday suyaklaridan farq qilmaydi. Bu suyakning yoshi *4,5 million* yilga boradi. Ikki yildan soʻng oʻsha joyda *5,5 million* yil avval yashagan tik yuruvchi avstralopitek qoldiqlari topildi.

Shu yili topilgan *keniapitekning* (Keniya) yoshi *9 million* yilga boradi. 1980-yilda Misrda topilgan odamsimon mavjudot – *yegiptopitek* qoldiqlari 30 million yil avval yashagan.

Koʻrinib turibdiki, inson ajdodlarining nomlanishidan tortib hamda yashagan joylari va vaqtlarigacha boʻlgan maʼlumotlar turlichadir. *Bir* tomondan, bu tayanish mumkin boʻlgan faktlarning koʻpligini bildirsa, *ikkinchi* tomondan, inson ajdodlari tarixi tobora uzoqqa borganligi mavjud nazariyalarni tez-tez qayta koʻrib chiqishni taqozo etmoqda. Shuningdek, bu materiallar ashyoviy xarakterdagi, ularda maʼnoviylikni aniqlash imkoniyati juda oz.

Erishilgan natijalar muayyan xulosalar chiqarish uchun yetarli. Tadrijiylik nazariyasi vakillaridan biri amerikalik *L.G. Morgan* asosiy kasbi advokatlik boʻlishiga qaramay, 40 yil davomida antropologiya bilan ham shugʻullangan. U oʻzining «*Qadimgi jamiyat*» asarida insoniyat madaniyati tadriji masalalarini yoritdi. Olim insoniyat rivojlanishini yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya bosqichlariga boʻldi.

Morgan ilgari surgan g'oyalardan foydalanib, uning tarafdorlaridan biri insoniyat ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtirgan edi. Chunonchi, yovvoyilik davrining o'zi uch bosqichga bo'lingan.

Sotsiogenez bosqichini Morgan nazariyasi yo'nalishida rus antropolog va etnografi *V.P. Alekseyev* insoniyat tarixining boshlanishini insonning kelib chiqishidan, uning tarixini esa gominidlar oilasi shakllanishi va mehnat faoliyati ilk davridan olishni taklif qildi.

Rus olimi *V.F. Porshnev* insoniy tarix anglangan mehnat faoliyatidan emas, balki mehnat qurollarini instinktiv yaratishdan, tayyorlashdan boshlanadi, deb hisoblaydi. Ya'ni, inson ajdodi o'zidagi biologik instinkt talabiga ko'ra sof tasodifiy tarzda dastlabki tosh qurollarni yasagan.

Bunday tarzda kelib chiqqan inson, ya'ni, sotsium a'zosi yagona tip emas, balki bir necha xil ko'rinishda bo'lgan. Ular ichida: *o'z turi vakillarini yeydiganlari bo'lgan. Qurbon bo'lishidan qo'rqib stixiyali tarzda, aniqrog'i, biologik instinkt talabiga ko'ra miyasining tegishli qismini kutilmaganda ishlatib yuborgani uchragan; boshqalardan ruhiyati rivojlangani bilan oldinga o'tib ketganlari ham bor.* Ana shu nuqtayi nazarni tasdiqlashga qaratilgan anchagina qiziqarli faktlar to'plangan. Lekin boshqa barcha shu turdagi nazariyalarda bo'lganidek, Porshnev qarashlarida ham munozarali xulosalar anchagina topiladi.

Kishilik dunyosi kelib chiqishi mexanizmini tushuntirishda nemis olimi *F. Klinks* ta'limotiga ko'ra sotsiogenezda mehnat qurollari yasash turli individlarda turlicha – birovda tez va soz, boshqalarida esa aksincha bajarilgan. Birinchilarining bu sohada ixtisoslashuvi mehnat taqsimotini keltirib chiqarishi, mutaxassis bo'lish uchun zaruriyat hosil etgan. Bular, albatta, balki sotsiumga tegishlilik, ijtimoiylikdir. Shu tarzda boshlangan jarayon oqibatda murakkab tizimga olib kelishi, tizim esa o'z-o'zidan rivojlanishi mumkin bo'lgan.

*V.P. Alekseyev* sotsiogenez bosqichlari haqida gapirar ekan, jarayonning boshi (avstrolopiteklar hayoti) va nihoyasi (neandertallar jamoasi) to'g'risida fikr yuritadi.

Bular va boshqa ko'pgina jarayonlar natijasi o'laroq turli ijtimoiy me'yorlar qaror topishiga sharoit tug'ildi, til va tafakkur rivojlana boshladi.

**Inson areallari.** Sotsiumning shakllanishi bilan inson areali, ya'ni, odamning Yer yuzining turli qismlariga tarqalishi yuz berdi. Boshqa o'rinlarda bo'lganidek, bu borada ham javoblarni afsonaviy-diniy va ilmiy ko'rishlarda olish lozim bo'ladi.

Ilmiy nuqtayi nazarlarning biriga ko'ra, inson Yer sharining faqat bir qismida (Ch. Darvin, V.P. Alekseyev va boshqalarning qarashlari) – *Afrikada, L. Valua – Mesopotamiyada* kelib chiqib, keyinroq dunyoning boshqa qismlarini o'ziga areal tutgan. Bu nazariya insonning Avstraliya qit'asiga qanday kelib qolganligini va irqqlar masalasini tushuntirib berolmaydi.

1938-yili *V.Vaydenrayx* insonning to'rt joyda – *Afrikada, Osiyoning janubi sharqida, Osiyoning sharqida va Yevropada* kelib chiqqanligi to'g'risida o'zining qarashlarini bayon qilgan edi. *I.G. Podoplichko* inson uch joyda – *Afrikaning markazi va shimoli, Yevropaning markazi va janubi, Osiyoning markazi va janubida, M.F. Nestrux – ikki joyda – Afrikaning shimoli, Osiyoning janubi sharqida* kelib chiqqanligi to'g'risidagi nazariyani ilgari suradi.

Kishilar sonining ko'payishi bilan manzilgohlar yaqinidagi ovlanadigan mavjudotlarning kamayishi obyektiv ravishda yangi hududlarni o'zlashtirishga olib keldi. Ovchilar asta-sekin Shimoliy Yevropa va Osiyoning sahro yerlariga, muzliklardan bo'shagan quruqlikka borib joylasha boshlaganlar. So'nggi paleolit davrida Sibir va Markaziy Germaniya o'zlashtirildi. Osiyo qit'asidan Bering bo'g'ozi orqali bundan 20 ming yil avval odamlar Shimoliy Amerikaga o'tganlar. Keyinroq Avstraliyaga ham kelib joylashgan.


Insoniyat taraqqiyoti boshqa qator sohalarda bo'lganidek, quruqlikni tobora egallab, o'zlashtirib borishda ham ko'rinadi.

**Irqlar masalasi.** Sotsiogenez bilan bevosita bog'liq bo'lmagani holda antropologiyada inson mavjudligi bilan to'g'ridan to'g'ri aloqador masala – irq to'g'risida ham biroz to'xtalish lozim. Keng ma'noda irq shunday shaklki, unda inson o'zining tashqi umumiy irsiy belgilarida, masalan, boshi, burni va yuz shakllarida, teri rangida, soch shakli va rangida, tana o'lchamlarida ifodasini topadi.


Ko'pchilik olimlar irqalarda kishilarning sotsiumga mansubligi aks etmaydi, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, ba'zi irqalarda u yoki bu sohaga aloqador jihatlar ko'zga tashlanadi. Masalan, AQSHning negr aholisi biologik jihatdan jismoniy madaniyat va sportga mos keladi. Ma'lumki, bu sohalar ijtimoiy hodisa. Yoki boshqa misol: avstroloidlar kino tomosha qilayotganida lentaning odatdagi aylanishida kadrlar orasidagi bo'shliqni to'la ko'rmagani tufayli zarur estetik zavq ola olmaydi. Shuning uchun ularga kinolentani ikki marta tez ko'rsatish zarur bo'lar ekan.




7-sxema




8-sxema




9-sxema



10-sxema



11-sxema



12-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Mehnat taqsimoti* – insoniyat rivojlanishi jarayonida faoliyat turlarining farqlanishi.
- *Antrobiologiyaviy instinkt* – biologik jihatdan insonga o'tmishdoshlaridan o'tgan irsiy mayl.
- *Faoliyat* – insonning tevarak-atrofga va o'ziga bo'lgan spetsifik munosabati jarayonidirki, o'z ichiga maqsad, vosita va natijani oladi.
- *Mizoj* (arabcha: *moslik, mos kelish*) – inson ruhiy faoliyati o'zgaruvchanligini ifodalaydigan alohida xususiyatlarning yig'indisi.
- *Fe'l-atvor* – kishilar ruhiy holati barqaror xususiyatlarining yig'indisi bo'lib, hayot sharoitlari ta'sirida shakllanadi.

- *Tafakkur* (arabcha: «*fikr*» soʻzidan yasalgan) – inson miyasi tomonidan voqelikni gʻoyalar, qarashlar, maqsadlar shakllarida oʻzlashtirish faoliyati.
- *Davrlashtirish* – bilishni osonlashtirish uchun oʻrganilayotgan obyekt davrini ketma-ket boʻlaklarga boʻlish.
- *Insoniyat areali* – Yer yuzi quruqlik qismida kishilar tarqalgan, ular doimiy yashaydigan joy.
- *Insest* – bevosita yaqin qarindoshlar oʻrtasida nikohning taqiqlanishi.
- *Tabu* – u yoki bu xatti-harakatning man qilinishi.

### Savollar va topshiriqlar



1. Sotsiogenez antropogenezsiz kechadimi?
2. Insonning kelib chiqishida sotsiogenez belgilovchi boʻla oladimi?
3. Inson kelib chiqishini tushuntiradigan yana qaysi taʼlimotlarda qurollardan foydalanish, ularni yasash jarayonlari markaziy oʻringa qoʻyiladi?
4. Hozirgi inson ajdodlari miyasining tegishli qismlarida qurol yasash koʻnikmalari boʻlganligini qaysi fan tarmogʻi tushuntiradi?
5. Mehnat qurollarining murakkablashib borishi qanday natijalarga olib keldi?
6. Sotsiogenez omili sifatida ruhiyat qanday tavsiflanadi?
7. Tafakkur va til bogʻliqligi nimada koʻrinadi?
8. Tanlovning sotsiogenetik ahamiyati qanday?
9. Ruhiyatning tafakkur bilan bogʻliqlik jarayonini koʻrsating.
10. Sotsiogenez bosqichlari tavsifini bering.
11. V.F.Porshnev nuqtayi nazarida sotsiogenez qanday tushuntiriladi?
12. Inson areali nima?
13. Kishilarning Yer yuzining quruqlik qismiga tarqalishi sabablari nimada?
14. Irqni faqat biologik hodisa deyish mumkinmi?

### Amaliy ish



1. Insonning yaratilishi toʻgʻrisida yana qanday afsonalarni bilasiz? Ularni darslikda keltirilganlari bilan solishtiring.
2. Antropogenezning diniy tushuntirilishi nega yagona nuqtayi nazar boʻla olmaydi? Buni oʻzingizga fan amaliyotidan maʼlum boʻlgan dalillarga tayanib mulohaza qiling.

3. Nega antropogenezning fan variantlari xilma-xil? Bu yerda plyuralizmning ahamiyati nimadalgini tushuntiring.
4. Inson ajdodlariga maymunlardan tashqari quruqlikda va suvda yashovchi yana qanday mavjudotlar yaqin hisoblanadi? Bu to'g'rida turli o'quv darslaridan olgan bilimlaringizga tayanib mulohaza yuriting.
5. Inson tanasi a'zolaridan qaysilari eng rivojlangan hisoblanadi? O'z nuqtayi nazarinigizni yozma bayon qiling.
6. Inson tomonidan Koinotning o'zlashtirilishi antropogenez nazariyasiga ta'sir ko'rsatadimi? Noma'lum uchuvchi jismlar (NUJ) koinotdan Yerga kelgani haqida «Pallovizitologiya» jurnali chiqib turishi haqida nimalarni bilasiz? Bilganlaringizni yozma bayon qiling.
7. Hozirgi vaqtda kishilik hayoti barcha sohalarida ma'naviy omillarning o'rni va ahamiyati oshib borayotgani qonuniymi? Antropogenezni izohlashda bu omillarning roli to'g'risida fikringizni yozma bayon qiling.
8. Sinergetika haqida nimalarni bilasiz? Bu to'g'rida yozma ish tayyorlang.

### **Ma'ruza va referatlar uchun mavzular**



1. Inson faoliyatining mohiyati.
2. Insonning antropogenetik tavsifi.
3. Tadrijiylik nazariyasining asosiy jihatlari tavsifi.
4. Koinotiy nazariyada diniy va ilmiy jihatlar nisbati.
5. Darvinizm: tarixi va hozirgi zamon.
6. Mehnat nazariyasi: yutuq va yetishmayotgan jihatlar.
7. Anomal hodisalarining antropogenezdagi o'rni to'g'risida.
8. Noan'anaviy nazariyalarning dalillanganligi to'g'risida.
9. Antropogenezning ma'naviy omillari tavsifi.
10. Sotsiogenezning mohiyati.
11. Antroposotsiogenezning tavsifi.
12. Qurolsozlik faoliyati.
13. Ruhiyat – sotsiogenez omili.
14. Til va tafakkur – sotsiogenez omili.
15. Tabiiy va ijtimoiy tanlov.
16. Inson kelib chiqishining sinergetik tavsifi.
17. Sotsiogenez bosqichlarining tavsifi.
18. Sotsiogenez va irqalar muammosi.
19. Sotsiobiologiya: yutuqlar va kamchiliklar.



### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
2. «Qur'oni karim». Toshkent, «Cho'lpon», 2001.
3. «Injil». Shvetsiya-Stokgolm. 1993.
4. Choriyev. A. Inson falsafasi. 1-kitob. Qarshi, 1997.
5. Алексеев В.П. Становление человечества. – М., 1984.
6. Бехтерева Н.П. Механизм управления памятью человека. – Л., 1989.
7. Вернадский В.И. Открытия и судьбы. – М., 1993.
8. Гуревич П.С. Основы философии. – М., 2002.
9. Кликс Ф. «Пробуждающееся мышление у истоков человеческого интеллекта». – М. 1983. Бехтерева Н.П. «Механизм управления памятью человека». – Л. , 1989.
10. Лесков Л.В. Космические цивилизации: проблемы эволюции. – М., 1995.
11. Мифы народов мира. – М., 1991.
12. Окладников А.П., Окладникова Е.А. Заселение Земли человеком. – М., 1984.
13. Проблема человека в западной философии. – М., 1998.
14. Тейяр де Шарден. Феномен человека. – М., 1987.

---

---

### **III bob. SHAXS**

#### **I.3.1. Individ va shaxs**

*Inson rivojlanishida individ bosqichi zarur bo'lganmi? Shaxsda tabiiy-biologik va ijtimoiy-madaniylik nisbati qanday? Insonning subyektiv «Men»i ijtimoiylashuvga bog'liqmi? Shaxsga bo'lgan turli-tuman ta'sirlarning natijaliligi nimada va ular qanday guruhlariga bo'linadi?*

**«Individ» tushunchasi.** Ko'rib o'tilganidek, inson tushunchasi bioijtimoiy-ruhiy mavjudlikni ifodalaydi. Unda insonning zohiriy va botiniy sifatlari o'z aksini topadi. Bu sifatlar aniq holat va murakkab hayot sharoitlarida namoyon bo'ladigan xilma-xil kayfiyat, ruhiyat va munosabatlarning yig'indisidir. Alohida insonning o'ziga xos tabiiy-biologik va ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatlari, aqli, irodasi va hokazolarni nazarda tutib «individ» tushunchasi qo'llaniladi.

Individ «*Aqli odam*» turiga mansub yaxlitlikni o'zida jamlagan alohida insondir. Ya'ni, u har doim ko'plardan biri va har doim qiyofaga ega emasligi bilan xarakterlanadi.

«Individ» tushunchasi har xil talqin etiladi. *Jumladan*, uni ayrim olimlar konkret inson kelib chiqqanidan boshlab butun hayoti davomida betakror jihatlariga ko'ra individ sifatida namoyon bo'ladi, deb talqin qilishadi.

*Ikkinchi* xil tushunilishiga ko'ra, individ sifatida inson o'zining jismoniy mavjudligini ta'minlashni birinchi o'ringa qo'yadi. Har bir individ o'zining ichki dunyosi bilan, aniqrog'i, biologik mavjudligi bilan band bo'ladi. Uning mustaqilligi esa, o'zi mansub bo'lgan urug' jamoasi bilan cheklangan. Urug' a'zolari o'zlarining maqsad va manfaatlarini ajratmagan.

Individ tadrijiy jarayonlarida farqlanish (differensatsiya) va yaxlitlanish (integratsiya) holatlari bilan tegishli tarzda yuqoridagi xususiyatlarning yo‘qola borishi yuz beradi. Bu jihat individlarning yashash qobiliyatini saqlab qolishda, ayniqsa, muhimdir.

**Individuallik.** Urug‘ jamoasining yemirilishi bilan asta-sekin ijtimoiy mehnat taqsimoti, xususiy mulkchilik va bir xotinlikka asoslangan oilaning qaror topishi inson rivojlanilishida individdan yuksak bo‘lgan yangi bosqich kelib chiqishini ta‘minladi. Lekin bundan individga tegishli jihatlar yo‘qolib ketadi, degan ma‘no kelib chiqmaydi, balki *individuallik* ko‘rinishlarida saqlanib qoladi. Bular hamma vaqt inson sifatлари ifodachisi bo‘lib qolaveradi. Navbatdagi bosqichlarda ham kishilar mustaqil faoliyat ko‘rsatuvchi mavjudot sifatida farqlanadi. Umuman, individning turlicha talqini mavjud bo‘lganidek, individuallikni izohlashda ham xilma-xil qarashlar bor. Masalan, uni yo individ yo inson mavjudligining yuksak shakli bo‘lgan shaxs bilan qiyoslashadi. Holbuki, dastavval individuallik tushunchasida har bir inson hayoti, faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo‘ladigan o‘ziga xosliklar – bir individni ikkinchisidan farqlaydigan xususiyatlar tushuniladi. Darhaqiqat, moddiy ishlab chiqarish jarayoni, siyosiy vazifalarni hal etish yo‘llari yoki ma‘lum obyektning san‘at asarlaridagi turli-tuman talqini va hokazolar ijrochilarning talanti, tashkilotchiligi, o‘z burchlariga fidoyiligi kabi xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Individuallikda, odatda ijobiylik o‘z aksini topadi.

Individuallikda alohida olingan insonning aniq xatti-harakatlari malakasi, layoqati, odat va ko‘nikmalari ifodalanishi o‘rta arifmetik darajada olingan shaxs sifatlaridan ortiq bo‘ladi. Buni ijtimoiy tarix misollari yetarlicha tasdiqlaydi. Masalan, O‘zbekistonda XI–XV asrlarda yashagan mutafakkirlar falsafa, fan, din va san‘atda shunday yangiliklarni berdiki, bular nafaqat o‘z davri uchun yuksak ravnaqni bildirgan va yana undan keyingi davrlarda ham ko‘pgina xalqlar, xususan, yevropaliklar tafakkuri rivojlanishi uchun zarur turtki bo‘ldi. Har qanday inson individi o‘ziga xos salohiyati bilan dunyoga keladi. Hamma gap bu salohiyatni qay tarzda ro‘yobga chiqarishdan iboratdir.

Inson rivojlanishining individ bosqichi eng uzoq davom etadigan davrdir. Bu bosqichda u asta-sekin shaxsga aylana boshlaydi. Chunki ibtidoiy tuzumning sodda jamoatchiligi inqirozga uchrashi bilan kishilarning ichki dunyosi va manfaatlari o'zaro farqlanib, ular shaxs bosqichiga ko'tarilib boradilar.

**«Shaxs» tushunchasi.** Individning shaxsga aylanishi jarayonida jamoa a'zosi sifatidagi imkoniyatlari, ijtimoiy-ahamiyatli belgilari qat'iy tizim shaklida qaror topadi. Ya'ni, fe'l-atvori shakllanadi. *«Shaxs» tushunchasida uning atrof-muhitga munosabatini bildiradigan ijtimoiy-ruhiy sifatlarining ichki muayyan yaxlitligi ifodalanadi. Shaxs bo'lish degani, birinchi navbatda, o'zining ichki qadriyatlar dunyosini shakllantirishni, tevarakatrofga, eng avvalo, ijtimoiy hodisalarni anglash, uning mohiyatini tushunish orqali qadriyatiy-tanqidiy munosabatga ega bo'lishni bildiradi.*

Insonning shaxs sifati o'zligidan fiziologik hayotidan ajratib olingan tarzda mavjud emas. Shu bilan birga aytish mumkinki, istagan inson shaxs bo'la olmaydi, lekin, har qanday shaxs – bu insondir. U tashqi muhitga faqat biologik moslashuv natijasida shakllana olmaydi. Balki, sotsiumda, aniqrog'i, uning turli darajalarida qaror topadi va unga ma'lum darajada bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra, sotsiumning turli darajalarini o'rganadigan fanlar doirasiga ham shaxs masalasi ham kiradi. Xususan, inson tanasi tuzilishi, faoliyatini o'rganadigan biologiya va boshqa fanlardan farqli o'laroq jamiyatshunoslik, ijtimoiyot, ruhshunoslik, ta'limshunoslik kabi qator fanlar shaxs masalasini o'rganishga ehtiyoj sezadi.

**Shaxs va kishilik dunyosi (sotsium).** Yangi tug'ilgan insonning shaxs bo'lish imkoniyati faqat sotsiumda ro'yobga chiqadi. Shakllangan shaxs va sotsium bog'liqligida, uning o'zligi, dastavval, muayyan darajadagi mustaqilligi kiritiladi. Zero, mustaqil shaxsgina sotsium hayotining barcha sohalarida ishtirok etadi. Albatta, gap bu borada ko'proq yetuk shaxs to'g'risida boradi.

Shaxs shakllanishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi va konkret shaxs boshqa oddiy insondan nimasi bilan farqlanadi? Bu savolga

javob berish xiyla qiyin. Negaki, bu jaroyonda juda ko'p omillar ishtirok etadi. Ularning ichida ijtimoiy muhit katta mavqega ega. Uni quyidagicha tasnif etish mumkin:

*Birinchidan*, har bir insonga bo'lgan global ta'sir, ya'ni, radio, televideniye, matbuot, kino va hokazolar orqali axborot almashuvi;

*Ikkinchidan*, mamlakat va mintaqa miqyosidagi ijtimoiy ta'sir insonni mavjud shart-sharoitlar doirasida dunyoga kelishidan to hayotdan ko'z yumgunigacha o'z orbitasida tutib turadi.

*Uchinchidan*, insonni avvalboshdan o'rab turgan mikromuhit – oila, maktab, mahalla va hokazolar o'z ta'siriga oladi.

*Oila bioijtimoiy sifatga ega bo'lgan tuzilma bo'lib, jamiyatning barqaror va dastlabki bo'g'inidir.* Oilada go'dak ilk bor ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni anglamagan holda o'zlashtiradi va ular zamirida faolligini asta-sekinlik bilan oshirib boradi.

*Maktab, turli ijtimoiy guruhlar (masalan, tengdoshlar, sport uyushmalari va boshqalar) bilan muloqot davomida madaniy ideallik qaror topa borib, shaxs shakllanishining muhim manbasiga aylanadi.*

**Shaxs ideali.** Har qanday jamiyat madaniyatida inson shaxsining yetukligi darajasi to'g'risidagi tasavvurlar ishlab chiqilgan. Masalan, yunon madaniyatida aqliy barkamollikka erishgan shaxs ideali ilgari surilgan bo'lsa, Sharq madaniyatida insonning dono, botir, kamtar va odillik kabi aqliy, axloqiy, jismoniy sifatlari ideal hisoblangan. Sanoatlashgan jamiyatlar sharoitlarida tadbirkor shaxs ideali markaziy o'rin tutadi.

Shaxsning madaniy ideali u mansub bo'lgan millat, ijtimoiy guruhda amalda bo'lgan qadriyatlar doirasida shakllanadi va rivojlanadi. Bu yerda ta'kidlash joizki, shaxsning ideali millat yoki undagi turli guruhlar uchun tipik bo'lgan madaniy idealdan farq qilinmog'i lozim. Madaniy idealda sotsium rivojlanishi o'z aksini topgan bo'ladi. Shaxsning madaniy ideali esa jamiyat hayotining turli sohalaridagi faoliyati «ohang»lari va maqsadini o'z ichiga oladi.

Shaxs o'z madaniy idealini ro'yobga chiqarishi uchun turli-tuman ijtimoiy guruhlar doirasida muayyan mavqega ega bo'lishi

va muayyan vazifalarni, rollarni o'zgalardan farqli holda bajarishi lozim. Bular esa shaxsning guruhlar orasidagi betakror faolligi tufayli yuz beradi.

*Faollik* obyektiv ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lib, inson hayotining barcha jihatlarini qamrab oladi va u har qanday holatda ham harakat va munosabatdan boshlanadi.

***Shaxsning huquq va majburiyatlari.*** Shaxsning jamoadagi o'rnini to'g'risidagi masala bevosita uning huquq va majburiyatlari bilan ham bog'liq. Bularda sotsium tarkibiy qismlarini tashkil etgan ijtimoiy guruh a'zolari rioya qilishi zarur bo'lgan qoidalar belgilangan. Guruhda qabul qilingan qonunlarga ko'ra har bir shaxs boshqalar bilan tegishli *huquqiy* munosabatda bo'lishi kerak. *Majburiyatlar* esa shaxsning o'zi mansub bo'lgan guruhda egallab turgan vazifalarga muvofiq keladigan xatti-harakatlar qilishdan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning ijtimoiy vazifalarni bajarishi – bu faqat unga xos bo'lgan shaxsiy sifatlarini ham namoyon etishdir. Masalan rahbar (*lider*) vazifasini bajarish uchun shaxs irodali, dadil, o'ziga ishongan bo'lishi bilan birga hormay-tolmay ishlashi, fidoyilik ko'rsatishi lozim. Shuningdek, o'quvchi, ota-ona, harbiy xizmatchi, shoir, tabib, me'mor, jamoat arbobi va boshqalarning ham o'z shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, fe'l-atvorlari mavjud.

Ijtimoiy guruhlar o'z a'zolarining xatti-harakatlarini hech vaqt nazoratsiz qoldirmaydi, ularni doimo baholab boradi. Bu esa shaxsdan o'z ijtimoiy mas'uliyatiga jiddiy munosabatda bo'lishni talab etadi. Ayni vaqtda, vazifalarning bajarilishi g'oyat murakkab kechadi. Buning sababi juda ko'p omillarning amal qilishidir. Shaxslarning jismoniy yetukligi, qobiliyati, aql-zakovati va boshqalar ularning ayni shu o'ringa loyiq yoki loyiq emasligini belgilaydi. Agar shaxs noyob xususiyatlarga ega bo'lsa, bu uning ishini ancha osonlashtiradi. Guruhlarning ichki tuzilishi, tashkiliy uyushganligi ham shaxsning ijtimoiy o'rnini namoyon etishiga ta'sir etmay qolmaydi.

***Shaxsning «MEN»i.*** Shaxsning shakllanishida uni o'rab turgan muhit va u intiladigan madaniy-ijtimoiy ideallar hamda bajarishi

lozim bo'lgan vazifalarining ahamiyati hal etuvchidir. Bunday hodisani fanda insonning ijtimoiylashuvi yoki sotsializatsiya yo'li bilan shaxsga o'tishi, deb atash qabul qilingan. Buni izohlaydigan ko'pgina qarashlar mavjud.

Ijtimoiylashuv umumiy ma'noda insonning biologik va ruhiy ehtiyojlariga maqsadga muvofiq, oqilona ta'sir natijasidir. Buning oqibatida inson shaxsi qaror topishining ikkinchi tomoni – uning *subyektiv* «MEN»i ham shakllanadi. Shaxsning «MEN»i ota-onalari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlar, mahalla-ko'y va boshqalardan o'zlashtiradigan sifatlardir. Bu sifatlarni shakllanishi joyi va vaqtiga ko'ra *ijobiy* yoki *salbiy* bo'lishi mumkin. Ijobiy holatda shaxsda o'zi to'g'risida *odillik, epchillik, qobiliyatlilik, uddaburonlik* kabi tasavvurlar tug'ilsa, salbiy holatda uning layoqatsizligi, noshudligi, zaifligi kabi xususiyatlari qaror topishi mumkin. Albatta, bular insonning o'z «MEN»i to'g'risidagi fikrlaridir. Ularning voqelikka muvofiq kelishi masalasini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Subyektiv «MEN» yuzaga kelishi bilan nisbiy mustaqillik harakatlanib o'zini ko'rsata boshlaydi. Shu bilan birga, shaxs «MEN»i doirasida uning ikkinchi jihati – boshqalarning bu «MEN»ga bo'lgan munosabati – o'zga «MEN» shakllantirib, unda aniq olingan shaxsning xatti-harakatlari, fikr-o'yi, siyosiy mavqeyi, turmush tamoyillari va hokazolar to'g'risida jamoatchilik fikrlarini hisobga olish yoki olmaslik kabi holatlar ifodalanadi.

O'zga «MEN» quyidagi holatlardan tashkil topadi: a) boshqalarning aynan shu shaxs to'g'risidagi qarashlari asosidagi fikrlar; b) ayni shu shaxsning xatti-harakati va faoliyatini boshqalar tomonidan baholanishi; v) boshqalarning qarashlari va bergan baholariga javoban qoniqish, g'urur, o'ziga ishonchining kuchayishi, o'zini bekam-u ko'st deb hisoblash, uyalish, afsuslanish, ehtiyotkorlikka moyillik kabi holatlardir. Shaxsning *obyektiv* «MEN»i bilan uning to'g'risidagi «o'zga MEN» bir-birini to'ldirgandagina insonning ijtimoiy tabiati haqidagi fikrlar ham to'laroq bo'ladi.

«MEN» inson shaxsning ichki muayyanligini ifodalaydi va mohiyatan uning belgilovchisidir. Unda shaxsning o'z-o'zini anglashi, fe'l-atvori va irodasining manbasi jamlangandir.

***O‘z-o‘zini anglash.*** Shaxsning xatti-harakati, his-tuyg‘ulari, o‘zi a‘zo bo‘lgan eng oddiy guruhdan insoniyat va jamiyatgacha bo‘lgan barcha fikr-o‘ylari, manfaati va hokazolarni mulohaza qilishi, uning o‘z-o‘zini anglashi bilib olganligidir. Buning natijasida shaxsning turmush faoliyatini oqilona boshqarish yo‘lga qo‘yiladi. O‘z navbatida, o‘z-o‘zini boshqarish negizida shaxsning o‘zini takomillashtirishi ham mumkin bo‘ladi.

Shaxs faoliyati, ma‘naviy olami tahlil obyekti sifatida olinsa – bu *refleksiyadir* (lotincha: *orqaga qarash*). Unda shaxsning o‘z ma‘naviyatining muhim jihatlarini bilishi, o‘z harakatlarini mulohaza qilishga, baholashga intilishini ifodalaydi.

Ayni vaqtda shaxs o‘zini o‘rab turgan voqelik haqida ham ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, e‘tiqodga aylangan, qarashlarning umumiy ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Shaxs refleksiya jarayonida voqelikni nafaqat qanday bo‘lsa o‘shanday aks ettiradi, balki uni muayyan tarzda *baholaydi*. Shaxsdagi bu *bilim-baho* uning ijtimoiy mavqeyi va turmush tamoyillarini shakllantirishga ko‘mak beradi. Ta‘kidlash lozimki, shaxs qarashlari fanga muvofiq, mantiqan izchil, taraqqiyparvar, aql tarozisidan o‘tgan (ratsional) yoki fanga zid (irratsional), reaksiyon bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiylashuv tufayli inson shaxsi o‘z sifatlarini namoyon etib, turmush sharoitini o‘zi yaratadigan mehnatkash, mol-u mulk egasi, moddiy va ma‘naviy qadriyatlar iste‘molchisi bo‘la oladi, siyosiy-huquqiy jarayonlar ishtirokchisi, hamda sotsiumning ilk barqaror bo‘g‘ini bo‘lgan oila a‘zosi vazifalarini ado etishga qodir bo‘ladi.

***Begonalashuv.*** Shaxsni ifodalaydigan muhim jihatlardan ayrimlari ma‘lum shart-sharoitlar ta‘sirida uning o‘ziga zid sifatlarda yuzaga kelishi mumkin. Natijada shaxsiy yaxlitlikda u o‘z imkoniyatlarini to‘la-to‘kis namoyon qila olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning o‘zining o‘zidan begonalashuvi, ikkiga bo‘linganligi boshlanadi. Huquqshunoslikda mulkning egasidan boshqa bironvga o‘tishi begonalashuv hisoblanadi. Shaxsdagi begonalashuv esa uning o‘z shaxsiy qadriyatlaridan ayrilishini bildiradi.



Shaxsdagi ikkiga bo'linganlik muayyan sivilizatsiya chegarasida namoyon bo'ladi. O'z faoliyati natijasidan bexabar bo'lib, begonalashib qolishi o'z navbatida, uning erkinligi holatlariga ta'sir etmasdan qolmaydi.


Xo'sh, shaxs erkinligini cheklaydigan begonalashuv nimalardan iborat? *Dastavval*, bu hodisa shaxsni oqiz etib qo'yishida, uning taqdirini begona kuchlar belgilayotganligida ko'rinadi. *Ikkinchidan*, shaxs hayotining ma'nosizligi, u yoki bu xatti-harakati doimo nooqilona natijalarga olib kelishi to'g'risidagi umidsizlik tug'diradi. *Uchinchidan*, shaxsni o'rab turgan voqelikdagi oqilona aloqalarning barbod bo'lganligini ko'rsatib, shaxs «MEN»i o'zligini yo'qota boshlaydi.

G'arbning ko'pgina mutafakkirlari begonalashuv hodisasini hozirgi sanoatlashgan sotsiumning o'tmishdagi an'anaviy jamiyatlarga qarama-qarshi ekanligida ko'radilar. Natijada individlarning ilgari amalda bo'lgan birdamliklarining barham topishi, shaxsiyatparastlik ko'laminig oshib ketishi, boshqaruvda to'rachilik texnikaning inson ustidan hukmronlik qilishi va hokozolar kelib chiqadi.


Kishilarning ongli mavjudotligi va sotsiumda ham ruhiyatning o'rni katta ekanligiga asoslanib begonalashuvni oqilona bartaraf etishning ko'plab nazariyalari yaratilgan. Afsuski, hozirgacha katta da'volar bilan maydonga chiqqan ko'plab ijtimoiy qarashlar o'ziga bildirilgan ishonchni oqlamadi.

Xo'sh, bundan begonalashuv shaxs peshonasiga yozilgan azaliy holat ekan-da, degan ma'no kelib chiqadimi? Albatta, yo'q.


Hozirgi vaqtda insoniyat yagona kelajak, yagona taqdir masalalarida, aytish mumkinki, bir to'xtamga kelmoqda. Yer yuzidagi davlatlarning kuch-g'ayratlarini birlashtirib jahon yagona hamjamiyati sari yo'l tutish doirasida har bir mamlakatda huquqiy davlat qurish va uni demokratik boshqarish inson shaxsi erkinligini ta'minlashi mumkin, deyishga asos bor.




13-sxema



14-sxema



15-sxema



16-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Bioijtimoiyruhiylik* – insonning jonli tabiatga mansubligi, ijtimoiy mavjudot ekanligi va yuksak ruhiyat tashuvchisi sifatlarini ifodalaydigan tushuncha.
- *Individ* (lotincha: *yagona, bo'linmas*) – inson hayotining turli-tuman asoslarini tasvirlashda qo'llaniladi.
- *Individuallik* – «individ» atamasidan yasalgan bo'lib, insonning noyob xususiyatlarini ifodalaydigan tushuncha.
- *Shaxs* – sivilizatsiya boshlangandan beri insonning turli darajalarda uyushib jamiyat hosil etganligiga tegishli sifatlarini ifodalaydigan tushuncha.
- *Ijtimoiy muhit* – insoniyat dunyosi tabiati bilan bog'liq jamiki munosabatlar.

- *Oila* – inson zotini dunyoga keltirish zaruriyati, asosiy er va xotin, ota-onalar va farzandlarning maishiy hayot birligi, axloqiy mas’uliyati va o‘zaro hamkorligini ifodalaydigan tushuncha.
- *Ijtimoiylashuv* – inson shaxsining qaror topishi jarayonlari va uning omillarini ifodalaydigan tushuncha.
- «*MEN*» – shaxsning o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlarining barqaror yig‘indisi bo‘lib, bunda uning o‘ziga va boshqalarga bo‘lgan munosabatlari ifodalanadi.
- *Begonalashuv* – shaxs faoliyati natijalarining unga qarama-qarshi turgan mustaqil kuchga aylanishi.
- *Shaxsiyatparastlik* – bir tomondan, inson «*MEN*»ining notanqidiy va noo‘rin ilgari surilishini bildirsa, ikkinchi tomondan, qo‘yilgan shaxsiy maqsadga erishish yo‘lida tashabbus va tadbirkorlik ko‘rsatishni anglatadi.

### Savollar va topshiriqlar



1. «Inson» va «individ» tushunchalari o‘zaro qanday nisbatda?
2. «Individuallik» tushunchasida insonning salbiy xususiyatlari ifodalanadimi?
3. Individualligi aniq ifodalangan inson bilan o‘rtacha inson sifatleri teng bo‘la oladimi?
4. Insonning shaxs bosqichi individ bosqichisiz yuz berishi mumkin edimi?
5. Shaxs va sotsium munosabatlari qanday mexanizmida kechadi? Buni mulohaza eting.
6. Oilaning bosh vazifasi nima? Bu to‘g‘rida yozma ish tayyorlang?
7. Oila ishtirokisiz shaxs shakllana oladimi?
8. Shaxs bo‘lishda madaniy-ijtimoiy aqidalarning o‘rni qanday?
9. Shaxs shakllanishi ijtimoiy omillarsiz ham amalga oshadimi?
10. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi va refleksiya etishi o‘zaro qanday bog‘langan?
11. Begonalashuv shaxs hayotida zaruriy hodisami? Buni mulohaza qiling.
12. Begonalashuvni bartaraf etish mumkinmi? Fikrlarni asoslashda badiiy adabiyotdan foydalaning.

### I.3.2. Shaxs: erkinlik va demokratiya

*Erkinlik nima? «Men» va «O‘zga»ning o‘zaro aloqasi nimada? Salomatlik erkinlikni biologik ifodasimi? Shaxs jamiyatga, jamiyat esa siyosiy hokimiyat tashkiliy darajalariga bog‘liqmi? Demokratiya nima?*

**Zaruriyat.** Erkinlik butun ijtimoiy tarix davomida insoniyat va inson shaxsi hayotining dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Chunki erkinlik ijodiy, yaratuvchi, faol, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari harakat qiluvchi insonning ehtiyoji bo‘lib, uning tabiati bilan bog‘liqdir.

Inson hayoti g‘oyat murakkab aloqadorliklar orqali kechishi, munosabatlari juda xilma-xil sohalarda namoyon bo‘lishi tufayli uning erkinligi ham ko‘p qirrali.

Erkinlik nima, degan savolga berilgan javoblar ichida, dastavval, uni voqelik – olam rivojlanishining zaruriy jihatlari bilan bog‘lash ko‘zga tashlanadi. Xo‘sh, zaruriyatning o‘zi nima? *Zaruriyat deganda uni taqdir taqozosi (diniy qarashlar), voqelik rivojlanishining pirovard natijada qonuniy, zaruriy holda yuz berib, o‘ziga yo‘l topib olishi (materialistik, deterministik qarashlar), ma‘naviy rivojlanish ifodasi,* (turli ruhshunoslik va subyektiv yo‘nalishdagi qarashlar) kabi tarzlarda talqin etiladi. Bu qarashlarda, albatta, muammoning muayyan jihatlari o‘z ifodasini topgan. Lekin shuni alohida aytish kerakki, masala antinomiya (qonundagi ziddiyatlilik) ko‘rinishida qo‘yilmasligi lozim. Balki masala *erkinlik va zaruriyat birligida*, ular nisbatining eng umumiy jihatlari aniqlash tarzida olinishi mumkin. Bu esa aniq tarixiy yondashuvni taqozo etadi.

Kishilar kundalik hayotlarida turlicha ko‘rinishlardagi zaruriyatga duch kelib turadi. Ular o‘z faoliyatlarining obyektiv sharoitlarini tanlab olishda o‘z bilganlaricha ish ko‘ra olmaydilar. Balki ayni shu sharoitlar talablaridan kelib chiqib harakat qiladilar. Shu bilan birga, zaruriyat qonunlarining amal qilishi avtomatik tarzda har bir aniq olingan hodisada ro‘y bermay, balki xiyla katta hodisalar doirasida, ularning o‘zgarishi va rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Kishilar zaruriyat ketidan shunchaki ergashib yurmaydilar, zaruriyat qonunlari talablariga yo turli darajada moslashadilar, yo imkoni bo‘lgan hollarning barchasida bu talablarga qarshi turadilar. Ana shu o‘rinda kishilar erkinligining ifodalanishi uchun dastlabki sharoitlar yaratiladi. Natijada har bir kishi u yoki bu qarorni qabul qilishi, o‘z harakatlarini amalga oshirishi mumkin. Bunda,

*birinchidan*, insonning erkinligi nafaqat tashqi omillar bilan, balki uning ichki intilishlari, qadriyatlar tizimi va mo'ljallari bilan ham bog'liq. *Ikkinchidan*, shaxs o'ziga ko'rsatilayotgan har qanday ta'sirga fikran turlicha javob bera oladi. Shunga ko'ra, bitta sabab bilan qator oqibatlarni yuzaga keltirsa bo'ladi.

***Shaxsning tanlov erkinligi.*** Shaxsning maqsadga muvofiq faoliyati jarayonida uning erkinligi turli bosqichlarni – erkinlikni subyektiv anglab olishdan tortib, to uni obyektiv amalga oshirishgacha bo'lgan bosqichlarni bosib o'tadi. Chunonchi, shaxs o'z faoliyati natijasini oldindan belgilab olish imkoniyatiga ham ega. Chunki har qanday aniq vaziyatda ham bir nechta imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Aks holda, ya'ni, oqilona muqobillik yetishmay turganda ham shaxs o'z erkinligi doirasida yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlardan o'zini chetga oladi. Shaxsning *tanlov erkinligini*, insoniyat dunyosida tutgan o'rnini jonli tabiatdagi *obyektiv saralanish* bilan qiyos etish mumkin. Biroq bular o'rtasida ma'lum farqlanishlar ham bor. Tabiiy saralanish bu – obyektiv jarayon. Insonning tanlov erkinligi esa amaliy xususiyatlar ifodasi bo'lib ham subyektiv, ham obyektiv tabiatga ega. Tanlov istagan joyida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'rganilishi, o'zlashtirilishi va ijodiy takomillashtirilishi mumkin.

Inson shaxsining bu jihati faqat individual tabiatga ega bo'lmay, balki keng ijtimoiy mazmunga ham ega. Ya'ni, shaxslargina emas, balki katta yoki kichik el-elatlar, millatlar va xalqlar ham taqdirilariga tegishli hollarning barchasida ijtimoiy tanlov erkinligiga egadir. Lekin bular shaxs va ijtimoiy kuchlar sof subyektivligining natijasi emas, balki pirovardida obyektiv taqozolanganligi oqibatidir.

Shaxs erkinligi individual sezgi, subyektiv erkinlik sifatida tanlov qilishdan boshlansa-da, insonning tabiatan faolligi tufayli yuqoriroq bosqichlarda – maqsadga erishish uchun tanlangan vositalarni ishlatib, muayyan xatti-harakatlar qilishda (obyektiv erkinlikda) nihoyasiga yetadi.

Erkinlikning subyektiv va obyektiv ifodalanishlarida undagi ichki va tashqi tomonlarning xususiyatlari, o'zaro bog'liqligi va muhim farqlarni payqash qiyin emas.

Shaxs erkinligining ichki tomoni belgilovchi va tuzilishiga ko'ra ancha murakkabdir. Uning maqsad va vositalarni tanlash, amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaziyatlarni bilishni, o'zlashtirilgan tashqi zaruriyatni ichki e'tiqod bilan muvofiqlashtirish lozim.

XX asr Yevropa mutafakkirlaridan *M. Xaydegger*, *K. Yaspers* va *J.P.Sartr* inson ichki erkinligi masalasida muhim ta'limotlarni ilgari surganlar. Haqiqiy erkin tanlov – bu individning ichki ehtiyojiga muvofiq qilingan tanlovki, uning ichki e'tiqodi, samimiyligi, sofdilligi bilan bog'liqdir.

Tashqi erkinlik – bu, dastavval, mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxs o'zni va ahamiyatining ifodalanishi, uning ichki erkinligining hissiy-buyumlashgan tarzda namoyon bo'lishidir. Bunda oxir-oqibatda shaxs bilan sotsium manfaatlarining uyg'unligi masalasi alohida ahamiyatga ega.

Shaxs va jamiyat manfaatlari muammosi, shaxs erkinligi masalasida bir-birini istisno qiladigan ikki xil qarashlar mavjud. Ulardan birida inson shaxsi manfaatlarini rivojlanishning belgilovchi omili hisoblanib, mutlaqlashtiriladi. Ikkinchisi esa, aksincha, insonga shunchaki bir unsur sifatida qarab, uning manfaatini ijtimoiy manfaatlar oldida ahamiyatsiz qilib qo'yadi. Tashqaridan qaraganda bu nuqtayi nazarlar bir-biriga qarama-qarshi turadi. Amalda esa ularning har ikkalasida ham manfaatlar nisbati to'g'risida gap boradi.

**Demokratiya.** Shaxs mohiyatining ko'pgina muhim qirralari, uning imkoniyati, bajarishi lozim bo'lgan vazifalari va hokazolar hamisha kishilar hayoti jamiyat tarzida qanday tashkil topganiga bog'liq. Siyosiy hokimiyat va amaldagi huquqiy tizimlar qay tarzda mavjudligiga ko'ra, shaxs jamiyatdagi demokratiyaviylik darajasida shakllanadi.

Demokratiyaning ilk ko'rinishlari sivilizatsiya tongidayoq qaror topgan bo'lib, insoniyatning buyuk qadriyati hisoblanadi. Insoniyat tarixida demokratiya yo sahnadan ancha vaqtda tushib ketib, yo qisqa vaqtda tiklanib turgan. Mutafakkirlar inson bilan inson, inson bilan jamiyat uyg'unligini ta'minlaydigan

ijtimoiy muhit shakllarini topishga hamma vaqt urunishgan. Sharq uygʻonish davrida *Forobiy* va boshqalar antik davrning demokratiyaga doir qarashlarini rivojlantirib, ancha ilgari ketgan edilar. *Movarounnahrda* jamiyatni, kishilar hayotini tashkil etish va boshqarishning oʻz davri uchun tipik jihatlari dastlab *Xorazmshohlar*, keyinroq *Amir Temur* davrida rivoj topdi. Bularda (masalan, «Temur tuzuklari»da) jamiyat va shaxsning siyosiy huquqiy maqomlari aks etgan edi.

***Konstitutsiyaviy erkinliklar.*** Shaxs erkinliklari, uning davlat oldidagi burch va majburiyatlari demokratiyaviy konstitutsiyalarda qonunlashtirilgan boʻladi. Unda, birinchi navbatda, xalqning xohish-irodasi erkin ifodalanishi, shu xalqning hokimiyat manbasi ekanligi oʻz aksini topadi. Shuning uchun ham xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qilishi lozim.

Konstitutsiyada shaxsning erkinliklari va huquqlari aks etgan boʻlib, ularda inson borligʻining asosiy shartlari qamrab olinadi. Davlat iqtisodiyot, siyosat va maʼnaviyat sohalarida qanday qonun-qoidani ishlab chiqib kuchga kiritmasin, shaxsning unda belgilab qoʻyilgan maqomiga zid kelmasligi kerak. Har qanday demokratik davlatda shaxs maqomi faollikni nazarda tutadi. Oʻzining faolligi tufayli shaxs mavjud siyosiy institutlar yordamida jamiyatga muntazam taʼsir koʻrsata oladi. Bunda taqiqlanmagan barcha harakatlarga yoʻl qoʻyiladi. Shaxsning jamiyatga koʻrsatadigan taʼsiri parlament demokratiyasi yoʻli bilan olib borilganda maqsadga muvofiqdir. Bular quyidagilarda koʻrinadi:

*Birinchisi* – shaxsning «toʻgʻridan toʻgʻri» demokratiyaviy institutlar faoliyatidagi ishtirokidir. Davlat hokimiyati oʻtkazadigan yalpi saylovlarda ovoz berishi va hokazolar shaxs fikr-oʻyining barometri hisoblanadi. Koʻpchilikning fikri davlat miqyosida qabul qilinadigan qarorga asos boʻladi. Lekin bundan ozchilikning fikri notoʻgʻri, degan maʼno kelib chiqmasligi lozim. Oʻzining shaxsiy nuqtayi nazariga ega boʻlish insonning ajralmas huquqidir. Buni taʼminlash natijasidagina shaxsning ehtirosi junbushga kelgan olomonning toʻla taʼsirida boʻlishdan saqlanish

va demokratiyaning oxlokратиya ko‘rinishiga o‘tishining oldini olish mumkin.

*Ikkinchisi* – inson shaxsining Xalqaro bayonotlar himoyasida bo‘lgan va mamlakat Asosiy Qonunida mustahkamlab qo‘yilgan hech kim tomonidan o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan asosiy huquqlaridir.

*Uchinchi* – shaxsning o‘z huquqi ma‘lum qismini o‘zi saylagan vakiliga berish bilan «to‘g‘ridan to‘g‘ri» demokratiya usullarini muayyan nisbatda olinishidir. Bunda ular bir-birini muayyan darajada cheklaydilar ham. Shundagina shaxsning siyosiy maqomini ta‘minlash mumkin bo‘ladi.

Shaxs maqomi muayyan demokratiya madaniyati doirasida ta‘minlanadi. Bunda xalq vakillarining ham saylovchi shaxslardan begonalashib, ajralib qolmaslik choralari nazarida tutish lozim. Masalan, yalpi saylovlarda buning oldini olish uchun ularni o‘tkazish tartibi shunday belgilanishi kerakki, natijada shaxsning ichki mustaqilligi, uning individualligi namoyon bo‘lsin. Shuningdek, saylovchilar topshirig‘i, deputatlarning ularga hisob berib turishi, ularning chaqirib olish huquqi va hokazolar vositasida har bir shaxsning manfaati ta‘minlanadi.



17-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Erkinlik* – insonning turli muqobilliklarda tanlov imkoniyatini beradigan, uning talablariga chuqur singdirilgan holati.
- *Shaxs xillari (tiplari)* – insoniyat o‘tmishi turli davrlari shart-sharoitlari bilan bog‘liq holda shaxsning farqlanishi.
- *Demokratiya* (yunoncha: *xalq hokimiyati*) – davlat-siyosiy tuzumi shakli bo‘lib, uning manbasi xalq hisoblanadi.
- *Oxlokратиya* (yunoncha: *olomon hokimiyati*) – Arastuning ta‘kidlashicha, demokratiyaning buzilgan shakli bo‘lib, ommaning cheklanmagan hukmronligini anglatadi.



## Savol va topshiriqlar



1. Zaruriyatsiz erkinlik, erkinliksiz zaruriyat bo'lishi mumkinmi?
2. Erkinlikning mezonlari bo'ladimi?
3. Insonning ichki erkinligiga misollar keltiring.
4. Tashqi erkinlikning shaxsga ta'siri qanday?
5. Qaysi soha erkinligi eng zarur hisoblanadi?
6. Shaxsning shakllanishida jamiyatning mas'uliyatini qanday tushunasiz?
7. Shaxsning siyosiy maqomi qanday ta'minlanadi?

### I.3.3. Buyuk shaxs: asosiy tavsiflar. O'lim va undan keyingi barhayotlik

*Hayotning ma'nosi nima? Buyuk shaxs maqomi qanday aniqlanadi? O'zbekiston tarixida Payg'ambar Zardushtdan Prezident Islom Karimovgacha bo'lgan buyuk shaxslarning konkret his-salari nimada ko'rinadi? O'limni ma'naviy vositalar yordamida barhayotlikka aylantirsa bo'ladimi?*

**Buyuklik shartlari.** Har bir shaxs – bu muayyan bir siymo. Demak, u tarixda o'zining katta yo kichik o'rniga ega. Chunki tarixning o'zi ham shaxslarning birligi va o'zaro ta'siri, hayot faoliyatining natijasida qaror topadi.

Odatda tarixiy jarayonda shaxslarning o'rni masalasi to'g'risida gap borsa, buyuk kishilar faoliyati tushuniladi. Shaxslarning buyukligi o'zlari mansub bo'lgan ijtimoiy guruh, el-elat yoki xalqning fikr-o'yini to'la ifodalab, ularning asosiy maqsad-vazifalarini tarixiy jarayon kechishining obyektiv mantiq talablariga mos ravishda amalga oshirishda hal qiluvchi ishlarni bajara olishidadir. Bunday shaxsda dastavval, uni o'z orasidan yetishtirib chiqargan xalqqa xos sifatlar ham bo'ladi. Bu sifatlar ularning betakror shaxsiy xususiyatlariga aylanib, bajarishi zarur bo'lgan yumushlarni kun tartibiga qo'yishda, ularni ro'yobga chiqarishda mislsiz jasorat, ulkan tashkilotchilik va jonbozlik ko'rsatilishida namoyon bo'ladi. Buyuk shaxs faoliyatida o'z xalqini saodatli qilish, o'zligini ro'yobga chiqarish, milliy va davlat mustaqilligini himoya qilish, ilg'or xalqlar darajasiga ko'tarish, natijada insoniyat yalpi taraqqiyotiga baholi qudrat ko'mak berish muhim o'rin egallaydi.

***O‘zbek xalqi tarixida buyuk shaxslarning roli.*** Uzoq o‘tmish guvohlik berishicha, O‘zbekiston hududida yashab o‘tgan buyuk siymolar ichida *Zardusht* payg‘ambarlik darajasiga ko‘tarilib insoniyatga o‘z davri va keyingi tarix uchun ham katta voqea bo‘lgan dinni bergan edi. Alp Tunga (Afrosiyob) Samarqand shahriga ham asos solgan edi. Turkiy sulola asoschisi bo‘lgan. Bizgacha yetib kelgan manbalar, jumladan, yunon tarixchisi *Xerodot* (Gerodot) asarlaridan ma‘lumki, o‘zbek xalqining qadimiy ajdodlaridan bo‘lgan massagetlar sardori *To‘maris* Fors shohi Kir bosqinchiligiga qarshi kurashga boshchilik qilib, uning o‘zini halok etib, eng zarur vazifani bajardi – yurtining mustaqilligini saqlab qoldi. Turkiy kushonlar davlatining hukmdorlari ichida buyuk *Kanishkani* ajratib ko‘rsatmoq lozim. Uning davrida davlat chegarasi qadimgi O‘zbekiston hududidan tashqari qadimgi Hindistonning ham katta qismini o‘z ichiga olgan edi. Uning ma‘naviyatga e‘tibor berganidan buddaviylik dini Uzoq Sharqqacha tarqalgan.

Buxorodan chiqib O‘rta Osiyo janubida poytaxti G‘azna shahri bo‘lgan davlat tuzib, turkiy sulolaga asos solgan *Sobuqtegin* bajaragan tarixiy vazifasi ahamiyatiga ko‘ra o‘zbek xalqi ajdodlari ichidagi buyuklar safiga kiradi.

Buyuk shaxslik xususiyati o‘zbek xalqi tarixida mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan *Jaloliddin Manguberdi*, Chingizxon avlodlari qo‘lidan hokimiyatni tortib olib, milliy davlatchilikni tiklabgina qolmay, uni jahon miqyosida ravnaq toptirgan buyuk bobomiz *Amir Temurga* ham tegishli. Uning markazlashgan qudratli davlatida ijtimoiy hayotning barcha sohalari keng rivojlandi. O‘z davlati manfaatlarini ko‘zlab olib borgan urushlari slavyan va G‘arbiy Yevropa xalqlarining ijtimoiy taraqqiyoti tezlashuviga ham ko‘mak berdi. Buni o‘tmishda bo‘lganidek, hozirgi ingliz, fransuz, italyan va boshqa xalqlar tarixchilari ham chuqur e‘tirof etadilar. Bu mamlakatlarda ulug‘ Amir Temur haqida xolis ilmiy tadqiqotlardan tashqari, boy badiiy adabiyot ham yaratilgan. Amir Temur jahon rivojlanishining keyingi taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shgan buyuk shaxsdir.

Temuriylar shajarasidagi ko‘pgina hukmdorlar, xususan, *Mirzo Ulug‘bek*, *Shohruh*, *Husayn Boyqaro*, *Zahiriddin Bobur* o‘zbek xalqi tarixida katta o‘rin tutgan shaxslardir. Boburning Movarounnahrda Hindistonga borib, turli din va tillar sharoitida markazlashgan davlat

tuzganligiga, boburiylar bu mamlakat tarixida nihoyatda salmoqli ishlar qilganligiga Hindistonning mashhur siyosiy va davlat arbobi *Javoharla'l Neru* juda katta baho bergan edi.

Jahon sivilizatsiyasi tarixida katta o'rin tutgan buyuk shaxslardan biri shoir, mutafakkir, davlat arbobi *Alisher Navoiydir*. AQSH prezidenti *R. Reygan (1980–1988-yillar)* Alisher Navoiy haqida gapirar ekan, «*Boy madaniyatga ega bo'lgan zaminda voyaga yetgan Alisher Navoiyning samimiyati va nafosati, buyuk insonparvarlik g'oyalari va siyosati butun insoniyatga tegishli bo'lgan qadriyatdir*», degan edi.

O'zbek xalqi tarixida tutgan o'rni, o'z xalqi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bo'yicha Amir Temurdan so'ng muayyan mavqe shayboniylar sulolasidan chiqqan *Abdullaxon II* ga tegishlidir. Bu siymo Movarounnahrda ulkan davlatni tuzib, iqtisodiyot, fan va madaniyat ravnaqiga katta e'tibor bergan.

Qadimgi rimlik mashhur mutafakkir *Tatsit* tarixni hodisalarning jonli izlaridan borib yozmoq lozim, degan edi. Shunday yo'ldan borilsa, tarixning betakror jarayonining mantiqi ochiladi va bu jarayon markazida turgan ijtimoiy kuchlar, uning dohiylari faoliyati obyektiv baholanadi. Binobarin, xalqimiz o'tmishidagi buyuk siymolarning jamiyatni boshqarish va taraqqiyotga o'tkazgan mislsiz ta'siri ko'lami, ahamiyati yorqinroq namoyon bo'ladi. Rossiya mustamlakachiligi Turkistondagi mavjud ijtimoiy turg'unlikni chuqurlashtirdi. Biroq dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning guvohi bo'lish mahalliy ziyolilarni xalq va yurt taqdiri xususida chuqurroq o'ylashga majbur etdi. Jadidlarning maydonga kelishi, xususan, *Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon* va boshqalarning millat manfaatlarini himoya qilib chiqishi shu vaqtga to'g'ri keladi. Ularning qarashlarida qoloq ijtimoiy munosabatlarni va mustamlakachilikni tugatish, milliy davlat istiqboliga erishish maqsadi o'z aksini topgan edi.

Shaxs salohiyatining kuchi O'zbekistonda davlat mustaqilligini qo'lga kiritishda va mustahkamlashda yana bir marta namoyon bo'ldi. *Prezident I.A. Karimovning* aql-zakovati, siyosiy irodasi va qat'iyati tufayli jiddiy bo'hronlarsiz, qurbonlarsiz, qon to'kilmasdan tinch ijtimoiy rivojlanish yo'lga chiqib olindi. Huquqiy

demokratik davlatni barpo etish, demokratik tamoyillarni chuqurlashtirish, insonparvar fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida barcha qiyinchiliklarni juda katta siyosiy qudrat, qat'iyat va sobitqadamlilik bilan yengib borilmoqda.

**Hayotning ma'nosi va o'lim.** Inson nima uchun yashaydi? Bu savolga kundalik ong darajasidan boshlab tafakkurning eng yuqori imkoniyatlari doirasida ham bir xil javob berib bo'lmaydi. Hozirgacha mavjud bo'lgan barcha ilmiy yo'nalishlar va maktablar bu savolni chetlab o'tmagan bo'lsa ham, ko'pchilikni qoniqtiradigan darajada yaxlit javob topa olmaganlar. Lekin bundan yuqoridagi savol bema'nidir, degan mulohazaga bormaslik lozim. Alohida insonga nisbatan uning hayoti, maqsadi ma'lum ma'noga ega. Ya'ni, *hayotning ma'nosi insonning har tomonlama barkamollikka erishishidan iborat.* Bu esa alohida inson hayotini keng qamrovda olib, undagi haqiqiy va soxta jihatlarni va, nihoyat, Buyuk shaxslarning to'laqonli hayoti qaysi vositalar yordamida amalga oshishini qarab chiqishni talab etadi.

Har qanday jonli mavjudot singari inson hayotining ham nihoyasi borligi, boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq, u o'zining oxir-oqibatda o'limga mahkumligini anglashi masalalari, aytish mumkinki, mumtoz masalalardandir. Bu – tasodifiy hol emas. Inson hayoti va o'limi masalalari asotirlar va dinlarda ham alohida o'rinni egallagan. Kishilarda dastlab o'limdan qo'rqish tuyg'usi kuchli bo'lgan. Keyinroq asotiriy, diniy tasavvurlar vositasida bu jarayon «majburiy» ekanligi isbotlandi. Asotirlarda hayvonlar ham, kishilar ham o'ladigan tana va o'lmas ruhga ega deb ko'rsatilgan. Ruh nozik, nomoddiy tabiatga ega bo'lib, o'zida inson vujudi timsolini gavdalandirgan. U yo'qolmaydi, o'lmaydi va o'z makonida yashaydi hamda o'z joyini almashtirib turadi. Ba'zi diniy ta'limotlarda tana o'lgach, ruh bir jonzotdan ikkinchisiga o'tib turishi ko'rsatilgan.

Turli g'oyaviy yo'nalishlar va maktablar hayot va o'lim masalalarini turlicha tushuntiradi. Ayrim buyuk faylasuflar bu masalaga mantiq, mazmun kiritishda shaxsiy hayot taqdirini hal qilish orqali ham erishganlar. Masalan, *Suqrotning* o'z o'limiga roziligi haqidagi qarori uning hayoti uchungina emas, balki undan keyingi falsafiy muammolar hal etilishi uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. *Aflotun* Suqrotning ushbu qarorida faylasuf uchun o'z

hayotini oliyjanoblik bilan tugatish imkoniyatini ko'rgan. Uning fikrlariga ko'ra inson *ezoterik* (ma'naviy), mavjudot sifatida ilohiy mohiyatga ega. Bu uning o'zi ustida ishlashi, o'zini takomillashtirishi va ilohiy dunyo sari intilganligida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'lim mas'ullikdir. Ya'ni, ma'naviyatli, komil va inson mohiyatini chuqur anglagan kishida o'limdan qo'rqish tuyg'usi bo'lmaydi.

***Islomiy sivilizatsiyada hayot va o'lim masalalari.*** Islom dinida ham inson hayoti, uning ma'nosi va o'limi masalasi katta o'rin olgan. Hayotning ma'nosi – bu ruhning salomatligi, doimiy rohat-farog'atga eltuvchi mehnat va bilimdir. Inson o'z hayotini xudbinlik, nafs va yovuzlikdan saqlamog'i kerak.

Insonning dunyoga kelishi, islom dini nuqtayi nazaricha, taqdirga, ilohiy irodaga bog'liq. Inson o'z taqdirini o'zgartirishga qodir. Faqat ana shu o'zgartirish mazmuniga ko'ra inson – bandaning ma'naviy-ruhiy olamiga baho beriladi.

Ayni vaqtda, inson bu olam go'zalligi manbasidir. Uning hayoti orqali tabiat nafas oladi va yashaydi. Tan ruhsiz yashay olmaydi. Binobarin, tabiatga zarar yetkazish – ruhga zarar yetkazish bilan barobardir. Islom dinida insonga tabiatdagi ruhiylikning ramzi sifatida qaraladi.

Insonning hayoti, o'limi va manguligi masalasi tasavvuf tariqatlarida ham muhim o'rin olgan. Uning ilk yirik vakillari *Hasan Basriy, Al-Muxsibiy, Junayd Bag'dodiylar* islomning monoteistik talablariga muvofiq insonning mohiyati va hayot yo'nalishini Olohdan belgilagan yo'ldan borish, deb ko'rsatganlar. O'zbekiston hududida yetishib chiqqan so'fiy mutafakkirlar – *Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshband* ta'limotlarida hayotning ma'nosi, o'lim va mangulik masalalari muhim o'rin tutadi. Ularda insonning ilohiy mohiyatini bilishga intilish, halol mehnat qilib boshqalarga mehr-muruvvatli, rahm-shafqatli bo'lish kabi fazilatlar bilan bog'liq ravishda yoritiladi.

***Yevropa yangi va eng yangi tafakkurida hayot va o'lim masalalari.*** Yevropada yangi zamon sharoitlarida Sharq falsafasi ta'siri ostida hayot va o'lim masalalariga yangicha qarashlar shakllandi. Jumladan, hayot va o'limni anglash muammosi *ikki antropologiyaviy modelda* – tabiiy inson va yangi yevropacha inson modellari orqali ifodalandi. *Birinchi modelda* inson tabiiy (biologiya, fiziologiya, psi-

xologiya va boshqa) fanlar obykti hisoblansa, *ikkinchi modelda* u o'zini olamning markazi sifatida anglagan, aql-idroki va erkinligini o'zi yo'naltiradigan, o'z hayotini o'tmishdan hozirgacha, undan esa kelajakka borishini tushungan ijtimoiy mavjudot sifatida qaraladi.

Bu fikrlar insonga, uning hayoti mazmuni va maqsadiga ratsional yondashishning natijalaridir.

XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab G'arb tafakkurida shakllangan ratsionallikka zid yo'nalishda o'lim biologiyaviy ma'nodagina tan olinmaydi. O'lim diniy yoki siyqa tabiiy tushunilishdan farqli holda subyektivlik sohasi voqeasiga aylanadi. *F. Nitsshening* so'zlari bilan aytganda, inson o'limi uning hayotidan ko'ra ahamiyatliroqdir. Ya'ni, o'lim tuyg'usi inson hayotini mazmun bilan boyitadi.

Hozirgi vaqtda insonni *yigirmaga yaqin* ilmiy-falsafiy yo'nalish o'rganadi. Ularning barchasida asosan inson hayotining mohiyati, mazmuni va nihoyasi mushohada qilinadi. Bu ta'limotlarga ko'ra, inson mohiyati masalasi tahlilida hozirgi sivilizatsiya qadriyatlar talablarini hisobga olish muhim ahamiyatga egadir.


Insoniyat hozirgacha erishgan eng yuksak sivilizatsiya – bu G'arb modelidir. Bunda tabiiy inson modeli ham singdirilgan. Shu sababli yangi ijtimoiy-ma'naviy inson modeli yuzaga keldi. Hozirgi inson ko'proq shartli mulohazalar asosida yashashga moyilki, uni bunday yashash va fikrlash yo'liga radio, televideniye, kino, teatr, badiiy adabiyot va, albatta, o'zining mustaqil fikr-o'ylari olib kelgan. Natijada u o'limidan keyingi hayotidan ko'proq tashvishlanmoqda. Hayot qancha yaxshi, farovon bo'lsa, kishiga o'lim shunchalik dahshatli ko'rinadi.

Ma'lumki, o'lim ekzistensial (yashash, hayot) tomondan olinganda inson individual hayotining shunchaki yo'qolib ketishi mumkin emas. O'lim oldida qo'rquvni yo'qotish qay tarzda uni ma'noli va hatto hayotning ijodiy momenti sifatida anglashdir. O'limga faqat tabiiy hodisa sifatidagina qarash mumkin emas. O'limni har doim «*madaniyat ko'zgusi*», zaruriyat sifatida idrok etish lozim. O'limni madaniyat doirasiga kiritilishdan undan keyingi umrning ma'nosi to'g'risidagi masala kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, bu ma'noli yashalgan umrning o'limdan keyingi davomi, yuksak ideallar bilan yashagan inson vafotidan keyin boshlangan manguligi masalasidir. *Mangulik* – insonning o'z ijodiy, yaratuvchilik faoliyati bilan ha-

yotda abadiy iz qoldirishidir. Inson o‘zidan dunyoda qoldirgan yaxshi nom – uning ikkinchi va davomdor umridir. Shu sababli ham, insoniyat uchun xayrli, ezgu ishlar qilib, yaxshi nom qoldirgan kishilar abadiy hurmat bilan tilga olinadi.

**O‘ZBEK XALQI TARIXIDAGI BUYUK SHAXSLAR**

Buyuk shaxslar	Faoliyat tarzlari	Yashagan joyi	Davri
1. Zardusht	Payg‘ambar	Xorazm	m.a. VIII asr
2. Afrosiyob	Samarqandga asos solgan turkiy yo‘lboshchi	Samarqand	m.a. VIII asr
3. Kanishka	Kushoniy shoh	Baqtriya	m.a. II asr
4. Xorazmiy, Farg‘oniy, Buxoriy, Ibn Sino va boshqalar	Ilmiy va diniy siymolar	Movarounnahr Xalifalik markazi	X–XI asrlar
5. Sobuqtegin	Turkiy sulola asoschisi	Janubiy O‘zbekiston	X–XI asrlar
6. Mahmud G‘aznaviy	Qudratli Turkiy davlat qurgan	Janubiy O‘zbekiston	XI–XII asrlar
7. Jaloliddin Manguberdi	Xorasmshoh	Movarounnahr	XIII asr
8. Amir Temur	Qudratli Turkiy davlat va sulola asoschisi	Movarounnahr	XIV asr
9. Ulug‘bek	Shoh va olim	Movarounnahr	XV asr
10. Alisher Navoiy	Shoir va davlat arbobi	Movarounnahr Xuroson	XV asr
11. Bobur	Shoh, shoir, olim	Movarounnahr Hindiston	XVI asr
12. Abdullaxon II	Shayboniy shoh, qudratli, markazlashgan Turkiy davlat asoschisi	Movarounnahr Xuroson	XVI asr
13. Islom Karimov	Mustaqil O‘zbekiston asoschisi	O‘zbekiston	XX–XXI asrlar



19-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Hayotning ma'nosi* – ertami-kechmi har bir inson oldida ko'ndalang turadigan masala bo'lib, uning bir xil yechimi yo'qdir. Inson o'zining erkinligi doirasida qanday yashash kerakligini o'zi hal qiladi.
- *O'lim* – inson biologik hayotining yakunlovchi moment yoki uning jismi faoliyatining yakuni, har qanday ijtimoiy-madaniy tizim dunyoqarashining muhim unsuri.
- *Mangulik* – inson hayotligida ijobiy ma'noda erishgan muvaffaqiyatlarining ezgulik tarzida avlodlar xotirasida saqlanishi.
- *Buyuk shaxs* – xalq orasidan yetishib chiqqan, uning taqdiri va tarixida olamshumul rol o'ynagan kishilarga nisbatan aytiladi.
- *Amir Temur shaxsi* – Vatanimiz tarixida o'tgan ulug' siymolarning eng yirigi. XIV asrda mo'g'ullardan hokimiyatni tortib olib mustaqil, markazlashgan davlat tuzdi va keng qirrali faoliyati bilan yaqin mintaqalar tarixida va hatto Yevropa xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi.
- *Islom Karimov shaxsi* – 130 yil davom etgan mustamlakachilikdan so'ng milliy davlatchilikni tiklashda va uni mustahkamlashda favqulodda jasorat ko'rsatdi.

### Savollar va topshiriqlar



1. O'lim hodisasiga din va fan munosabati qanday?
2. F.Nitsshening «insonning o'limi uning hayotidan ko'ra ahamiyatliroqdir» degan fikrini qanday izohlaysiz?
3. Inson o'limi va manguiligi nisbati qanday?
4. «O'lim»ni madaniyat darajasiga kiritilishi haqida fikringiz?
5. Shaxsning buyukligi nimalarda ko'rinadi?



6. Vatanimiz tarixida oʻtgan qaysi buyuk shaxslarni bilasiz?
7. Hozirgi vaqtda Vatan istiqoliga xizmat qilish buyuklik maqomiga kiradimi?
8. Tarixni shaxslar yaratadimi yoki tarix shaxslarni yaratadimi?

### Amaliy ish



1. Insonning shaxs maqomini aniqlashda «individ» va «individuallik» tushunchalarining oʻrni qanday?
2. Insonning shaxs maqomi uning biologiyaviy mohiyati bilan qanday munosabatda? Buni tushuntirib bering.
3. Ijtimoiylashuv inson shaxsi shakllanishining yagona sharti hisoblanadimi? Bu xususda oʻz mulohazalaringizni ayting.
4. Erkinlik hodisasi inson zotidan boshqa mavjudotlarga ham taalluqlimi? Oʻz fikrlaringizni yozma bayon qiling.
5. Tutqunlikda ham inson shaxs sifatida shakllanadimi? Buni qullar qoʻzgʻaloni sardori Spartak misolida izohlang.
6. Shaxs erkinligi bilan u mansub millatning erkinligi oʻzaro bogʻliqmi? Oʻzbek davlatchiligi tiklanishi misolida tushuntiring.
7. Begonalashuv inson hayotida xususiy holmi yoki obyektiv hodisami? Buni oʻzingizga tanish boʻlgan taniqli shaxslar misolida tushuntirib bering.
8. Shaxs va demokratiya nisbatida ulardan birini avval, boshqasini keyin kelib chiqqan deb hisoblasa boʻladimi? Tarixiy bilimlaringizga tayanib javob bering.
9. Buyuk shaxs butun hayoti davomida buyukmi yoki birikkita voqea ishtirokchisi boʻlish uni mashhur qiladimi? Oʻzingizga maʼlum siymolar misolida izohlang.
10. Vatanimiz va, umuman, Markaziy Osiyo mintaqasida buyuk Amir Temurga teng ulugʻ siymolar boʻlganmi? Bu xususda yakunlangan ming yillikda mintaqada yashab oʻtgan kishilar misolida mulohaza yuring.
11. Prezident Islom Karimov buyukligining siri nimada? Bu toʻgʻrisida yozma ish tayyorlang.
12. Inson stixiyali tarzda yashab hayotini maʼnoli qilishi mumkinmi? Bilganlaringiz asosida yozma javob tayyorlang.

13. Inson o'limini ham ma'noli qilish mumkinmi? Buni mulohaza qilib ko'ring.
14. Evtanaziya haqida nimalarni bilasiz? Bilganlaringizni mulohaza qiling.

### **Ma'ruza va referatlar uchun mavzular**



1. Individning tavsifi.
2. Individuallikning mohiyati.
3. Shaxsning mohiyati.
4. Ijtimoiylikning mohiyati.
5. Erkinlikning tavsifi.
6. Erkinlikning turlari.
7. Erkinlikning me'yorlari.
8. Davlat mustaqilligi va erkinlik.
9. Begonalashuvning tavsifi.
10. Shaxsning siyosiy maqomi.
11. Demokratiya sharoitlarida shaxs mas'uliyati.
12. Buyuk shaxs maqomi tavsifi.
13. Donolar o'lim haqida.
14. Hayotning ma'nosi.
15. Hayotning mazmuni.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
2. Falsafa. Darslik. M. Ahmedova tahriri ostida. – T., 2013.
3. Гуннар Скирбекк, Нилс Гилье. Фалсафа тарихи. – Т., 2001. 23 боб.
4. Choriyev A. Inson falsafasi, II-kitob, – T. 2002.
5. Сартр Ж-П. Экзистенциализм – бу гуманизм. «Жаҳон адабиёти» журн. 1998. 4 боб.
6. Ницше. Ф. Зардушт таваллоси. – Т., 2008.
7. Камю А. Миф о Сизифе. – М., 1998.
8. Гуревич П.С. Основы философии. – М., 2002.
9. Тейяр де Шарден. Феномен человека. – М., 1987.
10. Человек. Мыслители прошлого и настоящего о его жизни, смерти и бессмертии. XIX век. – М., 1995.

# **IKKINCHI BO‘LIM**

## **JAMIYAT – KISHILIK DUNYOSI (SOTSIUM)NING TASHKILY SHAKLI**

---

### **IV bob. KISHILIK DUNYOSI**

#### **II.4.1. Jamoa va jamiyat**

*«Sotsium», «Jamo» va «Jamiyat» tushunchalari o‘zaro qanday nisbatda? Jamiyatning o‘z-o‘zicha yetarliligi va murakkabligi nimalarda ko‘rinadi? Jamiyatning nazariy modelida tushuncha va tamoyillarning o‘rni qanday?*

**«Sotsium», «jamo» va «jamiyat» tushunchalari.** «Sotsium» atamasidagi lotincha «sotsio» fe‘li qo‘shish, birlashtirish, birgalikda mehnat qilmoqni anglatadi. Tushuncha sifatida «sotsium», *universumning* – yaxlit olamning tarkibiy qismi bo‘lgan *kishilik dunyosi alohida jihatlarini* ifodalaydi. Unda tabiatga, tabiiylikka muqobil bo‘lgan ijtimoiy-madaniy borliq aks etadi.

*«Jamo» va «jamiyat»* atamaları anglatgan ma‘nolariga ko‘ra yaqindir. Har ikki so‘z arabcha «*jam‘a*»dan yasalgan bo‘lib, kishilarning turli darajada va maqomda olingan umumiyligini anglatadi. Agar «*jamiyat*» deyilganda keng ma‘noda oldingi paragraflarda ko‘rsatib o‘tilganidek, *kishilarning birgalikdagi manfaatları va kelishuvi asosida maqsadga muvofiq oqilona tashkil etilgan birgalikdagi faoliyati ifodasi tushunilsa*, «jamo» tushunchasida umumiy kelib chiqish, til, taqdir va qarashlar bilan bog‘liqlik o‘z aksini topadi. Oila, xalq va hokazolar ayni shunday jamoalardir. Har qanday jamoa ham jamiyat bo‘lavermaydi. Lekin istalgan jamiyat jamoa hisoblanadi. Ayniqsa, jamiyat murakkab jamoa bo‘lib *o‘z-o‘zidan tashkillanganlik* va rivojlanish xususiyatlariga egadir. Bunday murakkab hodisani yaxlit holda na kuzatib va na tajribada tekshirib bo‘ladi. Uni faqat nazariy jihatdangina andaza, nusxa tarzida tasavvur etib, asosiy jihatlarini aniqlash mumkin.

«Jamiyat» deyilganda, odatda hammaga tushunarli boʻlgan atama va, hatto, tushuncha tasavvur etiladi. Gʻayritabiiylik shundaki, koʻpincha bu xildagi tushunchani taʼriflash, uning salmogʻini aniqlash juda qiyin.

Masalaga tarixiy yondashilganda koʻrinadiki, «jamiyat» tushunchasi alohida holda XIX asrdan beri qoʻllaniladi. Unga qadar boshqa ilmiy tushunchalar orqali ifodalangan. Masalan, qadimgi yunon mutafakkirlari qarashlarida jamiyat nazarda tutilib shunday fikrlar ilgari surilgan: Empedokl (miloddan avvalgi 341–270-yillar) fikricha, «*kishilar oʻz hayotini yoʻlga qoʻyish uchun ongli ravishda uyushadilar*». Aflotunning fikricha (miloddan avvalgi 427–347-yillar), «*kishilar ehtiyojlariga koʻra bir-biriga muhtojdir*».

Qadimgi yunonlar qarashlari markazida Olamning tarkibiy qismi sifatida kishilik dunyosi asosan axloq va davlat fenomenlari misolida tadqiq qilingan. Ayni ana shu tushunchada kishilar hayotining boshqa sohaları ham oʻz aksini topgan.

Kishilik hayoti muammolarini keyinroq maxsus tadqiq etgan mutafakkirlar – *J.Vikoning* (1668–1744, «Millatlarning umumiy tabiati toʻgʻrisida yangi fanning asoslari»), *I. Gerderning* (1744–1803, «Inson tarixi falsafasiga doir») asarlarida «jamiyat» atamasi ishlatilmay, «*millat*» va «*insoniyat*» tushunchalari qoʻllangan. XIX asrda *O.Kont*, *G. Spenser* va boshqalarning asarlarida bu tushuncha uchray boshladi.

**«Jamiyat» tushunchasiga zamonaviy yondashuvlar.** Kishilik dunyosi shakllari turli darajalaridan kelib-chiqib, jamiyat toʻgʻrisidagi yangidan yangi qarashlar ilgari surildi. Ulardan *biriga* koʻra kishilarni jamiyatga ruhiy hayot oʻxshashligi, qadriyatlar mohiyatini bir xil tushinishi birlashtiradi. *Boshqasiga* binoan jamiyat – bu: 1) oʻzidan katta tizimga kirmagan birlashma; 2) nikohlar birlashma aʼzolari oʻrtasida tuziladi; 3) birlashma aʼzolari bolalar hisobiga toʻldiriladi; 4) hududiga ega; 5) oʻz nomi va tarixiga ega; 6) oʻz boshqaruv tizimiga ega; 7) oʻzining asosiy umridan keyin ham mavjud boʻladi; 8) oʻzining madaniyatiga (odatlari, anʼanalari, meʼyorlari, qonunlari, qoidalari va h.k.) ega. *Uchinchi* nuqtayi nazar tarafdorlari moddiy-iqtisodiy ishlab chiqarishni kishilik hayotining asosiy tashkil etuvchisi, deb hisoblaydilar.

Ko‘rinadiki, «jamiyat» tushunchasining qo‘llanilish ko‘lami, tarkibiy jihatlarini juda keng va turli-tumandir. Mazkur tushunchaga keng ma‘no berilsa, «jamiyat» «*tabiat ustida turgan olam*», «*ijtimoiy-madaniy borliq*», «*sotsium*» bilan bir xil ma‘noni anglatadi. Ma‘lumki, turli ijtimoiy oqimlar bu tushunchalar yordamida kishilik dunyosi umumiy masalalarini xilma-xil ta‘limotlarda (ba‘zan ular bir-birini inkor etishi mumkin) ifodalab keldilar.

Jamiyatni keng ma‘noda tushunish shartli bo‘lib, buni hisobga olmaslik ko‘pgina chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, ovchilar jamiyati bilan kishilik jamiyati sifat jihatidan ham, mohiyat jihatidan ham boshqa-boshqa ekanligi o‘z-o‘zidan ma‘lum.

*Jamiyat kishilar birgalikdagi faoliyatining tashkiliy shakllari turli darajalaridan iborat* bo‘lganidan uning doirasida turli-tuman uyushmalari a‘zolari, uchun umumiy bo‘lgan ehtiyojlar qondiriladi. Aniqroq qilib aytganda, *jamiyat – bu o‘z-o‘zicha yetarlilik bo‘lib, o‘z a‘zolari turmush sharoiti uchun barcha zarur jarayonlarni yo‘lga qo‘yadi, amalga oshiradi.* Buni jamiyat bilan uning bir qismi bo‘lgan siyosiy partiya nisbatida yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasidagi hukmron partiyaning a‘zolari soni allaqachon 100 million kishidan oshib ketgan. Lekin bu partiya jamiyat ichida mavjud. Umumiy soni mingdan ham ko‘p bo‘lmagan yovvoyilar qabilasi haqiqiy, to‘laqonli jamiyat bo‘la oladi. Gap shundaki, etnos tarixan birinchi o‘z-o‘zicha yetarli ijtimoiy guruh bo‘lgan. «Jamiyat» tushunchasiga zamonaviy yondashishlar, etnos a‘zolari birgalikdagi xatti-harakatlari bilan zarur hayot sharoitlarini yaratadilar.

So‘z turkumlaridan ot bo‘lgan «sotsium» va «jamiyat» so‘zlaridan «*sotsial*» va «*ijtimoiy*» sifatlar yasaladi. Binobarin, ularni sinonim sifatida ishlatish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki bu tushunchalar anglatadigan ma‘nolar, garchand yaqin bo‘lsa-da, lekin aynan emas. «Sotsium» tushunchasi «jamiyat» tushunchasidan keng. «Jamiyat» tushunchasi «sotsium» ifodalaydigan voqelikni konkretlashtirib aks ettiradi, uning mavjudlik usulini ko‘rsatadi. Ushbu holat va sifat ko‘rinishidagi «jamiyat», «ijtimoiy» so‘zlarini aniq ishlatish, o‘rnida qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

**Nazariy model.** Jamiyatdek murakkab hodisani yaxlit holda na kuzatib va na tajribada tekshirib bo‘ladi. Uni faqat nazariy jihatdangina andoza, nusxa tarzida tasavvur etib, asosiy jihatlarni aniqlash mumkin. Nazariy model insoniyat voqeligi barcha jihatlarini o‘zida mujassam eta olmasa-da, jamiyatning mohiyati, mazmuni va rivojlanish sharoitlari hamda masalalariga mumkin qadar to‘laroq javob topishda katta imkoniyat yaratadi. Jamiyatni nazariy modellashtirish yordamida mavhumlikdan konkretlikka, aniqlikka borishi ta‘minlanadi. Ya‘ni, bunda model aniq bilimlar, masalan, kishilik tarixi rivojlanishining o‘tmishiga tatbiqan antik davr jamiyati, undan keyingi asrlar jamiyati va hokazo bosqichlarni farqlashga imkon beradi.

Tasavvur etilgan nazariy modeldan aniqlikka borilgan sari tobora mazmunan to‘lalikka erishiladi. Chunki obyektning yuksak rivojlangan tarzi modellashtirilgani tufayli aniqlikka erishilganda, uning xususiy jihatlari o‘zining rang-barangligini, jamiyat esa murakkab tarkibini namoyon etadi.

Nazariy model tufayli nafaqat mavhumlikdan jamiyat aniq jihatlarni bilishga o‘tiladi, balki aniq jihatlarni umumlashtirish orqali yana mavhumlikka qarab boriladi. Natijada jamiyatni tashkil etgan tomonlar va jarayonlar hamda ular o‘rtasidagi aloqadorlikni ham aniqlash mumkin bo‘ladi.

**Jamiyat hayotining tushunishning asosiy tamoyillari va tushunchalari.** Jamiyatni umumiy tushunishda mavhumlikdan konkretlikka va tarixiylikdan mantiqiylikka borish ta‘minlanadi. Masalan, bularning birinchisida kishilik tarixi rivojlanishining o‘tmishiga tatbiqan antik davr jamiyati, undan keyingi asrlar jamiyati va hokazo bosqichlarni farqlashga imkon beradi.

Jamiyatning tahlili har qanday sharoitda ham muayyan tamoyillar va tushunchalar tizimiga tayanadi.

**Faoliyatlilik** eng asosiy tamoyil sifatida kuchlarning aktivligi tufayli maqsadga muvofiq ravishda tevarak-atrofni va o‘z-o‘zini o‘zgartirishni anglatadi. Bunda faoliyat tarkibi ilgari surilgan maqsad, tanlangan vositalar, erishilgan natija va, tabiiyki, jarayonning o‘zidan ham iborat bo‘ladi.


Jamiyatga faoliyatlilik pozitsiyasidan yondashish asosida ishlab chiqilgan ma'lum tushunchalar tizimida kishilik hayotining eng umumiy aloqadorliklari va xususiyatlari ifodalanadi. Bular jumlasiga «*ijtimoiy munosabat*», «*ijtimoiy aloqa*», «*ijtimoiy ishlab chiqarish*», «*ijtimoiy jarayon*», «*obyektiv omil*», «*tarixiy qonuniyat*», «*sivilizatsiya*», «*madaniyat*», «*qadriyat*», «*maqsad*», «*manfaat*», «*shaxs*», «*oila*» va h.k. tushunchalar kiradi.

Bu tushunchalar jamiyatning konkret sohalarida o'ziga xos konkret ko'rinishda olinadi. Xususan, iqtisodiyot sohasi tushunchalariga «*mulk*», «*iste'mol*», «*texnika*», «*texnologiya*», «*fan-texnika inqilobi*» va boshqalar kiradi. «*Ma'naviyat*», «*g'oya*», «*qadriyat*», «*ma'naviy ehtiyoj*», «*ma'rifat*», «*mafkura*», «*e'tiqod*» va hokazolar ma'naviy soha tushunchalaridir. Siyosiy soha tushunchalari o'z ichiga «*siyosat*», «*hokimiyat*», «*siyosiy guruh*», «*millat*», «*davlat*», «*tashkilot*», «*boshqaruv*», «*demokratiya*» va hokazolarni oladi. Bu tushunchalarning chegarasi doimiy emas.


Mazkur tushunchalarni ma'lum tartibotlarga keltirishga har qancha urinilmasin, ular o'rtasidagi me'yor hamisha shartlidir. Ularda aks etadigan jamiyat hodisalari, voqealari va jarayonlari doimo o'zaro ta'sirda bo'lib, bu chegarani o'zgartirib turadi. Chunki jamiyatga chuqurroq qaralsa, unda kishilar o'zlarining obyektiv va subyektiv ehtiyojlariga ko'ra bir-biri bilan ko'pdan ko'p munosabatlarni amalga oshiradilar. Qat'iy ma'noda jamiyat rivoji, mazmun-mohiyati kishilarning hayoti, ularning o'zaro munosabatlari va daxldorligi orqali ta'minlanadi.




20-sxema




21-sxema



22-sxema



23-sxema



24-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Sotsium va jamiyat* – o‘zaro bog‘langan tushunchalar bo‘lib, birinchisi kishilik dunyosi umumiy tavsifini ifodalab o‘z ichiga ikkinchisini qamraydi. Jamiyat sotsiumning turli darajalardagi tashkiliy ifodasidir. Ba‘zi o‘rinlarda bu tushunchalar tor ma‘nolarda ham ishlatiladi.



- *Jamiyatning asosi* – bu tushunchada ijtimoiy voqelikni muayyan tushunishga bog‘liq ravishda iqtisodiyot, ma’naviyat yoki turli xil omillar asosida izohlash yotadi.
- *Jamiyatning o‘z-o‘zicha yetarliligi* – jamiyatning mavjudligini va o‘z-o‘zidan rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlarning yetarliligini ifodalaydi.
- *Nazariy model* – obyekt «sof holdida» mantiqan tasavvur etilib o‘rganiladi va olingan bilimlar obyektga tatbiq etiladi.
- *Tamoyil* (arabcha: *ilk asos*) – qat’iy qoidani, asosiy sababni, belgilangan tartibni anglatadigan tushuncha.
- *Tushuncha* – tafakkurning mantiqiy shakllaridan biri, tildagi bir xil ifodalanishning hamma tomonidan tan olinganligi.

### Savollar va topshiriqlar



1. «Jamiyat» tushunchasiga doir qarashlarda qaysi jihatlar o‘zgarishsiz qoladi?
2. «Jamoat» va «jamiyat» tushunchalari qanday nisbatda?
3. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan «sotsium» (ot) va «jamiyat» (ot) hamda «sotsial» (sifat) va «ijtimoiy» (sifat) istilohlarining ma’nolarini mulohaza qilib ko‘ring.
  1. Faoliyat tamoyil sifatida va jarayon tarzida qanday tavsifga ega?
  2. Jamiyatni o‘rganishda qo‘llaniladigan ilmiy tushunchalarning boshqa zarur atamalardan farqi nimada?
  3. Faoliyat jarayon sifatida qanday tavsiflanadi?

### II.4.2-3. Jamiyat hayotining asosiy sohalari<sup>1</sup>

*Soha va tushuncha sifatida ma’naviyat nima? Moddiy-iqtisodiy hayot nimalardan iborat? Ijtimoiy soha qanday tarkibga ega? Boshqaruv nima? Davlat va demokratiya aloqasi qanday? Ijtimoiy institutlar nima?*

**Ma’naviyat sohasi.** Jamiyat a’zolari ichki dunyolarida *bir* tomondan o‘zlariga tegishli, *ikkinchi* tomondan esa umumijtimoiylikni ifodalagan eng oddiy his-tuyg‘u, hayajon, hissiy bilish, tajriba, odatlardan tortib ruhiyatning oliy bosqichi qadriyatlarigacha joylaydilar. Ma’naviyat deb ataladigan bu ichki tuzilma kishilar moddiy borlig‘iga muqobildir. Ma’naviy hodisalar takror hosil etib

<sup>1</sup> Ushbu fasl falsafa fanlari nomzodi, dotsent F. Saifnazarova tomonidan yozilgan.

turishlikni taqozo etadi. Bular tegishli sohalar qadriyatlari bo'lib, madaniyat umumiy tizimi tarkibiga kiradilar.

Madaniyat kishilarning va ular mansub bo'lgan jamiyatning keng ma'noda olingan bilish, axloq-odob, adabiyot va san'at, falsafa, huquq, din va hokazolarni o'z ichiga oladi. Bu hodisalar mavjudligi bilan bog'liq holda tegishli tashkilotlar va muassasalar faoliyati ham ma'naviylik kasb etadi. Barcha holatlarda bularning ma'naviy mohiyati voqelik to'g'risidagi *axborotlarga* asoslanishidir. Aniqrog'i, jamiyatda axborotlar muayyan tarzda yig'iladigan, saqlanadigan va qayta ishlanadigan soha ma'naviyat sohasidir. Inson shunday tuzilganki, u «sof holda» olingan axborotni shunchaki qayd etib qolmaydi, balki undan foydalanadi. Bu axborotning moddiy tashuvchisi miyada joylashgan bo'lib, inson uning borligini bilsa-da, lekin his eta olmaydi.

Ijtimoiy voqelikni ma'naviy-axloqiy o'zlashtirish mavjud jamiyatda amalda bo'lgan huquqiy, axloqiy, diniy va hokazo me'yorlar tizimi doirasida amalga oshadi. Agar huquqda bular davlat hokimiyati, jamoa tashkilotlari tomonidan belgilangan va nazorat qilinadigan, shuningdek, ilgari davom etib kelayotgan an'anaviy me'yorlar bo'lsa, axloqda boshqacha tarzda mavjuddir. Unda jamiyat tomonidan kishilarning ezgulik, adolat, burch, sha'n va bularning muqobillari to'g'risidagi axloqiy bilimlariga muvofiq belgilanadi va jamoatchilik fikri kuchi bilan nazorat qilinadi.

Dinda bulardan farqli o'laroq ijtimoiy me'yorlar kishilarning Olamni, shu jumladan, kishilarning o'zini ham yaratgan xudo to'g'risidagi tasavvurlarga tayanadi.

**Ziyolilar – ma'naviyat yaratuvchilari.** Ziyolilar dastlab alohida ijtimoiy guruhni, so'ngroq qatlamni tashkil etadi. Ular kasbiy jihatdan asosan murakkab aqliy faoliyat bilan shug'ullanadilar. Ayni vaqtda, ular faoliyati ma'naviy-amaliy xarakter ham kasb etishi mumkin. Masalan, ma'naviy qadriyatlarni taqsimlash, tarqatish va iste'mol masalalari muayyan mutaxassislarining nazorati bo'lishligini taqozo etadi.

Ziyolilar qadimda aytarli badavlat bo'lmagan erkin fuqarolardan, undan keyingi asrlarda bir qismi mehnatkash ommaning, shu

jumladan, kambag'al tabaqaning ham iqtidorli vakillaridan yetishgan. Bunday hol kishilik jamiyati tadrijining keyingi bosqichlarida ham saqlangan. Ammo ma'naviy qadriyatlarga katta ijtimoiy ehtiyoj tufayli ziyolilar safi tobora keng xalq ommasi vakillari hisobiga to'lib bormoqda.

Hozirgi vaqtda barcha rivojlangan davlatlarda ziyolilar mavjud ko'pchilik – o'rta qatlamning asosiy qismini tashkil etadilar va xizmat ko'rsatuvchi barcha sohalarda ularning soni tobora oshib bormoqda. Bunda ta'lim tizimining o'rni, ahamiyatining qanday bo'lishi, o'z-o'zidan, ravshandir.

Hozirgi jamiyatda yuksak bilimli, o'ziga ishongan, mas'ul qarorlar qabul qilishga tayyor, zamonaviy texnika va texnologiyadan zarur darajada xabardor mutaxassisni faqat maxsus tayyorlash mumkin. Masalan, Shvetsiyada bu maqsadda har bir o'quvchiga individual yondashiladi. Mamlakat bo'yicha har 9 o'quvchiga bitta o'qituvchi to'g'ri keladi. Yoki Germaniyada texnik ta'lim uchun 4 yildan kam bo'lmagan vaqt ajratilgan. Lekin talabalarga chuqur mutaxassis bo'lish uchun 6–7 yil o'qish imkoniyati berilgan. Chunki firmalarga diplom egalari emas, balki mutaxassislar kerak, shunga ko'ra talabalar vaqtni qizg'anmasdan ixtisoslik egallaydilar.

Zamonaviy ta'lim tashkiliy-huquqiy jihatdan O'zbekiston Respublikasida eng yuksak talablar darajasida yo'lga qo'yilgan. Endigi vazifa mas'uliyat bilan mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

***Iqtisodiyot sohasi.*** Kishilarning o'z moddiy sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha faoliyat turlari yig'indisiga iqtisodiyot deyiladi. Ana shu faoliyat turlari insonning boshqa jonzotlardan farqini ko'rsatadi. Inson tabiatdan oladiganlari bilan cheklana olmaydi. Unda ilgari bo'lmagan mahsulotni inson ehtiyojiga moslab yaratish lozim bo'ladi. Inson tabiatga ta'sir etish uchun tana kuchlarini harakatga keltirib, o'z hayotining doimiy va zaruriy asosi bo'lgan moddiy ne'matlar ishlab chiqaradi. Bunda bir tomondan inson bilan tabiat o'rtasida yuz beradigan modda va quvvat almashuvining, inson mehnatining ilk mahsuli, ikkinchi tomondan esa inson

mehnatining dastlabki vositasi bo'lgan ish qurolidan foydalaniladi.

**Mehnat unumdorligi va texnologiya.** Inson quvvatining nechog'li oqilona sarf etilganligi mehnat unumdorligining darajasini belgilaydi. Uning unumdorligini oshirish vazifalari tufayli *mehnat taqsimoti* – kelib chiqqan. Qadimdan hozirgacha mehnat taqsimotining ko'pdan ko'p shakllari yuzaga kelgan. Jumladan, aqliy va jismoniy mehnatga bo'linishi va o'tmishda chorvadorlar *ovulidan* dehqonlar *qishlog'i*, undan shahar ajralib chiqqan. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishning *texnologiyaviy* va *tashkiliy* jihatlarini kuchaytirmasligi mumkin emas edi.

Ishlab chiqarishda fan va amaliyot talablari asosida ta'sir etuvchi usul – bu texnologiyadir. Ushbu ta'sir muayyan texnika (lotinchada «*texnika*», «*mahorat*», «*san'at*» ma'nolarini anglatadi) yordamida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishning *tashkiliy* jihatları – bu mehnat faoliyatini turli ko'rinishlarda yo'lga qo'yish, uning texnologiyaviy, tarmoq, hududiy taqsimlanishi, mehnatning ixtisoslanishi, shirkatchilik va hokazolarni ifodalaydi.

**Fan-texnika taraqqiyoti.** Texnika taraqqiyoti fandagi chuqur o'zgarishlarsiz yuz bermaydi. Hozir esa bu o'zgarishlar bir vaqtning o'zida yuz beribgina qolmay, balki sifat xususiyatlariga ham ega bo'lgani uchun *fan-texnika inqilobi* (FTI) deb atalmoqda. Namoyon bo'lishiga ko'ra, FTI o'zining hozirgi bosqichida *mikroelektronika*, *biotexnologiyaning rivojlanishi*, yalpi *kompyuterlashtirish* va hokazolardan iborat bo'lmoqda.

Ishlab chiqarishni *tashkiliy-iqtisodiy* va *ijtimoiy-iqtisodiy* munosabatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bulardan birinchisi ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida kelib chiqadigan munosabatlarni ifodalasa, ikkinchisi mulk munosabatlarini aks ettiradi.

Mulk tushunchasi inson o'ziga tegishli bo'lgan narsalar, shu jumladan, o'zining hayotini, jismoniy va ma'naviy kuchlarini tasarruf etish huquqiga ega bo'lgandagina yuzaga keladi.

**Ijtimoiy soha.** Ruhiyat, shu jumladan, irodaga ega bo'lgan kishilar iqtisodiy faoliyatidan tashqari ham muayyan tarzda uyusha-

dilar. Ularning *hududiy* (ovul, qishloq va shahar o'rtasidagi farqlar), *demografiyaviy* (aholining jinsi, yoshi, kasb-kori va hokazo jihatlari), *etnik* (el-elat va millat bilan bog'liq), *sinfiy* (tipik holda ko'proq Yevropaga oid) jihatlarda ijtimoiy faoliyat alohida sohani – ijtimoiy sohani tashkil etadi. Ijtimoiy soha ikki – *keng* (butun jamiyatga tegishli) va *tor* (jamiyat hayotining muayyan sohasi) ma'nolarida farqlanadi. Ikkinchi holda «ijtimoiy soha» tushunchasi yuqoridagi tuzilmalardan tashkil topganlik ma'nosida qo'llaniladi<sup>1</sup>.

Hududiy umumiylikning barqaror ijtimoiylik kasb etishi kishilarning muayyan ma'muriy hududlardagi hayot tarziga aloqador. Masalan, bizning mamlakatimizga tatbiqan ovul, qishloq va shaharlardagi mulkchilik, hokimiyatni tashkil etish shakllari, xilma-xil infratuzilmalar faoliyati bilan bog'liqdir.

Demografiyaviy omil ijtimoiy sohaga tug'ilish, o'lim, jinslar nisbati, jins va yosh tarkibini o'rganish, aholi ko'payishi darajalarini hisobga olish va hokazolardan iborat. Shuningdek, bu tarmoqqa doir boshqaruv institutlari faoliyatlari orqali tegishli bo'ladi.

Ijtimoiy soha tarkibiga kirgan etnik shakllarning o'zi xiyla katta mazmuni tashkil etadi. Ulardan urug' dastlabki ijtimoiy umumiylik (birlik) hisoblanadi va ijtimoiy tarixning uzoq davom etgan ibtidoiy jamoa davriga to'g'ri keladi. Urug'lar tadriji natijasida qabila umumiyligi hamda qabilalar ittifoqi qaror topadi. Ular, o'z navbatida, keyingi umumiyliklarning – elat va millatning paydo bo'lishida zamin hisoblanadi.

Hozirgi sharoitlarda millatlararo va davlatlararo munosabatlarning tig'izlashuvi jarayonida alohida umumiylik sifatida xalq shakllanmoqda.

Tipik holda aholining ko'proq Yevropaga oid olinganidagi sinfiy tabaqalanishi ijtimoiy soha tuzilmalarida muhim o'rin tutadi. Sinflarning mavjudligi, dastavval, mulkchilik shakllari va ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq. Hozirgi rivojlangan davlatlarda sinfiy farqlanish avvalgi o'tkirligini yo'qotib bormoqda. Zero,

---

<sup>1</sup> «Ijtimoiy soha» atamasi yanada torroq sohani, masalan, ijtimoiy himoya qilish, nafaqa ta'minoti va hokazolarni ham anglatishi mumkin.

uning o'rnini ijtimoiy qatlamlardagi bilim darajalari, mavjud ho-kimiyatga munosabatlari, yashash tarzlarining o'xshashligi singari belgilariga ko'ra ajralib turadigan ijtimoiy guruhlar egallamoqda. O'z navbatida, ijtimoiy guruhlar kishilarning ijtimoiy ahamiyatga molik mezonlarga ko'ra farqlangan istagan tarzdagi birligidir. Bu jihatdan yondashganda ijtimoiy maqomni – insonning jamiyatdagi o'rnini, ahvolini ham farqlash lozim bo'ladi. Buni quyidagi misolda – ayni bir odamni turli jihatlardan olib ko'rish mumkin: kasbi – o'qituvchi; yollanib ishlab o'rtacha ish haqi oluvchi – iqtisodiy belgi; 50 yoshdagi erkak – demografik ko'rsatkich; siyosiy partiya a'zosi – ijtimoiy pozitsiya va hokazo.

**Mehnat jamoalari.** Ijtimoiy sohani yuqorida qarab chiqilgan tashkil etuvchilari qatoriga yana ishlab chiqarishning muayyan tarmoqlarida band bo'lgan mehnat jamoalari, shuningdek, *fermerlar*, turli tarzdagi *ijarachilar*, savdo sohasi *dallollari* (brokerlari) va boshqalarning egallagan ijtimoiy maqomidan kelib chiqib qo'shish mumkin.

*Savodxonligi, ma'lumoti darajasi* (masalan, boshlang'ich, o'rta yoki oliy) va xarakteriga ko'ra ijtimoiy-kasbiy (konkret kasb, aqliy va jismoniy mehnat egalari) maqomiga binoan farqlanish ham aholining muayyan qismi sifat holatini ifodalaganligiga ko'ra ijtimoiy sohaga mansub hisoblanadi. Kishilarning yuqoridagicha farqlanishi, agar ular oladigan *daromadlari darajalariga* (yashash minimum doirasida o'rtacha yoki yuqori daromadga ega bo'lganlar) bog'liq holda belgilansa, bu ham ijtimoiy sohaga tegishli bo'ladi.

Jamiyat hayotining ijtimoiy sohasi tarkibi haqida gapirganda *nikoh* va *oilani* chetlab o'tib bo'lmaydi. Zero, nikoh huquqiy shartnoma bo'lib er-xotin, bolalar va qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Oila esa nikohga, qon-qardoshlikka, maishiy hayot umumiyligiga, axloqiy va o'zaro yordam mas'uliyatiga asoslangan kichik guruh, alohida ijtimoiy institutdir.

**Boshqaruv va siyosat sohasi.** Boshqaruv o'zida jamiyatni muayyan maqsadlar tomon yo'naltirish, tarkibiy unsurlarini

takomillashtirish hamda rivojlantirishini ta'minlashni ifodalaydi. Boshqaruv, ikkiga: *stixiyali* (masalan, an'ana, odat, bozor munosabatlari va h.k.) va *o'z-o'zini ongli* (masalan, oilaviy munosabatlarda) boshqaruvga bo'linadi. Ikkinchi xil boshqaruv ham ikki ko'rinishga ega. Birinchisida *majburiylik* obyektiv ravishda jamiyat yoki uning muayyan qismlari ehtiyojlari bilan yuzaga kelsa, ikkinchisida *maxsus yaratilgan tashkilotning* vazifasi majburiylikni amalga oshirishdan iborat bo'ladi.

Har qanday boshqaruv nuqtasi *hokimiyatga* taqaladi. Hokimiyatning umumiy doirasi ichida katta ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq siyosiy hokimiyat shakli farqlanadi. Siyosiy hokimiyat yuzaga kelishi bilan bog'liq holda jamiyatning siyosiy sohasi tashkil topadi. Endi siyosatda o'z ifodasini topmaydigan ijtimoiy hodisaning o'zi bo'lmaydi. Bu soha markazida davlatga nisbatan munosabat yotadi. Uni quyidagicha ta'riflash mumkin: *davlat – bu insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining mahsuli, xalqlar va millatlar hayotining huquq va qonunga asoslanib tashkil etilgan shaklidir.*

Davlat va huquqning bog'liqligi uch asosiy jihatni – *birlik* (kelib chiqishidagi o'xshashlik va funksional umumiyliklari), *o'zaro farq* (birinchisi kuch-qudratni, ikkinchisi esa irodani ifodalaydi) va *o'zaro ta'sirni* (davlat tomonidan huquq qonun sifatida yaratiladi, o'zgartiriladi, huquq esa davlat faoliyatini qonuniylashtiradi, uning amal qilish chegaralarini belgilaydi) o'z ichiga oladi.

Hozirgi zamon ijtimoiy qadriyatlari nuqtayi nazaridan davlat hokimiyati boshqaruvda ikkita umumiy jihatni ko'rish mumkin:

*Birinchidan*, davlat paydo bo'lishi bilan kishilar hayotini tashkil etish va uni boshqarishning tarixan mavjud bo'lgan tamoyillari asosida yangi shakllari qaror topdi.

*Ikkinchidan*, davlat mavjudligi sharoitlarida behisob vayronagarchiliklar keltirgan minglab urushlar, butun-butun xalqlarning qirilib ketishi, mustamlakachilik va boshqa ko'pgina dahshatli voqealar ham yuz berdi.

**Siyosiy soha.** Davlatchilikni rivojlantirish bilan siyosiy boshqaruvning murakkab tartiboti maydonga keladi. Bunda, eng

avvalo, jamiyatning siyosiy sohasida yuzaga keladigan siyosiy tashkilotlar turkumi, masalan, *partiyalar* nazarda tutiladi.

*Siyosiy partiya* – bu jamiyat ma’lum qismi manfaatlarini ifodalab, ularni hokimiyat ishlarida qatnashishi yoki davlatni qo’lga kiritish orqali amalga oshirishni ko’zlagan hamfikrli kishilarning uyushgan guruhidir. Uning kurtaklari juda qadimga borib taqaladi. Hozirgi maqomdagi siyosiy partiyalarning dastlabki ko’rinishlari Yevropada XVII–XVIII asrlardagi inqiloblar davrida yuzaga keldi va xalq vakolatchiligini ifodaladi. Hozirgi vaqtda siyosatga xalq ommasining tortilishi munosabati bilan siyosiy partiyalarning roli oshib ketdi hamda ular siyosatning asosiy subyektlaridan va demokratik davlat zarur unsurlaridan biriga aylandi. Buni davlatning vakolatli organlariga o’tkaziladigan saylovlarda ishtirok etish (nomzodlar tavsiya etish, saylovoldi targ’iboti, saylov komissiyalari ishida qatnashish va hokazo) da ko’rish mumkin. Davlat ham partiyalarni qonun yo’li bilan (partiyalarning siyosiy tizimdagi o’rni va roli belgilashi; ularning tashkil etilishi va faoliyatining to’xtatilish tartibi, shartlari; dasturlari va mafkurasiga doir talablar; partiyalarning moddiy-iqtisodiy bazasining belgilanishini va hokazo) nazorat qiladi. Partiyaviy tizim odatda *ko’ppartiyaviylik* (demokratiya mavjudligida) va *bir partiyaviy* (totalitar davlatlarda) ko’rinishidan iborat.

***Ijtimoiy institutlar.*** Jamiyat ichida harakatlanuvchi kuchlar xatti-harakati oqibatlarini oldindan ko’rish iloji yo’q. Shunga ko’ra, sotsiumning rivojlanishi *kishilar faoliyatining shakli bo’lgan* ijtimoiy institutga bog’liqdir. «Institut» atamasi fanda ko’p ma’nolarda va ko’p o’rinlarda qo’llaniladi.

Ijtimoiy institut kishilar o’rtasidagi munosabatlarni, ularning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi, jamiyatda barqarorlikni ta’minlovchi vosita hisoblanadi. Odatda eng muhim, eng zarur darajadagi institutlarga oilaviy, siyosiy, iqtisodiy, ta’limiy va diniy tuzilmalar kiradi. Hozirgi rivojlangan jamiyatlar sharoitida fan qadriyatlarini tobora muhim ahamiyat kasb etib borgani sari uning standartlarini ham institut jumlasiga kiritish mumkin.



Insoniyat tarixining har bir bosqichi o'zidan oldingisidan institutlarning soni va salmog'ining oshib borishi bilan tavsiflanadi. Buni hozirgi vaqtda amalda bo'lgan institutlar ko'lami misolida, ayniqsa, yaqqol ko'rish mumkin.

Tashkilotlar, muassasalar hamda kishilar xatti-harakati me'yorlar va bu me'yorlarga muvofiq keladigan fe'l-atvor tizimi ijtimoiy institutlarni tashkil etadi.

Har bir institutning o'z maqsadi, unga erishishni ta'minlovchi aniq vazifalari va alohida maqomi bo'ladi. Ijtimoiy institut bajarishi lozim bo'lgan vazifalar xilma-xildir. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

1. Ijtimoiy munosabatlarni takror hosil etish va mustahkamlab qo'yish vazifasi.

2. Institutsiyaviy jarayonlar natijasida yuz beradigan o'zaro bog'liqlik, o'zaro mas'uliyat va jiplashuvga erishish – birlashtirish vazifasi.

3. Tarbiyaviy vazifa – ijtimoiy tajribani yoyish orqali institut chegarasini kengaytirish, uning a'zolarini ko'paytirishga erishish maqsad etib qo'yiladi.

4. Kishilarga turli axborotlarni yetkazish orqali jamiyat ravnaqiga xizmat qilishga qaratilgan – kommunikativ vazifa.

**Tashkilotlar.** Ijtimoiy institutlar tizimida nisbiy mustaqil holda tashkilotlar farqlanadi. Odatda tashkilot deganda muayyan me'yorlar va qoidalar asosida manfaatlarni, maqsadlarni va dasturlarni amalga oshiradigan uyushma tushuniladi. Boshqa jihatlardan ham uning ma'nolari, xususan, ijtimoiy tuzilmaning unsuri, u yoki bu guruh faoliyatining ko'rinishi, muayyan tizimning ichki unsurlari tartiboti va hokozolar farqlanadi.

Jamiyatdagi tuzilmalar uzoq vaqt davomida urf-odatlar ta'sirida rivojlanib kelgan. Kishilarning ko'pgina ehtiyojlari tegishli tarzda oziq-ovqat tayyorlash, bolalar tarbiyasi, ish vaqti va bo'sh vaqtda oilada hamda qarindoshlar, qo'shnilar davrasida qondirilgan. Hozirgi jamiyatlarda kishilar ko'p jihatlardan o'zaro bog'lanib ketishgan. Ularning xilma-xil ehtiyojlari bevosita amalga oshiriladigan aloqalar orqali qondiriladi. Tomonlarning shaxsan bir-birini bilishi talab

etilmaydi. Baʼzan bunga masofaning uzoqligi sabab boʻlsa-da, lekin mehnat taqsimoti asosiy omildir. Bunday sharoitlarda tashkiliy ishlar va alohida tashkilotlarga boʻlgan zaruriyat oʻz-oʻzidan tushunarlidir.

Tashkilotlar tabiati, bajaradigan vazifalari, qoʻllaydigan usullari va hokazolariga koʻra turlicha boʻladi:


1. Rasmiy tashkilotlar – bular inson hayotidagi istagan voqea – tugʻilish, nikoh yoki oʻlim va hokazolar albatta qayd etiladi. Bu maqsadda tegishli hukumat idoralari faoliyat yuritadi.

2. Norasmiy tashkilotlar – shaxslar yoki ularning guruhleri oʻrtasida oʻz-oʻzidan yuzaga chiqadi.


3. Rasmiylikdan tashqari tashkilotlar – masalan, sport ishqibozlarining, pochta markasi toʻplovchilarning va boshqalarning tashkilotlari.

Ayrim rasmiy tashkilotlar byurokratik tizimga jiddiy darajada moyilligi bilan ajralib turadi. «Byurokratiya» (aynan maʼnoda «muassasa» va «boshqaruv») atamasi 1745-yilda birinchi marta fransuz ijtimoiyotshunosligida *de Gurne* tomonidan amaldorlarning hokimiyati maʼnosida qoʻllangan. Byurokratiya bir tomondan samarasizlik, sarf-xarajatdorlik, qogʻozbozlik kabi illatlarni bildirsa, boshqa tomondan, muayyan kishilar nazarida tashkilot ishini yoʻlga qoʻyishda samarali ishlash, aniqlik, puxtalik modelini ham anglatadi. Masalaga oqilona yondashilsa, haqiqat bu qarama-qarshilikning oʻrtasidadir.


Yuqoridagilarning hammasi jamiyat hayotining asosiy sohalarini tashkil etibgina qolmay, ular oʻrtasidagi munosabatlarni belgilaydi.




25-sxema




26-sxema




27-sxema




28-sxema




29-sxema




30-sxema



31-sxema



32-sxema



33-sxema

## Asosiy tushunchalar



- *Iqtisodiyot* – keng ma’noda moddiy-ishlab chiqarish sohasi.
- *Mehnat unumdorligi* – inson kuch-quvvati va aql-zakovatida, xususan, mehnat faoliyatidan qanchalik oqilona foydalanganlik ko’rsatkichi.
- *«Inson-texnika» tartiboti* – asboblardan foydalanish, mexanizatsiya va avtomatlashtirish bosqichlari.
- *Fan-texnika inqilobi* – fan va texnika, texnologiyada bir vaqtda yuz berayotgan tub sifat o’zgarishlari.
- *Axborot* – ma’naviyatning asosiy tashkil etuvchisi bo’lib moddiy tashuvchi inson miyasida joylashgan, uni his qilib bo’lmaydi, balki mantiq yordamida bilish mumkin.
- *Ma’naviy madaniyat* – kishilarning ma’naviy hayoti sohasi bo’lib, ular faoliyatida amalga oshadigan kuchi va qobiliyatidir.
- *Ziyolilar* – aholining asosan ma’naviy faoliyat bilan kasbiy shug’ullanuvchi (hozirgi vaqtda) qismi.
- *Ta’lim* – ma’naviyat tashkil etuvchilari ichida keng qamrovli ijtimoiy institut.
- *Etnik shakllar* – Sotsiumning ilk tashkiliy tarzi bo’lgan urug’dan boshlanib qabila, el-elat, millat va hozirgi vaqtda shakllanayotgan xalqdan iborat.
- *Demografiya* – aholishunoslik, aholini o’rganadigan fan.
- *Sinflar* – kishilarning qator asosiy ko’rsatkichlar bo’yicha farqlanishi.
- *Nikoh va oila* – erkak va ayol, ularning nasliyatga munosabati boshqariladi. Yosh avlod turmushning asosiy sohalari bo’yicha dastlabki saboqlarni oladi.
- *Boshqaruv* – qo’yilgan maqsadga erishish uchun qonun kuchiga tayanib ta’sir o’tkazishdir. Bunda boshqaruvchi va boshqariluvchi munosabatlari yuzaga keladi.
- *Davlat* – ijtimoiy boshqaruvning eng katta va maxsus tashkiloti.
- *Siyosat* – davlat hokimiyati bilan bog’liq munosabatlar, ularni tushuntiradigan ta’limotlar hamda amalga oshiradigan tashkilot va muassasalar faoliyatining jami.

- *Siyosiy partiyalar* – aholining avangard qismi bo‘lib, muayyan manfaatlarga (masalan, davlat hokimiyatiga) erishish uchun faoliyat ko‘rsatadigan guruh.
- *Partiyaviy tizim* – nechta partiya va qanday sharoitda ish olib borayotganligini ifodalaydigan tushuncha.
- *Institut* (lotincha: *qurilma, belgilanish degani*) – a) muassasa, nizom, qoida, qonun; b) ijtimoiy hayotni tashkil etishning nisbatan barqaror shakli.
- *Tashkilot* – a) aniq maqsad bilan tuzilgan uyushma; b) muayyan faoliyatni uyushtirish bo‘yicha kishilar xatti-harakatini ifodalaydigan atama; d) obyektning tartibotiligini tavsiflash darajasi.
- *Byurokratiya* – ko‘pincha ezgu niyat bilan bo‘lsa-da, haddan tashqari rasmiyatchilik hisoblanadi. Ba‘zan ishga jiddiy zarar keltiradi.

### Savollar va topshiriqlar



1. «Iqtisodiyot» va «iqtisod» atamalarini mulohaza qiling.
2. Iqtisodiyotning tarkibi nimalardan iborat?
3. Texnologiya nima?
4. Ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy shakllarini mulohaza qiling.
5. Ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy tarzlarini tushuntirib bering.
6. Ma'naviyat jamiyat sohalari tizimida qanday o‘rin tutadi?
7. Ma'naviyatning bosh tashkil etuvchisini mulohaza qiling.
8. Aholining ziyolilar qatlami paydo bo‘lmasdan avval ham ma'naviyat bo‘lganmi?
9. Ma'naviyat tarkibida ta'limning o‘rni qanday?
10. O‘zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini mulohaza qilib ko‘ring.
11. «Ijtimoiy» so‘zining tilshunoslik (sifat) ma‘nosi hamda keng va tor ma‘nolarda qo‘llanishini mulohaza qiling.
12. Sinflar qaysi jihatlariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi?
13. «Millat birligini» mulohaza qiling.
14. Aholining hududiy, demografik, ishlab chiqarish va bilim darajasiga ko‘ra farqlanishida qaysi belgi asosiy hisoblanadi?
15. Oila nikohsiz, nikoh oilasiz bo‘lishi mumkinmi?
16. Jamiyat siyosiy sohasini uning boshqa sohalari bilan aloqasini mulohaza qiling.
17. Siyosiy soha tarkibiga nimalar kiradi?
18. O‘quvchilar siyosat obyektimi yoki subyektimi?
19. Partiyalar faoliyati har doim oqilona tashkil etiladimi?

20. O‘zbekiston Respublikasidagi partiyaviy tizim haqida mulohaza yuriting.
21. Kishilik jamiyatining institutsiyaviy tavsiflanishi qachondan boshlangan?
22. Institut tarkibini tashkilotsiz ham tasavvur etish mumkinmi?
23. Byurokratiyani faqat ijobiy jihatlari bormi?

### **Amaliy ish**



1. «Sotsium» atamasi ijtimoiy bilim tushunchasi sifatida qayerda va qachondan beri qo‘llanilib kelishini tushuntiring.
2. «Sotsium» va «jamiyat» tushunchalaridagi umumiy va xususiy jihatlarni tushuntiring.
3. Jamiyat sohalari ichida birontasini belgilovchi deb olsa bo‘ladimi? Buni izohlab yozma ish tayyorlang.
4. Jamiyatning o‘z-o‘zidan harakatlanishini tushuntiring.
5. Nazariy modelda obyektini (jamiyatni) sof holda o‘rganish imkoniyatini izohlang.
6. Jamiyatni tushuntirishda asosga qo‘yiladigan tamoyillarni boshqa predmetlaridan tamoyillar bilan solishtirib tushuntiring.
7. Kishilik jamiyatini nazariy o‘rganishda tushunchalarning ahamiyatini ko‘rsating.
8. Nega ijtimoiyot ilmida ilgari «jamiyat» tushunchasi ishlatilmaganini mulohaza qiling.
9. Kishilik jamiyati yaxlitligi tamoyili bilan uning muayyan sohalarga bo‘linganligi (tizimiyligi) qay darajada sig‘isha oladi? Mulohaza yuriting.
10. Jamiyat sohalari o‘zaro nisbatda tengmi? Buni turmushdan olingan misollar orqali tushuntiring.
11. Jamiyat hodisalariga institutsional yondashishning o‘tmish va hozirini taqqoslab bering.
12. Tashkilot va muassasa nisbatini aniqlang. Nazaringizda Sotsium miqyosida eng katta tashkilot qaysi?

### **Ma’ruza va referatlar uchun mavzular**



1. «Sotsium» tushunchasi.
2. Jamiyat – Sotsiumning tashkiliy ifodasi.
3. Jamoa va jamiyat.

4. Jamiyatning o'z-o'zidan harakatlanishi.
5. Nazariy model – jamiyatni o'rganishning usuli.
6. Faoliyatiylik tamoyili.
7. Moddiy-iqtisodiy hayotning tavsifi.
8. Ma'naviylik mezoni.
9. Siyosat sohasining o'ziga xos jihatlari.
10. Jamiyat hayoti sohalari o'zaro aloqasi.
11. Siyosiy boshqaruv.
12. Davlat hokimiyati.
13. Ijtimoiy institut.
14. Hokimiyatlarning bo'linganligi.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., «O'zbekiston», 2014.
2. *Karimov Islom*. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
3. *Karimov Islom*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T., «O'zbekiston», 2010.
4. Falsafa. Darslik. M. Ahmedova tahriri ostida. – T., 2013.
5. Falsafa. O'quv qo'llanma. E. Yusupov tahriri ostida. – T., 2005.
6. *Вебер М.* Избранное. Образ общества. – М., 1994.
7. *Гуревич П.С.* Основы философии. – М., 2002.
8. *Сорокин П.А.* Система социологии. Социальная мобильность. – М., 1992.
9. *Сорокин П.А.* Человек. Цивилизация. Общество. – М., 1992.
10. Обществознание (Человек и общество). Учебник. Под редакцией И.А. Боголюба и И.Е. Лазебниковой. – М., 2006.
11. *Кравченко А.И.* Обществознание. – М., ООО «ТИД» «Русское слово – РС», 2006.



---

---

## V bob. IJTIMOIIY-TARIXIY JARAYONLAR

### II.5.1. Ijtimoiy tarix: ma'nosi va kechishi

*Tarix nimadan tashkil topadi? Tarixning kechishi jamiyatlar tiplari tabiatiga bog'liqmi? Tarixiy jarayon nima? Tarixiy qonuniyatlar mavjudmi?*

**«Tarix» atamasi va tushunchasi.** Kishilik dunyosi jarayonlari vaqt izchilligida, ketma-ketlikda, yuz berib muayyan voqelikni tashkil etishiga kishilar allaqachonlar e'tibor bergan va uni «tarix» atamasida ifodalaganlar.

«Jamiyat» va «tarix» tushunchalari nisbati masalasi kun tartibiga qo'yilsa, alohida holat ko'zga tashlanadi. Bunga, *birinchidan*, «tarix» tushunchasi, «jamiyat rivojlanishi», «ijtimoiy jarayon» tushunchalarining sinonimi hisoblanib, kishilik jamiyati va uni tashkil etgan sohalarining o'z-o'zidan harakatini tavsiflaydi. Bunday voqea va jarayonlarning tafsiloti ularning ishtirokchilari bo'lgan shaxslar hayotisiz ko'rsatiladi. Natijada kishilar ustidan shaxsi noma'lum qandaydir ijtimoiy kuchlarning hukmronligi bor deb qaraladi.

*Ikkinchidan*, «jamiyat» tushunchasida «sotsium» tushunchasi konkretlashtirilsa, ijtimoiylik mavjudligining real usuli ko'rsatilsa, «tarix» tushunchasi esa «jamiyat» tushunchasini konkretlashtiradi. Natijada kishilar hayotining qayerda va qachon kechgani bilan bog'liq jihati tarixni tashkil etadi. Unda ijtimoiy hayotning barcha tomonlari o'zgarishlarining yaxlit oqimi o'z ifodasini topadi.

*Uchinchidan*, «tarix» tushunchasi chuqurroq mulohaza etilsa, uning nafaqat o'tmish bilan aloqadorligi ma'lum bo'ladi. Darhaqiqat, bir tomondan, biz har doim o'zimiz yashab turgan ijtimoiy-madaniy davr holatidan kelib chiqib o'tmish to'g'risida gapiramiz. Buning

oqibatida o'tmishda kechgan voqealar to'g'risida hozirgi vazifalar talablari belgilovchi bo'lib hisoblanadi. Yani, o'tmish hozirgi davr yordamida tushuntiriladi.

Boshqa tomondan, hozirgi zamon shart-sharoitidan kelib chiqib o'tmish haqida olingan bilimlar kelajak uchun zarur xulosalarni ilgari surishga imkon beradi. Bu ma'noda tarix o'z tarkibiga o'tmishni ham, hozirgi davrni ham, kelajakni ham kiritib, ularni kishilar faoliyati bilan bog'laydi.

Kishilik jamiyati turli bosqichlarida tarixni bilish turlicha tarzda amalda bo'lgan. Dinamizmi kuchli bo'lgan, taraqqiy topgan jamiyatlar sharoitida tarixni kechishi o'tmishdan hozirgacha, undan esa kelajakka o'tish tarzida qaraladi. Odatda, tarix sivilizatsiyaviy jamiyatlarga xos hisoblanadi va taxminan miloddan 4 ming yil avval boshlangan deb olinadi.

An'anaviy, qoloq jamiyatlarda o'tmish hozirgi davrning oldi tarzida tasavvur qilinadi. Namuna, ideal sifatida unga intilish, tobora yaqinlashib kelish maqsad etib qo'yiladi. Bunday jamiyatlarda *mif* ustunlik qiladi. Shunga ko'ra, bular ma'lum ma'noda tarixga qadar bosqichda qolgan, tarixiy tajribasi yo'q jamiyatlar deyiladi.

Tarixning «ayyorligi» shundaki, uning yuz berishi kishilarga bildirilmaganday kechadi. Shunga ko'ra, uning harakati va kishilarning shaxs shakllaridagi ravnaqini bevosita yaqindan turib kuzatish juda mushkuldir. Odatda, tarixni kuzatishning ikki imkoniyati haqida gapirish mumkin. Ulardan biri bola shaxsining shakllanishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi sotsium jarayonlari bosqichlarini tashkil etishni o'ziga xos shakllari qaror topishini izchillikda qayd etishdan iboratdir. Boshqacha aytganda, tarixning insoniyat va shaxs tarixlari tarzida yuzaga kelishi ijtimoiy shakllar va shaxslar tadriji tarzida bo'ladi.

Ayni vaqtda, oldingi boblarda ham ko'rsatib o'tilganidek, insoniyat tarixi bilan uning ajdodlarining inson bo'lishga qadar kechgan tarixi chegarasini aniqlash masalasi muhim hisoblanadi. Bunga hozircha yetarli aniqlikda va dalillar bilan hech kim javob berolgani yo'q. Chunki beriladigan javob muallif pozitsiyasiga, tafakkur kuchiga, ilmiy-nazariy model va hatto bevosita olingan ma'lumotlarga ham bog'liq.

**Tarixiy dinamizm.** Sotsium tabiatan, har doim o'zgaruvchidir. Moddiy-ijtimoiy va amaliy-ruhiy mavjudot bo'lgan kishilar o'rtasidagi xilma-xil munosabatlarni jam etgan voqelikning bundayligi tushunarlidir.

Insoniyat tarixining dinamik kechishi uzoq vaqtdan beri o'rganish obyekti hisoblanadi. Buni qadimgi yunonlarning kishilik dunyosi voqealari va hodisalarini mulohaza qilish, shu jumladan, «oltin davr» haqidagi qarashlarida ham ko'rish mumkin. Ovchilik va terib termaklash davridagi sodda tenglikni Antik davrdagi qullar va quldorlarga bo'linganlik bilan solishtirish xalq og'zaki ijodida tarqalgan «oltin davr» afsonasini yuzaga keltirgan edi. Bu afsonaga ko'ra, *tarix bekik doira bo'ylab harakatlanadi*. Buning sabablari haqida «*Xudo shunday hal etgan*» yoki «*Tabiatning hukmi shunday bo'lgan*» kabi javoblar berilgan. Ayni vaqtlarda, bu javoblarda tarixning ma'nosi to'g'risidagi masala ham o'ziga xos ravishda qamrab olingan. Lekin insoniyat o'tmishining butun qamrovini Yevropa tafakkurida birinchi marta nasroniy dini pozitsiyasidan turib *Avreliy Avgustin* (354–430) ifodalab bergan edi. Injilda yozilganlarga tayanib insoniyat tarixini olti davrga bo'ladi. Oltinchisi Iso payg'ambar faoliyat ko'rsatgan davrni o'z ichiga oladi.

Jahoniy dinlarda tushuntirilishicha, tarixda, *birinchidan*, chiziqli kechish, muayyan yo'nalish, binobarin, ichki mantiq muqaddas ma'no mavjud. *Ikkinchidan*, bu nuqtayi nazarga ko'ra insoniyat tarixi ilgarilama, progressiv kechadi. Bunda Xudo tomonidan boshqariladigan insoniyat ulg'ayib boradi. *Uchinchidan*, tarix qaytarilmasdir. Ya'ni, inson Xudo tomonidan yaratilgan bo'lsa-da, keyinroq yo'l qo'ygan gunohi uchun Yaratgan rahnamoligida o'zini takomillashtirishi lozim.

XVIII asr mutafakkirlari ilgari surgan g'oyalarda ilohiylik o'rniga tarixning tabiiy qonunlari tushunchasi qo'yiladi. Bunda barcha xalqlarning tarixiy rivojlanishi yagona qonunga bo'ysunadi deyiladi.

Bu g'oya Yevropa xalqlari tafakkurida mustahkam o'rin egalladi. Italyan *J. Viko*, fransuzlar *Sh. Monteskye*, *J.A. Kondorse*, nemislar *I. Kant*, *I. Gerder*, *G.V.F. Gegel* va boshqalar qarashlariga ko'ra tarixiy jarayon fan, san'at, din, falsafa, huquq rivojlanishida ifodalanadi.

K. Marksning qarashlariga ko'ra tarix moddiy ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga tayanadi. Lekin tarixni bunday tushunishda insonning o'zni tarixda lozim darajada aks etmaydi. Holbuki, tarix, dastavval, inson tarixi – kishilar tarixidir. Ularning tarixi doirasidagina o'tmishning mazmuni, mohiyati moddiy jarayonlarga ifodalanadi.

***Tarixning davriy kechishi.*** XX asrga, ayniqsa, uning oxirlariga kelib ijtimoiy dinamizmning doiraviy tarzda yuz berishi to'g'risidagi qadimdan mavjud bo'lgan qarashlar yangi mazmun kasb etib, tarqala boshladi.

Darhaqiqat, insoniyat tarixida voqealarning muayyan maromda yuz berishi va takrorlanishi Sharqda ham, G'arbda ham e'tiborda bo'lgan. Asta-sekin kishilik dunyosi rivojlanishining davriy tarzda yuz berishi g'oyasi shakllangan.

Hozirgi davrning mashhur tarixchisi *F. Brodelning* (Fransiya) ta'kidlashicha, *tarixiy voqealar – bular changlar, ulardagi asosiy jihat davriyliklardan iboratdir.* Bunda jarayonlar boshlanganidan ularning tugashigacha bo'lgan vaqt olinadi.

Davriy o'zgarishlar ikki xil tarzda: tizimiy-mutanosiblik va tarixiy shakllarda kechadi. Ulardan birinchisida ijtimoiy o'zgarishlar bir holat doirasida kechib, olingan natija ikkinchisi uchun ilk nuqta bo'ladi, deb qaraladi. Ko'rinadiki, bunday shaklda kechayotgan davriylik tufayli ijtimoiy holat mo'tadilligi ta'min etiladi.

Davriylikning tarixiy shaklida mutaxassislar nazarida, umuman kishilik jamiyati ko'rinishlari, xususan, uning tarkibiy qismlari muayyan muddat yashab, so'ngra umrini tugatadi. Albatta, bunda tugayotgan ijtimoiy organizm bilan uning o'rniga kelayotgan tuzilma o'rtasida zarur bog'lanishlar bo'ladi.

Yuz berishi xillariga ko'ra davriylikni *mayatniksimon* (kichik tizimda), *doiraviy* (o'rtacha kattalikdagi tizimda), *to'lqinsimon* (katta tizimlarda) va hokazo ko'rinishlari farq etiladi.

***Taraqqiyot g'oyasi: ijobiy va salbiy jihatlari.*** Jamiyat harakatining ilgarilama yo'nalganligi – taraqqiyotdir.

Bu haqdagi tasavvurlar qadimdan ma'lum. Yuqorida aytilganidek, dinlarga insonning axloqiy takomillashuvi doirasida taraqqiyot tamoyilini xiyla to'laroq ravishda kun tartibiga qo'yadi.

Bundan 300 yilcha oldin dunyoviy maqomdagi taraqqiyot nazariyasi maydonga chiqdi.

XIX asrdayoq, ayniqsa, XX asrda tarixiy taraqqiyotning umid-baxshligi shubhaga olinib boshlandi. Chunki bir yoʻnalishdagi taraqqiyot ikkinchi yoʻnalishda orqaga ketishni keltirib chiqarib, inson va uning jamiyat rivojlanishiga xavf tugʻdirgan edi. Bularga qaramay, kishilik jamiyatining erishgan taraqqiyotidan koʻz yumib boʻlmaydi. Xususan, uning quyidagi koʻrsatkichlarini keltirish mumkin:

1. Davrdan davrga oʻtgan sari mehnat vositalarini takomillashtirish va mehnatning oʻzini yanada oqilona tashkil etish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish surʼati beqiyos darajada oʻsdi.

2. Moddiy ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan bogʻliq holda ilmfan rivojlanishiga keng yoʻl ochildi, fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylana boshlandi.

3. Ishlab chiqarish yuksak texnologiyalar bilan qurollangani tufayli ijtimoiy ehtiyojlar tobora toʻlaroq qondira boshlandi, turmush tarzi takomillashtirilib borildi.

4. Tabiat stixiyasidan qutulish imkoniyatlari tobora koʻproq yaratila borildi. Shuningdek, ijtimoiy kuchlarning stixiyasi xarakterlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin boʻla bordi.

5. Sayyora miqyosida insoniyatning oʻzaro yaqinlashuvi, umuminsoniy qadriyatlarining tobora kengroq va chuqurroq tarzda tarqalishi sharoiti yaratila bordi.

6. Insonning erkinlik darajasi jiddiy ravishda kengaydiki, bu muayyan darajada huquqiy-siyosiy institutlar faoliyatida oʻz aksini topib bordi.

Ayni vaqtda, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning hozirgi tarzda amalga oshishida insoniyat hayotiga toʻgʻridan toʻgʻri xavf soladigan quyidagi jihatlarni ham maydonga keltirdi:

*birinchidan*, tabiiy muhitni kimyoviy-radioaktiv va boshqa xavfli moddalar bilan zararlanishi, ekologik inqiroz;

*ikkinchidan*, fandan yalpi harbiy – vayronagarchilik (ommaviy qirgʻin qurollari) keltirish maqsadlarida foydalanish;

*uchinchidan*, jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, koʻpgina kishilarda axloqiy buzilish hollarining koʻpayishi;

*to'rtinchidan*, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, ayrim kishilarning boshqalar va jamiyat hisobiga jinoyatkorona boyib ketishi;

*beshinchidan*, ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishi oqibatida aholining katta qismi turmush darajasining pasayib ketishi;


*oltinchidan*, inson huquqlarini izchil buzilishi, irqchilik, millatchilik va shovinizm illatlarining namoyon bo'lishi;

*yettinchidan*, kishilarga kelajakni ilohiylashtirib ko'rsatib hozirgi davr va o'tmishni nazar-pisand qilmaslik;


*sakkizinchidan*, taraqqiyot ahamiyatini ko'rsatishda bamisoli din darajasida ish ko'rish;

*to'qqizinchidan*, taraqqiyot tarafdorlari xohish-irodasidan qat'i nazar kelajakni ideallashtirish avlodlararo ziddiyatni keltirib chiqarishi mumkinligi, ya'ni, o'tmish to'laqonli bo'lmagan edi, kabi fikrlarni ilgari surish va hokazo.


Xo'sh, bu qiyoslardan qanday xulosa kelib chiqadi? Albatta, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotdan voz kechish kerak, degan fikrga bormaslik lozim! Gap hozirgi zamon nuqtayi nazaridan jamiyatning tarixiy taraqqiyoti tushunchasini qayta baholash to'g'risida bormoqda. Unga insonning jismoniy va ruhiy tavsiflari bilan uzviylikda qarash kerak. Jumladan, inson va jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichi sifatida ularning o'rtacha uzunligi, onalar va bolalar o'limi darajasi, salomatlikning jismoniy va ma'naviy jihatlari, hayotdan qoniqish tuyg'usi va hokazolar olinishi lozim. Ayni vaqtda tarixiy taraqqiyotning biron-bir ko'rinishi, xoh iqtisodiy, xoh ijtimoiy-siyosiy yoki boshqa sohasi bo'lsin, Sayyoradagi har bir insonni qamrab borayotgan barcha o'zgarishlar uchun, tarix harakatiga maqsadga muvofiq yo'nalish berish uchun har bir insonning mas'uliyat hissi keskin oshmoqda.



34-sxema



35-sxema



36-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Tarix* – istalgan voqea, hodisa va jarayon kechishining o'tmishini ifodalaydigan tushuncha.
- *Insoniyat tarixi* – kishilar ajdodlarining ovchilik davridan boshlangan o'tmishi hisoblanadi.
- *Ijtimoiy dinamizm* – ijtimoiy hayotning doimo harakatda ekanligini ifodalaydigan tushuncha bo'lib, statik holatga muqobil hisoblanadi.
- *Ijtimoiy taraqqiyot* (progress) – jamiyat tarixining ilgarilama yo'nalganligi bilan bog'liq holati. Uning muqobili regress (orqaga qaytish) hisoblanadi.
- *Taraqqiyot mezoni* – ijtimoiy o'zgarishlar ko'lamini belgilashda turli ta'limotlarda ilgari surilgan omillar va o'lchovlar birligi.

## Savollar va topshiriqlar



1. Tarixni insoniyat tarixisiz tasavvur etish mumkinmi?
2. «Tarix» va «sotsium» tushunchalari qanday nisbatda?
3. «Jamiyat» va «tarix» tushunchalari qanday nisbatda?
4. Tarixiy jarayonlar haqida diniy qarashlar?
5. Tarixiy jarayon mantiqidan taraqqiyot fenomeni kelib chiqadimi?
6. Tarixiy taraqqiyotning obyektiv mazmunini qaysi jihatlar belgilaydi?
7. Taraqqiyotni qaysi obyektiv mezonlarga ko'ra aniqlash mumkin?

### II.5.2. Tarixni bilishga yondashishlar

*Tarixiy jarayonlarni bilishga ilmiy yondoshishlik mohiyati nimada va tarixga diniy qarashlarning mavjudligi nima bilan bog'liq? Tarixga monistik qarash nima? Tarixga plyuralistik qarashning mohiyati nima? Ijtimoiy taraqqiyot muammosiga hozirgi fanda munosabat qanday?*

**Diniy yondashish.** Jamiyat jarayonlarini o'rganishda hamda uni tashkil etgan jihatning funksional tomondan tushuntirishda turlicha yondashishlar farqlanadi. Sotsiumning tashkiliy shakllanishidan tortib, uning turli darajalari funksional mavjud bo'lishigacha barcha bosqichlardagi holati Oliy yaratuvchi xohish-irodasiga bog'liq, deb olinadi. Jamiyatni nima harakatga keltiradi va uning manbahi qayerda, degan masala diniy fenomenning ilk ko'rinishi bo'lgan asotirda dastavval ifodasini topgan. Masalan, Yunon shoiri *Gesiod* (yangi eradan avvalgi V asr) poemasida quyidagicha hikoya qilinadi: Olimp tog'idagi *xudolar* insonning *birinchi* avlodini baxtli qilib yaratdilar. Bu avlod yashagan davr *oltin asr* bo'lgan.

Kishilar *ikkinchi asrda birinchi*, avvalgi oltin asrdagidek baxtli, kuchda ham, aqlda ham avvalgidek bo'lmagan va xudolarga ham bo'ysunmagan. Zevs yaratgan uchinchi zot va *uchinchi – mis asri* oldingilariga o'xshamagan. Ular bir-birini shafqatsiz talaganlar.

*To'rtinchi asr* va yangi kishilar zoti keyingi qonli urushlarda qirilib ketadilar.

So'nggi, *beshinchi temir asri* kishilar zoti yaratilganligidan beri hozirgacha yashab kelmoqda.

Kishilik dunyosini asotirli tushuntirish keyinroq ancha o'zgargan holda barcha monoteistik dinlarga ham o'tgan. *Iudaviylik* dinining,



shuningdek, *nasroniylik* dinining ham kitobi Injilda keltirilishicha gunohlari uchun *Odam* va *Yeva* jannatdan quvilsa-da, ularning avlodlariiga e'tibor beriladi. Kishilarning o'zaro munosabatlari me'yorlarini din amri sifatida aniq belgilangan. Bularning to'rttasida Xudoning buyukligi, qolgan oltitasida esa ota-onani hurmat qilish, o'g'rilik, qotillik, bevafoqlik qilmaslik, yolg'on guvohlik bermaslik va yaqinlarining mulkiga, xotiniga, umuman hech nimasiga ko'z olaytirmaslik haqida gap boradi.

Islom dinida borliq holati me'yorlari barcha musulmonlar uchun Qur'oni karimda ifodalab berilgan. Bu – har kuni besh martalik namoz, ro'za, kambag'allar foydasiga olinadigan zakot, imkon bo'lganda muqaddas joylarga kamida bir marta qilinadigan haj va hokazolardir. «*Albatta, osmonlar-u yerning mulki Allohnikidir. U o'zi tiriltiradi, o'zi o'ldiradi*» («Tavba» surasi, 116-oyat).

**Dunyoviy yondashish.** Jamiyat jarayonlarini o'rganishdagi *monistik* va *plyuralistik* yondashishlarda belgilovchi sifatida *iqlim*, *o'simlik* va *hayvonot dunyosi*, *tog'lar*, *dengizlar* va h.k. (geografik omil), *etnik* va *irqiy* jihatlar (zo'ravonlik omili), *yashash uchun kurash* (biologiyaviy omil), *aholi soni*, *iqtisodiy manfaatlar* va *sinfiy kurash* (marksistik ta'limot) – moddiy omillar olinadi.

Monistik yondashuv asosiga *ma'naviy-intellektual* omillar, ya'ni, inson aql-idrokining rivojlanishi, ilmiy bilimlar, dunyoqarashlar va diniy e'tiqodlar, estetik zavqlanish, mehnat taqsimoti va hokazolar ham qo'yilishi mumkin.

Plyuralistik yondashishga ko'ra, kishilik dunyosini tashkil etgan tomonlar funksional holatida belgilovchi va belgilanuvchi omillar bo'lmay, ular bir-birini to'ldiradi, o'zaro bog'liq va taqozo etilgan holda mavjuddir.

Sotsium tashkiliy shakllarning tahlilida alohida e'tiborga molik jihat – *birinchidan*, kishilik jamiyatining holatini barqaror ta'minlash bo'lsa, *ikkinchidan*, uni takomillashtirish, rivojlantirish masalasidir.

Jamiyat holatini barqaror ta'minlash vazifasi mazmuniga ko'ra, dastavval, birohruiy-ijtimoiy mavjudot bo'lgan insonning o'zini har doim uning turli faoliyati sohalari orqali takror ishlab chiqarishdan iboratdir. Barqarorlik turg'unlikni anglatmaydi, albatta. Ijtimoiy tizimning barqarorligiga uni rivojlantirish, optimallashtirish orqali erishiladi.

Barqarorlik omillari inson jamiyat tarixi davomida uning holatining barqarorligi va rivojlanishi jihatidan ketma-ket tarzda quyidagi omillar ta'sirida bo'lgan:

1. Tabiatning bevosita ta'siri – bunda tashqi va ichki tabiiy kuchlarning ta'sirida inson u yoki bu harakatni amalga oshiradi. Lekin tabiiylikning ham mutlaq xarakterga ega emasligi asta-sekin ma'lum bo'lib qoladi.

2. Dinlar ta'siri – bunda kishilar o'z xatti-harakatlari asosiga muayyan ma'no qo'yidilar. Lekin bu omil ham voqelikka zid kelib qoladi.


3. Axloq – kishilar xatti-harakatlari ma'nosidan qat'i nazar, o'zlari uchun yaxshi, zarur bo'lgan faoliyatni amalga oshiradilar. Keyinroq uning ham inqirozi boshlanadi.

4. An'anaviylik – bu kishilarning qabul qilingan me'yorlar asosida o'z hayotlarini yo'lga qo'yishi bo'lib, albatta, keyinroq bu ham manfaatlarga to'g'ri kelmay qoladi.


5. Huquqiy omil – kishilarning taqiqlanmagan barcha faoliyat turlari bilan shug'ullana olishi.

6. Kundalik ehtiyojlar – bunda kishilar qanchalik kuchlari yetadi, shunga bog'liq tarzda o'zlari uchun foydali bo'lgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va hokazo faoliyat turlari bilan band bo'ladilar.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, kishilik jamiyati tavsifida uni nimalardan iboratligini bilishning o'zi yetarli emas. Uning tarixini bilish ham zarur. Bunda, albatta, uni bilishda qarab chiqilgan yondashishlar bilan cheklanish yetarli emas. Bulardan boshqa, mohiyatiga ko'ra oraliq nuqtayi nazarlar ham mavjud.



37-sxema



38-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Funksional holat* – kishilik dunyosi tarkibiy qismlarining o‘zaro mutanosibligida uning o‘zgarishi, rivojlanishini ifodalash.
- *Monizm* (yunoncha: *bir*) – olamni yagona asosda tashkil topganligini izohlaydigan tushuncha.
- *Plyuralizm* (lotincha: *ko‘plik*) – narsa va hodisalarning yagona asosga keltirilmasligini, ularning o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan tarzda turli-tumanligini tushuntiradigan tushuncha.

### Savollar va topshiriqlar



1. Kishilik dunyosi mavjudligining tabiiy shart-sharoitlari nimalardan iborat?
2. Kishilik dunyosi jarayonlarida diniy omillarning o‘rnini mulohaza qiling.
3. Dunyoviy qarashlar haqidagi fikringizni bildiring.
4. Plyuralistik qarashlarning mohiyati nimada?

### Amaliy ish



1. «Tarix» tushunchasini qo‘llashning amaliy ahamiyati nimada?
2. «Sotsium», «jamiyat» va «tarix» tushunchalari o‘zaro qanday bog‘liqlikda ekanligini tushuntiring.
3. Tarixning ma‘nosi bo‘lishi mumkinligini tushuntiring.
4. Ijtimoiy dinamizmni tushuntiradigan nazariyalarni o‘zaro solishtiring.
5. Taraqqiyot tamoyillariga hozirgi davr qanday talablar qo‘yadi? Buni rivojlangan mamlakatlar misolida tushuntiring.

## Ma'ruza va referatlar uchun mavzular



1. Tarixning ta'riflanishi.
2. Tarixning kechishi mexanizmi to'g'risida.
3. Kishilik jamiyati mavjudligini diniy tushuntirish.
4. Jamiyat mavjudligi va rivojlanishini dunyoviy tushunish.
5. Jamiyat barqaror holatining asosiy shartlari.
6. Kishilik jamiyatining taraqqiyoti muammosi.
7. Taraqqiyotning mezonlari muammosi.

### Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. *Karimov Islom*. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
2. *Karimov I.A.* Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. 7-jild. – T., «O'zbekiston», 1999.
3. *Karimov I.A.* Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin // O'sha jild.
4. Falsafa. Darslik. M. Ahmedova tahriri ostida. – T., 2013.
5. *Гумилёв Л.Н.* Этносфера: история людей и история природы. – М., 1993.
6. *Тойнби А. Дж.* Постигжение истории. – М., 1991.
7. *Ясперс К.* Смысл и назначение истории. – М., 1997.
8. *Кравченко А.И.* Обществознание. – М., ООО «ТИД» «Русское слово – РС», 2009.

# **UCHINCHI BO'LIM**

## **SIVILIZATSIYALAR – IJTIMOIIY-MADANIY YAXLITLIK**

---

---

### **VI bob. JAMIYAT VA SIVILIZATSIYA**

#### **III.6.1. Sivilizatsiya: mazmuni va shakllanish bosqichlari**

*Sivilizatsiya qachon paydo bo'lgan? Mehnat taqsimoti bosqichlari qanday farqlanadi? Politogenez nima? Mulkning turli shakllari qanday kelib chiqqan? Formatsiyaviy yondashishning yaroqsizligi nimada?*

**«Sivilizatsiya» atamasi va tushunchasi.** Hozirgi vaqtda insoniyat jamiyati va uning tarixini sivilizatsiyaviy jarayonlar, ularning turli ko'rinishlari va bosqichlari sifatida qarash ilmda yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan:

*Birinchidan*, uning fan tarixida 250 yildan beri davom etib kelayotgan jiddiy o'rganish an'analari mavjud.

*Ikkinchidan*, davrimizning barcha murakkabliklarini asosiy jihatlariga ko'ra sivilizatsiyaviylik yondashuvi bilan xiyla keng tushuntirish mumkin.

*Uchinchidan*, sobiq sotsialistik hamdo'stlik deb atalgan tuzilmalar, shu jumladan, sobiq Sovet davlatida fikr-o'ying hukmdori bo'lib, o'zining yaroqsizligini to'la ko'rsatgan bo'lsa-da, lekin hozircha batamom bartaraf etilmagan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar to'g'risidagi markscha-lenincha dogmaning ijtimoiy-gnoseologik jihatdan ham umrini yashab bo'lganligini tasdiqlaydi.

Lotincha «civilis» so'zidan olingan bu atama bo'lib, shahar, shahar jamoasi, fuqaro, davlat, fuqaroviylikka, davlatchilikka oid juda ko'p ma'nolarni bildiradigan bu atamani birinchi marta fransuz mutafakkiri Mirabo 1757-yilda bosilib chiqqan «*Kishilarning do'sti yoki aholi to'g'risidagi risola*» kitobida qo'llagan. Shotlandiyalik A.Fergyusonning 1767-yilda nashr qilingan «*Fuqaroviy jamiyat tarixi tajribasi*» asari nomida ham ushbu atama ishlatilgan.

*Ma'rifatchilik davri* (XVIII asr) faylasuflari tomonidan «sivilizatsiya» atamasi yevropaliklar jamiyatining ma'rifatsiz «varvar»lardan ustunligini ko'rsatadigan, aql-idrok va adolatga asoslangan borliqning muhim tomonlari va holatlarini ifodalash ma'nosida qo'llangan. Keyinroq bu so'zni *T. Jufrua* (Fransiya) har bir xalqning etnografik qiyofasini ifodalaydigan ma'noda ishlatgan.

Haqiqatan ham buyuk geografik kashfiyotlar va sayohatlar natijasida to'plangan boy tarixiy-elshunoslik materiallarini izohlash zaruriyati, o'z navbatida, har bir xalqning o'ziga xos sivilizatsiyasi mavjudligi haqidagi qarashlarni maydonga keltiradi. Ayni vaqtda, nisbatan tezroq muomalaga singib borayotgan «sivilizatsiya» atamasi turli ma'nolari ichida ko'proq yevropotsentrizmni ifodalashi ko'zga tashlanmoqda.

XIX asr boshlaridan Yevropa ilmi doirasida sivilizatsiya va *ijtimoiy taraqqiyot* g'oyalarini kun tartibiga qo'yish orqali insoniyat o'tmishi bosqichlarini ifodalashga harakat qilindi. Buning natijasida tarixni haqqoniy yoki nohaqqoniy ko'rinishida qarash ham maydonga keldi. Keyinroq K.Marks insoniyatning ilk tashkiliy ifodasi bo'lgan ibtidoiy jamoadan keyingi davrni ham haqiqiy tarix emas, insoniyatning haqiqiy tarixi sotsializmdan boshlandi, deb da'vo qilganida ayni shu pozitsiyada turgan edi.

Amerikalik antropolog *L. G. Morgan* «Qadimgi jamiyat» degan asarida sivilizatsiyaning insoniyat o'tmishini xuddi *A.Fergyson* kitoblarida yoritilganidek, yovvoyilik va varvarlik bosqichlaridan keyingi tarixini ifodalash uchun qo'lladi. Ayni shu ma'noda sivilizatsiyani hozirgi amerikalik olim *A. Tofler* va boshqa ko'pgina olimlar ham qo'llamoqda. Shuningdek, «sivilizatsiya» atamasini ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida u yoki bu mintaqa yoki etnos rivojlanishi darajasining ifodasi ko'rinishida (ingliz-sakson tafakkuri doirasida *Arnold Toynbi* va boshqalar), hatto madaniyatning yakuni tarzida (*Osvald Shpengler*) tushunganlar.

Tushunchaviy maqomiga ko'ra sivilizatsiyada, *birinchidan*, jamiyatning taraqqiyotga o'tishi ifodalanadi. Ya'ni, insoniyatning qon-qardoshlikka asoslangan jamiyati o'rnini kishilarning hududi etnik tamoyilda tashkil topgan ijtimoiy-madaniy umumiyliги egalaydi. Bu umumiylikda, faqat o'ziga xos qonuniyatlar belgilovchi

o‘rin tutadi. *Ikkinchidan*, bu tushunchada kishilik dunyosi harakatining muhim shartlaridan bo‘lgan mehnat taqsimotining tobora murakkablashib borishi, uning ketma-ket keladigan bosqichlarida insoniyat moddiy va ma‘naviy boyligini tobora ko‘paytirish o‘z ifodasini topadi.

*Uchinchidan*, insoniyat ilgarilama harakatida u erishgan darajani anglatgani bilan sivilizatsiya evristik – bilish ahamiyatiga molikdir. Bularga asoslanib sivilizatsiyaga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: unda keng ma‘noda *sotsiumning muayyan sifat holati, tor ma‘noda esa uning har bir tarixiy bosqichlari tashkiliy tuzilishi tamoyillaridan tortib asosiy jihatlari namoyon bo‘lishining shart-sharoitlari yig‘indisigacha barchasi tushuniladi.*

Hozirgi vaqtda «sivilizatsiya» tushunchasi ijtimoiy-gumaniatar fanlarda markaziy o‘rin tutmoqda. Uning yordamida insoniyat tarixi jarayonlarining turli-tuman kechishi masalalari to‘laroq qamrab olinadi.

***Mehnat taqsimoti.*** Tarixan ilk sivilizatsiyaning shakllanishi miloddan avvalgi 17-yuzyillikka to‘g‘ri keladi.

Sug‘orma dehqonchilikka asoslangan hayot neolit inqilobini yuzaga keltirgan. Chorvachilik va dehqonchilikning kelib chiqishi insoniyat tarixida birinchi mehnat taqsimoti edi.

Dehqonchilikni yo‘lga qo‘yishda murakkab irrigatsion ishlarini bajarish uchun doimiy, o‘troq yashash zarur edi. O‘troqlikka o‘tish bilan paydo bo‘lgan manzilgohlar anchagina qulayliklarga, ba‘zan esa tashqi devorlarga ega bo‘lganlar. Bu esa boyliklar va tajriba nafaqat jamoa tasarrufi ko‘rinishida, balki maxsus predmetlar (texnika) shakli va miqdori ko‘rinishida ham to‘planib borganini anglatadi. Faoliyat turlarining ko‘payishi natijasida toshdan, yog‘ochdan, suyakdan mehnat qurollari yasash, yerga ishlov berish, chorvachilik va dehqonchilik xomashyolariga qayta ishlov berish, kulolchilik buyumlari yasash, uy-joylar qurish va hokazolarga erishildi.

*Hunarmandchilik va quruvchilikning* (ikkinchi va uchinchi mehnat taqsimoti) maydonga kelishi yuqoridagi jarayonlarning natijasi bo‘ldi. Bularning barchasi sivilizatsiya kelib chiqishining iqtisodiy

jihati hisoblanadi. Uning ijtimoiy ifodasi esa ibtidoiy kishilar-da bo‘lgan zootsentristik, totemistik shakllarni bartaraf etib, ular o‘rniga antropotsentristik, urug‘ shakllarini paydo bo‘lishini bildirgan. *Sivilizatsiya kishisi iste‘molchidan universal qadriyatlarini yaratuvchiga aylangan.* Uning uchun axloqiy, so‘ngra esa huquqiy me‘yorlar va ularni amalga oshirish uchun ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar zarur bo‘lgan.

**Politogenez.** Bular esa, o‘z navbatida, *to‘rtinchi mehnat taqsimotini* – harbiylar, zodagonlar va dohiylar bo‘lishini, siyosiy boshqaruvning kelib chiqishini, politogenezini shart qilib qo‘yadi.

Politogenez o‘z asosiga ko‘ra, dastavval jonli tabiatdagi mavjud o‘z-o‘zidan tashkillanishni bildiradi. Unda ma‘lum tomondan qadimgi Sharqning sug‘orma dehqonchilik mintaqalari jamoalaridagi boshqaruv tuzilmasini o‘z aksini topgan. Ayniqsa, unda ma‘muriy buyruqbozlik boshqaruvi ustunlik qilgan ko‘rinishini bildirgan.

Siyosiy hokimiyatning amalda bo‘lishi ijtimoiy hokimiyatda zarur bo‘lgan barcha unsurlar bilan birga, qo‘shimcha ravishda quyidagi jihatlar ham bo‘lishini taqozo etadi:

1. Hokimiyatni amalga oshiruvchi guruh yoki guruhlar bilan hokimiyatning obyekt bo‘lgan guruh yoki guruhlarning o‘zaro ijtimoiy ajralishi.

2. Hokimiyatni amalga oshirishning asosi sifatida uyushgan majburiylikning mavjudligi (masalan, oqsoqollar kengashi va hokazo).

**Sivilizatsiya kelib chiqishining ma‘naviy shart-sharoitlari.** Ma‘naviy sohada sivilizatsiyaviy hayotning qaror topishi eng radikal tarzda bo‘lib, inson ruhiyatida mantiqiy tafakkurni, unda esa sifat jihatdan yangi dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Astrologiya, arifmetika, biologiya, tibbiyot, agronomiya kabi fanlarning kurtaklari shakllana boshlandi. Unsurlari ko‘rina boshlangan ilk san‘at namunalari – urf-odat musiqalari va raqslarida, asosan, asotiriy (mifiy) personajlar aks etgan.

Sakral (lotincha sacrum – muqaddas) sohada sivilizatsiyaviy ruhiyatda ibtidoiylkda bo‘lganidek, mistika (yunoncha mistukos – sirli) to‘la hukmron edi.




Sivilizatsiyaning ilk ko‘rinishi bo‘lgan *neolit davri* asta-sekin *eneolit bosqichiga*, ya‘ni, *mis-tosh*, *bronza davrlariga* o‘rnini bo‘shatib berdi.

**Xususiy mulk.** Eneolit sivilizatsiyasining o‘ziga xos jihati shundaki, mulkning neolit davridagi umumiyligidan xususiy shakliga o‘tildi. Xususiy mulk ikki shaklda vujudga keldi.

Birinchisi yirik shaklda – jamoa va qabila boshliqlari qo‘lida unumdor yerlar, chorva mollari va qullar to‘plandi. Ikkinchisi esa mayda shaklda – sivilizatsiya kelib chiqishining ma‘naviy shart-sharoitlari xususiy mulk – kichik yer egalari, chorvadorlar, hunarmandlarning mulki ko‘rinishida amalda bo‘ldi. Bu davrda qullarning o‘rni alohida bo‘lganligini nazarda tutish lozim.

Sivilizatsiyaning bu bosqichida mahsulotlarni muntazam ayir-boshlashning zarur sharti sifatida *pul muomalasi* vujudga keldi. Muomala uchun dastlab oltin, so‘ngra kumush tangalar ishlatila boshlandi.



39-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Sivilizatsiya* – insoniyat jamiyati jarayonlari harakatida erishilgan daraja hamda moddiy va ma‘naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish usulini ifodalaydigan tushuncha.
- *Mehnat taqsimoti* – individual sifatlarining rivojlanishi natijasida kishilar o‘rtasidagi faoliyat almashinuvi va o‘zaro bog‘liqlikni anglatadigan tushuncha.
- *Neolit va eneolit davrlari* – sivilizatsiya kelib chiqqan va undan keyingi davrlar.

## Savollar va topshiriqlar



1. Nega «sivilizatsiya» atamasini qo'llash XVII asrdan boshlangan?
2. «Sivilizatsiya» tushunchasining ko'p ma'noliligi haqida mulohaza qiling.
3. «Tarix» va «sivilizatsiya» tushunchalarini izohlang.
4. Sivilizatsiyani tushuntiradigan qarashlar rang-barangligi sabablarini mulohaza qiling.
5. Politogenez qanday kechgan?
6. Sivilizatsiya va madaniyat nisbatini mulohaza qiling.
7. Qadriyatlar tasnifini bering.
8. Daryo, dengiz va okean sivilizatsiyalari qanday tavsiflanadi?
9. Sivilizatsiyaga tarixiy bosqichlilik yondashish nimalardan iborat?

### III.6.2. Madaniyat va qadriyatlar

*«Sivilizatsiya» va «madaniyat» tushunchalari o'zaro qanday nisbatda? Madaniyat hodisalari qanday tamoyillarga ko'ra guruhlanadi? Qadriyat nima? Shaxs hayoti qadriyatiyligini jamiyat qadriyatlaridan ustunligi nimada?*

**Sivilizatsiya va madaniyat.** Sivilizatsiyalarning jamiyat ilgari harakat bosqichlari ekanligi doirasida madaniyat alohida o'rin tutadi. Yevropa yangi zamon mutafakkirlari *J.J. Russo* (Fransiya) va *I. Kant* (Prussiya) birinchi marta «sivilizatsiya» va «madaniyat» tushunchalarini farqlaganlar. Keyinroq bu tushunchalarning o'ziga xos jihatlarini nemis mutafakkiri *O. Shpengler* 1918-yilda nashr etilgan «Yevropa quyoshining botishi» asarida ko'rsatgan edi. Sivilizatsiya texnik-texnologik omillarning yuksak darajasini ifodalasa, madaniyat ijodiy hayotiylikni bildiradi. Ta'kidlash joizki, Shpengler G'arb tarixida birinchi bo'lib Yevropa sivilizatsiyasi va madaniyatidan qolishmaydigan madaniyatlar va sivilizatsiyalar borligini e'tirof etib, ularning xiyla asosli tavsifini berdi.

Har bir madaniyat o'z-o'zicha va alohida mavjud bo'lib, tarix kechishining ma'lum bosqichida maydonga keladi. Tarixda uchragan *Hind, Xitoy, Vavilon, Misr, Yunon, Arab-Isлом, Turk-Isлом, G'arbiy Yevropa va slavyan* madaniyatlari shular jumlasidandir. Ularning har biri inson singari *go'zallik, yoshlik, yetuklik va qarilik* bosqichlarini bosib o'tdi.

Shpengler sivilizatsiya va madaniyatni qarama-qarshi qo'yib birinchisining kuchayishini ikkinchisining halokati bilan bog'laydi.

Katta shaharlardagi kishilar hayotida texnika, siyosat, sport hukmron boʻlib aholini ilgarigi anʼanalardan mahrumlashtirdi va shaklsiz ommaga aylantirdi. *A. Toynbi* (Angliya) sivilizatsiya va madaniyatni oʻzaro muqobil qoʻymaydi. Madaniy oʻsish hamma xalqlarga xos, uning amalga oshishi esa turlichadir. Uningcha sivilizatsiyalar ham xilma-xildir va ular oʻrtasida umumiy aloqadorlik mavjud. Ruh va din insoniyat birligiga olib kelishi mumkin.

Toynbi ham yevropachadan farqlanadigan sivilizatsiyalarni tan oladi. Yaʼni dunyo miqyosida bir-birini takrorlamaydigan, oʻz yoʻli maqomiga ega sivilizatsiyalar borligi xalqlar va millatlar oʻzaro munosabatlarida ularni hisobga olishni ham bildiradi. Madaniyat insoniyat hayotining belgilovchi tomonlaridan hisoblanar ekan, unda barcha madaniyat tashuvchilarining zarur haq-huquqlari toʻla koʻlamda taʼminlanmogʻi lozimdir.

*A. Veber* (Germaniya) fikricha sivilizatsiya Sotsium rivojlanishining muayyan bosqichini anglatrsa «madaniyat» tushunchasi esa sivilizatsiyaning sifat darajasini ifodalaydi.

*L.N. Gumilyov* Sovet davlati davrida ham sivilizatsiya va madaniyat nisbatini oʻziga xos tushungan. Uning nazariyasiga koʻra etnos yaʼni xalq tarixi muayyan madaniyatda aks etganidek, sivilizatsiyaviylikda ham ayni shu madaniyat va etnik ruhiyat ifodalanadi. Bunda barcha etnoslar hayotlari boshlanishi va nihoyasi borligini nazarda tutmoq lozim.

Yana bir nuqtayi nazarga koʻra, u yoki bu mamlakat yoxud millat muayyan bir davrda yo oʻzining sivilizatsiyasiga (madaniyatiga), uning mavjud xillaridan biriga mansubligi, yo boʻlmasa yaqinligi bilan xarakterlanadi. Hozirgi zamonning taniqli mutafakkirlaridan biri, amerikalik *S. Xantington* «Sivilizatsiyalarning toʻqnashuvimi?» asarida shunday yozatadi: «Biz sivilizatsiyani kishilar umumiy-ligining eng keng darajasi, madaniy birliklarning eng yuqori maqomi tarzida taʼriflaymiz. Sivilizatsiya obyektiv tartibda til, tarix, din, urf-odatlar, institutlar hamda kishilar oʻz-oʻzini anglashining umumiy belgilari mavjudligi bilan tavsiflanadi. Oʻz-oʻzini anglashning turli darajalari bor: masalan Rim aholisi oʻzini itmiyalik, katolik, xristian, yevropalik, Gʻarb dunyosi kishisi sifatida koʻrsatishi mumkin, buning natijasida madaniyatning chegarasi va tarkibi ham oʻzgarishi mumkin».

«*Madaniyat*»ning *tushunchaviy maqomi*. Yuqoridagilardan koʻrinadiki, *birinchidan*, hozirga qadar ham sivilizatsiya va madaniyatni ifodalashda koʻpchilikni qoniqtiradigan tushunchalar yoʻq. *Ikkinchidan*, madaniyat tushunchasining oʻzini taʼriflashda ham turli nuqtayi nazarlar mavjud. Asl variantda «madaniyat» soʻzi arabchadan oʻzbekchaga oʻgirilganda shaharga oidlikni bildiradi. Bu soʻzning lotinchasi – *kultura* oʻzbekchada tuproqqa ishlov berish, oʻsimliklarni parvarishlash, dehqonchilik bilan shugʻullanish, tarbiyalash, taʼlim, rivojlanish, hurmat maʼnolarini anglatadi.

Kultura lotinchada tabiatni hamda insonning mansub tanasi va antropologik tasvirini bildiradigan *natura* atamasiga qarama-qarshi maʼnoda ishlatilib, insoniyatni tabiatdan ajratib turgan barcha jihatlarini, umuman, odamzod tomonidan yaratilgan barcha moddiy va maʼnaviy boylklarni jamlagan dunyo tarzida keng maʼnoda qoʻllangan. Shuningdek, ushbu soʻz bu maʼnolardan tashqari yana kishilar oʻrtasidagi turli-tuman munosabatlarni ham qamragan. Koʻrinadiki, shahar ham kishilar tomonidan yaratilishidan kelib chiqilsa, arabcha va lotincha atamalar mazmunan oʻxshashdir.

Yevropada maʼrifatchilar (XVII–XVIII asr) baʼzi xalqlar maʼnaviyatining fan, din, sanʼat, huquq, axloq koʻrinishlarida tarixiy jarayonning ilgarilamaligi ifodasi tarzida «madaniyat» atamasini qoʻlladilar. Ularga qadar ham Qadimgi Yunonistonda *sofistlar* oʻzlarining qarashlarida ikki asos – tabiiylik bilan axloqiylikni qarama-qarshi qoʻyib, *ellinlar* oʻzlarining tarbiyalanganligi va atrofda qilarning yovvoyiligini madaniyat darajasi bilan bogʻlab fikr yuritganlar. Soʻngroq «madaniyat» tushunchasi doirasiga kiyinish, nikoh odatlari, oilaviy hayot, mehnat faoliyatlari, diniy marosimlar, boʻsh vaqtlarini oʻtkazish va hokazolar kiritildi.

Hozirgi vaqtda «madaniyat» tushunchasiga *anʼanaviy* yoki *mumtozlik*, *aksiologik*, *faoliyatlilik* va boshqa yondoshishlar mavjud. Birinchisiga koʻra madaniyat – bu inson tomonidan yaratilgan predmetlar va ularning qadriyati majmui. Bunda predmetlar oʻzgarishsiz holatda qolsa-da madaniyat hodisalari moddiy va maʼnaviy sohalar koʻrinishida boʻladi, deb hisoblanadi. Ikkinchisida – «madaniyatlilik» yoki «madaniyatsizlik» inson uchun ahamiyatliligi bilan oʻlchanadi. Yaʼni tanlab olingan muayyan

me'yor asosida madaniyat hodisalariga yondoshiladi. Masalan, muayyan mintaqa madaniyati boshqa xalqlar madaniyati nuqtayi nazaridan baholanadi.

Faoliyatlilik yondoshishda madaniyat insonning turmush tarzi ifodasi sifatida qaraladi. Masalan, hayvonlar tabiat in'omlari bilan cheklansa, inson ularni tabiiy xomashyo sifatida olib, so'ngra maxsus tayyorlaydi (qaynatadi, qovuradi yoki bug'da pishiradi, turli ziravorlar qo'shadi) va turli asboblarda yordamida iste'mol qiladi. Albatta, bunda madaniyat faoliyatining o'zidan iborat ekan-da, deb jo'ngina o'ylamaslik kerak. Asosiysi, inson faoliyatining qay yo'sinda, amalga oshirilishi madaniyatni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi yondoshuvlar ko'rsatadiki, «madaniyat» tushunchasi qamragan voqelik keng, namoyon bo'lishi xilma-xilligiga ko'ra uni to'laqonli tushunish ancha qiyin. Natijada unga berilgan ta'riflar ham juda turlicha. Ammo ular madaniyat mohiyatining qaysidir bir muhim jihatini o'zida ifodalaydi.

Madaniyatga tizimiy yondoshish lozim. Tizimning har bir unsuri boshqasi bilan shunday tarkibiy bog'liqlik, ularning o'zi alohida-alohida holda kichik tizimni tashkil etadi. Masalan, ma'naviy madaniyat tizimida siyosiy madaniyatni olaylik. Uning tarkibiga siyosiy tanlov, siyosiy harakatlar, siyosiy qadriyatlar va aqidalarning madaniy mohiyati kiradi. Bular ham o'z navbatida xiyla murakkab tarkibdan iborat. Ana shunday fikrni madaniyatning axloqiy, estetik, diniy va boshqa sohalariga tatbiqan ham aytish mumkin.

Ko'rinadiki, inson yaratuvchilik mohiyatining ifodasi bo'lgan madaniyat keng qamrovli murakkab tuzilma va bajaradigan vazifalari ham ko'p qirralidir. Ularni eng umumiy ma'noda bilish, axborot yig'ish, saqlash va uzatish, muomala, kommunikativ, me'yoriy vazifalar va hokazolar tarzida ifodalash mumkin.

Har bir hodisaga tarixiy yondoshish lozim bo'lganidek, madaniyatga ham bunday yondoshishda uning rivojlanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini bilib olish muhim. Vorislik madaniyat hodisalaridagi o'tmish jihatlarining saqlanib qolishini tushuntiradigan muhim qonuniyat. Unga ko'ra ilgari to'plangan tajriba yangi avlodlarga o'ziga xos tarzda yetkaziladi.

**Qadriyatlar.** Madaniyat hodisalariga munosabat dastavval bularning muayyan *ehtiyojga* javob berishidan boshlanadi. Ehtiyoj kishilarni *maqsad* sari yetaklaydi. Maqsadga erishish esa muayyan *idealga, me'yorga* va bular orqali oxir-oqibatda *qadriyatga* tayanadi.

Ideal – bu maqsadning ruhiyatda, aniqrog‘i uning ong, anglangan qismida ifodalanishidir. Me’yorlar ma’lum ijtimoiy muhitda tan olingan qoidalardir. Ularning yordamida kishilar xatti-harakatlari va faoliyatining boshqa jihatlari boshqariladi. Ideal va me’yorlar har doim muayyan qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlarga asoslanadi. Zero, har qanday ijtimoiy hodisa qadriyatlar asosida talqin etiladi. Bunda mezon ko‘rsatkichi bo‘lib, samaradorlik hisoblanadi. Aksincha bo‘lgan holda bu hodisa qimmatga ega bo‘lmagan bo‘lur edi.

Insoniyat tarixida qadriyatlar to‘g‘risidagi masala hech qachon e’tibordan chetda bo‘lmagan. «Qadriyat» so‘zi barcha xalqlar tillarida asosan insonning voqelikka bo‘lgan alohida munosabatlarini, narsa va hodisalarning insonga nisbatan olingan ahamiyatligini bildirgan. Shunga ko‘ra inson uchun barcha narsa, hodisa, voqea va jarayonlar ijobiy baholangan bo‘lsa, alohida shaxsning ham, insoniyatning ham manfaatlariga javob bersa, qadriyat bo‘la oladi.

Inson yo‘q joyda yoki atrofidagi narsalarga uning befarqligi natijasida, shuningdek, haqiqat va yangilishish o‘rtasidagi farqni ko‘rish ishtiyoqi yo‘qligi tufayli qadriyatlar masalasi ko‘tarilmaydi. Qadriyatlarni baholash ko‘p jihatlardan inson subyektining sifat tavsifiga bog‘liq. Jumladan, qadriyatlar qay yo‘sinda talqin etilishi muhim hisoblanadi. Uning qanchalik keng qamrovli va obyektivligi ularga berilgan bahoning ham shu darajada bo‘lishini ta’minlaydi.


Insonning ko‘plab ehtiyojlari va hissiyot usullariga egaligi tufayli turli-tuman baholashlar mavjud, lekin qadriyatlarni baholash o‘ziga xos jarayon. Baholash qadriyat yaratmaydi. Qadriyatlar chuquroq tasnif etilsa, ularni bir qator belgilariga ko‘ra ajratish mumkin. Mazmuniga ko‘ra qadriyatlar iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va hokazo ko‘rinishlarda mavjud. Tashuvchilariga (subyektligiga) ko‘ra qadriyatlar shaxsiy, guruhiy, milliy va umuminsoniy tarzlarda namoyon bo‘ladi. Bu tasniflarda birinchidan, hayotning ma’nosi va maqsadi (ezgulik va yovuzlik, baxt-sodat, ne‘mat va hokazo) qadriyatlari aks etadi; Ikkinchidan, hayot (sog‘liq, shaxsiy xavfsizlik, oila farovonlik qarindosh-urug‘, ta’lim va hokazo),

demokratiya (soʻz va vijdon erkinligi, partiyalar, suverenitet, tenglik, adolat va boshqalar), ijtimoiy tan olingan (mehnatsevarlik, malaka, ijtimoiy ahvol va hokazo); shaxslararo aloqa (sofdillik, muhabbat va boshqa) qadriyatlarini ifodalanadi; uchinchi, anʼanaviy (tugʻilgan joyiga, oilasiga, kattalarga hurmatli boʻlish), diniy (xudoga eʼtiqod va hokazo); urbanizm (shaxsiy muvaffaqiyat, tadbirkorlik, turmush tarzi va boshqa) qadriyatlar koʻzga tashlanadi; toʻrtinchi, jamoaviy (oʻzaro yordam, birdamlik, intizomlilik va hokazo) qadriyatlar aksini topgan.


Qadriyatlar tarixiy xarakterda boʻlganligidan ularning nisbiy tabiatga ega ekanligini nazarda tutmoq kerak. Kishilarning yetuklik darajasiga muvofiq ravishda ularning qadriyat moʻljallari ham toʻlaqonli va insonparvarlik mazmuniga boy boʻlib boradi. Buni shaxsiy qadriyatlar ustunligi doirasida hozirgi Gʻarb dunyosida umuminsoniy qadriyatlarga ega boʻlish zaruriyatini koʻpchilik anglayotganligida ham koʻrish mumkin.



40-sxema



41-sxema



42-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Madaniyat* – sivilizatsiyaning ma’naviy sohasi bo’lib ijodiylikni ifodalaydi. Madaniyatning moddiy ifodalanishidan farqli ravishda. *Ma’naviy madaniyat* – ma’naviy faoliyat va uning natijalarini o’z ichiga oladi.
- *Vorislik* – madaniyat rivojlanishi turli bosqichlari o’rtasidagi bog’lanishni ifodalab, yangi holatga o’tishda tizimdagi u yoki bu jihatlar saqlab qolishni bildiradi.
- *Aksiologiya* (yunoncha: axios va logos – qadriyatlar haqidagi ta’limot) madaniyat hodisalariga qadriyat sifatida qarash tamoyilidan kelib chiqib yondoshish.
- *Qadriyat* – voqelik hodisalarining shaxsiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatdorligi.
- *Talqin* – narsa va hodisalarni tushuntirishda beriladigan ma’nolarning yig’indisi.
- *Baholash* – guruh, tashkilot va jamiyatning konkret narsa, voqea va jarayonlarga bo’lgan ma’qullanishi yoki aksincha munosabatlarning ifodasi.

### Savollar va topshiriqlar



1. «Madaniyat» tushunchasining ko’p ma’nologli nima bilan izohlanadi?
2. «Jamiyat» va «jamiyat» tushunchalari qanday nisbatda?
3. Madaniyat hodisalariga tarixiy yondoshishni o’zingizcha ma’lum tarixiy bilimlarga tayanib izohlang.
4. Ideal, me’yor va qadriyat nisbatida qaysinisi belgilovchi hisoblanadi?
5. Qadriyatning obyektiv mezoni masalasiga mulohaza qiling.

### Amaliy ish



1. «Sivilizatsiya» tushunchasi qanday amaliy ehtiyojlarga javob beradi?
2. Sivilizatsiyaning Sharqda boshlanganligi sabablarini izohlang.



3. Mehnat taqsimoti jarayonlarining sivilizatsiyaviy maqomini tushuntirib bering.
4. Davlatchilikning kelib chiqishi sivilizatsiya uchun qanday ahamiyatga ega bo'ldi? Buni mulohaza qiling.
5. Sivilizatsiyalar xilma-xilligini tushuntiring.
6. Markscha formatsiya nazariyasining yaroqsizligini boshqa o'quv predmetlaridan o'rgangan bilimlarga tayanib mulohaza qiling.
7. «Sivilizatsiya» va «madaniyat» tushunchalari salmog'ini solishtiring.
8. Madaniyatning tasnifini bering.
9. O'zbek madaniyatining o'ziga xos jihatlari nimada? Bu xususda referat yozing.
10. Siyosiy va huquqiy madaniyatlar to'g'risida yana nimalarni bilasiz?
11. Qadriyatlarning tushunchaviy maqomini tushuntiring.
12. Qadriyatlarni qanday mezonlarga ko'ra tasnif etish mumkin? Buni tushuntirib bering.

### **Ma'ruza va referatlar uchun mavzular**



1. Sivilizatsiyaning kelib chiqishi.
2. Sivilizatsiyaning turli-tumanligi.
3. Sivilizatsiyaning o'zaro aloqasi.
4. Mehnat taqsimotining asosiy bosqichlari.
5. Politogenez.
6. Markaziy Osiyo – qadimgi sivilizatsiya o'choqlaridan biri.
7. «Sivilizatsiya» kategoriyasining tarixiy jarayonni tushuntirishdagi ahamiyati.
8. Madaniyatning kelib chiqishi.
9. Madaniyatlar aloqasi to'g'risida.
10. Madaniyatdagi milliylik va umuminsoniylik.
11. Qadriyatlarning zamonaviy talqini.
12. Milliy qadriyatlar va ulardagi umuminsoniylik.
13. Milliy g'oya – qadriyat.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. *Karimov Islom*. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
2. *Asqarov A.* O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T., «Universitet», 2007. Ma'naviyat yulduzlari. – T., 2000.
3. Falsafa. Darslik. M. Ahmedova tahriri ostida. – T., 2013.
4. *Галич. М.* История до колумбовых цивилизаций. – М., 2000.
5. *Гумилев Л.Н.* Этногенез и биосфера Земли. – М., 1999.
6. *Дьяканов. К.М.* Пути истории. От древнейшего человека до наших дней. – М., 1999.
7. *Яковец Ю.В.* История цивилизаций. – М., 1999.

---

---

## VII bob. SIVILIZATSIYALAR TASNIFI

### III.7.1. Sharq va G'arb: sivilizatsiya tiplari

*«Sharq»ning tushunchaviy maqomi va sivilizatsiyaviy tavsiflari nimada? Sug'orma dehqonchilik va an'analarning barqaror saqlanganligi o'zaro bog'liqmi? Sharqning G'arbg munosabati qanday bo'lgan? Yangi G'arb sivilizatsiyasining belgilovchi jihatlari nimada? Hozirgi sharoitlarda Sharq va G'arb sivilizatsiyalari qadiryatlarining o'zaro ta'siri qanday?*

**«Sharq» tushunchasining mazmuni.** «Sharq» – Yer shari quruqlik qismining Osiyo qit'asi va Afrika qit'asining shimoliy qismini qamragan geografik atama. Lekin, bunda tarixiy-madaniy, jamoatchilik, an'anaviylik, ijtimoiy-siyosiy (alohida davlat tipi, individuallikdan jamoaviylikning ustunligi), ma'naviy jihatlar (turli darajadagi ochiq dinlar, intuitsivlik bilan ratsionallikning qo'shib ketganligi) eng ko'p darajada ifodalangandir. Sharq dunyosi asosiy jihatlariga ko'ra yaxlit bo'lgani holda o'ziga xos xilma-xilliklar, muayyan darajadagi ijtimoiy-madaniy qarama-qarshiliklarni ham inkor etilmaydi.

Sharqda insoniyat tarixi boshlangan. Bu yerda bundan 10–12 ming yillar avval chorbachilik va dehqonchilikka asos solindi. Natijada inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarda yangi jihatlar paydo bo'ldi. Dehqonchilik bilan shug'ullanish tabiat qonunlarini o'rganib borish imkoniyatlarini berdi. Bu ishlab chiqaruvchilarning tashqi sharoitlardan bir qadar mustaqil bo'lishiga olib keldi. Bu faoliyat asosan mavsumiyligidan aholining ma'lum qismi boshqa sohalarda va maqsadlarda mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. G'ildirakning ixtiro etilishi muhim yangilik edi.

Ishlab chiqarish orqali xo'jalik yurgizish shaklining vujudga kelishi kishilarning turmush tarzini tubdan o'zgartirgan. Ularning axloq-odobi, an'analari barqaror rivojlanish kasb eta borgan.

Sharq ma'naviy hayotida avvalboshdan diniy-asotiriy va tafakkurning mutlaqlashtirish uslubi mavjud bo'lgan. Qadimgi kishilar dunyoqarashida Olamning Tabiat va Sotsiumga, tabiiy va notabiiyga bo'linishi dastlab yuz bermagan edi. Shunga ko'ra Sharq kishilarining olamni idrok etishi qorishiq – sinkretik tusda bo'lib, «barcha narsalar birlikda», «hamma narsa hamma narsada» tarzida qaralgan. Olamni bunday idrok etishda kishilar xatti-harakati, ularning taqdiri koinotiy qonunlarga ko'ra erkin bo'la olmaydi. Bunday dunyoqarashda kishilar taqdirini Tabiat, Sotsium va Davlat belgilashi muqarrar.

***Qadimgi Sharqdagi sivilizatsiyalar.*** Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning yaratuvchilari *shumerliklar* bo'lgan. Ularning faoliyati natijasi o'laroq barpo etilgan shahar davlatlarida an'anaviy xo'jalik yurgizish bilan birga, ijtimoiy-siyosiy sohada ham muhim o'zgarishlar qilingan. Shumerliklar yaratgan *iyeroglifiy alifbo* ma'naviy rivojlanishga jiddiy turtki berdi. Va jarayonlar Shumer davlati o'rniga kelgan *Akkad* va boshqa tuzilmalar, ayniqsa, *Bobil* davlati davrida davom etdi. Bobil podshosi *Xammurapi* davlatni o'zi tuzgan qonunlar asosida boshqargan. Bu yerda o'z davrining ilg'or taqvimi tuzilgan, sanoqning o'nli tizimi joriy etilgan. Ko'pgina xudolar to'g'risidagi tasavvurlar, ibodatxonalar, qiziqarli afsonalar (masalan, Gilgamish haqida), san'atning xilma-xil namunalari, geografik xaritalarning birinchi marta yaratilishi, xiyla yetuk tibbiyot – bularning barchasi sivilizatsiyaning ilk davrida erishilgan yutuqlardir.

*Misr* sivilizatsiyasida davlat xo'jaligi jamoachilikka ancha erta barham berdi. Mamlakat hayoti hukmdorlar tomonidan to'la nazorat ostiga olingan edi. Shunga qaramay, bu mamlakatda paydo bo'lgan alifbo, me'morchilik (ehromlar qurish san'ati), fan kurtaklari (matematika, astronomiya, tibbiyot va hokazolar), mifologiya va din sohalarida erishilgan yutuqlar insoniyat qadimgi sivilizatsiyasiga qo'shilgan ulkan hissa hisoblanadi.

*Hind* sivilizatsiyasi barcha asosiy jihatlari bilan noyobdir. Uning paydo bo'lish davriga oid ma'lumotlar oz. Xarappa va Moxenjedaro yozuvi hozirgacha o'qilmagan. Bor manbalarda siyosiy-iqtisodiy

masalalardan ko'ra diniy-falsafiy muammolar ko'p o'rin egalagan. Bundan tashqari, Hind madaniyatida Shimoldan – Markaziy Osiyodan kelgan oriylar hissasi bilan mahalliy qabilalar yaratuvchilik faoliyati nisbati masalasi ham bor. Lekin Hindistonda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiqning rivojlaniishi natijasida bu yerdagi daryolar bo'ylarida ko'plab shaharlar vujudga keldi.

*Xitoy* sivilizatsiyasi ko'pgina yozma tarixiy va arxeologik manbalarga ega. Muayyan yo'nalishda bo'lishiga qaramay, Xitoyda ham sivilizatsiya daryo bo'ylarida kelib chiqqan. Donli o'simliklarni madaniylashtirish bilan birga, yovvoyi hayvonlar xonakilashtirilgan. Nafis hunarmandchilik buyumlari yasalgan. Har bir harfi – iyeroglifi bir so'zni anglatadigan alifbo ham shu davrda yaratilgan. Mutaxassislar Xitoyga chet sivilizatsiyasining, jumladan, Yaqin Sharq mintaqasining ta'siri borligini ta'kidlaydilar.

Dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatining rivojlanishi ilmiy bilimlarga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Ma'naviy madaniyatning qator tarmoqlari paydo bo'ldi. Bular ichida din fenomenining o'рни alohidadir.

Sharqda keyinroq boshqa mintaqalarda paydo bo'lgan sivilizatsiyalarda ham shaharlar diniy-ilohiy muassasa – ibodatxonalar yonlarida qurilgan. Dastlabki ilohlar hayvonlarga (masalan, Qadimgi Misrda), ba'zan kishilarga (Shumerda) o'xshatib yasalgan. Xudolar shaharlarda avvalboshda ko'pchilikni tashkil etgan holda, keyinroq ulardan bittasi boshliq holda ajratilib ko'rsatilgan. Kohinlar xudolar nomidan ish yurituvchi bo'lib ko'ringan. Ular boshqaruvni kasb qilib olgan kishilar sifatida suv va urug'ni taqsimlash, ekin ekish va hosilni yig'ishtirib olish vaqtlarini belgilash, zaxira mablag'ni sarflash va boshqa juda muhim bo'lgan vazifalarni bajarishgan.

Neolit inqilobi Sharq sivilizatsiyasiga iqtisodiyot sohasida quyidagi o'ziga xosliklarni bergan:

*Birinchi*dan, xo'jalik yurgizish tajribaviy yo'l bilan o'zlashtirilgan texnologiya asosida va mavjud ishlab chiqarish masalalari bilan an'anaviy amalga oshirilgan, tovar munosabatlari ham rivojlangan.

*Ikkinchidan*, qo‘l mehnati va, umuman, muskul kuchi bilan harakatlantiradigan ishlab chiqarish qurollaridan foydalanilgan.

*Uchinchidan*, zirotchilik va unga asoslangan jamoaning alohida mavqega egaligi oqsoqollar tomonidan boshqarilgan jamoatning yerga egalik qilishi va davlatga renta – soliq to‘lashi tartibi paydo bo‘lgan.

*To‘rtinchidan*, ishlab chiqarishdan orttirilgan jamg‘armaning unchalik katta emasligi va ularning ham noishlab chiqarish sohalarida sarflanishi kuzatilgan.

*Beshinchidan*, davlatning hokimiyatga, uning qolgan barcha ko‘rinishlarida ega bo‘lganlarning qo‘lida mulkning to‘planishi oqibatida xususiy mulk ikkinchi darajali ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining *ma‘naviy sohasi* quyidagi tavsiflarni o‘z ichiga olgan:

*Birinchidan*, ma‘naviy sohada kishilar hayotining konservativligi tufayli dastlab *politeistik*, so‘ngra *monoteistik* dinlar belgilovchi o‘rin tutadi.

*Ikkinchidan*, afsonalarga notanqidiy yondashish, *dogmatizm*, *ekzaltatsiya* (yunonchadan ag‘darilganda cheksiz shodlik yoki boshqa xursandlik holati, qattiq hayajonlanishi) va *mistitsizmga* berilish mavjud.

*Uchinchidan*, ilmiy bilimlar ko‘pincha *hunar* kishilar faoliyati uchun qolip, andoza sifatida qaralganidan fan bo‘lib to‘la shakllana olmagan.

*To‘rtinchidan*, barqaror stereotiplar sifatida avlodlar tajribasi muhim qadriyatlar sanalib, ilmiy bilimlar ahamiyatini kamaytiradi.

*Ijtimoiy-siyosiy hayot* ham Qadimgi Sharq sivilizatsiyalariga mansub jamiyatlarda qator o‘ziga xosliklar bilan ajralib turadi:

a) ijtimoiy tarkibda aholi turli qatlamlarining o‘zaro hokim-tobe munosabatda ekanligi (masalan, Hindistonda kastachilik); b) ijtimoiy faollikning cheklanganligi; d) jamoaviylikning shaxsiylikdan ustunligi boshqaruvida ko‘pincha davlatning jamiyatdan mutlaq ustunligi, uning barcha insoniy munosabatlarni boshqarib borishi.

***Sharq sivilizatsiyasidagi betakror jihatlar.*** Bu yerda tipik quldorchilik bo‘lmagan, feodalizm deb atash qabul qilingan

tartibotlarning tipik ifodasi qariyb o'zgarishsiz qolgan. Qadimda bo'lganidek, o'rta asrlarda ham, birmuncha yangi jihatlar kasb etgan holda yangi zamonda bular davom etib keldi.

Ma'lumki, qadimda jamoa a'zolari hayot faoliyati quyidagi jihatlarga asoslangan: *birinchidan*, majburiy ravishda bajariladigan o'zaro almashuv tamoyillari va mexanizmlariga amal qilishi kerak edi: Yani har bir a'zo umumiy qozonga topganining hammasini qo'shgani holda, undan faqat o'ziga tegishli qisminigina olgan. Bular o'rtasidagi farq esa jamoa yoki urug' boshlig'iga tegishli bo'lib, uning nufuzini anglatgan.

*Ikkinchidan*, katta oila boshlig'i, urug' oqsoqoli yoki urug' kengashi a'zosi obro'-e'tibor va hokimiyatga egalik qiluvchi sifatida jamoaning barcha mulkini qayta taqsimlaydi, shu bilan jamoa mulkining ham egasi ekanligini ko'rsatadi.

Sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanish sharoitida boshliq jamoani jins, yosh, avlod, oiladagi mavqega ko'ra boshqargan. Odatda asta-sekin bir nechta qo'shni jamoalarning nufuzlisi atrofida birlashish hodisasi ham yuz bergan. Nufuzli jamoa markazidagi ilk shaharlarda ibodatxona, saroy, xazina, omborlar qurilgan. Natijada oqsoqollarning eng kuchlisi yuqoridagi tarzda shakllanayotgan ilk davlatning sardori bo'lgan.

Sharqda dastlab *nomajburiy ijtimoiy hokimiyat*, so'ngra *majburiylikka asoslangan davlat hokimiyati* vujudga kelgan. Bunda boshqaruvchilarning o'rni va ahamiyati tobora oshib borgan.

Buning natijasi o'laroq kim hokimiyatga aloqador bo'lsa, uning qo'lida boylik to'planadi. Shunga ko'ra kim hokimiyatga ega bo'lsa, barcha narsalarga, jumladan, mulkka ham ega bo'lgan. Qadimgi Sharq mamlakatlari sivilizatsiyalarida hokimiyat-mulk tamoyili amalda bo'lgan. Oddiyroq qilib aytilsa, bunday tamoyilda hokimiyat mulkni tug'dirgan, hokimiyatdan mahrum bo'lish esa barcha mulkdan ajralishgacha olib borgan.

***Antik dunyo sivilizatsiyasi.*** «*G'arb*» atamasi dastlab Yevropada XV–XVII asrlarda qaror topgan sivilizatsiyaviy-madaniy rivojlanishni ifodalagan. Hozirgi vaqtda ratsionalizm nasroniylik an'analari, ma'rifatchilik, vakolatli demokratiya, individuallikning

jamoaviylikdan ustunligi, ilmiy-texnikaviy ravnaq va hokazo qadriyatlar ma'nosida tushuniladi. «*G'arbchilik*»ning ildizi antik davrga borib taqaladi.

«*Antik*» so'zi lotinchada «qadimgi» degan ma'noni anglatsada, bu atamada Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimni tushunish qabul qilingan.

Yunonlardagi ravnaqda tashqi omilning o'rni katta bo'lgan. Ular finikiyaliklardan yozuvni, suryoniylardan qumdan oyna tayyorlashni, dengiz hayvonlaridan bo'yoq olishni o'rganganlar, misrliklar va bobilliklardan aniq bilimlar yutuqlarini o'zlashtirganlar. O'rtayer dengizida kemachilikning rivojlanishi va savdo aloqalarining kengayishi bularning eng samarali natijalaridan edi.

Ilk bosqichda polis tuzilmalari (shahar-davlatlari) tashkil topgan va yunon etnosining o'z-o'zini anglash jarayoni yuz bergan.

Yaratilgan antik sivilizatsiyaning mazmunida qullar mehnatidan foydalanib bozorga yo'naltirilgan, xususiy tovar ishlab chiqarishga asoslangan xo'jalik yurgizish tashkil etgan. Bunga markazlashgan hokimiyatning nisbatan kuchsizligi sharoitida jamoalar, shahar-davlatlarning o'z-o'zini boshqaruvida erishilgan.

Afina hokimi *Solon* qabul qilgan qonunlar kuchga kirishi bilan Yunonistonda maydonga kelib, xususiy mulkchilikka asoslangan tuzilma dunyoning biron boshqa joyida bo'lmagan edi. Gap bu yerda xususiy mulkchilikning ehtiyojlariga javob beradigan siyosiy-huquqiy tizim – *demokratik o'z-o'zini boshqarish* to'g'risida boradi.

Polis a'zolari *teng huquqli* fuqarolar sifatida jamoat ishlarida va polisni boshqarishda ishtirok etishi mumkin edi. Bular oxir-oqibatda antik dunyoda, hozirgi zamon tili bilan aytganda, *fuqarolik* jamiyati muayyan asoslari qo'yilganligini bildirar edi.

Keyinroq polislik tamoyillar (fuqarolik, avtarkiya, avtonomiya) tovar-pul munosabatlari rivojlanishiga xalaqit bera boshlagan edi. *Yunon sotsiumi*, Aflotun aytganidek, «*bir-biriga dushman bo'lgan ikki – kambag'allar va boylar davlatiga bo'linib ketadi*». Polis axloqini shaxsiyatparastlik, yangi qudratlar – «kumush va oltin» egallab, ichki urushlar oqibatida Yunonistonning siyosiy mustaqilli va sivilizatsiya sifatida ahamiyatini yo'qotishga olib keldi. Albatta, bu sivilizatsiya mutlaqo o'chib ketmadi, balki o'zidan keyingi ellin davri uchun hal qiluvchi zamin tayyorladi.

Ma'lumki, Rim ko'p urushlar olib borgan. Bu sivilizatsiyaning asosiy qadriyatlari tegishli vatanparvarlik, mardlik, chidamlilik, to'g'rilik, vafodorlik ko'rsatishlari, intizom va qonunga bo'yisuvchilik, xudoga itoat etuvchilik bo'lgan.

**Nasroniy sivilizatsiya.** Rim saltanati o'rnida avvalgi ko'rinishida quldorchilik barham topib, aholi asosan, dehqonlardan iborat bo'lib qoldi. Ijtimoiy-madaniy jarayonning yangi shakli qaror topdi.

Sharqiy Rimda – *Vizantiyada* esa o'tmish sivilizatsiyasining asosiy jihatlari saqlanib qolgan edi. Lekin, kishilar hayotini tashkil etishning boshqa shakllari asta-sekin belgilovchi mavqega ega bo'la bordi.

Sivilizatsiyaviy tasodifga ko'ra bu o'zgarishlarning ma'naviy asosi nasora dini hisoblandi. Uning jamiyat hayotiga ta'sirini, ayniqsa, sakkiz marta amalga oshirilgan «salb yurishlari»da ko'rish mumkin. Shuningdek, mavjud davlat tuzilmalari ham din instituti qo'llab-quvvatlanishi bilan amalda bo'lgan. Natijada garchi papa va shoh bir davlat doirasida farqlansa-da, ammo, diniy hokimiyat bilan dunyoviy hokimiyat o'rtasidagi farqni ko'rish qiyin bo'lgan.

Bunday sharoitda antik davr sivilizatsiyasidan farqli holda fan bilimlariga katta zaruriyat vujudga kelmagan, mavjud bilimlar ham cherkov ta'sirida bo'lgan. Olimlari tevarak-atrofnı obyektiv o'rganishga intilishgan. Diniy ulamolalar esa ruh va axloq, e'tiqod va Xudo yagonaligi atrofida fikr yuritishgan.

**Ma'naviy o'zgarishlar va geografik kashfiyotlar.** Yevropaliklar ancha vaqt davomida Yer yuzining ko'pgina qismlari to'g'risida hech qanday obyektiv-haqqoniy tasavvurga ega bo'lmagan. Faqat keyinroq hunarmandchilik, savdo hamda dengiz sayohatlari ehtiyojlari fanga bo'lgan talabni oshirgan.

Yevropada birinchi *universitetlar* paydo bo'la boshladi. XV asrda bu yerda 60 tacha universitet bor edi. Ular orasida *Parij, Bolone, Oksford, Pragadagilar* mashhur bo'lgan.

Yevropa sivilizatsiyasi doirasida XI asrdanoq hukmron tabaqalar qadimgi Rim me'morchiligi yo'lida, ya'ni, «roman» usulida binolar barpo eta boshlagan. Keyinroq «gotik» usulda imoratlar paydo bo'lgan. Binolar haykallar va turli rasmlar bilan bezatilgan.



Shuningdek, bu davrda ritsarlik, shaharlar badiiy adabiyoti ham rivojlanib, kitob bosish ixtirosini tezlashtirdi. Moddiy texnika taraqqiyotiga ehtiyoj tugʻilib suv dvigatellari, metallurgiya alohida soha sifatida maydonga keldi.

Amerika va Avstraliyaning kashf etilishi, Osiyo Sharq-u Janubining oʻrganilishi, oʻzlashtirilishi mamlakatlar va xalqlar taqdirida chuqur iz qoldirdi: qitʼalararo savdo aloqalari paydo boʻldi. Yangi hududlarni oʻzlashtirishda qulchilik muayyan maʼnoda yana yoʻlga qoʻyildi. Yevropa jamiyati zaminida boshlangan kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga imkoniyatlar kengaydi.

Tugʻilib kelayotgan *burjuaziya* uchun *oʻqimishli kishilar* maxsus tayyorlanishi lozim edi. Tayyorgarlik oʻz ichiga kishilarning tabiatga qiziqishini, oʻtmishini oʻrganishni, mavjud tartiblar va dinga tanqidiy munosabat va hokazolarni keltirib chiqarmasligi mumkin edi. Bu jarayon markazida inson fenomeni turgan. Shunga koʻra *insonparvarlik* (gumanizm) gʻoyasi alohida mavqe egallagan.

Gumanistlar oʻtmish, xususan, *arab-islom* sivilizatsiyasi orqali saqlab qolingan va rivojlantirilgan antik dunyo madaniyatini kashf qildilar va buni *Uygʻonish (Renessans)* deb atadilar. Oʻz navbatida, renessans fan va madaniyatda katta oʻzgarishlar qildi. Lekin bu jarayonlar Gʻarbiy Yevropa hayotida belgilovchi taʼsirga ega boʻlgan katolik cherkovining *islohoti (Reformatsiya)*siz poyoniga yetmagan boʻlur edi.

***Maʼrifatchilik va Yevropada yangi sivilizatsiyaning boshlanishi.*** Inson ratsional tafakkuri Renessans va reformatsiya taʼsirida Oʻrta asrlarni tanqid ostiga olib undan chiqish yoʻlini izlay boshladi.

Maʼlumki, XIV asr oʻrtalariga qadar Yevropa rivojlanishi koʻp jihatlardan Sharq sivilizatsiyasi taʼsirida boʻldi. Yevropaliklarning arab-musulmon sivilizatsiyasidan oʻzlashtirgan jihatlari sezilarli boʻlgan.

Soʻnggi oʻrta asrchilikda Yevropada mutlaqlik (absolyutizm) maqomida milliy davlatlar qaror topgan edi. Ular mavjud feodal tarqoqliklarga, mayda-mayda mulklarning kuch huquqiga tayanuvchi egalari jilovini xiyla tortgan. Absolyutizm hukmdorlari Rim papsi bilan raqobatda dunyoviylikka moyil edi va bu oʻz natijalarini koʻrsatdi. Ularni aholining uchinchi tabaqasi, byurgerlar va klerikalizmga qarshi kuchlar qoʻllab-quvvatladilar.

Reformatsiya ana shular bilan kengayib, yangi ijtimoiy harakatchilikning – *maʼrifatchilikning* maydonga kelishiga turtki boʻldi. Maʼrifatchilar aql-idrokning tantanasi uchun kurashdilar. Ular dunyoni bilishning, kishilar hayotini takomillashtirishning vositasi sifatida diniy fatalizmdan xoli boʻlgan «aqlning tabiiy nuri»ni koʻrdilar. Erkin va faol insonning davlat va cherkov tomonidan hech qanday cheklanmagan barcha intilishlarni va ehtiyojlarni aql-idrokka muvofiq deb hisobladilar. Tabiat tomonidan berilgan haq-huquqlari uchun kurashayotgan insonni «*tabiiy inson*» deb tushunganlar. «*Erkinlik*», «*tenglik*», «*birodarlik*» shiorlari «tabiiy inson huquqlari» oʻrtasidagi belbogʻ boʻlishi lozim deb hisoblangan.

*Angliyada* maʼrifatchilik XVII asrda boshlanib, asosan diniy va siyosiy xarakterda boʻlgan. Uning yirik vakili ingliz faylasufi, ruhshunosi va pedagogi *Jon Lokk* (1632–1704) *xalq suvereniteti* asosida tuzilgan konstitutsiyaviy hukumat tarafdori boʻlib, davlat faoliyatini zaruriy cheklanganligini yoqlagan. Xudo haqida cherkovga emas, balki aql-idrokka quloq tutish zarurligini taʼkidlagan Lokk tabiiy huquqni insonning mohiyatida namoyon boʻladi, deb hisoblagan.

*Fransiyada* maʼrifatchilik qatʼiy maʼnoda mumtoz va barkamol tarzda namoyon boʻldi. U XVIII asr boshlarida vujudga kelib, absolyut siyosiy hokimiyatning inqirozi sharoitida rivojlandi. 1789-yilgi inqilob, qirollikning yiqilishi va yakobinchilar diktaturasi davrigacha davom etdi. Uning yirik vakillari faylasuf va yozuvchilar *F. Volter* (1694–1778), *J. Russo* (1712–1778), faylasuf, tarixchi va huquqshunos *Sh. Monteskye* (1689–1755) va boshqalar boʻlgan. Russoning «*Ijtimoiy shartnoma toʻgʻrisida*» (1762) asari «Inson erkin boʻlib tugʻilsa-da, u hamma joyda arosatdadir», degan soʻzlar bilan boshlanadi. Bu soʻzlar keyingi yuz yilliklar davomida aks sado berdi.

*Germaniyada* *G. Lessing* (1729–1791), *L. Gyote* (1749–1832), *F. Shiller* (1759–1805), *L. Gerder* (1744–1803) va boshqalarning yozuvchilik va faylasuflik ijodida maʼrifatchilik namoyon boʻlgan.

Bu harakatchilik *Immanuel Kant* (1724–1804)dan boshlangan, mumtoz falsafa ravnaqiga jiddiy turtki boʻlgan edi. Nemis maʼrifatchiligida radikal siymolardan tortib, eng moʻtadil siymolargacha boʻlishgan. Ularga xoslik dastavval nemis xalqining milliy birligi gʻoyasi, uning oʻz madaniyati erkin rivojlanishi huquqi

masalalari edi. Bular keyinroq yagona german davlatlarining tashkil topishiga ko‘mak berdi.

Ma‘rifatchilikning alohida iz qoldirgan ko‘rinishlaridan biri – bu Shimoliy Amerika varianti bo‘lgan. Bunda olim va davlat arbobi, AQSH mustaqilligi Deklaratsiyasi va Konstitutsiyasi mualliflaridan biri *B. Franklin* (1706–1790), faylasuf, «Sog‘lom aql» pamfletining muallifi *T. Reyn*, AQSHning ikkinchi prezidenti *T. Jeffersonning* (1743–1826) falsafiy, siyosiy-huquqiy faoliyatlarini nazarda tutmoq lozim. Ular AQSHning birinchi prezidenti etib saylangan *J. Vashington* (1732–1799) bilan birgalikda inson huquqlari muammosiga fundamental tus berib, bularni fuqaroviy jamiyatda barcha erkinlik va huquqlarning siyosiy axloqiy va huquqiy asoslari tarzida qaradilar. Sh.Monteskyening hokimiyat bo‘linishi g‘oyasi dastlab AQSHning tashkil etilishidayoq hayotga tatbiq qilingan edi. Bu yerda inson huquqlarini ustun qilib belgilash tamoyiliga asos solindi.

***Fan va sanoat inqiloblari.*** XVIII–XIX asrlar insoniyat dunyosi keyingi davri uchun belgilovchi davr bo‘lgan. Bunda fan inson hayotining barcha tomonlariga ta‘sir ko‘rsatib, yuz berayotgan sanoat inqilobi talablariga muvofiq rivojlangan. Nazariy bilimlar ravnaqi, sanoatdagi texnik o‘zgarishlar, kapitalning iqtisodiy va siyosiy hukmronligi o‘zaro bog‘liqlikda Angliya, Niderlandiya va Shimoliy Fransiyada yuz berdi.

Sanoat inqilobi to‘qimachilik sohasida boshlanib paxtani ko‘plab yetishtirishni taqozo etdi. Angliyada gazmol to‘qish juda tez oshgan. Uning narxi kamaygan. 1785-yilda mexanikaviy tikuv stanogining ixtiro qilinishi temirni qayta ishlash va kimyo sanoati rivojlanishiga olib keldi. Ishlab chiqarish zaruriyati toshko‘mir qazib chiqarish va cho‘yan eritishni ko‘paytirdi. Og‘ir sanoat inqilobning ikkinchi bosqichini ifodalab, mashinalarni mashinalar yordamida ishlab chiqarishni bildirgan.

Mashinasozlik yutuqlari qishloq xo‘jaligida ham inqilobiy o‘zgarishlarga yo‘l ochdi.


Sanoat inqilobi dastlab Angliyani, so‘ngra Yevropa qit‘asining g‘arbi va markazini qamrab oldi. Bu hududlarda fan va ishlab chiqarishdagi chuqur o‘zgarishlar sanoat jamiyatini yuzaga keltirdi.

**Farmatsiyaviy yondashuvning yaroqsizligi.** Yevropa jamiyatining bundan keying rivojlanishi qator ziddiyatli jihatlarni ham keltirib chiqardi (masalan, uyushgan ishchilar sinfining kapitalist-mulkdorlarga qarshi turishi kuchayib bordi). Bu jarayonlarni tadqiq etganlar ko'p bo'lgan. Ular ta'limotlarini insoniyat hayoti va o'tmishga sivilizatsiyaviy yondashish asosida baholaganda ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar to'g'risidagi marksistik qarashlarga ham munosabat bildirishga to'g'ri keladi. Bu qarashlar tarixiy jarayonni qat'iy sxematik sabab-oqibat, izchil ketma-ketlik tarzida kechadi, degan da'vosi bilan kishilik dunyosi butun murakkabliklarini qamray olmagan holda, yana chiziqli tafakkur usuli bo'lib qolgan edi.

Ma'lumki, uyg'onish davri, XV–XVII asrlar mutafakkirlari Yevropa tarixini uch bosqichga – *porloq – antik davrga, qora – o'rta asrlarga* va kirib kelayotgan *nurafshon – yangi zamonga* bo'lgan edilar. *Sen-Simon* (Fransiya) esa antik davrga quldorchilik, o'rta asrchilikka feodalizm va yangi davrga yollanma mehnatga asoslangan sanoat tizimi tarzida qaragan. Nemis faylasuflari *K.Marks* va *A.Engels* bu uchlikka *Luis Morgandan* o'zlashtirilgan ibtidoiy jamoa davrini va XIX asrda «sharpasi kezib yurgan», hozir esa utopiya ekanligi hammaga aniq bo'lib qolgan kommunizmni o'zlaridan qo'shgan edilar. Natijada insoniyat tarixi ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorchilik, feodalizm, kapitalistik va kommunistik formatsiyalardan (bu atama esa geologiya ilmidan olingan) iborat bo'lib qolgan edi.

*K.Marks* va *F.Engels*da, ularning davomchisi bolshevik *V.I.Lenin*da 10 martacha «*osiyocha ishlab chiqarish usuli*» tushunchasi uchraydi. Buning boshqacha nomi osiyocha formatsiyadir. Gap shundaki, *Osiyo-Sharq, shuningdek, Shimoliy Afrika mamlakatlariga tatbiqan ketma-ketlikda olingan quldorlik, feodalizm va kapitalizm mezonlari ishlamaydi.* XX asrning boshlarida va keyinroq ijtimoiy fikrda esa *M.Veber* asoslagan *ideal tip, M.Sheler – falsafiy antropologiya, kantichilardagi qadriyatlar, E.Gusserl – fenomenologiya, M.Xaydegger, K.Yaspers, J.P.Sartr – ekzistensializm, G.Gadamer – germanevtika* va boshqa ta'limotlarida asoslandi. Ularda iqtisodiyotdan tashqari sohalarning o'rni va ahamiyatining chuqur tahlili insoniyat bilimlarini yangi pog'onaga ko'tardi. Marksizm-leninizm esa ijtimoiy-ruhiy borliqni, an'anaviy mentalitetni,

diniy e'tiqodni, kishilar etnoruhiy xususiyatlarini ilmiy xolislikda o'rganishga noqobil ta'limot bo'lib chiqdi.



43-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Qorishqlik yoki sinkretizm* – Sharq sivilizatsiyasida ijtimoiy-madaniy olamning ko'p jihatlari o'zaro birlashib ketganligini ifodalaydigan tushuncha.
- *Hokimiyat-mulk* – Sharq sivilizatsiyasida hokimiyatning o'rni, hukmdorning mulkka ega bo'lishi bilan qo'shilayotganligi tushuniladi.
- *Intuitivlik* (qarash, ko'rish) va ratsionallik (aql) – Sharq sivilizatsiyasida inson ruhiyati bu ikki salohiyatni o'zaro bir-biri bilan (dinda) to'ldiradi.
- *Kanon* (qoida) – Sharqda amal qiladigan qoidalar to'plami.
- *Arxaizm* (yunoncha) – o'tmishning qoldig'i, eskilik degani.
- *Polis* (yunoncha) – Qadimiy Yunonistonda oqsuyaklar (aristokratlar) hokimiyati bekor qilingandan yuzaga kelgan davlat tuzilishining fuqaroviy-demokratik shakli va fuqarolarning tabiiy mansub bo'lgan siyosiy birligi.
- *Ellin va ellinistik davr* – Yunonistonning yunon tilida atalishi va Sharqiy O'rtayer dengiz atrofi mamlakatlari tarixining miloddan avvalgi 232–30-yillar davri.
- *Reformatsiya* (lotincha – tuzatish, qayta o'zgartirish) – XVI–XVII asrlarda Yevropa markazi va g'arbdagi ko'pgina mamlakatlarni qamrab olgan diniy-mafkuraviy va siyosiy harakatchilik bo'lib, oxir-oqibat burjua inqiloblariga g'oyaviy zamin tayyorlagan.

- *Sanoat inqilobi* – Yevropaning turli mamlakatlarida XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning shu davrigacha manufakturadan mashinalashgan ishlab chiqarishga o‘tish jarayoni.

### Savollar va topshiriqlar



1. «Sharq» tushunchasining geografik ma’nosidan tashqari yana qanday tavsiflari bor?
2. Podsho Xammurapi davlatni qanday boshqargan?
3. Hind sivilizatsiyasining noyobligi nimada?
4. Xitoy sivilizatsiyasi qanday shakllangan?
5. Sharq sivilizatsiyasining kishilik hayoti sohalaridagi o‘ziga xos jihatlari nimada ko‘rinadi?
6. Sharq sivilizatsiyasida qanday o‘ziga xos iqtisodiy jihatlar mavjud?
7. Antik dunyo sivilizatsiyasining xos xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Qaysi jihatlar o‘rta asrlar sivilizatsiyasini ifodalaydi?
9. Nega ma’rifatparvarlikni jahon sivilizatsiyasi rivojlanishining qonuniy bosqichi deyish mumkin?
10. Fan va sanoat sohalaridagi inqiloblarning o‘zaro aloqasi nimalardan iborat?
11. Industrial jamiyat sivilizatsiyasining qanday xos jihatlari farqlanadi?
12. Yevropadagi ma’rifatparvarlik g‘oyalari haqida fikrlaringiz?

### III.7.2. Islomiy sivilizatsiya

*Barcha dinlarning Sharqda kelib chiqqanligi sababi nimada? Nega islomni Qadimgi Sharq, Antik dunyo va Yangiyevropa davrlari o‘rtasida g‘oya va bilimlarning manbai hisoblashadi? Qur’oni Karim yangi sivilizatsiya asosini bergan fenomenmi? Islom tamoyillari bilan bozor iqtisodiyoti qanchalik sig‘isha oladi?*

**Qadimgi Sharqdagi payg‘ambarlik harakati.** Sharq mintaqasi avval ham ikkita yakkaxudolik – iudaviylik va nasroniylik dinining kelib chiqishiga zamin bo‘lgan.

Bu yerda xudo bilan aloqada turuvchi *payg‘ambarchilik* anchagina tarqalgan edi. Buni Injildagi *Isay*, *Iyeremiya* va boshqalarining oldingi payg‘ambarlardan farqli yakkaxudolik, ijtimoiy tartibot g‘oyalarini ilgari surganligida, muqaddas joylarga sig‘inishni shakllantirganligida hamda ko‘pgina ijtimoiy o‘zgarishlarni boshlab berganida ko‘rish mumkin.

Islom dini insoniyat sivilizatsiyasi tarkibida Qadimgi Sharq, Antik davr bilan Yevropa Yangi zamon tarixi oralig'ida ko'pgina xalqlar uchun g'oyalar va bilimlarning asosiy manbasi hisoblangan.

Arablar muhitida kelib chiqqan bu din mintaqaning eng qadimiy tub joy aholisi hisoblangan semit qabilasining ko'hna tarixi bilan bog'liq.

Ilmiy xolislik zaminida turuvchi tadqiqotchilar Islom dini kelib chiqishining shart-sharoitlari to'g'risida gap borganda semitlarning jahon sivilizatsiyasida o'ziga xos ijobiy o'rin tutganligini obyektiv ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, ular orasidan chiqqan akkadiyalalar, amorreylar, xoldeylarning Mesopotamiya va, umuman, butun G'arbiy Osiyo sivilizatsiyaviy rivojlanishidagi o'rni fanda ma'lum. Arabiston yarimoroli, xususan, uning janubida arxeologik qazishmalarda tasdiqlangan qadimda yuksak sivilizatsiya bo'lganligini ham har doim nazarda tutish lozim.

Jahoniy maqomdagi dinning ana shunday zaminda maydonga kelishi, ko'rinib turibdiki, o'zining ratsional izohiga ega.

### ***Islom dinining kelib chiqishi va tarqalishi shart-sharoitlari.***

Yangi dinning kelib chiqishi omillaridan biri yana shu bo'ldiki, Arabistonda VII asr boshlarida yangi xudo va haqiqatni topishga intilgan ko'pgina hanif – targ'ibotchilar bo'lgan edi. Ulardan biri va eng qobiliyatli bo'lgan *Muhammad* yagona, qodir, mehribon va rahmdil *Allohga* itoat qilish, u ko'rsatgan yo'ldan chiqmaslik, adolatpeshalik va hokazo qadriyatlarni targ'ib qilib, Rasululloh, ya'ni, xudoning elchisi darajasiga ko'tarildi. U arablarni birlikka chaqirdi. Xalq esa oxir-oqibatda Muhammad dinini qabul qildi. Bu bilan yangi bir jahoniy sivilizatsiyaning poydevor toshi qo'yildi.

Islom barcha musulmonlarni o'zaro birodar deb hisoblaydi. Uning har bir e'tiqod etuvchi uchun oddiy va bajarilishi qat'iy bo'lgan, yakkaxudolikka asoslangan qoidalari dindorlarni haqiqiy jannatga erishishi «*Qur'on*»da yuksak badiiyat va betimsol poetik tarzda ifodalangan. Qur'on musulmonlar uchun nafaqat ilhom manbasi, ayni vaqtda, urf-odatlar, axloq-odob va qonunlar majmuasidir.

Boshqa mahalliy dinlardan farqli holda islomda cherkov ham, kashish yoki pop ham yo'q, balki maxsus yig'ilish joyi – *masjid*

bo'lib, unda jome' namozi o'qiladi va imomlar tomonidan «Qur'oni karim» oyatlari tilovati amalga oshiriladi. Bu din avvalboshdan yozma manbasiga – barcha musulmonlar uchun muqaddas bo'lgan – Qur'onga ega.

Musulmon dini qaror topishi bilan birga bu dinga tayangan davlat ham maydonga keldi. Uning boshida dastlab payg'ambarning o'zi, so'ngra ketma-ket dastlabki *to'rt xalifa* turdilar. Keyin hokimiyatga *Ummaviylar*, 750-yilda *Abbosiylar* sulolasi keldi.

Arabistondagi shart-sharoitlar zaminida kelib chiqqan din qanday qilib musulmonchilikning bir avlodi ko'zi o'ngida Mag'rib-u Mashriq va Janub-u Shimolga yoyildi?

Muhammadning payg'ambarlik sifatleri, dastavval, shunda ko'rinadiki, u arablar nazarida *sayyid* – qavmlar dohiysi, yo'l boshchisi, *hakam* – mojarolarni odil hal etuvchi, *notiq* – o'zi targ'ib qilgan din qoidalarini bayon etuvchi, *shoir* – yangi dinni zarur nazmiy tarzda ifodalovchi, *valiy* – Alloh bilan aloqada bo'luvchi mukammal va betimsol inson bo'lgan. Payg'ambarlik bilan shoirlik va valiylik yaqinligi shunday deyishga izn beradi.

Ta'kidlash joizki, yangi e'tiqod tashuvchilari, dastavval, Muhammad va uning yaqin safdoshlari *Abu Bakr*, *Umar*, *Usmon* va *Ali* ham o'z harakatlaridan shaxsiy manfaat kutishmagan. Islom musulmonlarda shunday kuch namoyon qildiki, ular 636-yilda Sosoniylar bilan urushda Xurosonni zabt etishgan bo'lsa, Vizantiyaning Sharqiy qismi ixtiyoran musulmon bo'ldi, ya'ni, fath etildi. Nisbatan qisqa vaqt ichida Shimoliy Afrika va Yevropaning janubiy hududi – Pirineya egallanib islomlashtirildi va katta hududda islomiy qarashlar asosidagi umumiylik qaror topdi.

***Islomiy sivilizatsiyaning boshlanishi.*** Bu umumiylikning ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy tarkibi o'zaro mutanosiblikda tugal qaror topishini Yevropaning ko'pgina sharqshunoslari VII–XIII asrlar bilan belgilaydi. Jumladan, avstriyalik olim *Adam Mets* «Musulmon Renessansi» asarida islom dunyosi ko'tarilishini shu davr bilan bog'laydi.

Musulmonlar o'zlari yaratgan qadriyatlarni boshqalarga berish barobarida o'zgalardagi falsafiy g'oyalar, ilmiy bilimlar va texnik vositalarni o'zlashtirdilar. Alohida ta'kidlash joizki, Islom



dini madaniyatni turli boʻhronlardan himoyalaydigan oʻziga xos «qalqon» vazifasini bajardi. Afrikadan Osiyoning markazigacha, Hindistondan Gibraltargacha boʻlgan ulkan makonda xalqlar din va til birligi asosida birlashdilarki, bu oʻzaro madaniy taʼsirni ancha kuchaytirdi. Islom dunyosidagi madaniy aloqalar rivoji ikki muhim jihat bilan izohlanadi: *birinchidan*, musulmon mamlakatlarining geografik makonlari imkon bergan boʻlsa, *ikkinchidan*, ayni islom dinidagi ichki salohiyat buni taʼminladi.<sup>1</sup>

*Diniy bagʻrikenglik* koʻp jihatlardan islom sivilizatsiyasining gullab-yashnashiga koʻmak berdi. Nasroniy ozchilik Misr va Oʻrtayer dengizi sharqidagi mamlakatlarda sezilarli rol oʻynaydi. Hindistonda indus va musulmonlar yonma-yon yashab keldilar. Turli dindagilar bir-biridan oʻrgandilar. Islom mahalliy anʼanalarni oyoqosti qilmadi, aksincha, turli diniy guruhlar oʻz madaniyatlarini rivojlantirishi va qoʻshnilari bilan muvaffaqiyatlarni baham koʻrishi uchun sharoit yaratdi.

Makkaga haj qilish xalqlar va madaniyatlarni yaqinlashtirgan. Haj safariga yoʻl bir necha mamlakatlar orqali oʻtgani tufayli turli madaniyat namunalari bilan tanishish mumkin boʻlgan va mahalliy xalqlar bilan oʻzaro muloqotda boʻlganlar. Makkadan qaytgach oʻz yurtlarida koʻrgan-kechirganlarini boshqalarga ham soʻzlab berishgan.

Arab tilini oʻrganish «Qurʻoni karim»ni oʻqish uchun musulmonlarga zarurligidan kundalik muomalada, ilmiy-texnikaviy bilimlar almashuvida ham qulaylik tugʻdirgan. Yevropaliklardan farqli oʻlaroq musulmonlar barcha joylarda bir-birini tushungan.

Islom madaniyati rivojlanishining muhim omillaridan biri – bu tijoratga asoslangan dinamik iqtisodiyot boʻlgan. Shahar bozorlari tufayli kengayib ketgan dengiz portlari uch qitʼaning tutashgan joyi

---

<sup>1</sup> 1991-yilda Amerika Qoʻshma Shtatlarida nashr etilgan va koʻpgina ingliz tilida soʻzlashuvchi mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan foydalanilayotgan tarix darsligida islom sivilizatsiyasi boʻyicha maxsus paragraf ajratilgan. Jumladan, unda shunday yozilgan: «Islom dini aqidalaridan madaniyat rivojlanishi uchun, ayniqsa, dunyoni idrok etish va turmush tarzining kamida toʻrtta xususiyati kelib chiqadi: musulmonlar boshqa dinlar va madaniyatlar bilan chiqishib keta oladi; ular Makkaga haj qilishari lozim; Qurʻonni oʻqish uchun ular arab tilini bilishi lozim; bundan tashqari, ular juda eʼtiborli mashgʻulot sifatida savdo-sotiqni yuksak qadrlaganlar».

bo'lgan islom mamlakatlarida mollar ayirboshlashda belgilovchi rol o'ynagan.

Hind okeani va O'rtayer dengizidagi savdo-sotiq musulmonlar qo'lida bo'lgan. Ular so'nggi O'rta asrlargacha, Yevropa savdosida ham hukmronlik qilgan.

**Falsafa, adabiyot va san'at.** Islom sivilizatsiyasi tarkibida *falsafa* sohasida Antik dunyoda (Suqrot, Aflotun, Arastu) ishlab chiqilgan g'oyalar omuxtaligida arab tilida ilgari surilgan ta'limotlarda *ilohiy taqdir, iroda erkinligi* kabi masalalar muhokama qilingan.

Musulmon adabiyotining yuksak rivojlanishi abbosiy xalifalar davrida sodir bo'ldi. To'g'ri, Islom diniga qadar ham arablarda, ayniqsa, og'zaki adabiyot, ommaviy she'riyat keng tarqalgan. Bular asosida arab adabiy tili qaror topdi. Qur'oni karim qiroatini egallaganlar tinglovchilarga ta'sir etib, ularni yig'latish, qahr-g'azab uyg'otish va hokazolarga qodir bo'lishgan.

Abbosiy xalifalarning ko'pchiligi (masalan, *Xorun ar-Rashid, al-Ma'mun, Mutavali*) saroylarida shoirlar xizmat qilgan. Nasriy adabiyot namunalaridan biri «*Ming bir kecha*» asari hisoblanadi. Arabcha shakldagi she'riyat islomiy hududda keng tarqalgan edi. Keyinroq fors va turkiy tillarda yozilgan adabiyot ma'naviy hayotda katta o'rin tutdi. Jumladan, fors shoirlari *Abulqosim Firdavsiy, Umar Xayyom, Hofiz Sheroziy, Shayx Sa'diy* va boshqalar aruzda ijod qilib she'riyatning yuksak namunalarini yaratdilar. Qasida, doston, ruboiyat va hokazolar adabiy janr sifatida shakllandi.

*Turkiy adabiyot* namunalari ham sivilizatsiyaviy maqomda bo'lgan. *Mahmud Qoshg'ariyning* arab tilida yozilgan «*Devonu lug'otit turk*» asarida turkiy tilshunoslik bilan birga og'zaki she'riy namunalar, urf-odat qo'shiqlari, xalq lirikasi, epik mazmundagi qismlar, maqolalar va hokazolarning namunalari keltirilgan. Asar keyingi davr ijodkorlari faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatgan.

San'atning turlari islomiy muhitda dastlab uncha rivojlanmagan bo'lsa-da, keyinchalik imoratsozlikda, bezakchilikda, cholg'uchilik va qo'shiqchilikda ham muayyan qat'iylik darajasi saqlangan holda jiddiy o'sish kuzatildi.

Sharq musiqaviy asboblari musulmon Ispaniyasida, Lotin Amerikasidagi mustamlakalarda tarqaldi va hatto Shimoliy Amerika musiqa madaniyati rivojiga ham o'z hissasini qo'shdi.

**Islomiy va dunyoviy bilimlar.** Intellektual faoliyat musulmon dunyosida tijoratchilar mollaridan kam bo'lmagan darajada baholangan va aholi turmush tarzida har doim muhim o'rin tutgan. «*Olimning siyohi, – degan ekan Muhammad payg'ambar, – azob-uqubat tortgan inson qonidan muqaddasdir*». Ko'rinadiki, islom an'alarida aqliy mehnat yuqori baholangan va bu hol diniy farmoyishlar bilan mustahkamlangan. Musulmon olimlar va boshqa sivilizatsiyalarga mansub mamlakatlarda yaratilgan bilimlarni o'rganib saqlab qolganlar, tarjima qilganlar va sharhlaganlar. Mustaqil ravishda o'z izlanishlarida katta-katta muvaffaqiyatlarga ham erishganlar.

Islomiy dunyoqarash va turmush tarzining yuqorida keltirilgan xos jihatlari ma'naviyatning *ta'lim, kitobchilik va kutubxonachilik, falsafa, adabiyot, san'at, ilm-fan, tibbiyot* kabi sohalariga belgilovchi ta'sir ko'rsatdi.

Islom mamlakatlarida o'quvchilar *grammatika, arifmetika, payg'ambarlar hayoti* tasvirnomalarini ham o'rganishgan.

Hozirgi universitetlar maqomida bo'lgan *madrasalarning* dastlabkilari X asrda ochilgan edi. XII asrda Yaqin Sharq va Ispaniyada o'nlab mashhur islomiy universitetlar faoliyat ko'rsatgan. Ularda *huquq, falsafa, tarix, geografiya, tabiiy fanlar, ilohiyotshunoslik va she'riyat* o'qitilgan.

Arablar 704-yilda *Samarqandda* qog'oz tayyorlash bilan birinchi marta tanishgan edilar. Buning sivilizatsiyaviy tomoni shunda bo'ldiki, yozilgan asarlarning narxi arzonlashib, keng tarqaldi, kutubxonalar vujudga keldi. Xalifalik poytaxti *Bag'dodda* chingiziy Xulaguxon bosqini arafasida *36 ta jamoat kutubxonasi*, ko'plab masjidlarda ham boy kitob jamlamaları bo'lgan. Turli xil kitoblar *Buxoro, Urganch, Marv* kabi shaharlardagi kutubxonalarda ham ko'plab to'plangan.

Islomiy sivilizatsiya doirasida jiddiy ilmiy ravnaqqa erishildi. Bu tasodifiy emas edi. Qur'oni karimda «*ilm*» tushunchasi 750 marta,

«*aql*» atamasi 50 marta qayd qilingan ekan. Yevropaliklar keyinroq tabiatshunoslik, tibbiyot, dengizchilik va boshqa sohalarda bu sivilizatsiyada erishilgan natijalardan ko'p foydalandilar.

Musulmon mamlakatlarida ilm-fan IX–XII asrlarda, ayniqsa, tez rivojlandi, gullab-yashnadi. Arablarda *falakiyotshunoslik* bilimlariga zo'r ehtiyoj bo'lgan. *Ptolemeyning* «*Almagest*» asari tarjima qilingan, xoldeylardan qolgan *Xarron* shahridagi observatoriya ishi davom ettirilgan. *Abu Rayhon Beruniy* (973–1048) Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi to'g'risidagi farazni aytib, uning kengligi va uzunligini aniq o'lhadi.

Islomiy geograflardan *Al-Mas'udiy* (900–957) Markaziy Osiyo, Rossiya, Xitoy va Hindistonni kezib chiqqan, *Ibn Battuta* 30 yil davomida Afrika, Osiyo va Yevropa bo'yicha ko'rgan-kechirganlarini batafsil yozib qoldirgan. Beruniyning «*Hindiston*» asari ham XVIII asrgacha yagona manba bo'lgan. 883-yilda xalifa al-Ma'mun topshirig'iga ko'ra xaritalar tuzilgan.

*Abdurahmon ibn Xaldun* (1334–1406) «*Jahon tarixi*», «*Tarix falsafasiga kirish*», ko'p jildli «*Arablar, forslar, berberlar hamda ularga zamondosh bo'lgan boshqa qudratli xalqlar tarixiga oid ma'lumotlar va namunalar to'g'risidagi ibratli kitob*» asarlarini yozgan. U kishilar va xalqlarning xatti-harakatlarini tushuntiradigan qonuniyatlar, sivilizatsiyalarning ravnaqi va halokati, insonga muhitning ta'siri, moddiy omillarning kishilar turmushidagi o'rni va hokazolar to'g'risida chuqur fikrlarni ilgari surgan. Ibn Xaldunni hozirgi sotsiologiyaning asoschisi, deb hisoblashadi.

Musulmon dunyosida matematika sohasida katta kashfiyotlar qilindi, arifmetika poyoniga yetkazildi. «*Baytul Hikma*»dagi olimlarga boshchilik qilgan *Muhammad ibn Muso Xorazmiy* (783–850) «*Al-jabr val-muqobala*» asarida algebraning asosiy jihatlarini ifodalab bergan. Shu davrda *trigonometriya* ham vujudga keldi. «*Sifr*», «*nol*» kabi matematik tushunchalar arabcha bo'lib, hozirgi fanda muhim o'rin tutadi.

Musulmon olimlari asoschisi bo'lgan kimyo ham ma'lum mavqega ega bo'lgan. Ko'pgina moddalar va jarayonlar ustida tajribalar o'tkazgan olimlar umumiy sohaning tamoyillarini ifodalaydigan keng qamrovli nazariyalar yaratdilar.

Bular, o'z navbatida, tibbiyot rivojlanishiga jiddiy turtki bo'ldi. Og'riq qoldiruvchi moddalar yordamida birinchi marta islomiy

tabiblar jarrohlik operatsiyalari o'tkazganlar. *Zakariyo ar-Roziy* (865–925) hatto chechak va qizamiqni samarali davolagan. Islom Sharqida dorishunoslar tayyorlaydigan o'z davrida yagona bo'lgan o'quv yurti faoliyat ko'rsatgan. Tabiblik qilish uchun tegishli sertifikat bo'lishi tartibi o'rnatilgan.

Tabiblar iqlimning ta'siri, gigiyena va ovqatlanish muammolari bilan shug'ullanishgan.

Musulmon okulistlari ko'z kasalliklarini jarrohlik yo'li bilan davolaganlar. Ko'z gavhari faoliyatini o'rganish tibbiy optika rivojlanishiga katta turtki bo'ldi.

*Abu Ali ibn Sino* (980–1037) nafaqat islomiy sivilizatsiya doirasida, balki Insoniyat hayoti o'rta asrlar davrida universal bilim sohibi bo'lgan. Uning tibbiyotga oid 43 ta asar yozganligi ma'lum. «*Tib qonunlari*» asari Yevropada 600 yil davomida yagona yetuk qo'llanma bo'lgan. Bu asar qator jihatlarini bilan hozir ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.


**Tasavvuf.** Islom ichida zohidlik harakati ko'rinishida VIII asrning o'rtalarida kurtak yoygan va u o'z ichiga tarix, kosmogniya, biologiya, mifologiya hamda ilmiy tafakkur va boshqa ijobiy sohalarining ayrim belgilarini qamrab olgan hodisadir.

XIII–XIV asrlarda tasavvuf nazariy-ilmiy va amaliy harakatchilik nuqtayi nazaridan o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tariladi. Mohiyatan insonparvarlik g'oyalari, *Soflik*, *Haqiqat*, *Go'zallik*, *Kamolot* aqidalarini ifodalagan tasavvuf islom madaniyatiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. *Abdurahmon Jomiyning* «Nafahot ul-uns min al hazarot ul-quds» asarida 664 so'fiyning nomi keltirilgan. *Alisher Navoiyning* «Nasoim ul-muhabbat» asariga ham juda ko'plab so'fiylar kiritilgan. Shulardan 100 dan ortiqrog'i *Turkistonda* yetishib chiqqan.

So'fiylarning mashhurlari ilohiy ma'rifatni egallash uchun o'zining ruhiy-axloqiy kamolot yo'lini – tariqatini maydonga keltirganlar. Markaziy Osiyoda *Xoja Ahmad Yassaviy* (1166-yilda vafot etgan), *Najmiddin Kubro* (1145–1220) va *Xoja Bahovuddin Naqshbandning* (1318–1389) tariqatlari mintaqadan tashqarida ham keng tarqalgan edi.

**Islomiy sivilizatsiya inqirozi.** Narsa, hodisa va jarayonlarning tizimiy tuzilganidan kelib chiqilsa, islomiy mintaqalar sivilizatsiyasida bir qancha xususiyliklar va o'ziga xosliklarni ko'rish mumkin. Bular turmush tarzi, an'analar va urf-odatlariga ko'ra ayrim jihatlari bilan farq qilib turgan. Bu esa an'anaviylik davom etishining asosiy omillaridan hisoblanadi.

An'anaviylik tadrijiy rivojlanishni inkor qilmasa-da, ko'pincha turg'unlik omillaridan hisoblanadi. Masalan, Shimoliy Afrikaga o'rta asrlarda bosqinchilar shimoldan ham, Sharqdan ham kelmaganlar. Lekin bu yerda o'z davrida cho'qqiga ko'tarilgan sivilizatsiya tushkunlikni chetlab o'ta olmadi. Islomiy sivilizatsiya muayyan ichki sabablar, an'anaviylik va tashqi bosqinchilarning hujumlari ostida avvalgi holatini yo'qotib bordi. Tabiiyki, bunday sharoitda inson zotiga hurmat, uning shaxsi bilan hisoblashish, huquqlari va sha'nini qonuniy himoyalash zarur darajada ta'minlanmas edi.



44-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Islom sivilizatsiyasi* – musulmon dini tarqalgan hududlardagi sivilizatsiyaning ko'pgina umumiyliklari nazarda tutilgan holda nomlanishi.
- *Diniy bag'rikenglik* – ma'lum bir dinda g'ayridinlarga nisbatan toqatlilik. Shunga ko'ra, islomiy mamlakatlarda aholining nasroniy, yahudiy va boshqa ko'rinisdagi diniy ozchilik xalqlar ham qadimdan yashab keladi. Ular dini, tili va ma'naviy madaniyatning boshqa jihatlari saqlab qolganlar.
- *Musulmon an'anaviyligi* – Sharqda tabiiy va ijtimoiy-madaniy sabablarga ko'ra davom etib kelayotgan jihat Islom dinining ilk davri tartibotlarining bo'rttirilishi tufayli ijtimoiy turg'unlikni ifodalaydigan bo'lib qoldi.

- *Zohidlik* (arabcha) – Alloh marhamatiga sazovor bo‘lish uchun dunyoviy lazatlardan cheklanish.

### Savollar va topshiriqlar



1. Payg‘ambarlik nima?
2. Islom sivilizatsiyasining o‘zidan oldingi sivilizatsiyalar bilan bog‘liqligi bormi?
3. Islom sivilizatsiyasining asosiy jihatlarini chet el tarix fanida qanday yoritilishini mulohaza qiling.
4. Islom sivilizatsiyasi yutuqlarining hozirgi ahamiyati qanday?
5. Islom qadriyatlarini qanday tushunasiz? Bu to‘g‘rida yozma ish tayyorlang.
6. Dunyoviy ilmlarga islomda munosabat qanday?
7. Islom sivilizatsiyasining yemirilishi sabablarini gapiring.
8. Tasavvuf qayerda, qachon va qaysi maqsadda kelib chiqqan?
9. Tasavvufning asosiy xususiyatlari qaysilar?

### III.7.3. Turon – Movarounnahr – Turkiston: sivilizatsiyaviylik mezonlari va bosqichlari

*Qadimgi Turonning tarixi madaniy davr bo‘lganmi? «Avesto» ning ijtimoiy-madaniy yodgorlik sifatida ahamiyati nimada? Movarounnahrda islomiy lokal sivilizatsiyaning asosiy belgilari nimada? Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Boburning sivilizatorlik rollari nimada?*

**Qadimgi Turon jahoniy maqomining tabiiy va ijtimoiy-madaniy omillari.** «*Turlar*», «*Turon*», atamasi, ayniqsa, o‘rta asrlardagi arabiy, forsiy va turkiy adabiyotlarda (jumladan, Narshaxiy, Beruniy, Tabariy va boshqalarning asarlarida) ko‘p uchraydi. Qadimda va keyinroq ham Markaziy Osiyoning turkiy qavmlar yashaydigan hududlari turkiylar yurti, Turon nomi bilan yuritilgani manbalarda o‘z ifodasini topgan.

«Turon» atamasi *antropologik* jihatdan fanda muayyan kichik irqni ifodalash uchun ham ishlatiladi. *Geografiyada* bu atama Yer yuzidagi eng katta quruqlik hududlaridan biri va Markaziy Osiyodagi eng katta pasttekislik nomini anglatadi, *biologiyaviy* jihatdan bu yerda uchraydigan turlarning Turon nomida atalishi mavjud. Shuningdek, Turon Yer yuzining yopiq hududiy mintaqalariga

kiradi. Ya'ni, mintaqaning o'zidagi tog'lardan boshlanadigan barcha daryolar uning ichkarisida qoladi. Uning tog'lari, daryolari va sahrolari tabiiy to'siq, chegara sifatida boshqa hududlardan ajratib turadi.

Mintaqa Osiyoning nafaqat tabiiy jihatdan, balki *iqtisodiy* jihatdan ham strategik o'rni, tabiiy boyliklarga mo'lligi, Yevroosiyoning barcha madaniy qismlariga chiqish yo'llarining mavjudligi mintaqada juda qadimdan insoniyat hayotining rivojlanishini ta'minlagan.

Bu davrda aholining tirikchiligi dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan. Dehqonchilik tufayli yuzaga kelgan mehnat taqsimoti kishilar jamoalarini turli tashkiliy birliklarda uyushtirish va ularni boshqarishni ta'minlagan. Bu jarayon davlat boshqaruvini vujudga keltirdi. Shuningdek, jamiyatning muayyan tabaqalanishiga va aholining urbanizatsiyalashuviga, ya'ni, shaharlar paydo bo'lishiga zarur turtki bo'ldi. Bu endi sivilizatsiyaning kelib chiqishidan dalolat edi.

***Turonda sivilizatsiyaning boshlanishi.*** Bu yerda *protodavlatlarning* shakllanishi manbalarda miloddan avvalgi IX–VIII asrda boshlangani aytiladi. Tegishli tarzda bu hol ma'naviy hayotda o'z ifodasini topgan.

Sharqdagi barcha an'anaviy jamiyatlarda bo'lgani singari Qadimgi Turonda ham ijtimoiy munosabatlarda diniy qadriyatlarning ta'siri kuchli bo'lgan. Dualistik xususiyatga ega bo'lgan zardushtiylik dini ko'p xudolikdan yakka xudolikka o'tishda muhim bosqich hisoblangan. Unda odamlarni xudolarga qurbonlik qilish man qilingan. Chunki inson yashash uchun yaratilgan va shunga ko'ra uning hayotiga zavol bo'lishga hech kimning haqqi yo'q.

Bu dinning payg'ambari Zardusht yagona xudo – *Axura Mazda*ga ibodat qilishni targ'ib qilib unga oltita oliyjanoblik – *haqqoniylik, donolik, aqli rasolik, hokimiyat, salomatlik va chidamlilik* sifatleri xosdir, deydi. Zardushtiylik dinida havo, yer, suv va olov muqaddas hisoblangan.

Bu din Turon doirasidan chiqib Fors mamlakatida ham keng tarqalgan. Fors hukmdorlari zardushtiylik ta'limotini ifodalagan muqaddas «Avesto» qismlarini to'plaganlar.



Zardushtiylik dini o'z ichiga olamning yaxlit qiyofasini ham olgan. Unga ko'ra olam yulduzlari qavati – *oliyjanob fikrlar*, oy yorug'i – *oliyjanob so'zlar*, quyosh qavati – *oliyjanob ishlar*, alohida nur sohasi – Axura Mazda va uning yaqinlari makonidan iborat. Axriman podsholigi – do'zax, jahannam hisoblanadi. Ular o'rtasidagi oltin davrdan boshlangan kurash keskin tus olib, halokat bilan yakunlanishi ham mumkin edi. Lekin barcha jarayonlar yana qaytadan boshlanadi va ezgulikning muqobili – zulmat timsoli bo'lgan Axrimanning yengilishi bunga olib kelmaydi.

Zardushtiylik dinining yahudiylar dini va nasroniylikka ham tegishli ta'sir ko'rsatganligi mutaxassislar tomonidan tan olingan. Keyinroq undan *moniylik* diniy ta'limoti o'sib chiqqan.

Turonda avlodlar merosiga yuksak darajada sodiqlik an'anasi har doim ustunligi bilan ajralib turgan. *Jamoachilik* kishilar o'rtasidagi munosabatlarda muhim hisoblangan.

Turonliklar qadimdan qo'shni xalqlar bilan keng aloqada bo'lganlar, ular migratsiyasi Yunoniston va Misrgacha borgan. Turonda ham oromiy yozuvidan foydalanilgan. Keyinroq bu yozuvdan qadimgi so'g'diy, baqtriyaviy, parfiyaviy va xorazmiy yozuvlar kelib chiqqan.

Bu yerdagi xalqlarning iqtisodiy va ma'naviy-madaniy aloqalarni ifodalagan savdo yo'llari juda qadimdan Sharq va G'arbni bog'lagan.

***O'troq va ko'chmanchi xalqlar madaniyati.*** Turonda ham Sharq mintaqalari aksariyat qismlarida uchraganidek, dehqonchilik va chorvachilik moddiy madaniyat tarzlari sifatida yonma-yon mavjud bo'lgan. Ya'ni, dehqonchilikka asoslangan hayot tarzi daryolar, ba'zi joylarda dengiz bo'ylarida ham rivojlangan. Bu joylar bilan tutash kengliklardan katta-katta cho'llar, sahrolar boshlangan. Turonda bularni kesib o'tgan Sirdaryo va Amudaryo hayot kechirishda dehqonchilikka emas, balki chorvachilik uchun ham muhim omillar hisoblangan. Boshqa mintaqalardan farq qilib, bu yerda hududiy ikkita chegara o'zaro ajratilmaydi. Bu ikki xo'jalik tarzi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan.

Sharqqa xos umumiylik – *yerga bo'lgan ijtimoiy mulkchilik* (yoki davlat mulkchiligi)ning mavjudligidir. Xususi mulkchilikka

juda cheklangan tarzdagina yo‘l qo‘yilgan. Bu yerda ham huquqiy institutning qator sohalari (masalan, meros huquqi) amalda bo‘lgan. Bunga ko‘ra ota-ona, oila, urug‘ yoki qabila ixtiyoridagi mulk muayyan holatlarda meros huquqiga ko‘ra taqsimlangan.

Bu yerda *Muhammad payg‘ambarning* yer, suv va yaylov barchaga tegishli, degan qoidasi ayni to‘g‘ri kelganday edi. Aslida kuch – mulk, hokimiyat – mulk tamoyili oxir-oqibatda o‘zini namoyon etardi. Mulkning jamoaviyligi yuqorida turli jihatlardan tilga olingan an‘anaviylik bilan bog‘liqlikda keyinroq ham amalda bo‘lgani ma‘lum.

An‘anaviylik avvalboshdan *ma‘naviy qadriyatlar* bo‘lgan o‘zaro yordam, birgalikda umumiy yumushlarni bajarish, o‘zaro tenglik va hokazolarni yuzaga keltirdiki, bular ba‘zan munosabatlarda *tekislik* hukmron bo‘lishiga ham zamin yaratadi. Natijada shaxsiy tashabbusdan, individual faoliyatdan manfaatdor bo‘lmaslik kabi holatlar qaror topdi.

***Movarounnahrda islom dinining tarqalishi.*** Bu yerda islomning tarqalishi Muhammad payg‘ambar vasiyatlariga ko‘ra amalga oshganligi manbalarda aytiladi. Islom payg‘ambari musulmonchilikning tarqalishida *fathni* birinchi o‘ringa qo‘yganligi ma‘lum.

Islomning tarqalishi ham dastlab payg‘ambar qo‘llagan tamoyillarga mos bo‘ldi. Movarounnahrda islom dinini yoyish bilan bog‘liq arablarning yurishlari to‘rt marta amalga oshirildi. Musulmon bo‘lish evaziga katta o‘lja, soliqlar olinmadi, katta urush bo‘lmadi va qon to‘kilmadi.

Oxirgisida Xurosondagi noib Qutayba ibn Muslim musulmonchilikni zarur bo‘lgan joylarda kuch bilan joriy etdi va hududning barcha madaniy qismini xalifalik tarkibiga qo‘shib oldi.

Movarounnahrda 20 tacha bekliklarga bo‘linib ketgan tarqoqliklar o‘rnida Xuroson viloyati tarkibidagi nohiya qaror topib, islomiy sivilizatsiya doirasiga tortildi.

Islom dini tarqalishi natijasida ilgari shakllanib bo‘lgan ma‘naviyat o‘zining qariyb barcha ko‘rinishlarida jiddiy o‘zgarishga uchradi. Jumladan, oilaviy hayot, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va axloqiy munosabatlarda musulmonchilik ustun mavqega ega bo‘ldi.

Movarounnahrda islomiy e‘tiqod mustahkam qaror topdi. Hududda *ijtimoiy ko‘tarilish* yuz berdi. Bu yerdan chiqqan olim-u

fozillar xalifalik markaziy shaharlarida ham koʻzga yaqqol tashlandi. Movarounnahrda diniy taʼlimotlar bilan birga dunyoviy bilimlar, xususan, tabiatshunoslik rivojlanishi alohida eʼtiborga molik.

Islom dini bir yarim – ikki asr ichida jahon miqyosida yangi sivilizatsiyaning qaror topishiga olib keldi. Bu toʻgʻrisida xolis ilmiy fikrni birinchi boʻlib koʻpchilik Gʻarb olimlari (masalan, Adam Mets (1876–1916) oʻzining «*Musulmon renessansi*» degan asarida) ilgari surgan.

**Turkiy sivilizatsiya.** Tarixiy jarayon kechishiga sivilizatsiyaviy yondashish tamoyillari talablariga muvofiq Renessans davri yangi sivilizatsiya boshlanishi tarzida baholanishi mumkin. Maʼlumki, Gʻarbda uzoq turgʻunlikdan keyin Antik Yunoniston va Rim sivilizatsiyasi yutuqlari XIV–XVI asrlarda oʻzlashtirilib, uni tiklashni bildirsa va bir marta kechgan edi. Hozir markazini Oʻzbekiston davlati egallagan katta hududda bu jarayon ikki marta – *arabiy-islomiy sivilizatsiya* tarkibida IX–XIII asrlarda va *Temuriylar davrida* yuz berib, Turon-Movarounnahr hududi muhim makon boʻlgan edi. Buni tarixiy nomi bilan *turkiy sivilizatsiya* deyish mumkin. Bunda turkiy xalqlar va ularning islomiy davlatchiligi etno-siyosiy zamin boʻlgan. Insoniyat tarixini turkiy xalqlar oʻtmishsiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Ularning Yevropa, Osiyo va hatto Shimoliy Afrika xalqlari taqdiri va tarixida qanday rol oʻynagani fanda maʼlum. Milodiy birinchi mingyillik ikkinchi yarmida shakllangan ikkita turkiy davlat – *Qarluqlar davlati* va *Oʻgʻuz davlati* oʻzlari hududlarida turkiy etnosni birlashtirdilar. Musulmonchilikni qabul qilib, Gʻarb va Gʻarb-u Janubga siljishlari bilan butun Oʻrta Sharq va Old Osiyo xalqlari hayotiga kuchli taʼsir koʻrsatdilar.

**Hadisshunoslar faoliyati.** IX–X asrlarda Movarounnahr – Markaziy Osiyodan chiqqan allomalar *Imom al-Buxoriy* (810–870), *Hakim at-Termiziy* (824–894), *Sulaymon Sijistoniy* (817–880) kabi mutafakkirlarning hadisshunoslik faoliyati maʼnaviy madaniyatni jiddiy rivojlantirdi.

Qurʼoni karimdan keyin ikkinchi oʻrinda turadigan manba – hadislar islom paygʻambarining din, axloq va falsafadan tashqari ham hayotning koʻpgina sohalariga tegishli koʻrsatmalaridan iborat. Ularda *mehr-oqibat*, *insonparvarlik*, *halollik*, *olijjanoblik*, *sof koʻngillilik*, *oqibatlilik*, *insof-adolat*, *hurmat-izzat*, *mehnatsevarlik*, *ilmning ahamiyati* va hokazo qadriyatlar ifodalangan.

**Diniy va dunyoviy bilimlar.** Movarounnahrdagi islom ilmining rivojlanishi Arab-islom xalifaligida jiddiy ravnaqqa erishgan. Bu yerdagi lokal turkiy sivilizatsiya ma'naviy-madaniy ravnaqi o'z davri uchun g'oya va e'tiqodlar tengligi, sabr-toqatlik, hurfikrlilikni ifodalagan. Uning doirasida yetishib chiqqan *Burhoniddin Marg'ironi*ning (1123–1197) «Hidoya» asarida erishilgan yuksak sivilizatsiyaviy maqom shundan iboratki, unda shariat qonunchiligi, musulmonlar jamiyatining barcha jihatlari ko'rsatilgan. Unda nafaqat huquqiy, balki nazariy-metodologiyaviy yechimlari ham lozim darajada o'z aksini topgan. Shunga ko'ra «Hidoya» musulmonlarning bosh dorilfununi, al-Azharda (Misr) hozirgacha xanafiya mazhabi fiqhi bo'yicha asosiy qo'llanma sifatida uzluksiz o'qitilib, o'rganilib kelinadi.

Turkiy lokal sivilizatsiya, xalifalikdagi bosh ma'rifatparvar *Ma'mun* (813–833-yillarda xalifa bo'lgan) va Bag'doddagi *mo'taziliylar* oqimi ko'rsatgan faoliyatning davomi sifatida qaror topdi. Bag'dodda «Bayt ul-hikma» boshlig'i bo'lgan *Muhammad al-Xorazmiy* (783–850) matematikaning barcha asosiy sohalari, geografiya, tarix va boshqa fanlarning qator tarmoqlari bo'yicha jahonshumul tadqiqotlarni bajarishgan.

*Ahmad al-Farg'oniy* (861-yilda vafot etgan) tabiatshunoslikning ko'pgina muhim sohalari bo'yicha katta jasorat ko'rsatgan olim sifatida vatanining shuhratini keng yoydi. Uning birgina «Astronomiya negizlari» asari Yevropada N.Kopernikka qadar asosiy qo'llanma bo'lgan.

Qomusiy bilimlar sohibi *Abu Nasr al-Forobiy* (873–950) birinchi manbalar asosida qadimgi yunon madaniyatini chuqur o'rganib, Sharq Arastusi – «Ikkinchi muallim» nomini olgan hamda o'z ilmiy va amaliy faoliyati bilan jahonga mashhur bo'lgan siymodir.

Ulkan mutafakkir olim, o'z davri bilimlari barchasini egallagan, Shayx ur-ra'is Faxriy unvoni sohibi bo'lgan *Abu Ali ibn Sino* tibbiyotga oid birgina «Tib qonunlari» asari bilan dunyo tabobat ilmi asoschilaridan bo'ldi.

Sharqning benazir qomusiy olimi, chuqur tafakkur sohibi *Abu Rayhon al-Beruniy* (973–1048) o'zi faoliyat ko'rsatgan ilm sohaslarida

ko'pdan ko'p yangiliklarni bergan. U, jumladan, X.Kolumbdan 460 yil oldin Amerika qit'asi borlig'ini hisoblab topgan, N.Kopernikdan 500 yil ilgari geliotsentristik nuqtayi nazarni asoslagan. Bu o'rinda uning doimiy homiysi, o'rta asrlar turkiy davlatchiligining yirik vakillaridan bo'lgan Mahmud G'aznaviyning ham xizmatini ta'kidlash lozimdir.

*Abu Abdulloh al-Xorazmiy* (997-yilda vafot etgan) Vatan madaniyati tarixida qomusiy olim sifatida mashhur bo'lgan. Xorazm va Buxoroda yashab ijod etgan bu siymoga shuhrat keltirgan hamda bizgacha yetib kelgan «Ilmlar kaliti» asari bilimlarning barcha sohalarini o'z ichiga olgan.

***Ijtimoiy-gumanitar bilimlar.*** IX–XII asrlarda Movarounnahrda yuz bergan sivilizatsiya davrida fanning ijtimoiyot sohasi ancha rivojlandi. *Abul Hasan Boyhaqiyning* (995–1077) o'ttiz jildlik tarixiy asarida g'aznaviylar davri tarixi batafsil yoritildi. *Majidduddin Adioning* «Turkiston mamlakati tarixi», *Muhammad Narshaxiyning* (899–959) «Buxoro tarixi» kabi asarlari soha ilmining rivojlanganligidan dalolatdir. Fanning filologiya, geografiya sohaları Mahmud *Qoshg'ariyning* (IX asr) «Devonu lug'otit turk» asarida chuqur yoritilgan filologiya, fiqhshunoslik, islom tarixi, falsafa masalalari Mahmud *az-Zamaxshariyning* (1075–1144) ko'pgina asarlarida fundamental tadqiq qilinadi. Bu mutafakkirlarning, ayniqsa, turkiy va arab tilshunosligiga doir qarashlari hozir ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Movarounnahrda *somoniylar* va *g'aznaviylar* davlatchiligi davrida hukmdorlar homiyligida adabiyot rivoj topdi. G'azna shahrida 400 dan ortiq ijodkor to'planganligi manbalarda ko'rsatilgan. Bular orasida Abulqosim Firdavsiy ham bo'lgan.

Turkiy hududiy sivilizatsiya doirasida Sharqiy Turkistondan Yettisuv, Farg'ona, Movarounnahrda Xurosonga qadar hududlarda turkiy tilda badiiy ijodning yorqin qadriyatları yaratilganligi manbalarda aytiladi. Bizgacha yetib kelganlari orasida *Yusuf Xos Hojibning* (XI asr) «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim»), *Ahmad Yugnakiyning* (XII asrning ikkinchi yarmi – XIII asrning boshi) «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni»), *Ahmad Yassaviyning* (1166–1167-yilda vafot etgan) «Hikmatlar» asarlari alohida ahamiyatli.

Ma'naviy yuksalish *Buxoro, Samarqand, Qarshi, Xiva, Urganch, Marg'ilon, Termiz, Marv* kabi shaharlarning gurkirab o'sishiga xizmat qildi.

Hududimiz sivilizatsiyasining dastlabki davriga xos jihatlarni quyidagicha ko'rsatish mumkin: *birinchidan*, milliy-mintaqaviy davlat mustaqilligi bilan bog'liq muhim omillar; *ikkinchidan*, ma'naviy o'zgarishlar markazida insonning komillikka erishuvi masalalari; *uchinchidan*, axloq-odob masalalari; *to'rtinchidan*, bu davr bilimlarida diniy va dunyoviy qarashlar mushtarak tarzda tadqiq etilgan. Shunday qilib ushbu davrda yaratilgan ilmiy meros o'zining olamshumul ahamiyati bilan yurtimiz dovrug'ini olamga taratib kelmoqda.

***Amir Temur va temuriylar davri sivilizatsiyasi.*** Ma'lumki, barcha buyuk shaxslar o'z davrining ulkan muammolari, mislsiz qarama-qarshiliklarini zimmalariga olib yashaydilar. Amir Temur ham tarix sahnasiga chiqqanida mo'g'ullarning 140 yillik istibdodi oqibatida xalq ommasi ma'naviy qashshoq, iqtisodiy nochor va siyosiy huquqsiz edi. Shunday sharoitda Temurning faoliyati milliy mustaqillikni tiklab, markazlashgan davlat tuzishga qaratildi.

Amir Temur nafaqat turkiy dunyoda sivilizatsiyaning vujudga kelishiga zamin yaratdi, balki islom mintaqasida uning rivojlanishiga ko'mak berdi. Temur va uning avlodlari davri sivilizatsiyasi, ma'naviy qadriyatlarini, birinchi navbatda, turkiy va, shuningdek, fors-tojik tillarida yaratildi. Bundan ilgari arab tilida yaratilgan ma'naviy qadriyatlar lozim darajada o'zlashtirildi.

**«Temur tuzuklari».** Temurning sivilizatorlik faoliyati ko'lami o'z davri uchun muhim bo'lgan barcha sohalarni qamragan edi. Muhim siyosiy-huquqiy va dasturiy manba sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan «Temur tuzuklari»da keltirilishicha, davlat boshqaruvi o'n ikki tamoyilda amalga oshirilgan:

- «har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim»;
- «Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim... Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim»;
- «maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyorlik-ehtiyotkorlik bilan g'anim qo'shinlarini yengib, mamlakatlarini o'zimga bo'ysundirdim. Saltanat ishlarini murosalyu madora, muruvvat va sabr-u toqat bilan yurgizdim»;

- «oʻtgan sultonlarning qonunlari va turish-turmushlarini donolardan soʻrab-surishtirdim. Har qaysilarining yoʻl-yoʻriqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, maʼqul sifatlaridan namuna olib, ularga amal qildim»;
- olimlar, sipohlar, bahodirlar bilan ittifoq boʻlib, mard-u maydonligiga tayanib 30 tacha mamlakat tasarruf etilar ekan – bu ular bilan qilingan oqilona munosabatlarning natijasidir;
- adolat va insof bilan ish koʻrib, kishilarga haqqoniyat yuzasidan muomalada boʻlish muhim hisoblangan;
- sayyidlar, ulamo-yu mashoyix, oqil-u donolarni eʼtiborli hisoblab, ularning maslahati bilan davlat ishlarini taʼminlagan;
- puxta oʻylab boshlangan ishni azm-u jazm bilan nihoyasiga yetkazishga erishgan;
- raiyat ahvolidan doimo xabardor, har bir ulus, xalq va toifa bilan lozim darajada munosabatda boʻlgan;
- saltanat tasarrufidagi turk-u tojik, arab-u ajamning ulugʻini hurmat qilgan, qadriga yetgan, aybiga iqror boʻlganlarni kechirgan;
- hukmdor mansabning qaysi darajasida boʻlishiga qaramay farzandlar, qarindosh-urugʻ, yor-u birodarlarning sodiqlik qilganlarini unutmashlikni muhim sanagan;
- boqiy mato boʻlgan jonlarini foniylar dunyoga bagʻishlagan sipohlarni qadrlash, bunda ularning oʻz valineʼmatlari sodiqligini hisobga olish zarur hisoblangan.
- Amir Temurdan avval va keyin oʻtgan ne-ne jahongirlar, jumladan, Kurush<sup>1</sup>, makedoniyalik Iskandar<sup>2</sup>, Sezar<sup>3</sup>, Chingiz<sup>4</sup>, Napoleon<sup>5</sup> va boshqalarning birontasi yangi sivilizatsiya asoschisi boʻla olmagan.

---

<sup>1</sup>Katta fors davlatining asoschisi, Turonda massagetlar bilan jangda oʻldirilgan.

<sup>2</sup>Uning bosqinchilik urushlarida yaratgan davlati vafotidan soʻng lashkar-boshilari tomonidan oʻzaro boʻlib olingan.

<sup>3</sup>Rimda respublikani yiqitib imperatorlikni joriy etgan, safdoshlari tomonidan oʻldirilgan.

<sup>4</sup>Bosqinchilik urushlari davomida yoʻlida uchragan barcha yurti vayron qilgan.

<sup>5</sup>Hokimiyatni bir necha marta qoʻlga kiritib, soʻngra boy bergan va oʻzidan keyingi avlodidan hech kim hokimiyatda boʻlmagan.

**Temuriy ma'rifatchilik.** Islom ma'rifatchiligiga bo'lgan e'tiborni Temurning muhim sifatlaridan hisoblamoq kerak. Islom dini peshvolari shaxsi, ta'limotlari, mozor va maqbaralariga alohida e'tibor bergan. *Xalifa Ali*, Payg'ambarning forsiy sahobasi *Salmon*, Xanafiya mazhabining asoschisi imom *A'zam ibn Xanafiya*, imomlardan *Hasan ibn Ali*, *Muso Kozim*, *Muhammad Toki*, *Ali ibn Muso*, so'fiylar *Abduqodir Jiloniy*, *Ahmad Yassaviy*, *Zangi ota* qabrlari obod qilinib, ziyoratgohlarga aylantirilgan.

O'tmishda biron-bir hukmdor hozirgi jahoniy dinlarning biron-tasiga ham Temurchalik e'tibor bermagan bo'lsa kerak. Bu Temuriy ma'rifatparvarlik faoliyati insonda va jamiyat miqyosida ma'naviy qadriyatlarining salmog'i va ahamiyatini oshirmasligi mumkin emas edi.

Temur zamondosh mashhur ulamolarga hurmat bilan qaragan. Xurosonlik mashhur ulamo *Zayniddin Abu Bakr Toybodiy*, movarounnahrlik shayx *Shamsiddin Kulol* va *Said Baraka*. Shuningdek, Samarqandda o'z davrida mashhur bo'lgan ulamolardan *Abdujabbor Xorazmiy*, *Bahriddin Ahmad* va boshqa taniqli siymolar har doim uning e'tiborida bo'lgan.

Temur davlatida Samarqand siyosiy poytaxtgina emas, balki ilmiy markaz ham edi. Bu yerga olim va mutaxassislar olib kelinib ularning matematika, me'morchilik, san'atshunoslik va boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatishi uchun hamma sharoit yaratib berildi. Bu to'g'rida Movarounnahrda bo'lgan yevropalik sayohatchilar yetarli ma'lumotlar qoldirganlar.

Samarqandning yuksak darajada kuchayishi Temur davriga to'g'ri keladi. Hukmdor bu yerda ulkan me'morchilik ishlarini amalga oshirdi. Poytaxt atrofida o'sha davrda jahonda mashhur bo'lgan shaharlar nomlarida go'zal manzilgohlar barpo etildi. Umuman, Temur amalga oshirgan qurilish-me'morchilik namunalari jahon san'atining yuksak namunasi bo'lgan.

Amir Temur faoliyati bilan boshlangan sivilizatsiya bosqichi temuriylar – *Shohruh* (Sohibqironning o'g'li), *Ulug'bek* (uning o'g'li), *Husayn Boyqaro*, *Bobur* (avlodlari) davrida davom ettirildi.

Temur vafotidan so'ng uning saltanati o'rnida markazlari Samarqand va Hirot shaharlari bo'lgan Movarounnahr va Xuroson davlatlari qaror topadi. Bu davlatlardagi sivilizatsiya,



ayniqsa, Muhammad Taragʻay – Ulugʻbek (fan), Alisher Navoiy (maʼnaviy madaniyatning koʻpgina sohalari), Zahiriddin Bobur (asosan, Hindistonda sarkardalik, badiiy ijod, geografik-tarixiy ishlar) faoliyatlari bilan bogʻliq. Haqiqatan ham bu yerda *1018 ta* yulduz oʻrganilib jadval tuzilgan. Zarur asboblari ham maxsus tayyorlangan, oʻlchov ishlari oʻta aniqlikda olib borilgan. Bunday akademiya oʻz davrida ham, ancha keyingacha ham hech qayerda boʻlmagan. Shuningdek, Ulugʻbek tarix va musiqa oʻid ilmiy ishlar yozgan.

***Alisher Navoiy faoliyati.*** Temuriylar davlatchiligi madaniy tarixini, ayniqsa, Xurosonda buyuk gumanist, oʻrta asrlar sharoitida despotizm va zulmga qarshi kurashgan, xalq himoyachisi Alisher Navoiyning serqirra faoliyatisiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Mamlakatda Bosh vazir vazifasida faoliyat yuritgan Navoiy davlat boshqaruvining kuchli boʻlishiga, jamiyatda adolatning ustuvor boʻlishiga hissa qoʻshdi. Dinning ravnaqiga koʻmak berdi. Olim-u fozillarga rahnamolik qildi. Sanʼatning koʻp tarmoqlari rivojlani-shiga homiylik koʻrsatdi.

U nechogʻlik katta davlat arbobi boʻlmasin, insoniy komilligi eng koʻp darajada badiiy ijodida namoyon boʻldi.

Navoiy badiiyatining markazida inson, xalq, Vatan turadi. Uning ideali komil inson, din-u diyonatli farovon xalq va gullab-yashnayotgan yurtdir. Asarlarining qahramonlari ishq-u sadoqatda, doʻst-u birodarlikda, adolat-u tinchlikda komillik darajasiga koʻtarilgan siy-molardir. Soʻfiylikning ilm va naqshbandiya tariqati zaminida tur-gan shoir har doim mehnatni ulugʻlagan.

Turkiy islomiy sivilizatsiya vakili boʻlgan Navoiyning bunday katta badiiy qudrati haqida uning ustoz *Abdurahmon Jomiy* gapirar ekan: «*Ravnaqdan qolib ketgan va xorlik burchagidan oʻrin olgan turkiy soʻzga yangidan hayot berdi. Uni ijod maydoniga olib chiqdi. U forsiy tilda yoz-ganda, boshqalarda soʻz aytishga majol qolmasdi. Bu moʻjizakor nazm qarshisida Nizomiy kim-u Xusrav kim boʻldi?!*» – deydi.

Navoiyning sivilizatorlik roli yana shundaki, qator turkiy xalqlar shoirlari forsiyda qalam tebratish anʼanalarini toʻxtatib, uning ketidan ergashib, oʻz etnosi tilida ijod qila boshladilar. Masalan, Ozarbayjon shoirlari Navoiyga qadar forsiygoʻy boʻlsalar,

soʻngra *Fuzuliydan Nobariygacha* ozar turkiysiga oʻtganlar. Ozarbayjonda Navoiy turkiy adabiyot asoschisi tarzida qadrlanadi.

Navoiydan keyin temuriylar davri sivilizatsiyasi maqomida faoliyat koʻrsatgan shaxs – bu temuriy sulola vakili *Zahiriddin Muhammad Bobur* edi. U mashhur lashkarboshi<sup>1</sup>, oʻzga yurtda yangi saltanat yaratgan<sup>2</sup> maʼrifatparvar davlat arbobi<sup>3</sup>, gʻoyat noziktaʼb ijod sohibi, zukko olim, mamlakat obodonligiga rahnamo sifatida Movarounnahr, Xuroson va Hindiston xalqlari tarixiga kirgan.

Markaziy Osiyodagi Ikkinchi renessans davri namoyondalari ham olam sivilizatsiyasining rivojlanishiga salmoqli taʼsir koʻrsatdi va koʻrsatib kelmoqda.



45-sxema




46-sxema

<sup>1</sup> Rus sharqshunosi N.I. Veselvskiy yozgandi: «Bobur botirligining cheki boʻlmagan. Uning butun hayoti jasorat namunalari bilan toʻlib-toshib yotibdi».

<sup>2</sup> Rajiv Gandi: «Fargʻonalik mard nozik didli Bobur ismli yigit Gang tekisliklarigacha yetib kelgan, buyuk boburiylar sulolasi deb atalgan saltanatimizga asos solgan», – degan edi.

<sup>3</sup> «Osiyodagi hukmdorlar ichida Bobur singari genial va talantga ega kishilarni kamdan-kam uchratamiz», – deb yozgan edi Erskin.



47-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Turon* – geografik va tarixiy-etnografik nom bo‘lib, Yer yuzidagi katta pasttekislikni, turklar yurti, dehqonchilikka o‘tib chorvachilikni ham saqlab qolgan etnosning hududiy atalishi va irqiy oraliq kichik guruhni ifodalaydigan tushuncha.
- *Zardushtiylik* – ko‘p xudolikdan yakka xudolikka o‘tishdagi bosqichni ifodalaydigan din bo‘lib, Markaziy Osiyoda (Xorazmda) kelib chiqqan va so‘ngra tevarak-atrof yurtlarga tarqalgan, musulmon dini bilan raqobatda barham topgan.
- *Turon sivilizatsiyasi* – Jahon–Sharq sivilizatsiyasining tarkibiy qismi, bundan 2,5–3 ming yil ilgari qaror topgan sug‘orma dehqonchilik madaniyati, chorvachilik va shahar madaniyatining uzviy birligini anglatadi.
- *Fath* – mamlakat yoki hududni ixtiyoriy yoki kelishuv orqali qo‘shib olish.
- *Zabt* – harbiy kuch ishlatib zo‘ravonlik bilan bosib olish.
- *Islomiy lokal sivilizatsiya* – islom dini tarqalishi natijasida Movarounnahr – Turkistonda IX–XII asrlardagi sivilizatsiya hamda Temur va temuriylar davrini ham o‘z ichiga oladigan tushuncha.
- *«Temur tuzuklari»* – Amir Temurning asari. Unda mamlakat hayoti turli sohalarini boshqarish tamoyillarining sivilizatsiyaviy maqom talablariga muvofiq kelganligi ko‘rsatilgan.
- *Sivilizatsiyaviy rol* – bu tushunchada Sohibqiron Temur, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlar faoliyatining tarixiy tavsifi ifodasini topgan.

## Savollar va topshiriqlar



1. Qadimgi Turonning madaniy-sivilizatsiyaviy maqomi qaysi omillar bilan taqozolangan?
2. Turon tarixidagi kishilik jamiyatlarining an'anaviyligi nimalarda ko'rinadi?
3. Avesto ta'limoti asosida qadimgi Turon jamiyatining boshqaruvini tushuntirib bering.
4. Turkiston hududida qaror topgan an'anaviylik va jamoaviylikning salbiy-ijobiy tomonlariga baho bering.
5. Turkistondagi o'troq va ko'chmanchi xalqlar madaniyatining e'tiborga molik jihatlari nimalardan iborat bo'lgan?
6. Turkiston sivilizatsiyasida siyosiy tuzum (jamiyat) almashinuvi qay tarzda kechgan?
7. Lokal islomiy sivilizatsiyaning xos jihatlari nimada ko'rinadi?
8. Turkiy-islomiy sivilizatsiyaning diniy-ma'naviy va dunyoviy tamoyillari qanday nisbatda?
9. Yurtimiz allomalarining fanga qo'shgan hissalariga haqida fikrlaringiz?
10. Islomda dunyoviy ilm haqidagi fikrlar?
11. Movarounnahr markazi bo'lgan lokal sivilizatsiyaning ikkinchi bosqichi Amir Temur shaxsi va faoliyati bilan bog'liqmi?
12. Alisher Navoiy ijodiyotining sivilizatsiyaviy maqomi nimalarda ko'rinadi?
13. Zahiriddin Bobur shaxsi va ijodining sivilizatsiya maqomi nimalarda ko'rinadi?

### III.7.4. Mustamlakachilik va Turkistonda ijtimoiy-madaniy turg'unlikning chuqurlashuvi

*Mustamlakachilikning Turkistondagi oqibatlari nimada? Ma'rifatparvarlik qanday maqsadlarni ko'zlangan? Marksizm-leninizmning sivilizatsiyaviy yaroqsizligi nimada? Turkistonning «sovet milliy respublikalari»ga bo'linishining va iqtisodiyotning xomashyoviy yo'nalganligi salbiy oqibatlari nimalarda ko'rinadi?*

#### **Sivilizatsiyaviy turg'unlik**

Amir Temurning sivilizatsiyaviy maqom talablariga har jihatdan javob beradigan serqirra faoliyati Movarounnahr, Turkistonda uzoq muddat o'z ta'sirini ko'rsatdi va o'ziga xos taraqqiyotni ta'minladi. Lekin bir qator obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra Temurning vatanida uning yetuk izdoshlarining sa'y-harakatlariga qaramay, XVI asr boshlarida sulolaviy almashuv sodir bo'ldi. Yurt Dashti qipchoqdan kelgan *Muhammad Shayboniyxon* boshliq ko'chmanchilar tomonidan zabt etildi.

Sharqning an'anaviyligi Movarounnahrda hukmdorlar dashtdan olib kelgan davlat-siyosiy boshqaruv sharoitlarida yaqqol ko'zga tashlandi. Kuch – hokimiyat tamoyiliga to'g'ridan to'g'ri amal qilindi. Hukmdor qo'lga tushgan hokimlarni yo'q qilib, boyliklari va malikalarga egalik qildi. Uning irodasiga na din, na odat va na ayni malikalarning xohishi qarshi chiqa olmadi. Shundan keyin o'tgan vaqt mobaynida faqat ikki hukmdor – sulola asoschisi Shayboniyxon va uning avlodidan iste'dodli *Abdullaxon II* davrida markazlashgan yirik davlat tuzilmasiga ega bo'lindi. Bu, o'z navbatida, yalpi rivojlanishga muayyan ko'mak bermasligi mumkin emasdi.

Shayboniylar o'rniga kelgan va ularga qarindosh bo'lgan Ashtarxoniyalar sulolasining yurtida bir yarim asrcha hukmronligi oldingi erishilgan darajani ham orqaga ketishiga olib keldi. Yurt kichikroq xonliklarga bo'linib ketdi. Ularning har birida yalpi sivilizatsiyaviy orqaga ketishlik bilan birga u yoki bu sohalarida qandaydir jonlanishni (masalan, sug'orish tizimida) ham ko'rish mumkin edi. Lekin bu kichik o'zgarishlar hududiy umumiy bozorni, XVI asr – XIX asrning birinchi yarmida Turkistondagi sivilizatsiyaviy turg'unlikni xo'jalik ixtisoslashuvini, siyosiy-etnik va ma'naviy yaxlitlikni ta'minlashga qodir jarayon bo'la olmagan.

Turkiston hududiy jihatdan o'ziga xoslikka ega. Masalan, faqatgina O'zbekiston tarkibiga kirgan hududda Xorazmning atrofi sahro, Farg'ona vodiysi va Surxondaryo qolgan hududlardan tog'lar bilan ajralgan Samarqand va Buxoro Qashqadaryodan katta cho'llar orqali bir-biridan ajralib turadi. Shunga ko'ra, yurtning katta-kichik beklilarga bo'linishi, beklarning esa doimo mustaqillikka intilish hissi ustun bo'lavergan.

Bunday sharoitda ma'naviy sohada o'zbek xalqi o'tmish ajdodlari erishgan darajani saqlab qololmasligi aniq edi. Shunga qaramay, madaniy hayot so'nib ham ketmadi. Xonliklarning umumiy darajasidan birmuncha yuqoriroq tarzda adabiyot, san'atning boshqa ba'zi turlari, tarixnavislik rivojlandi. Umuminsoniy qadriyatlar hisoblangan an'analar va odatlar, hunarmandchilikning turli tarmoqlari mavjud edi.

## ***Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining oqibatlari***

G'arbiy Yevropada boshlangan industrial sivilizatsiyaning iqtisodiy ehtiyojlari bilan dunyoning ancha qismini mustamlaka maqsadlarida bosib olish va o'zlashtirish kun tartibiga qo'ygan edi. Rossiya davlati esa yangi hududlarni bosib olishda katta qulayliklarga avval boshdan ega bo'lgan. Rossiya bosqinchiligi G'arbiy Yevropa mamlakatlarining mustamlakachilik siyosatida bo'lganidek, asosan iqtisodiy manfaatlar bilan cheklanmay, balki siyosiy-harbiy maqsadlarni ham ko'zlagan edi. Markaziy Osiyoda Rossiya bilan Hindistonda turgan Angliyaning o'zaro to'qnashuvi xavf Qrim urushida Turkiya va Yevropaning asosiy davlatlaridan yengilganligi uchun O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi turkiy xalqlardan buning muqobilini qaytarib olishi ham mavjud bo'lgan. Shu sababdan ham bosqinchilik g'oyat shafqatsiz kechdi.

Rossiya mustamlakachilari Turkistonning bosib olingan hududlarida hayotning hamma sohalarini o'z davlati hukmron millati xohishiga ko'ra o'zgartirish harakatini boshlab yubordilar. Bosh gubernatorlik tuzildi, uning boshlig'i podsho noibi, qo'shinlar qo'mondoni, kazaklar atamani, bosh mirshab, bosh prokuror, vassallar hisoblangan Buxoro va Xivaning nazoratchisi edi. Ko'rinib turibdiki, XIX asrning ikkinchi yarmida boshqaruvning bu tarzi shu davrdagi Yevropa sivilizatsiyasida erishilgan maqomga mutlaqo mos kelmagan va sof qoloq rus mustamlakachiligi edi.

Shahar va qishloqlarni boshqarish ham mustamlakachilik maqsadlariga bo'ysundirilib, ko'chirib keltirilgan rus aholi manfaatlariga xizmat qilgan. O'lka darvozasi lang ochiq – unga Rossiyadan istagan toifadagi aholi kelib mahalliy xalq hisobidan juda ko'p imtiyozlarga erisha boshlaganlar. Bularni hatto Rossiyaning o'zida kinoyali tarzda «janob toshkentliklar» deb atashgan. Iqtisodiy jihatdan rus mustamlakachiligi shunda ko'rinadiki, ulkan boyliklarni talash maqsadida soliq siyosatidan tortib temiryo'llar qurilishigacha barcha vositalar ishga solindi.

Metropoliya (Markaz) Turkistonga sanoat mahsulotlarini sotish bozori sifatida ham qaragan. Sotilgan mahsulotlar puliga ipak, paxta, teri, quruq mevalar xarid qilinib, markaziy shaharlarga jo'natilib turilgan.

Mustamlakachilar uchun mavjud maktablar va madrasalar tarmoqlari xavfli hisoblanib, ruslashtirishni, ma'naviy asoratni

ayni shu sohadan – rus-tuzem maktablari qurishdan boshlashga qaror qilindi.

Tub aholi ma'naviy-ruhiy kechinmalariga zarur ta'sir ko'rsatadigan musulmon muassasalari – madrasalar, diniy boshqaruv idoralari, oila va nikoh tizimi ishlariga faol aralashuv boshlandi.

Ayni vaqtda, mustamlakachilar mahalliy doiralarning ma'lum qismidan boshqaruvning quyi bo'g'inlarida foydalanishni lozim topdi.

Xo'sh, ajdodlari jahoniy sivilizatsiyalar yaratgan mahalliy xalq bularga javoban qanday yo'l tutdi? Mehnatkash xalq ko'pincha stixiyali tarzda norozilik bildirib, kurashga chiqa boshladi. Ilgari siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ruhiy hukmron bo'lganlarning nisbatan oz qismi milliy davlat istiqlolini tiklash yo'lida amaliy va g'oyaviy kurash olib bordi. Bunga *Madali eshon* boshchilik qilgan xalq qo'zg'oloni misol bo'la oladi.

**Ma'rifatparvarlik.** Ma'lumki, Sharq an'anaviy jamiyatlari sharoitida takrorlanib turadigan ijtimoiy turg'unlikdan chiqish uchun taraqqiyparvar kuchlar aql-idrokning o'rni va ahamiyatiga katta e'tibor berganlar. Odatda, har bir monistik din payg'ambarining targ'ibotidan keyingi davrlar qator mamlakatlarni qamrab olgan umumiy jarayonning ifodasi bo'lgan. Turkiston xalqlarining an'anaviy, sharqona ma'rifatparvarlik mafkuralari, jumladan, jadidchilik doirasida ham mustamlakachilikka munosabat bildirildi.

Ma'rifatparvarlik o'zini namoyon etishi, mavjud bo'lishi va o'zgari-shida umumiy qonuniyatlarga bo'ysunsa-da, qaysi zaminda qaror top-ganligiga va qaysi davrda mavjudligiga ko'ra o'ziga xosliklarga ega bo'lmasligi mumkin emas. Ta'kidlash joizki, ma'rifatparvarlikning umumiy va xususiy namoyon bo'lishi doimo o'zaro bog'liq.

Turkiston ma'rifatparvarligi ijtimoiy zaminini aholining keng qatlami – mehnatkashlar tabaqalari va mulkdorlarning millatparvar qismi tashkil etgan. Albatta, aholining keng qatlami o'z-o'zicha ma'rifatparvarlik tashuvchisi bo'la olmaydi. Aholi bu qismining fikr-o'yi, xohish-istagi va intilishlari ilg'or ziyolilar – shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, huquqshunoslar va boshqalar tomonidan ifodalanadi. Ma'rifatparvarlik shu ma'noda ijtimoiy tus va keng ma'no kasb etgan.

Ma'rifatparvarlikning ijtimoiy qoloqlik va istiqlolni tiklash ehtiyojlari kuchaygan davrini qator bosqichlarga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich XIX asr ikkinchi yarmida, hozirgi O'zbekiston hududi tarkiblariga kirgan xonliklarda va Turkiston guberniyasida yashagan ziyolilarning ma'rifatparvarligini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich ma'rifatparvarlik jadidchilikdan iborat bo'ldi. Jadidchilik muayyan ma'noda keng hududdagi o'zining asoslariga ega bo'lgan.

Jadidchilik haqida to'xtalganda, eng avvalo, Turkistonning o'zida mavjud obyektiv ehtiyojlar haqida gapirmoq lozim bo'ladi. Ayni vaqtda, turkiy dunyoning jahon taraqqiyotidan uzilib qolganligi, turkiy xalqlarning tarqoqligi, ijtimoiy munosabatlarning turg'unligi va hokazolarga e'tiborni qaratish lozim edi. Ma'rifat orqali ularni bartaraf qilish mumkinligiga ishongan Ismoilbek Gaspiralinig (1851–1914) nazariy va amaliy faoliyati bunda muhim bo'ldi. U Rossiya imperiyasi tarkibidagi mustamlaka qilingan turkiy o'lkalardagi o'qish-o'qitish ishini mutlaqo isloh qilishni, dunyoviy fanlarni o'qitishni yo'lga qo'yishni, ta'limning «usuli jadid» tarzini amalga oshirishni kun tartibiga qo'ydi. Xususan, o'zi tuzgan darslik va dastur asosida faoliyat ko'rsatib, jadid maktablarining qadim maktablardan ustunligini isbotladi. I. Gaspirali, uning «Tarjumon» gazetasi platformasini qabul qilib, hayotga tatbiq etuvchilar jadidlar deb atala boshlandi.

Turkistonlik jadidlarning tan olingan boshlig'i Mahmudxo'ja Behbudiyning (Samarqand) «Bilmoq kerakki, haq olinur, berilmaydur», ularning Toshkentdagi yirik vakili Munavvarqori Abdurashidxonovning «Hurriyat olinur, berilmas», deb uqtirishganlar. Abdurauf Fitrat (Buxoro) milliy istiqlol yevropaviy ma'rifat, ilm-fan, huquq, texnik rivojlanish inson sha'ni kafolatlari orqali qo'lga kiritilishini ta'kidlagan. Jadidlar maktab-maorif, matbuotchilik, teatr imkoniyatlaridan yanada yuksakroq ko'tarilib, siyosiy-huquqiy talablar qo'yishgacha bordilar. Xususan, siyosiy-huquqiy sohada ular quyidagi masalalarni: Rossiyadan to'la ajralib chiqish yoxud Rossiya federativ tuzilma bo'lgan sharoitda uning tarkibidagi milliy-hududiy muxtoriyatga erishish yoki Rossiya davlati tarkibida milliy-ma'naviy-diniy muxtoriyatga ega bo'lish masalalarini ko'tarib chiqdilar.

Bu maqsadlarga erishish uchun zarur siyosiy tashkilotlar va muassasalar kerakligi ma'lum bo'lgandan so'ng jadidchilik faoliyati tashkiliy sohada ham o'zini ko'rsata boshladi. Vaqt e'tibori bilan



bu Rossiya imperiyasida boshlangan dolgʻali yillarga toʻgʻri keldi. 1914–18-yillarda «*Miftox ul-maorif*», «*Ravnaq ul-islom*», «*Ittifoq ul-muslimin*», «*Miftox-ul-islom*», «*Shoʻroyi Islom*», «*Shoʻroyi Ulamo*», «*Temur toʻdasi*», «*Erk sotsialistik partiyasi*», «*Jadid taraqqiyparvar partiyasi*», «*Chigʻatoy gurungi*» kabi partiyalar, uyushmalar va jamiyatlar faoliyat koʻrsatdi. Bunday tashkilotlardan 20 tachasi Toshkent shahrida ish boshladi.

Yuqorida aytilganidek, Rossiya mustamlakachiligi Turkiston – Oʻzbekistonda ijtimoiy turgʻunlikning barqaror davom etishiga olib keldi. Jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etish uchun mahalliy kuchlarni birlashtirish qiyinlashdi. Bunday sharoitda kuchlarning boʻlib yuborilishi, oʻzaro muxolifliklar va mojarolar yuz berishiga imkoniyat yaratildi, aniqrogʻi, shunday muhit vujudga keltirildi. Petrograddagi Fevral inqilobi bu jarayonlarni oʻtkirlashtirgan boʻlsa, Oktabr toʻntarishi ularni yanada keskinlashtirdi.

Sovet hokimiyati Turkistonda rus bolsheviklari<sup>1</sup> tomonidan zoʻravonlik yoʻli bilan oʻrnatildi. Ular hokimiyatga kelib Metropoliyada ham, chekka mustamlaka oʻlkalarda ham biroz oʻzgartirilgan holda marksizm taʼlimotini hayotga tatbiq eta boshladilar.

K.Marks kapitalizmni oʻz ichki ziddiyatlariga oʻralashib qolgan, salohiyatini oxir-oqibatda tugatadigan tuzum hisoblab, uning goʻrkovini yoʻqsillar proletariyatida koʻrdi. Yoʻqsillar zoʻravonlik bilan oʻrnatgan proletariat diktaturasi davlati xususiy mulkdorlar qarshiligini sindiradi, qurilgan sotsialistik<sup>2</sup> jamiyat keyinroq oʻzining

---

<sup>1</sup> Bolshevizm Rossiyadan boshqa joyda Oktabr toʻntarishiga qadar boʻlmagan. Keyinroq bu yoʻnalishda tuzila boshlangan kommunistik partiyalar soʻl sotsialistlardan, anarxistlardan, patsifistlardan tashkil topgan.

<sup>2</sup>«Sotsializm» atamasi (lotincha Socialis – ijtimoiy) hech qachon bir xil maʼnoli boʻlmagan. Burjuaziyaga qarshi maʼnoda uni birinchi marta Angliyada 1822-yilda E. Kuper qoʻlladi. 1827-yilda R. Quen kooperativ harakati tarafdorlari «sotsialistlar» deb ataldi. Fransiyada 1832-yilda Sen-Semon va uning izdoshlari taʼlimotini «sotsializm» deb, «Glob» jurnali yozadi. Sh. Furenep 1833-yilda bosilib chiqqan «Sanoat islohoti» kitobida ham sotsializm haqida gapiriladi. 1836-yilda Fransiyada chiqadigan «Ikki dunyo jurnali»da L. Reybo «hozirgi sotsialistlarga» bagʻishlangan qator maqolalarida sotsialistik fikrni tahlil qilgan. 1840-yillarga kelib sotsializm gʻoyalari Yevropada keng tarqaldi hamda ishlab chiqarish vositalari va ayirboshni umumlashtirish yordamida davlat rahbarligida jamiyatni isloh qilishga qaratilgan nazariyalar majmuasini bildirdi.

yuqori bosqichiga – kommunizmga<sup>1</sup> oʻtganida sinflar yoʻqoladi, hech qanday davlatga zaruriyat qolmaydi va erkinlik davri boshlanadi.

Marksistik nazariyadagi bu mantiq va barcha mamlakatlar yoʻqsillarini birlashtirish gʻoyasi inqilobiy kuchlar tomonidan qabul qilindi. Lekin marksizmda kapitalizmning boshqa holatlarga kirishi, xususan, zarur islohotlar oʻtkazish, yangi shakllarning berishi hisobga olinmagan edi.

### ***1917-yil Oktabr toʻntarishi va uning halokatli oqibatlari.***

Rus inqilobchilari sardori Lenin marksizmdan Rossiyada ijtimoiy toʻntarish qilishda foydalandi. Petrogradda nisbatan osonlik bilan Muvaqqat hukumatdan (uning koʻpgina vazirlari Angliyadagi Oksford va Parijdagi Sorbonno kabi oliy maqomdagi universitetlarni bitirgan ziyolilar edilar) hokimiyatni qurolli yoʻl bilan tortib olindi. Bolsheviklar mavjud dahshatli qiyinchiliklarni bartaraf qilishga koʻpdan koʻp vaʼdalar berib, boshlanib ketgan fuqarolar urushida ustun keldi. Inqilobchilar umid qilgan «jahon inqilobi» yuz bermadi.

Lenin, keyin Stalin boshchiligida bolsheviklar insoniyat tarixida misli koʻrilmagan eksperimentni boshlab yubordi, kapitalga qarshi zafarli yurish boshlandi. Qoʻli ustun kelgan kommunistlar vayron boʻlgan mamlakatda hayotni izga solish uchun bir-biridan dahshatli yoʻllar va vositalarni ishga solishdi.

Markaziy Osiyo xalqlari oʻzlarining xohish-irodalariga mutlaqo xilof holda bolsheviklarning bu halokatli eksperimenti obyekt boʻldi. Mustamlakachilik birinchi davrida boʻlganidek, bu hududning geosiyosiy oʻrni va ahamiyati V. Leninning diqqat markazida edi.

---

<sup>1</sup> «Kommunizm» (lotincha communis – umumiy) atamasi ham koʻp maʼnoli. Unda, asosan, xususiy mulkchilikning bekor qilinishi asosida umumiylikka erishishi tushuniladi. Kommunistik hayot tarzlari gʻoyasi Aflotunning «Davlat» asarida ham muhim oʻrin tutgan. Yevropada uygʻonish davrida mutafakkirlar T. Morning «Utopiya», T. Kampanellaning «Quyosh shahri» asarlarida ideal sifatida qaytadan koʻtarib chiqilgan. Babyof (1760–1797) uni falsafiy gʻoyagina deb qaramay, balki Fransiyada Direktoriya hokimiyati oʻrniga oʻrnatiladigan kommunistik rejimning siyosiy dasturi tarzida qaragan. 1839-yilda Parij qoʻzgʻolonidan keyin kommunizm nazariy-siyosiy muammo sifatida katta oʻrin tutdi. Marks va Engelsning proletar kommunizmi nazariyasida birinchi marta isteʼmol neʼmatlarinigina emas, balki ishlab chiqarish vositalarini ham umumlashtirish gʻoyalari ilgari surilgan.

Shunga ko'ra turkistonliklarning milliy davlat istiqloli yo'lidagi barcha harakatlari shafqatsiz bostirildi. Masalan, 1917-yil 26–27-noyabrda ko'pchiligini jadidlar tashkil etgan siyosiy kuchlar tomonidan barcha demokratik tamoyillarga ko'ra Qo'qon shahrida tuzilgan Turkiston milliy-hududiy muxtoriyati ag'darib tashlandi. Hech qachon zamonaviy sivilizatsiya maqomida bo'lmagan rus inqilobchilari, ayniqsa, bolsheviklar barcha vositalarni, hatto o'zini turkiy xalqlarning ashaddiy dushmani hisoblab kelgan arman dashnoqlarini ham ishga solib Farg'ona vodiysida qirg'inbarotlik qildilar. Holbuki Lenin «millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi, ularning g'ayri millatlar jamoalaridan davlat bo'lib ajralishi, o'z mustaqil milliy davlatini tuzishi» mumkinligi to'g'risida yozgan edi.

Sovet davlatida markscha-lenincha nazariyaga ko'ra mulkdorlarning qo'lidagi boylikni tortib olib, xo'jalik hayoti ustidan ishchi nazorati o'rnatildi. Qishloqda kambag'allar boylarga qarshi qo'yilib, ularning barcha mulklari kolxozga – jamoa xo'jaligiga olib berildi. O'zlari esa qul o'rnida ishlatildi. Zavodlar bevosita qo'l kuchi yordamida mutlaqo noinsoniy sharoitlarda qurilgan. Magnitogorsk Ural metallurgiya zavodi qurilishida ishlaganlardan 60 ming kishi turli kasalliklardan o'lib ketgan. Ular ichida «quloq» qilingan o'zbeklar ham bo'lgan.

Ma'muriy-buyruqbozlik bilan barpo etilgan davlat totalitar tusda edi. Fuqarolar erkinligi cheklangan, kishilar ishlab chiqarish sohasida ham, kundalik hayotda ham doimo qo'rquv ostida bo'ldilar.

Lekin fashizmga qarshi urushda hadsiz-hisobsiz qurbonlar evaziga erishilgan g'oliblik bilan yanada mustahkamlanganligiga qaramay, 50–60-yillarda Sovet davlatiga bo'lgan e'tiqod darz keta boshladi. 70–80-yillarda esa ziyolilar tuzumni tobora ko'proq tanqid qilib chiqdilar. Uning tuzatib bo'lmaydigan jihatlarini ochiqdan ochiq ko'rsatdilar (masalan, akademik Saxarov va boshqalar).

***Markaziy Osiyo xalqlarining sun'iy ravishda ajratilishi.*** Sovet davlati «lenincha milliy siyosat» niqobida Markaziy Osiyo xalqlarini bir-biridan ajratib tashladi. Bu ish barcha obyektiv omillarni nazar pisand qilmay amalga oshirildi.

Lekin Metropoliya va u yerdan Markaziy Osiyoga yuborilgan bolshevik rahbarlar til va etnik o'ziga xoslikni haddan tashqari

boʻrttirib, ataylab ularni hududiy ajralishga olib keldilar. Koʻpgina mahalliy ziyolilar va rahbarlar turkiy xalqlarni boʻlib yubormaslik kerak, degan pozitsiyada boʻlganligi ham boshlab yuborilgan bu jarayonga taʼsir koʻrsata olmadi.

Bunday boʻlinish natijasida Yevropa mumtoz mustamlakachiligining oltin qoidasi – «boʻlib tashla, hukmronlik qil» tamoyilidan foydalanish amalda boʻldi. Binobarin, shunday yoʻl bilan mustamlaka ustidan hokimlik qilish oson edi.

Sovetlar davrida amalga oshirilgan «milliy hududiy ajralish» siyosati oqibati oʻlaroq tashkil etilgan «ittifoqdosh respublika» va «muxtor respublika» hamda «milliy okrug»lar toʻgʻridan toʻgʻri mustamlakachilikni xaspoʻshlash uchun qilingan edi.

***Xomashyo manbasi.*** Sovet davlatining Metropoliya sanoati manfaatini koʻzlab olib borgan siyosati iqtisodiy sohada paxta yakka hokimligini keltirib chiqardi. Qurilgan zavod va fabrikalar ham asosan shu tarmoq bilan bogʻliq edi. Ularda ishlagan ishchilar va injenertexnik xodimlar asosan rus mutaxassislari edi.

Agrar sohada olib borilgan jamoalashtirish oqibati, ayniqsa, ayanchli boʻldi. Chorvachilikka gʻoyat katta ziyon yetkazildi. Sugʻorma xoʻjalik yurgizishga asoslangan tizim Oʻzbekistonda anʼanaviy boʻlib qadimdan hayotni taʼminlab kelgan. Shunga koʻra oʻzbeklarni boshqa yurtlarga ochlikdan yalpi koʻchishi roʻy bermagan.

Lekin Sovet davlati oʻtkazgan eksperimentlar natijasida «Qizil imperiya»ning boshqa joylarida boʻlganidek, bu yerda ham bir necha marta ocharchilik yuz berdi. Oʻtgan asr 80-yillari oxirida Sovet matbuotida mavjud qiyinchiliklarning ayni shu hodisalar bilan bogʻliq ekanligi yozilgan edi.

***Maʼnaviy asorat.*** Maʼnaviyat sohasida mustamlakachilik yanada yaqqolroq roʻy berdi: ish yuritish rus tilida olib borildi. Bu nafaqat Metropoliyadan yuborilgan amaldorlar mahalliy tilni bilmaganligi, balki shovinistik siyosat bilan ham bogʻliq boʻlgan.


Millatning guli boʻlgan ziyolilar qatagʻon qilindi. Ularning oʻrnini egallaganlar salohiyati esa koʻp hollarda mustamlakachilar talablari darajasida boʻlgan. Xotin-qizlarga tatbiqan asriy anʼanalar bilan


hisoblashmay, ko'p hollarda zo'raonlik bilan o'tkazilgan «Hujum» kampaniyasi ancha qurbonliklarga olib keldi.

Maorif, fan va ma'naviy madaniyatning boshqa barcha tarmoqlari qoldiq tamoyilida harakatlanib, bunda ham mahalliy voqelikdan mutlaqo yiroq xayoliy, kishilar turmushi uchun zararli bo'lgan kommunistik utopiyani targ'ib qilishga yo'naltirilgan edi. Shaxsning o'rniga, manfaatlariga e'tiborsizlik, barchani baravarlashtirishga urinishlar oqibatlarini o'laroq odamlar layoqatsiz, befarq bo'lib bordi. Shunga ko'ra, bu sohalarda milliy talablar va ehtiyojlar asosida rivojlanish ta'minlanmadi. Bunday vaziyat O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilingunga qadar davom etdi, deyish mumkin.


Shunday qilib, O'zbekistonda mustamlakachilikning ikkinchi bosqichi sovetcha, o'ziga xos tarzda kechgan bo'lsa-da, mohiyatan birinchi davrining davom etishidan boshqa narsa emas edi.

Hozirgi vaqtda sovet hokimiyati o'rnatilganligigina emas, balki marksistik sotsializm ham sivilizatsiyaviy maqomda bo'lmagani e'tirof qilinmoqda. Xo'jalik va madaniy sohada amalga oshirilgan o'zgarishlar bir tomonlama bo'lganligi haqiqat. Muayyan erishilgan natijalar ham berilgan behisob qurbonlar evaziga olingan edi.





49-sxema



50-sxema



51-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Mustamlakachilik* – o'z mamlakatidan tashqaridagi hududlarini egallab, u yerlardagi yashaydigan xalqning imkoniyati va kuchidan ayovsiz foydalanishga asoslangan ijtimoiy tartibot.

- *Jadidchilik* – ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy yo’nalish bo’lib, Turkiston taqdiri hal qilinayotgan paytda o’zbek xalqini g’oyaviy jihatdan birlashtiruvchi kuch sifatida ish ko’rgan.
- *Turkiston milliy-hududiy muxtoriyati* – Rossiya davlati federativ asosda tuzilgan taqdirda uning tarkibida bo’lgani holda milliy manfaatlarga mos siyosiy yo’l o’tkazish belgilangan edi. Lekin bolsheviklar tomonidan tor-mor qilingan.
- *Marksizm* – nemis mutafakkirlari K. Marks va F. Engels ilgari surgan ta’limot u bilan u yoki bu darajada aloqador turli yo’nalishlar, nazariyalar, qarashlarning keng quramasi bo’lib, uning markazida yo’qsillarning tarixiy vazifasini asoslab berish yotadi. Uning V. Lenin tomonidan to’ldirilib targ’ib qilingan varianti Sovet davlati va ko’pchilik sotsialistik mamlakatlaridagi tuzumning halokatga uchraganidan so’ng inqirozga yuz tutdi.
- *Totalitarizm* (lotincha: *to’la, yalpi*) – davlatchilik – siyosiy rejim bo’lib, yagona partiya yoki tashkilotning to’la hukmronligini bildiradi. Uning tipik ko’rinishi bo’lib fashizm va hozir halokatga uchragan kazarma sotsializm hisoblanadi.
- *Sovet* (Sho’ro) – XX asr boshlarida Rossiyadagi inqiloblar jarayonida tashkil etilgan hokimiyat bo’lib, bolsheviklar siyosiy hokimiyatni bosib olgandan so’ng davlatda hokimiyatning pastdan yuqorigacha bo’lgan bo’g’inlarining umumiy nomi. Sovet davlati barham topgandan so’ng tugatilgan.

### Savollar va topshiriqlar



1. Temuriy sivilizatsiyani dasht ko’chmanchiligi tomonidan zabt etilishini qaysi omillar osonlashtirdi?
2. Nega yurtning uch xonlikka bo’linib ketishi oldini olish imkoniyati bo’lmadi?
3. Ijtimoiy turg’unlik nima?
4. Mustamlakachilik asoratiga tushmaslik iloji bo’lganmi?
5. Mustamlakachilikning birinchi davrining halokatli oqibatlari nimalarda ko’rinadi?

6. Jadidchilikda siyosiy-huquqiy masalalar qachondan boshlab birinchi o'ringa chiqdi?
7. Jadidlarning Xorazm va Buxoroda Sovet hokimiyati bilan aloqada bo'lishidan qanday maqsad kuzatilgan?
8. Mustamlakachilik ikkinchi davrining oldini olish mumkinmidi?
9. Turkiston – Markaziy Osiyo mintaqasi azaliy yaxlitligini sovetchasiga «ittifoqdosh respublika», «avtonom respublika» va hokazolarga ajratish qaysi maqsadlarga xizmat qilgan?
10. Amalga oshirilgan xo'jalik o'zgarishlarining halokatli oqibatlari nimalardan iborat bo'ldi?
11. Zo'ravonlik yo'li bilan amalga oshirilgan madaniy inqilob qanday natijalarga olib keldi?

### Amaliy ish



1. «Sivilizatsiya» tushunchasi qanday nazariy va amaliy ehtiyojlarga javob beradi? Buni tushuntiring.
2. Sivilizatsiyalarning Sharqdan boshlanganligini boshqa o'quv predmetlaridan o'rgangan bilimlaringizga tayanib mulohaza qiling.
3. «Sharq» atamasining geografik va ijtimoiy-madaniy talqinlari, nisbatini mulohaza etib ko'ring.
4. «G'arb» atamasining ilmiy maqomini tushuntiring.
5. «Turon» atamasining hozirgi qo'llanilishi nimalarda ko'rinadi?
6. Nega turkiy xalqlar islom dinini oson qabul qildilar? Buning sabablarini izohlang.
7. Turkistonda lokal islomiy sivilizatsiyalarning oqibatlarini solishtirib yozma ish tayyorlang.
8. «Temur tuzuklari» asarining o'zbek xalqi ma'naviyati tarixidagi o'rnini tushuntiring.
9. Mirzo Ulug'bekning shohlik va ilmiy faoliyati nisbatini ulug' shaxs tavsifida izohlang.
10. Ma'rifatchilikning umumsivilizatsiyaviy va ma'rifatparvarlikning lokal sivilizatsiyaviy ahamiyatini ko'rsating.
11. Mustamlakachilikning nega sivilizatsiyaviy vazifani bajarolmasligini tushuntiring.
12. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi bilan sovet tuzumi umumiyligini misollar bilan izohlang.



## Ma'ruza va referatlar uchun mavzular



1. «Avesto» – yurtimiz qadimgi davri sivilizatsiyasi yodgorligi.
2. O'zbekistonda qadimgi davlatchilik.
3. Vatanimiz tarixida amalda bo'lgan dinlar.
4. Turkistonda o'troqlik va ko'chmanchilik sivilizatsiyalari.
5. Islom sivilizatsiyasining Movarounnahrda boshlanishi.
6. Islomiy sivilizatsiya va turkiy sulolalar.
7. Turkiy sivilizatsiyaning ma'naviy-axloqiy tizimi.
8. Amir Temur shaxsi va o'rnining jahoniy maqomi.
9. Ulug'bek ilmiy faoliyatining jahoniy maqomi.
10. Navoiy shaxsi va faoliyatining jahoniy maqomi.
11. Bobur shaxsi va faoliyatining jahoniy maqomi.
12. Ma'rifatparvarlikning sivilizatsiyaviy maqomi.
13. Milliy davlatchilikni tiklash – sivilizatsiyaviy vazifa.
14. Mustamlakachilikning antitsivilizatorlik oqibatlari.
15. Markscha-lenincha dunyoqarashning sivilizatsiyaviy yaroqsizligi.

### Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. *Karimov Islom*. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
2. *Karimov I.A.* Oллоh qalbimizda, yuragimizda // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – T., «O'zbekiston», 1999.
3. *Karimov Islom*. «Turkiston – umumiy uyimiz». Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. – T., «O'zbekiston», 1996.
4. *Qur'oni karim*. – T., «Cho'lpon», 1992.
5. *Amir Temur*. «Temur tuzuklari». T., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
6. *Abu Nasr Farobiy*. Fozil odamlar shahri. – T., 1992.
7. *Abu Rayhon Beruniy*. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, I-jild. – T., 1972.
8. *Avesto*. – T., 2001.
9. *Al-Buxoriy Abdulloh*. Jomiy as-sahih. 4-jildlik. – T., 1994–1996.
10. Alisher Navoiy. Xo'ja Bahovuddin Naqshband. «Sharq yulduzi» jurn. – T., 1993/5.
11. *Alixonto'ra Sog'uniy*. Turkiston qayg'usi. – T., 2003.
12. *Ahmad Yassaviy*. Hikmatlar. – T., 1991.
13. *Bobur Zahiriddin Muhammad*. Boburnoma. – T., 1992.
14. *Azizov Sh., Azizova S.* Ma'rifatparvarlik – ijtimoiy madaniy hodisa. – T., 2008.
15. *Asqarov Ahmadali*. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T., «Universitet», 2007.
16. *Axmedov A.* Ahmad al- Farg'oniy. – T., 1998.
17. *Axmedov A. va boshqalar*. Xorazm Ma'mun Akademiyasi. – T., 2005.
18. *Zohidiy A.* Turkistonda o'rta asr arab-musulmon madaniyati. – T., 1993.

19. *Ibrohimov A.* Biz kim, o'zbeklar. – T., 2001.
20. *Karimov T.* Avesto izidan. – T., 2000.
21. Классическая наука Центральной Азии и современная цивилизация. – Т., 2001.
22. *Madayeva Sh.* Milliy identiklik antropologiyasi. – T.: «Noshir», 2015.
23. «Ma'naviyat yulduzlari». – T., 2000.
24. *Mo'minov I.* Amir Temurning O'rta Osiyoda tutgan o'rni. – T., 1993.
25. *Nitshe F.* Zardusht tavollasi. – T., 2008.
26. *Rahmanov N.* Turk xoqonligi. – T., 1993.
27. *Rtveladzi E.V., Saidov A.H., Abdullayev E.V.* Qadimgi O'zbekiston: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – T., 2004.
28. *Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х.* Амир Темура в зеркале мировой науки. – Т., 1999.
29. *Saidov A.H., Juzjoniy A.Sh.* Sharq sivilizatsiyasi: inson va huquq. – T., 2005.
30. *Skirbekk G., Gil'e N.* Falsafa tarixi. – T., 2001.
31. *Sulaymonova F.* Sharq va G'arb. – T., 1997.
32. *Nayrullayev M.M.* O'rta Osiyoda Uyg'onish davri madaniyati. – T., 1994.
33. *Shoniyoziyov K.Sh.* O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T., 2001.
34. *Васильев Л.С.* История Востока. В 2 тт. – М., 1993.
35. *Гумилёв Л.Н.* Этногенез и биосфера Земли. – М., 1993.
36. *Конфуций.* Уроки мудрости. – М., 1998.
37. *Гофф Ле.* Цивилизация Средне векового Запада. – М., 1992.
38. *Неру Дж.* Взгляд на всемирную историю. В 3 тт. – М., 1993–1995 гг.
39. *Сорокин П.А.* Человек. Цивилизация. Общество. – М., 1992.
40. *Тойнби А.Дж.* Постигание истории. – М., 1991.
41. *Шпенглер О.* Закат Европы. Т. 1. – М., 1993.
42. *Швейцер А.* Культура и этика. – М., 1987.

# **TO‘RTINCHI BO‘LIM**

## **MUSTAQIL O‘ZBEKISTONNING ZAMONAVIY SIVILIZATSIYAVIY MO‘LJALLARI**

---

---

### **VIII bob. DAVLAT ISTIQLOLI VA IJTIMOIIY RIVOJLANISH YO‘LINING TANLANISHI**

#### **IV.8.1-2. Demokratik-huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurilishining zarurligi va shart-sharoitlari<sup>1</sup>**

*O‘zbekistondagi tarixiy-madaniy markazlar tevarak-atrof uchun sivilizatorlik vazifasini bajarganmi? Mustaqil O‘zbekistonda ijtimoiy tanlov (Qayoqqa? Qanday? Qanday vositalar bilan?) qanday amalga oshdi? Siyosiy-huquqiy jarayonlar qanday kechdi? Fuqarolik jamiyati qanday shakllandi? Milliy g‘oya qanday tarixiy-etnik va ma’naviy asoslarga tayanadi?*

**Markaziy Osiyoning tabiiy-geografik o‘rni va tarixiy-madaniy rivojlanishi.** Bu mintaqa hududiy yopiq tizim hisoblanadi. Tabiiy sharoitlariga ko‘ra bu huquq eng baland tog‘lar, ular orasidagi subtropik vodiylar, katta daryolar atrofida ulanib ketgan katta-katta vohalarni qamraydi. Bu yerda Sayyora miqyosidagi sahrolar ham bor.

Bular, o‘z navbatida, tarixiy-etnik, savdo-iqtisodiy va ma’naviy yaxlitlikni ifodalashi tabiiydir. «O‘rta Osiyo hududida, – deydi I. Karimov, – aholi azaldan vodiylarda, katta suv manbalari – daryo va anhorlar bo‘yida yashab keladi. Atrofi cho‘l va sahrolar bilan o‘ralgan, tabiati, iqlimi g‘oyat murakkab bo‘lgan mintaqa sharoiti-ning o‘zi ana shu elat va millatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo‘lib, bir-birining og‘irini yengil qilib yashashini taqozo etgan»<sup>2</sup>. Bu yerda qadimdan yashab kela-

---

<sup>1</sup> Ushbu fasl falsafa fanlari doktori, professor I. Saifnazarov tomonidan yozilgan.

<sup>2</sup> *Islom Karimov. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch».* – T., «Ma’naviyat», 2008, 9-bet.

yotgan turkiy xalqlarni Sovet davrida bir-biridan ajratishga qanchalik urinilmasin, baribir ularga xos umumiyliklar saqlanib qolavergan. Mintaqa markazini, uning asosiy madaniy qismi bo'lib kelgan O'zbekiston o'tgan ming yillik davlatchiligi tarixining so'nggi ming yilligi davomida mo'g'ullar asorati (unga Amir Temur barham bergan) va rus-sovet mustamlakachiligidan qutulib mustaqilligini yangicha asoslarda tikladi.

O'zbekiston o'z istiqbolini belgilashda «*Qayoqqa?*» «*Qanday tarzda?*» «*Qaysi vositalar bilan?*» degan savollarga javob topish zarur bo'ldi. Bunda mamlakatning tabiiy-tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsiflaridan kelib chiqib yo'l belgilash juda muhim hisoblandi. Negaki, O'zbekiston geografik, confessional, til va, umuman, ma'naviy jihatlardan Sharq sivilizatsiyasi, to'g'rirog'i uning Markaziy Osiyo hududiy tarmog'i ichidadir.

O'zini jahonga ochgan Markaziy Osiyoning mustaqil, suveren davlatlar ijtimoiy rivojlanish mo'ljallari, maqsadga erishish yo'llari tanlanganiga o'tmishi va hozirgi zamon sivilizatsiyaviy birligidan kelib chiqib kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga tegishli yo'nalish belgiladi. Bular, dastavval, o'zlashtirilayotgan bozor munosabatlari, xususiy mulk, raqobat, demokratiya, shaxs erkinligi, ijobiy ma'noda tushunilgan individualizm kabi qadriyatlarga tayanch bo'ldi.

***Sivilizatsiyalar sintezi.*** Oldin aytib o'tilganidek, Sharq va G'arb – Yevropa sivilizatsiyalari an'anaviy va texnogen tabiatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Sharq yozma tarixining ikki muhim davrida qadimgi dengiz sivilizatsiyasini ifodalagan Yunonistonga, Yangi va Eng yangi tarixda okeanlarning sivilizatsiyasini yaratgan Yevropaga ilg'orlikni berib qo'ygan edi. O'z navbatida, G'arb keyinroq fan va texnika rivojlanishini tezlashtirish orqali yuksak sur'atlarni ta'minladi. Tegishli tarzda aholi turmush sharoitlarini ham yaxshilab dunyoning ko'p joylariga, jumladan, Sharqqa ham o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Muayyan jihatlardan bu sivilizatsiyalar to'qnashuviga o'xshagan holni yuzaga keltirdi. Buni chuqur mulohazali ziyolilar payqamasligi mumkin emasdi. Chunonchi, ingliz shoiri Redyard Kipling «Sharq va G'arb haqida ballada» asarida yozgan edi:

*G'arb – bu G'arbdir, Sharq – esa Sharqdir,  
Joyidan qo'zg'almas ular hech qachon.  
Toki Yer yuzida qiyomat qo'pib,  
Unga qulab tushmaguncha bu osmon.  
... Lekin Mashriq yo'qdir va Mag'rib ham yo'q,  
Urug'-aymoq Vatan va jins misoli.  
Kuchli kuchli bilan kelsa yuzma-yuz,  
Yerning bir chetida ketadi qolib.*

*(Faxriyor tarjiması)*

Sivilizatsiyalar insoniyatga xos jihatlarning jami sifatida umumiylikka ham egadir. Ular umuminsoniy tarixiy jarayonning ichidadir. Ijtimoiy-madaniy jarayonlarning turlicha holatlarini ifodalashi bilan sivilizatsiyaviylik «olamning birligi uning turli-tumanligidadir», degan tamoyilga juda mos keladi. Ya'ni, bir tomondan, sivilizatsiyalarning o'zaro ta'sir ko'rsatishlari, aloqadorlikka moyilliklari ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, ularning tobora turli xilda namoyon bo'lishlari yuz bermoqda.

***O'zbekiston istiqboli uchun tanlangan yo'lning sivilizatsiyaviy maqomi.*** Tanlov nafaqat nazariy, balki siyosiy-amaliy o'tkirligi bilan ham izohlanadi. Mustamlakachilik qaysi bosqichda bo'lmasin, u yoki bu sohada amalga oshirgan o'zgarishlar bir tomonlama bo'lganidan, ularning natijalari davlat istiqboliga yetarli asos bo'la olmasdi. To'g'ri, G'arb-Yevropa texnogen sivilizatsiyasi ham garchi shaxs erkinliklari, yuqori turmush darajasini ta'minlagan bo'lsa-da jahoniy ekspansiyachilik, ekologiyaviy inqiroz, mavjud resurslarni ortiqcha tasarruf etish va hokazo salbiy oqibatlarni keltirib chiqarganiga ko'ra yagona zamin bo'la olmasligi tushunarlidir. Bu sivilizatsiyaga muqobil sharqona an'anaviylik shaxs erkinligini cheklasa-da, fan-texnika rivojlanishini tezlashtirmasa-da, jamoaviy hayot maromini ta'minlaydi. Ko'rinadiki, har ikki sivilizatsiya ijobiy jihatlari, ijtimoiy munosabatlarning zarur darajasi va madaniy qadriyatlarining muayyan tarzi o'zaro mutanosib bo'lishi kerak. Ijtimoiy rivojlanishning tadrijiy ta'minlash kun tartibiga

qo'yiladi<sup>1</sup>. Bunda jamiyatni ketma-ket modernizatsiyalashtirish, ishlab chiqarish sohasida kishilar hayotiga oqilonalik (ratsionallik) berish vazifalari ketma-ket bajariladi. Ijtimoiy vazifalarning bajarilishi esa mavjud qadriyatlarining, masalan, urf-odatlar, me'yorlarga tayangan holda olib boriladi. Bular, o'z navbatida siyosiy soha o'zgarishlariga ham olib keladi.

Sivilizatsiyalar omuxtaligini ifodalagan. O'zbekistonda amalga oshirayotgan islohotlar mantiqi shundayki, bunda oxir-oqibatda mavjud ijtimoiy munosabatlar, ularga muvofiq keladigan madaniylik darajalari yangi sifat holatlariga ega bo'lib boradi.

**Siyosiy jarayonlar.** Kishilik jamiyati siyosiy hayoti tashkil etuvchilarining o'zaro bog'liqlikda faoliyat ko'rsatishlari jarayon sifatida kechadi. Siyosiy jarayon jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalariga muqobil sifatida tushuniladi. Nisbatan torroq ma'noda olinganda, siyosiy jarayonlar – bu jamiyat siyosiy tizimi tarkibiy qismlari harakatining jamidir. Albatta, «siyosiy jarayon» tushunchasi mavhumiy umumlashma. Bunda ifodalangan voqelik muayyan joyda va vaqt ketma-ketligida kechadi. Shunga ko'ra, bu jarayonlarni mahalliy, umummilliy va mintaqaviy miqyoslarda farqlash lozim.

Vaqt tavsifiga ko'ra siyosiy jarayon jamiyatning tegishli sohasida izchil, birin-ketin yuz berayotgan o'zaro bog'liq hodisa va voqealarning barchasini qamraydi.

Siyosiy tizim tarkibi etnik, ijtimoiy-siyosiy va boshqa tuzilmalardan iborat. Ular esa siyosiy faol shaxslarning tegishli uyushmalaridir. Shaxslar faolligi, ular mansub bo'lgan tuzilmalarga xos maqsadni amalga oshirishdagi darajasini ifodalaydi. Faollik darajasi kishilarning ijodiylik salohiyati va ijroiya madaniyatga bog'liq bo'ladi. Ulardan birinchisida shaxs alohida o'zi ham, jamoa (masalan, partiyalar, turli-tuman birlashmalar va h.k.) doirasida

---

<sup>1</sup>«Biz islohotlarni inqilobiy usulda, ya'ni «shok terapiyasi» yo'li bilan amalga oshirishdan ongli ravishda voz kechib, tadrijiy taraqqiyot yo'lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo'lganimizni bugun hayotning o'zi ko'rsatib turibdi» // Islom Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarini chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T., «O'zbekiston», 2010.

ham faoliyat ko'rsata oladi. Ikkinchi holda esa, muayyan ijodiylik qatnashsa-da, qabul qilingan ijtimoiy-siyosiy tartibga ko'ra faoliyat amalga oshiriladi.

**Mustaqillik va yangi siyosiy hokimiyat.** Oldinroq ham qarab o'tilganidek, siyosiy tizimda barcha munosabatlar hokimiyatga, dastavval, uning davlat shakliga bog'liq. Mustaqillikni qo'lga kiritilishi birinchi o'rinda tegishli davlat hokimiyatini tashkil etishni shart etib qo'yadi. «Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z davlatchiligini qo'lga kiritish milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hech qayerda yengil va osonlikcha bo'lmagan. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari shuni taqozo etadi»<sup>1</sup>.

Bu jihat O'zbekistonda to'la ijobiy ma'nodagi *xarizmatik rahbar* I.Karimov siyosiy faoliyati natijasi o'laroq, sovet davrining so'nggi yillaridayoq kun tartibiga qo'yilib ma'lum darajada hal etilgan edi. Chunonchi, 1990-yilda «ittifoqdosh respublikalar» deb atalgan sovet tuzilmalari ichida birinchi bo'lib bu yerda prezidentlik<sup>2</sup> boshqaruvi yo'lga qo'yildi, shuningdek, qator jamoat harakatchiliklari ish boshladilar. Bular faoliyatida, siyosiy jarayonlarda taomilda bo'lgan hamkorlik, raqobat, kurash, to'qnashuv, konsensus va hokazolar mavjud edi.

Mustaqillik ehtiyojni kishilar siyosiy faolligini stixiyali shakllangan, tor maqsadlar uchun emas, balki ijtimoiy yo'naltirilgan tarzlarda o'zgartirishni taqozo qiladi. Bu jihatni shaxsning davlat va jamiyat hayotiga doir masalalar hal qilinishida bevosita, to'g'ridan to'g'ri (saylov, umumiy so'rov, miting, namoyish va h.k.) ishtirokida va bivosita, vakolatli demokratiya atributiv tashkilotlariga munosabatidagi (masalan, o'z huquqlarining bir qismini turli organlarga saylangan deputatlarga berishida) faollikda ko'rish mumkin.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T., «O'zbekiston». 1996, 40-bet.

<sup>2</sup> «Markazdan bo'layotgan turli zararli ta'sirlardan xalqimizni himoya qilish, mustaqil siyosatimizni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadidan... prezidentlik boshqaruvi joriy etildi». Islom Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». – T., «Ma'naviyat», 2008, 72-bet.

***Huquqiy demokratik davlat qurilishi.*** O‘zbekistonda kechayotgan siyosiy jarayonlar markazida davlat istiqlolini to‘la ta‘minlash vazifalari huquqiy demokratik davlat barpo etishdan iborat bo‘lmoqda. «Biz barpo etayotgan, – deydi I.Karimov, – eng avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilish sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanish lozim».<sup>1</sup> Bu davlatning asosiy tavsiflari rivojlangan demokratik mamlakatlar, davlatlar faoliyatida o‘z ifodasini topgan, shuningdek, nazariy umumlashtirilgan. Bularda O‘zbekistonga ham konkret sharoitlar hisobga olinib tatbiq etish mumkin bo‘lgan quyidagi qoidalar ilgari suriladi:

1. *Xalq suverenitetini tan olinganligi zaminida davlat qonunchilik organlarining yaratilishi.* O‘zbekistonda amalda bo‘lgan siyosiy-huquqiy tizimda xalq oliy hokimiyat manbasi sifatida olinib uning bu oliy hokimiyati umumiy tarzda va yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylangan Parlamentga o‘tgan. Parlamentga demokratik tamoyillar asosida jamiyat hayotining muhim jihatlari boshqarish bo‘yicha oliy huquqiy kuchga ega bo‘lgan qonunlar ishlab chiqish va kuchga kiritish huquqi berilgan.

*O‘zbekiston Parlamenti* hozirgi vaqtda ikki palatalik bo‘lib ancha takomillashgan ish maromida faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozirgacha qabul qilingan 400 taga yaqin qonunda kishilar va jamiyat hayot faoliyatining iqtisodiy, ma‘naviy, ijtimoiy va siyosiy boshqaruv sohaslarining huquqiy tizimi asoslangan.

2. *Hokimiyatlarning qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlariga bo‘linganligi.* Sobiq Sovet davlati sharoitlarida e‘tibordan chetda bo‘lgan bu tamoyil O‘zbekistonda turmushga tatbiq etilgan. Qonunlar qabul qilish yo‘li bilan jamiyat rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilashi lozim bo‘lgan Qonunchilik hokimiyati – Parlament siyosiy erkinliklar, huquqiy tartibotni qaror toptirish va hokimiyatni alohida mansabdorlar, ijtimoiy guruh yoki biron-bir muassasa tomonidan suiiste‘mol qilishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ham faoliyat ko‘rsatadi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T., «O‘zbekiston», 1996. 7-bet.



Parlament tomonidan O‘zbekiston Prezidenti tavsiyasiga ko‘ra tayinlanadigan ijroiya hokimiyat – Hukumat qabul qilingan qonunlarni hayotga tatbiq etish va xo‘jalik yurgizish bo‘yicha uzluksiz ish olib bormoqda.

Odil hakamlik qilish yo‘li orqali huquqlar buzilishini tiklash, aybdorlarni adolatli jazolash bo‘yicha sud hokimiyati qaror topdi. O‘zbekistonda bu sohaga zamonaviy talablar asosida keng ko‘lamli faoliyat olib borilmoqda.

Hokimiyatlar bo‘linganlik tamoyili O‘zbekistonda yangi mexanizm bilan to‘ldirilgan. Bu tegishli hokimiyatlar o‘rtasidagi «posangi»ning ham yaratilganidir. Sobiq Sovet davlati o‘rnida vujudga kelgan qator davlatlarda ayni shu «posangi»ning ishlab chiqilmaganligi natijasida davlat boshliqlari bilan parlament o‘rtasida harbiy to‘qnashuv (Rossiya, 1993-yil), o‘zaro kelisha olmaslik (Ukraina, Qirg‘iziston va boshqa davlatlarda) yuz berdi.

3. *«Huquqiy davlat» iborasidan ma‘lum bo‘layotganidek, davlatning huquqqa tobeligi.* Bu tamoyil O‘zbekistonda davlat organlarining ham, tashkilot va muassasalarning ham, fuqarolarning huquqqa baravar bo‘ysunishi tarzida amalga oshmoqda. Natijada davlat tashkilotlari faoliyatida o‘zboshimchalik emas, balki huquq bilan bu faoliyatning cheklanganligi ta‘minlanmoqda.

4. *Davlat faoliyatida inson tabiiy huquqlari yashash, xavfsizligini ta‘minlash, mulkdor bo‘lishi, erkin harakatlana olishi va hokazolarning ustunligini tan olish* siyosiy-huquqiy maqomda xalqaro huquq BMTda 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yildan kuchga kirgan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari to‘g‘risida hamda fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro paktlar va konstitutsiyada ifodalangan bo‘lib ichki qonunchilikka va tarmoq qonunlariga nisbatan belgilovchi hisoblanadi. Shunga ko‘ra O‘zbekistonda bu tamoyil barcha e‘tiborli qonunchilik aktlarida o‘z ifodasini topgan.

Huquqiy davlat konsepsiyasi haqida gapirganda O‘zbekiston Konstitutsiyasi Muqaddimasida «insonparvar demokratik huquqiy davlat» yaratish vazifasi qo‘yilganiga, shuningdek, Asosiy Qonunning 2-, 7-, 11-, 15-, 18-moddalarining ahamiyatini alohida ta‘kidlash lozim.

***Shaxs va davlatning o‘zaro mas’ulligi.*** Tamoyil sifatida bu – O‘zbekiston davlatning muhim tavsiflaridan biridir. Lekin ikkala tomon o‘z munosabatlarida teng kuchli emas. Nodemokratik davlat formal jihatdan shaxs huquqini tan olishi mumkin. Uni ro‘yobga chiqarishga esa qodir emas. Buni sobiq Sovet davlati misolida ko‘rish mumkin edi. Bunday davlat uchun fuqaroning uning oldidagi mas’uliyati belgilovchi hisoblanadi.

G‘arb dunyosida faoliyat ko‘rsatayotgan huquqiy davlat xilida hokimiyat mansabdorlarining fuqarolar huquq va erkinliklari uchun mas’ulligiga e‘tibor qaratiladi. Albatta, bu yerda mas’uliyat o‘z-o‘zicha amalga oshmaydi. Yaratilgan huquqiy asoslarga tayanib inson erkinligi va huquqlarining ta‘minlanishi, aksincha holda aybdorlarning qonun oldida javob berishi lozim bo‘ladi. Boshqacha aytganda, tegishli me‘yoriy hujjatlar mavjudligidagina bu hol amaliy ahamiyat kasb etadi. Gap bu yerda Konstitutsion sud va davlatning butun sud tizimidagina emas, balki amaldagi qonunlarning insonparvarligi, adolat mezonlariga javob berishligi va hokazolar belgilovchiligidadir.

O‘zbekistonda fuqarolar oldida davlat idoralarining mas’ulligi, fuqarolar haq-huquqlarining buzilmasligi kafolati konstitutsiyaviy qoida hisoblanadi. Fuqarolar ham o‘z haq-huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda faollik ko‘rsatmog‘i zarur bo‘ladi.

Huquqiy davlat faoliyat ko‘rsatadigan barcha joylarda bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham shaxslar, fuqarolarning davlat oldidagi mas’ulligi, ma‘lum majburiyatlarni bajarishi o‘z-o‘zidan ravshan. Bunda, birinchi navbatda, fuqaro o‘zining konstitutsiyaviy majburiyatlarini bajarishi, davlat belgilagan tartiblarga rioya qilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasining Asosiy Qonunida bu to‘g‘rida bir bob ajratilgan.

***Saylov va partiyaviy tizimlarning o‘zaro aloqasi.*** O‘zbekistonda yangi davlat tizimi yaratilishi va uning rivojlantirilishi jarayoni demokratiyaning eng muhim belgilaridan bo‘lgan saylov tizimini ham yetarli darajada qamrab oldi. Xalq (ya‘ni, saylovchilar) saylovlarda ovoz berish yo‘li bilan vakillariga hokimiyatni amalga oshirish huquqini beradi. Bunda, uning uchun siyosatda qatnashishning vakolatli shakli yaratiladi. Saylov shunday

vositaki, uning yordamida mahalliy organlardan tortib mamlakat prezidentigacha bo'lgan vakolatli hokimiyatning butun tizimi shakllantiriladi. Ayni vaqtda, saylov bu tizim tarkibidagi kichik tizim hisoblanadi.

Har bir davlatda saylov tizimi an'ana va mahalliy sharoitlardan kelib chiqib shakllantirilgan. Uning tarkibiga saylov o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarida ifodalangan saylov huquqi va saylov o'tkazish bilan bog'liq turli-tuman xatti-harakatlardan iborat saylov jarayoni kiradi. Saylov huquqi kishilarga siyosiy qarorlar qabul qilishda juda katta imkoniyatlar beradi. O'zbekistonda saylov tizimining o'ziga xosliklaridan biri shundaki, vakolatli organlarga saylash uchun nomzodlarni tegishli qonunlarga ko'ra ro'yxatdan o'tgan siyosiy partiyalar va O'zbekiston ekoharakati ko'rsatadi. Ovoz berish huquqi *18 yoshga*, saylanish huquqi *21 yoshga*, prezidentlikka nomzod bo'lish esa *35 yoshga* yetganlarga beriladi. Mamlakat fuqarolari saylovda umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri va yashirin ovoz beradilar. Bularning bari tegishli saylov qonunlarida ko'rsatilgan.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalarning har biri aholining muayyan qismi xohish-irodasini ifodalaganidan, davlatdagi siyosatga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadilar. Partiyalar o'z saylovchilari (buni siyosiy fanlarda elektorat deb ataydilar) doirasini kengaytirishga harakat qiladi. Ular, oxir-oqibatda, saylovchilari va hukumat o'rtasidagi vositachilikni amalga oshiradi. Bu endi tegishli siyosiy madaniyat bo'lishini taqozo etadi.

Mamlakatdagi partiyalar siyosiy tizim ichidagi kichik tizim hisoblanadi. Ular qator vazifalarni bajarishga qaratilgan faoliyat olib boradilar. Jumladan, ular saflarida shakllangan kadrlar parlament a'zolari va hukumat a'zolarini tashkil etadilar. Ular, o'z navbatida, hokimiyat ishiga partiyadosh apparatchilarni jalb qiladilar.

***Davlat va fuqarolik jamiyati.*** Davlat tashkiloti butun Sharqda bo'lganidek, O'zbekistonda an'anaviy jamiyatlar sharoitida ham, rus-sovet mustamlakachiligi davrida ham hayotning barcha sohalariga belgilovchi ta'sir ko'rsatgan. Inson jamoa va davlatga, jamoa esa davlatga qaram bo'lib qolavergan. Natijada bu yerda Qadimgi Yunon-Rim sharoitlarida boshlang'ich davrini kechirgan va Yangi zamonda oyoqqa turgan fuqarolik jamiyati singari voqelik amal-

da bo'lmagan yoki ilk holatda bo'lgan. Buni hatto ayrim marksist nazariyotchilar ham ta'kidlab o'tishgan. Italiya kommunistlarining sardorlaridan bo'lgan A.Gramshi Lenin va boshqa bolshevik-kommunistlardan farqli o'laroq yozgan edi: «Sharqda davlat beqiyos kuch edi, fuqarolik jamiyati ilk, uyushmagan holatda bo'lgan. G'arbda davlat bilan jamiyat o'rtasida tartibga solingan munosabatlar mavjud edi va agar davlat tebrana boshlasa, darhol fuqarolik jamiyatining mustahkam tarkibi yuzaga chiqqan. Davlat oldingi handaq hisoblangan, orqada qal'a va istehkomlarning mustahkam zanjiri turgan».

Xo'sh, bu nima bilan izohlanadi? *Birinchidan*, Sharqda mulkning asosan jamoaviyligi bilan bo'lsa, G'arb-Yevropada avvalboshdan xususiy mulk ustunlik qilganligidadir. Mulkning bu shakli hukmronligi ham avtomatizm yo'li bilan fuqarolik jamiyati institutini paydo qilmaydi. Davlat va, umuman, *siyosiy rejim* demokratiyaning ma'lum talablariga javob berishi kerak. Shu sharoitlardagina fuqarolik jamiyatiga zaruriyat bo'ladi. Ko'rinadiki, davlat (har qandayi emas, balki demokratiyaviyligi) yaratib bergan shart-sharoitlar fuqarolarning kundalik manfaatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi lozim. Bunda ishontirish, huquqiy va axloqiy me'yorlar hamda erkin shaxsning ajralmas huquqlari asosida nosiyosiy tashkilotlar yordamida ish yuritiladi.

*Ikkinchidan*, erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari talabalari demokratik tartiblar mavjud bo'lgandagina shaxslar o'zlarining manfaatlarini ta'minlay oladilar. Jumladan, shundayki, ular fuqarolik sohasida zaruriy tashkilotlarni yarata olishi mumkin va lozim. Zero, erkin va mustaqil shaxs – fuqarolik jamiyatining markaziy figurasidir.

*Uchinchidan*, davlat o'z faoliyatida fuqarolar talab va ehtiyojlarini maksimum darajada hisobga olishga majburdir. Chunki bu o'z-o'zini doimiy mavjudligini ta'minlashga qaratilgandir. So'ngra fuqarolar ham o'zlarining xilma-xil manfaatlarini ta'minlashda davlat mexanizmiga murojaat qilishga haqlidirlar. Bunda esa ular o'zlarining ko'plab nosiyosiy tashkilotlarini ishga soladilar.

### ***O‘z-o‘zidan tashkillanganlik – fuqarolik jamiyatiga xos belgi.***

Ma’lumki fuqarolar demokratiya sharoitlarida hokimiyatning belgilovchi manbasi hisoblanadi. Ularning jamiyati markazlashgan davlat hokimiyati va erkin shaxs o‘rtasidagi mustahkam vositachi bo‘g‘inni tashkil etadi. Davlat esa hokimiyatdan nisbiy mustaqil bo‘lgan shaxsning huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish orqali yuz berishi kutilayotgan inqirozlarning oldini oladi.

Fuqarolik jamiyati tashkil topishini zarur etib qo‘yadigan konkret shart-sharoitlar xilma-xildir. Buni turli nodavlat va xususiy xayr-ehson jamg‘armalari misolida qarab chiqsa bo‘ladi. Bu xususda adabiyotlardagi qarashlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1) fuqarolarning tashkiliy birlashib kimgadir yaxshilik qilishida rahm-shafqat, achinish instinkti turadi;

2) e’tiqodiga ko‘ra inson birovlariga yetkazgan yaxshiligidan ichki qoniqish hosil etadi;

3) kishilardagi xayr-saxovatga moyillik, uni tashkiliy uyushtirish jamoatchilik oldida o‘zlikni namoyon qilish sifatida qaralishi mumkin;

4) kishilarning tevarak-atrofdagi bo‘layotgan o‘zgarishlardan xabardorligini ko‘rsatadi;

5) o‘ziga o‘xshagan kishilar bilan munosabatda burchga sodiqlikni ifodalaydi;

6) fuqarolik nuqtayi nazaridan moddiy manfaatdorsiz birovga yaxshilik qilish evaziga o‘zida qoniqish his qilish;

7) fuqarolik majburiyati sifatida umuminsoniy ma’noda tushunilgan adolatga sodiqlik va boshqalar.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining o‘ziga xosligi Sovet davri sharoitida tarixiy-ijtimoiy jarayonlarning subyektivi – ajralmas huquq va majburiyatlarga ega ongli fuqaroni totalitar tuzum yetishtira olmagan edi. Busiz esa fuqarolik jamiyati bo‘lmasligi ravshandir. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishi qator o‘ziga xosliklarga ega bo‘lmoqda. Ular quyidagilar:

– o‘tmish jamiyatlardan qolgan va shaxslardagi barqaror xususiyatlarning o‘z-o‘zidan barham topmasligi, buning uchun esa jiddiy mafkuraviy tarbiyaning zarurligi;

- milliy-davlat istiqlolini mustahkamlash vazifalaridan kelib chiqib fuqarolik jamiyati tarkibiy qismlarini shakllantirish;
- davlatning islohotchilik vazifalari bajarilishi doirasida komil insonni – fuqarolik jamiyati tashuvchilarini shakllantirishga erishish va h.k.

*Prezident I.Karimovning* 1992-yilda nashr etilgan «*O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li*» asari mamlakat oldida turgan vazifalarni, jumladan, fuqarolik jamiyatini yaratish bilan bog‘liq masalalarni hal etish bo‘yicha dasturulamal bo‘lgan edi. Uning «*Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma‘naviy-axloqiy negizlari*» deb atalgan bobida ma‘naviy merosni saqlash va rivojlantirish bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, shaxsga o‘z imkoniyatlarini axloq va qonun doirasida erkin namoyish qilish hamda vatanparvarlikning o‘rni va ahamiyati ko‘rsatib berilgan edi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslari mamlakat Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan. Masalan, tegishli moddalarda O‘zbekistonning demokratik huquqiy davlat sifatida maqomi, bozor munosabatlarini qaror toptirishning asosiy shart-sharoitlari, shaxs sha‘ni, uning yashash huquqi, erkinligi, tengligi va hokazo ko‘plab qoidalar qayd qilingan.

O‘zbekistonda yaratilayotgan fuqarolik jamiyatining huquqiy-qonunchilik bazasini quyidagilar tashkil etmadi. a) Konstitutsiya asosida qabul qilingan Fuqarolik kodeksi va fuqarolikka tegishli boshqa qonunchilikda shaxs mulkining daxlsizligi; b) tuzilgan shartnomalarning erkinligi; d) xususiy ishlarda biron-bir kishining aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik; e) fuqarolik huquqining beto‘siq amalga oshishini ta‘minlash; f) odil sudlov va hokazolar.

***Nodavlat, notijorat tashkilotlar (NNT).*** Fuqarolik jamiyati tashkil etuvchilari soni va salmog‘iga ko‘ra, *birinchidan*, ixtiyoriy tashkil topgan nodavlat tuzilmalar (ular turli markazlar, klublar, tashkilotlar, jamg‘armalar, muassasalar kabilar) dan iborat. *Ikkinchidan*, moddiy va ma‘naviy sohalaridagi nodavlat munosabatlarning yig‘indisini ifodalaydi. Ularning umumiy soni O‘zbekistonda 6000 dan ziyod bo‘lib, 1 million aholiga 200 tadan ortiq to‘g‘ri keladi. Bu

ko'rsatkichga ham, asosan, mustaqillik yillarida, xususan 2000-yilga qaraganda 2,5 baravar ko'payishiga erishildi. Ular *tarkibiga 4 ta siyosiy partiya, 2 ta harakatchilik, 50 tacha jamiyat, 30 ga yaqin uyushma, 20 tacha tarmoq uyushmalari, 40 qa yaqin jamg'armalar, 30 dan ortiq federatsiya, 20 ga yaqin birlashma* va hokazolar kiradi.

Fuqarolik jamiyati chuqur ildiz otgan mamlakatlarda uning tarmoqlari juda tig'iz bo'lib, fuqarolar va korxonalarining yuz minglab sonidagi xilma-xil tashkilotlaridan iboratdir. Turli manbalarda keltirilishicha, AQSHda 1 mln. aholiga *4334 ta* tashkilot to'g'ri kelib, jami *1140 000 ta* bo'lsa, Kanadada tegishli tarzda *4800 va 144000*, Buyuk Britaniyada – *5172 va 300000*, Shvetsiyada – *20000 va 184000 ta* to'g'ri keladi.

O'zbekiston hayotining barcha sohalarida fuqarolik jamiyati faoliyat ko'rsatsa-da, uning keng tarmoqlari iqtisodiy va ma'naviy sohalariga to'g'ri keladi. Masalan, aksiyadorlar jamiyati, kichik va o'rta korxonalar, tijorat banklari o'zlarining tegishli nohukumat va notijorat tashkilotlarini ta'sis etganlar. Bular, o'z navbatida, O'zbekiston tadbirkorlari va tovar ishlab chiqaruvchilar palatasi, Banklar uyushmasi, Ishbilarmon ayollar uyushmasi va hokazolarga birlashganlar.

Ma'naviy sohada turli jamg'armalar ta'sis etildi. Ularning ma'lum qismi xalqaro maqomda (masalan, «*Oltin meros*», *Imom Al-Buxoriy nomidagi, Amir Temur nomidagi, «Ekosan»* va hokazolalar) bo'lsa, boshqalari Respublika miqyosida («*Ustoz*», «*Nuroniyy*», Sharof Rashidov jamg'armasi, Ulug'bek jamg'armasi va hokazolar) faoliyat ko'rsatadi.

NNTlar yuridik maqomda tashkil etilgan, hokimiyat organlaridan mustaqil, o'z-o'zini boshqaruvchi, olingan foydani muassislar o'rtasida taqsimlamaslik, ixtiyoriylik tamoyilida ish ko'rishlari bilan tavsiflanadi.

**Mahalla.** Hozir mamlakatda soni 10000 dan ortiq bo'lgan bu institut o'ziga xosdir. *Birinchi*dan, Sharq dunyosidagi sug'orma dehqonchilikka asoslangan turmush tarziga mos an'anaviylikni ifodalagani uchun uzoq tarixga ega. *Ikkinchi*dan, o'tish davrini kechirayotgan O'zbekiston uchun yangi sifat kasb etib fuqarolik jamiyatining tipik ifodasini berishi mumkin.

O‘zbekiston Prezidentining 1992-yil 12-sentabrdagi farmoniga ko‘ra tashkil etilgan «Mahalla» jamg‘armasi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

– mamlakat aholisining tarixan tashkil topgan odatlari va an‘analarini boyitish va saqlab qolishga har tomonlama ko‘mak berish;

– yetimlar, nogironlar, yolg‘iz qarilar, kam ta‘minlangan oilalarga nisbatan insonparvarlik va rahm-shafqat yordami ko‘rsatish va sohaga oid g‘oyalarni targ‘ib qilish;

– o‘z-o‘zini boshqaruv bo‘g‘ini bo‘lgan mahallaga uning ko‘p qirrali faoliyatida tegishli yordam ko‘rsatish va h.k.

O‘zbek xalqi islomiy dindorligining mahalla bilan bog‘liqligi haqida ham eslatib o‘tish joiz. Islomning beshta asosiy farzlaridan biri bo‘lgan zakotning mahalladagi kambag‘allar, yetim-yesirlar, boquvchisi yo‘q ayollar va boshqa muhtojlar o‘rtasida taqsimlanishi kabilar umumfuqaroviy ahamiyatga egadir.

***O‘tmish qadriyatlarining zamonaviy talablar darajasida tiklanishi.*** Davlat istiqloli qo‘lga kiritilishi mustamlakachilikdan qutulish ko‘pgina muhim masalalarni hal etishni zarur etib qo‘ydi:

*Birinchidan*, bu istiqlol o‘zbek xalqining uch ming yillik tarixida mavjud bo‘lib kelgan davlatchilikni tiklash edi. Shunga ko‘ra bu tiklangan istiqlolning tarixiy – ma‘naviy zaminlari bo‘lganligini ko‘rsatish juda muhim bo‘ldi.

*Ikkinchidan*, mustamlakachilik davrida zo‘ravonlik bilan qabul qildirilgan, xalq tabiati va turmush tarziga to‘g‘ri kelmagan, mohiyatan aksilqadriyatlar bo‘lgan tartibotlar istiqlol uchun ma‘naviy-siyosiy zamin bo‘la olmas edi.

*Uchinchidan*, o‘zbek xalqining tarixi o‘zgaralar qo‘li bilan yozilib bir tomonlama yoritilgan va hatto soxtalashtirilgan edi. Uning tuzatilishi, milliy tarixning butun rang-barang va murakkabligini obyektiv-ilmiiy qarab chiqish, uni vorislariga qaytarish lozimligi o‘z-o‘zidan ravshandir.

*To‘rtinchidan*, O‘zbekistonning konkret sharoitlaridan kelib chiqib, tarixan eskirgan, salohiyati bunyodkorlik talablariga javob bermaydiganlardan voz kechib, yangi davr ruhiga mos hayotiyiligini ko‘p marta ko‘rsatgan qadriyatlar o‘zlashtirilmog‘i lozim edi.



Mezonlar sifatida milliylik va umuminsoniylikning omuxtaligini ifodalagan insonparvarlik va yurtparvarlik, hayotbaxshlik va taraqqiyparvarlik kabi qadriyatlar asos qilib olindi, tarixiy jihatlardan o'zlikni anglashga imkon berdi. Ya'ni, millat, xalq o'zining kimligini, o'tmishda qanday jasoratlar ko'rsatgani, shu bilan birga, qanday nuqsonlardan xoli emasligi anglandi.

*Beshinchidan*, mustaqil O'zbekiston kelajakka intilayotgan ekan, taraqqiy etgan mamlakatlarda amal qilayotgan umuminsoniy qadriyatlarni ham o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etdi.

**Tarixiy xotira.** Mustamlakachilik va totalitar o'tmishdan qolgan ma'naviy qashshoqlikni tugatish tarixiy xotirani uyg'otish orqali ham yuz berishi mumkin edi. Bu o'tgan asr boshlarida jadidchi-ma'rifatparvarlar ham ko'targan masala bo'lgan. Prezident Islom Karimov tarixiy xotiraga keng qamrovda yondashib quyidagicha ta'kidlaydi:

«Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib berishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi»<sup>1</sup>. Darhaqiqat, tarix buyuk murabbiy. Undan nafaqat ibratli xulosalarni, balki achchiq haqiqat saboqlarini ham olish mumkin.

O'zbek xalqining tarixiy xotirasida zardushtiylik dini yodgorligi «*Avesto*»da donolik jamlangan. Kushoniy turkiylar davrida buddaviylikka katta e'tibor berilgani tufayli, bu din g'oyalari Osiyoning sharqiy qismi tomon tarqalib, Tinch okean sohillarigacha yoyilgani, Turk xoqonligi davlatchiligidagi federativ tuzilmaviylik o'z davrida katta ijobiy voqea bo'lgan. Bularga zamonaviy mezonlarda baho berildi. Ayniqsa, islomiy qadriyatlarga oid tarixiy haqiqatlarning xalqqa qaytarilishi juda muhim bo'ldi.

---

<sup>1</sup> *Islom Karimov*. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». – T., «Ma'naviyat», 2008, 97-bet.

O'zbekiston hududi *islomiy falsafa, ilohiyot, huquqshunoslik*, shuningdek, ko'pgina ulug' *muhaddislar* faoliyat ko'rsatgan ma-kon bo'lganligi jahon jamoatchiligiga ilgaridan ma'lum edi. Lekin bu to'g'rida, o'zbek xalqining aksariyat qismi xabarsiz bo'lgan. Istiqlolning o'tgan yillarida mamlakatda bu yetishmovchilikni bar-taraf etish bo'yicha katta ko'lamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borildi. Xususan, ulug' muhaddislar, so'fiylar, ilohiyotchilar qabrlari obod qilinib ziyoratgohga aylantirildi, asarlari nashr etildi, tavallud sanalari keng nishonlandi.

Mamlakatda tarixi juda qadimdan boshlangan shaharlarning borligi o'zbek xalqi yaratuvchilik faoliyati o'tmishda naqadar yuk-sak bo'lganligining guvohidir. O'tgan yillarda *Buxoro, Xiva, Qarshi, Shahrisabz, Samarqand, Marg'ilon* kabi shaharlarning tarixiy sana-lari yuksak ko'tarinkilik bilan nishonlandi.

Davlat istiqlolini ma'naviy mustahkamlashda milliy davlat-chiligimiz tarixida alohida o'rin qoldirgan siymolar Xorazmshohlar sululasidan *Jaloliddin Manguberdi*, sohibqiron *Amir Temur*, uning nabirasi *Mirzo Ulug'bek*, buyuk *Alisher Navoiy* to'la ma'noda xalqqa qaytarildi.

O'zbekistonda tarixiy xotiraga tegishli alohida nishonlanadigan 9-May – «Xotira va qadrlash kuni» belgilangan. II jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonliklarning nomlari 35 jildlik «Xotira» kito-bida jamlangan.

***Umummilliy g'oya.*** Insoniyat aqlini tanibdiki, tobora tako-millashib, rivojlanib boradigan e'tiqodlarni ifodalagan g'oyalar bilan ish ko'radi. Odatda, bular u yoki bu ijtimoiy ta'limotning poydevor toshini ham tashkil etadi. O'z navbatida, bundan ijtimoiy guruhlar, mavjud hukumat, ba'zan esa, butun jamiyat manfaatdor bo'lishi yoki, aksincha, bo'lmasligi mumkin. Har holda muayyan g'oyalar majmuasi bilan ish ko'rmaydigan biron-bir yetuk kishilik jamiyatini topish mushkul. G'oyalar barcha davlatlarni ichdan umumiy tarzda birlashtirgan bo'ladi. Ularda xalq, millatning orzu-intilishlari, maqsadlari tipik ifodalanadi.

Yangi zamon tarixida milliy birlikka erishib uning asosida davlat barpo etish maqsadida *amerika g'oyasi, rus g'oyasi, pangermanizm, panarabizm* va hokazo g'oyalar amalda bo'lgani ma'lum. XVII

asrda yashagan shoir *Turdi Farogʻiy* oʻzbek qavmlarini birlashishga chaqirib «*Oʻzbekiston*» iborasini birinchi marta qoʻllagan edi.

Oʻzbek xalqi davlat istiqololini tiklab mustaqil mamlakatga oʻz nomini bergandan soʻng bu yerda yashaydigan barcha millat va elatlarni umum-oʻzbekiston gʻoyasi, umummilliy gʻoya atrofida uyushtirishga kirishdi. Garchi bu gʻoya milliy gʻoya sifatida qabul qilingan boʻlsa-da, unda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarning tub siyosiy-huquqiy manfaatleri toʻla aksini topgan. Bu oʻrinda yana shuni taʼkidlash lozimki, xalq oʻzining yetuk farzandlari aql-zakovati va salohiyati yordamida umummilliy gʻoyani yaratdi. Demak, milliy gʻoya:


– *birinchidan*, odatda qalbi pok, irodasi mustahkam, xalqning muammolarini tushunib yetadigan shaxslar tomonidan davr chaqirigʻiga javob tariqasida ilgari suriladi;

– *ikkinchidan*, unda davrning mohiyati, xalqning orzu-istaklari va maqsadlari ifodalanadi;


– *uchinchidan*, unda dunyoni bilishda insonning oʻzining anglashiga, kechayotgan jarayonlar mohiyatini anglashga oʻtishdan iboratligi aytiladi;

– *toʻrtinchidan*, hozirgi bilimda uni tor maʼnoda muayyan konkret guruhning faoliyatida ifodalanishi va keng maʼnoda uzoq muddatga moʻljallangan maqsad va vazifalar tarzida asoslanishi aksini topadi.


Prezident I. Karimov koʻp marta taʼkidladiki, milliy gʻoyada Oʻzbekiston xalqining *ozod va obod Vatani, erkin va farovon hayotini* barpo etish yoʻlidagi asriy orzu-intilishlari yotadi.




52-sxema



53-sxema



54-sxema



55-sxema

## Asosiy tushunchalar



- *Sivilizatsiyaviy sintez* – o‘tish jamiyatlari sharoitlarida Sharq an’anaviy va G‘arb zamonaviy sivilizatsiyalari yutuqlaridan ratsional foydalanishni ko‘zda tutadi.
- *Modernizatsiyalashtirish* – G‘arbda sanoatlashtirish orqali jamiyat hayoti barcha sohalarining o‘zgarishini bildiradi va dunyoning ko‘p joylariga tarqalganligini ifodalaydi.
- *O‘tish jamiyatlari* – bu an’anaviy va sovetcha totalitar tuzumdan zamonaviy jamiyatga o‘tishdagi zaruriy bosqich.
- *Xarizmatiklik* – u yoki bu mamlakat tarixining murakkab davrlarida yurtni inqirozdan olib chiqishga qodir rahbar salohiyati.
- *Hokimiyatlar bo‘linishi* – XVIII asr oxirlaridan boshlab G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada demokratiyani mustahkamlashga qaratilgan, keyinroq esa dunyoning ko‘p joylarida uni mustahkamlashga xizmat qilgan ijtimoiy tamoyil.
- *Huquqiy demokratik davlat* – qonunning ustuvorligiga asoslangan davlat.
- *Partiyaviy va saylov tizimlari* – mamlakatda faoliyat ko‘rsatuvchi partiyalarning jami tegishli tizimi hisoblanib, fuqarolarning saylov huquqi bilan bog‘liq munosabatlarida belgilovchi o‘rin tutadi.
- *Fuqarolik jamiyati* – demokratik huquqiy davlat sharoitlarida fuqarolarning o‘z manfaatlarini to‘laroq himoya qilishda zarur bo‘lgan nodavlat, notijorat birlashmalari jamidir.
- *Nodavlat tuzilmalar* – fuqarolar bilan davlat o‘rtasida Konstitutsiya talablari asosida vositachilik qiluvchi tashkilotlar.
- *Mahalla* – sug‘orma dehqonchilikka asoslangan an’anaviy jamiyatlarda paydo bo‘lib, davom etib kelayotgan ijtimoiy institut sifatida o‘tish jamiyatlarida ham jiddiy mavqega egadir.
- *Aksilqadriyat* – umumqabul qilingan ma’noda qadriyat talabiga javob bermasa-da, zo‘rlab qabul qildirilgan tartibot.
- *Tarixiy xotira* – u yoki bu xalqning o‘tmishida ro‘y bergan ahamiyatli voqealarning yangi sharoitlarda o‘zlikni, milliy g‘ururni ko‘rsatishda ijobiy rol o‘ynashini ta’kidlash.
- *«Xotira va qadrlash kuni»* – II jahon urushida halok bo‘lgan vatandoshlar va mustabid tuzum qurbonlarini xotirlash kuni sifatida 9-May tanlangan.

## Savollar va topshiriqlar



1. Qaysi asoslarga ko'ra Markaziy Osiyo Sharqona sivilizatsiya lokal tipini tashkil etadi?
2. O'zbekiston rivojlanishini o'tish jamiyatlari bosqichsiz tasavvur etsa bo'ladimi?
3. Jamoaviylik va mahalla institutlarining zamonaviylashtirish ehtiyojarini mulohaza qiling.
4. Siyosiy jarayonlarning tor va keng ta'rifini bering.
5. Suverenitet nima? Buni misollarda ko'rsating.
6. Insonning tabiiy huquqlari nimalardan iborat?
7. Shaxs va davlatning o'zaro mas'uliyati nima?
8. Saylov tizimida an'anaviylik va zamonaviylik nisbati qanday?
9. Fuqarolik tuzilmalarini jamiyat ichidagi jamiyat tarzida qarash to'g'ri bo'ladimi?
10. Notijorat tashkilotlar qanday maqsadni ko'zlaydilar?
11. Mahalla hokimiyati bilan davlat hokimiyatining nisbatini mulohaza qiling.
12. O'tmish qadriyatlaridan foydalanib o'tmishga qaytiladimi yoki ulardan yangi jamiyat barpo etishda foydalaniladimi?
13. O'tmishdan kelayotgan va zamonaviy qadriyatlar nisbatini mulohaza qiling.
14. Prezident I. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» degan fikrini qanday tushunasiz?

### IV.8.3. Barpo etilayotgan va rivojlanayotgan iqtisodiyotning ilg'or sivilizatsiyaviy mo'ljallari

*Ijtimoiy yo'naltirilgan va boshqariladigan bozor iqtisodiyoti nima? Prezident I. Karimov tomonidan o'tish davri uchun ishlab chiqilgan iqtisodiy tamoyillar nimalardan iborat? O'rta sinf nima? Iqtisodiy rivojlanishning «O'zbek modeli» qanday amalga oshmoqda?*

***Ijtimoiy yo'naltirilgan va boshqariladigan bozor iqtisodiyotini yaratish zarurligi.*** Davlat mustaqilligini qo'lga kiritganda Sovet davlati iqtisodiyoti chuqur inqirozni boshidan kechirayotgandi. Buning asosida ma'muriy-buyruqbozlik yo'li bilan iqtisodiyotni boshqarish yotardiki, bu mehnat unumdorligini oshirishga ko'mak bermasdi. Bundan tashqari yuqoridan pastgacha rejalashtirish sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida tashabbus va mustaqillikni amalda yo'qqa chiqarardi. Iqtisodiy rivojlanishning tabiiy resurslar va past malakali mehnatga asoslangan ekstensiv yo'li

ustun edi. Amaldagi tizim samarali texnika, chiqitsiz texnologiya va boshqa zamonaviy vositalarni qo'llash orqali intensiv ishlab chiqarishga o'tishga obyektiv imkon bermasdi.

O'zbekistonda buning ustiga qishloq xo'jaligi asosan, paxta yakka hokimligi, mavjud sanoat esa yetishtiradigan xomashyoni birlamchi qayta ishlashga moslashtirilgan edi. Uning atigi 8 foizi bu yerdagi to'qimachilik kombinatlari va tikuvchilik fabrikalarida tayyor mahsulotlarga aylantirilardi. «Ittifoqdosh respublika» iqtisodiyoti Sovet mamlakati boshqa qismlaridagi zavod va fabrikalar bilan xo'jalik aloqalarida bo'lganidan davlat mustaqilligi tiklanganidan so'ng uzilib qoldi. Natijada bir tomonlama yo'naltirilgan ishlab chiqarish sur'atlari ham pasaydi, ko'pgina korxonalar faoliyatini to'xtatdi.

Bunday moddiy-iqtisodiy baza bilan davlat istiqlolini saqlab qolish iloji yo'qligi o'z-o'zidan ravshandir. Mustaqillikni mustahkamlash, aholi moddiy ehtiyojlarini qondirish tegishli ishlab chiqarish va xalqqa zarur xizmat turlarini ko'rsatish uchun zamonaviy iqtisodiyot yaratish lozim edi. Bu maqsadga ko'p jihatlardan erishish vositasi sifatida sivilizatsiyaviy bozor munosabatlariga o'tish belgilandi.

Ma'lumki, o'tgan asr 90-yillari boshida nafaqat Sovet davlati o'rnida paydo bo'lgan mustaqil davlatlar, balki Sharqiy Yevropadagi qator mamlakatlar ham bozor iqtisodiyoti yaratishga kirishgandilar. Ularning ko'plarida «shokterapiya» deb atalgan yo'l belgilangan edi. Ammo bu yo'l O'zbekistonga mutlaqo to'g'ri kelmadi. *Birinchidan*, yuqorida ko'rsatib o'tilgan iqtisodiyot bunga minimal darajada ham imkon bermasdi. *Ikkinchidan*, mamlakat aholisi tarkibi, uning ko'pchilik qismining ijtimoiy himoyaga muhtojligini hisobga olish bo'ldi. Bunda Prezident I. Karimov tomonidan asoslangan mashhur besh tamoyil juda muhim ahamiyat kasb etdi. Ular quyidagilar edi:

- iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi, siyosat izidan bormasligi;
- davlatning bosh islohotchi sifatida faoliyat ko'rsatishi;
- qonunning ustuvor bo'lishligi;
- kuchli ijtimoiy siyosat olib borish lozimligi;
- bozor munosabatlariga o'tish sekin-asta, tadrijiy olib borilishi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». 1-jild. «O'zbekiston», – T., 300–301-betlar.

**Bozor munosabatlari va davlat.** O‘zbekistonda bozor munosabatlari, garchi ba’zi iste’mol tovarlari sotiladigan sharqona bozor joylari ancha-muncha bo‘lsa-da, aytish mumkinki, qat’iy ma’noda juda past boshlang‘ich darajadan shakllana boshladi.

Ma’lumki, kishilar har doim o‘zaro nimanidir almashadilar. Bu oxir-oqibat savdoni yuzaga keltiradi, savdoning mavjudligi esa bozorni bildiradi. Hozirgi davrda garchi bozorni sof nazariy jihatdan tegishli taklif, talab va mahsulot bahosi birligida olib qaralsa-da, ko‘p sonli infratuzilmalardan iborat munosabatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘z-o‘zidan boshqariladigan bu munosabatlarda barcha narsa va hodisalarda bo‘lganidek, ikki belgilovchi tomon mavjud. Ulardan biriga ko‘ra birovlar bozor munosabatlarida qanchalik ishtirok etib boyib ketsa, boshqalar shunchalik kambag‘allashib qoladilar. Bozor – o‘z-o‘zicha kishilarning ichki dunyosi, g‘amtashvishlari bilan emas, balki faqat foyda olish maqsadida iste’molchi uchun ishlaydi. U esa o‘zining barcha talablari qondirilgani uchun haq to‘laydi.

Bozor tizimlari garchi ichki mantiqqa ega bo‘lsa-da, uning harakatida tebranish kuzatiladi, ya’ni, rivojlanish va zarar ko‘rib ishlash holatlari ro‘y berib turadi. Bunda narx-navoning oshib ketishligi, ishsizlik va hokazo salbiy hodisalar yuzaga keladi. Ayni vaqtda, insoniyat undan ma’qulini hozirgacha o‘ylab topmagan. Binobarin, masala bozorni yangi jihatlar bilan to‘ldirish to‘g‘risida boradi. Bu, dastavval, uning huquqiy boshqarish mexanizmini yaratishdir. Ushbu mexanizm o‘z ichiga bozor munosabatlarini tartibga solish, davlat buyurtmalari, soliq, kredit-pul muomalasi, iqtisodiy rejalashtirish va hokazolarni oladi.

O‘zbekistonda mustaqillikning boshlaridanoq davlat bosh islohotchi sifatida bozor munosabatlariga o‘tish stixiyali tarzda olib borilmasligini va shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti lozim darajada boshqarilishini belgilaydi. Natijada yangi bozor tuzilmalari sifatida tovar birjalari, savdo xizmatini ko‘rsatuvchi turli tashkilotlar, tegishli qonunchilik, asta-sekin bozor baholariga o‘tib borish tadbirlari ishlab chiqildi. Milliy valutaga o‘tildi. Bular ichida, ayniqsa, qonunchilik bazasining yaratilishi muhim bo‘ldi. Bunda quyidagilarga erishildi: mulkdor huquqi himoyalandi; tadbirkorlikning turli shakllari bilan



shugʻullanish uchun qonuniy asos yaratildi; raqobat mexanizmining umumiy jihatlari ishlab chiqildi va h.k.

Bozor munosabatlariga oʻtishda mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning ahamiyati juda katta boʻldi. Buning natijasida yangi mulkdorlarda moddiy stimuly paydo boʻldi; aholining iqtisodiy va boshqa sohalar bilan bogʻliq faolligi oshdi; ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning barqaror moʻtadilligi taʼminlandi va h.k. Xususiylashtirish qator yoʻnalishlarda olib borildi:

- dastlab kichik tadbirkorlikka asos boʻlgan savdo, umumiy ovqatlanish korxonalari, kichik sanoat korxonalari – ustaxonalar va boshqalar sotildi;

- fuqarolarga yashab turgan turar joylari aksari hollarda bepul xususiylashtirib berildi;

- dehqon va fermer xoʻjaliklari yaratish uchun zarur qadamlar tashlandi;

- oʻrta va, hatto, yirik korxonalarni aksionerlashtirish, yaʼni, aksiyador kompaniyalari tuzish boshlandi.

Albatta, davlat bozor iqtisodiyoti barpo etilishi jarayonida bulardan tashqari mahsulot ishlab chiqaruvchilar oʻrtasidagi sogʻlom raqobatni qoʻllab-quvvatlashi, resurslar va neʼmatlarni samarasiz taqsimlashga olib keladigan monopoliyaga, foyda oluvchilarga jiddiy toʻsiq qoʻyishi ham lozim boʻldi. Bu sohada katta qonun ijodkorligi ishi olib borildi. Qabul qilingan qonunlarga koʻra Oʻzbekiston fuqarolari mulkdor sifatida turar joy, pul mablagʻlari, turli korxonalar, transport vositalariga egalik qilishlari mumkin. Ularning manbalari mehnat daromadlari, tadbirkorlik faoliyati, oʻz xoʻjaligini yurgizish, merosga qolgan mulklar va hokozolar boʻlishi lozim.

Davlat tomonidan yuqorida keltirilgan va boshqa koʻplab tadbirlarni amalga oshirilishi «oʻzbek modeli»ning hayotiyiligini koʻrsatdi.

***Oʻrta qatlam (sinf)ning shakllanishi.*** Sovet davlati sharoitlarida Oʻzbekistonda rasman ikkita sinf – ishchilar va jamoa xoʻjaligi aʼzolari boʻlgan dehqonlar hamda ulardan yetishib chiqqan ziyolilar qatlami bor, deb hisoblanilardi. Tegishli tarzda bularning maqomi ham belgilab qoʻyilgan edi. Hozirgi vaqtda bozor munosabatlari sharoitida ahvol qaysi tomonga oʻzgardi?

Ma'lumki, barcha jamiyatlarda, agar totalitar (Sovet davlati, Mao Sze-dun davri Xitoy) jamiyatlarini hisobga olmaganda, aholining asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha uchta qatlami farqlandi. Iqtisodiy jihatdan bular katta daromad egalari bo'lgan ozchilik – *boylar*, eng kichik daromad oluvchilar – *kambag'allar* va ular o'rtasida turuvchi nisbatan ko'p sonli *o'rta qatlamdir*. Bunday ko'rsatkichlar konkret ko'rinishlariga ko'ra turli mamlakatlarda turlichadir. Masalan, Rossiyada eng ko'p va eng kichik ish haqini boylar va kambag'allar olishadi. O'rta qatlam soni birmuncha kattaroqdir.

Odatda, jamiyatning mo'tadil rivojlanishi o'rta qatlamning ahvoliga hal qiluvchi darajada bog'liq. O'zbekistonda bu sohada olib borilayotgan siyosatga ko'ra, haddan tashqari katta boylar ham, haddan ziyod kambag'allar ham bo'lmasligi lozim. Bunga erishish uchun kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, ma'naviyat sohasi xodimlarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni muttasil davom ettirish zarur bo'ladi.

Hozirgi vaqtda mamlakat rahbariyatining bu sohadagi faoliyati real natijalar bera boshladi: aholining o'rtacha oylik ish haqi *200 amerika dollaridan* oshib ketdi. Mamlakat *iqtisodiy qudratining* oshib borishi, ko'pgina zarur mahsulotlarning ommaviy ishlab chiqarish bilan istiqbolda kambag'allar sonining yanada ozayishi, o'rta sinfnig esa soni va salmog'i tobora oshib borishi bashorat qilinadi. Zero, ommaviy ishlab chiqarish moddiy sharoitnigina yaxshilab qolmaydi, balki o'rta sinf sonini ham ko'paytiradi. Qayerdagi o'rta sinf bo'lsa, u yerda tovarlar va xizmatlarning keng iste'molchilar qatlami bo'lib, ishlab chiqarishning o'sishi ehtiyojini oshiradi. Bu esa iqtisodiyotning yangidan yangi tarmoqlarini maydonga keltirmasligi mumkin emas.

Boy qatlam haqida esa aytish lozimki, ularning soni barcha zamonlarda ham aholining 5–6 % idan oshmagan.

***Shaxsiy tashabbus, raqobat va davlat ishtirokini uyg'unlash-tiruvchi xo'jalik tizimi.*** O'zbekistonda yaratilayotgan xo'jalik tizimi iqtisodiyot sivilizatsiyaviy maqomiga ko'ra erkin raqobatga asoslanishi bilan birga, davlatning faol islohotchiligi talab etiladigan iqtisodiyotdir. Davlatning roli makroiqtisodiy rejalashtirishdan tashqari kuchli ijtimoiy himoyani amalga oshirishda ham ko'rinadi.

Bunday iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlarda XX asrning o'rtalaridan boshlab bo'y ko'rsatgan edi. Bunda mezon o'rnida odat-


da Yevropa shimolidagi mamlakatlar iqtisodiyotini keltiradilar. Bu yerda davlat milliy daromadni qayta taqsimlagani tufayli yalpi turmush yetarli darajada yuqoridir.

Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli deb tan olingan nazariy konsepsiyaga va mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan tajribaga ko'ra aralash iqtisodiyotda xususiy tashabbus va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat davlatning muayyan aralashuvida kechadi. Bozor va rejalashtirishdan tashkil topgan tizimning birinchisida mayda firmalar va alohida korxonalar o'rtasidagi raqobat orqali mahsulot bahosi boshqariladi. Mayda korxonalar va mahsulot bahosi harakatini nazorat qiladigan yirik korporatsiyalar rejalashtirish bilan ish ko'radilar.

Sovet davlati iqtisodiyotida bo'lgan totalitar rejalashtirishdan farqli o'laroq, O'zbekistondagi iqtisodiyotda quyidagilar farqlanadi:

- qisqa muddatli va uzoq muddatli davlat boshqaruvi;
- tavsiya tarzidagi tarmoq rejalashtirilishi;
- qonunchilik va ma'muriy aktlarda ifodalangan bevosita hamda soliqlar, davlat budjeti xarajatlaridan tashkil topgan bivosita boshqaruv.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotni qator jihatlariga ko'ra, davlatlararo boshqarish kun tartibiga qo'yilmoqda. Bu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan qator xalqaro tashkilotlar (UBM, xalqaro banklar) O'zbekiston bilan bu yerda yaratilgan zamonaviy iqtisodiyot xususida hamkorlik qilmoqda. Bular, o'z navbatida, hozirda yuz bergan jahon miqyosidagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitlarida qator muammolarni tezkor bartaraf etishni kun tartibiga qo'ydi<sup>1</sup>.



56-sxema

<sup>1</sup>**Qarang:** *Islom Karimov. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»: – T., «O'zbekiston», 2008.*

## Asosiy tushunchalar

- *Sovet iqtisodiyoti* – iqtisodiyotda davlatning total hukmronligidan kelib chiqib ishlab chiqarishning rejalashtirilishi va uning tashkil etuvchilari nisbati belgilanganligi. «*O‘zbek modeli*» – Prezident I.Karimov tomonidan asoslangan va tajribada hayotiyligini ko‘rsatgan mashhur besh tamoyilga ko‘ra ijtimoiy rivojlanish yo‘llarining belgilanishi.
- *Xususiy lashtirish* – davlat mulkini turli ko‘rinishlarda xususiy mulkka aylantirish jarayoni.
- *O‘rta sinf* – daromadlari miqdoriga ko‘ra aholining boylar va kambag‘allar qismlari o‘rtasidan joy olgan ko‘p sonli qatlam.
- *Aralash iqtisodiyot* – erkin raqobat va davlatning cheklangan aralashuvida amalda bo‘ladigan iqtisodiyot.

## Savollar va topshiriqlar



1. Iqtisodiyotning qanday jahoniy koordinatalari bor?
2. Ijtimoiy yo‘naltirilgan deb qanday iqtisodiyotga aytiladi?
3. Mustaqil O‘zbekiston sharoitlarida boshqariladigan iqtisodiyotning belgilarini mulohaza qiling.
4. O‘zbekistonda amal qiladigan besh tamoyilning o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring.
5. Aralash iqtisodiyotda davlat qanday vazifani bajaradi?

## Amaliy ish



1. Hozirgi Markaziy Osiyoda G‘arb va Sharq sivilizatsiyalari o‘zaro ta‘sirining nimalarda ko‘rinishini qiyoslang.
2. O‘zbekiston o‘z istiqbolini belgilaganida qaysi yo‘lni tanlaganini dalillar bilan tushuntiring.
3. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kechayotgan siyosiy jarayonlar markazida nima turadi. Bu to‘g‘rida yozma ish bajaring.
4. Prezident I.Karimovning barcha tomondan xarizmatik rahbar sifatida tan olinishini tushuntiring.
5. Partiyaviy tizim va saylov tizimi nisbatida qaysi tomon belgilovchi ekanligi xususida mulohaza yuriting.
6. Fuqarolik jamiyatini jamiyat ichida qaror topadimi yoki undan tashqarida? Buni tushuntiring.

7. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati yuzaga kelishida mahalla institutining o'рни va ahamiyatini mulohaza eting.
8. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida postindustrial jarayonlar boshlanib ketgan sharoitlarda O'zbekiston davlat istiqloli uchun o'tmish qadriyatlari qanday ahamiyat kasb etishi mumkin? Buni tushuntiring.
9. Tarix, uni xotirada saqlashning zamonaviy ahamiyati nimada? Buni bayon qiling.
10. Bozor munosabatlari qanday tarzda ijtimoiy yo'naltirilishi mumkin? Buni tushuntiring.
11. Bozor iqtisodiyoti jarayonlariga davlat aralashuvi iqtisodiy ehtiyojmi yoki boshqa jihatlardan zarurmi? Bu to'g'rida o'z mulohazalaringizni yozma ishda ko'rsating.
12. O'zbekistonda amalga oshirilgan xususiy lashtirish o'rta sinfni maydonga keltira oladimi? Fikringizni yozma bayon qiling.

### **Ma'ruza va referatlar uchun mavzular**



1. Sivilizatsiyaning lokal tipi.
2. O'zbekiston tarixan qaysi sivilizatsiyaga mansub bo'lgan?
3. O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy-madaniy tavsifi.
4. Sovet davlati tarkibidagi «Ittifoqdosh O'zbekiston» bilan O'zbekiston Respublikasi nisbati.
5. Hozirgi O'zbekistonda kechayotgan siyosiy jarayonlar.
6. Prezident I.Karimovning yetakchilik tavsifi.
7. Partiyaviy tizim.
8. Saylov tizimi.
9. Ko'ppartiyaviylik.
10. Fuqarolik jamiyati.
11. Huquqiy demokratik davlat.
12. O'zbekistonda hokimiyatlarning bo'linishi tamoyillari tavsifi.
13. Mahalla – o'z-o'zini boshqarish bo'g'ini.
14. O'tmishni hozirgi davr va kelajak uchun o'rganishning ahamiyati.
15. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» (I.Karimov).
16. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari.
17. Bozor munosabatlariga davlat aralashuvining chegaralari.
18. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi.
19. O'rta qatlam (sinf)ning asosiy tavsifiy belgilari.
20. Davlat mulkining xususiy lashtirilishi – ijtimoiy-iqtisodiy fenomen.

## Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «O'zbekiston», – T., 2014.
2. *Karimov I.A.* O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. //«O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». 1-jild. – T., «O'zbekiston», 1996.
3. *Karimov I.A.* O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. //«Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». 3-jild. – T., «O'zbekiston», 1996.
4. *Karimov I.A.* Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat etsin. // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – T., «O'zbekiston», 1999.
5. *Karimov I.A.* Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. //«Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz». 8-jild. – T., «O'zbekiston», 2000.
6. *Karimov I.A.* Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch., – T., «Ma'naviyat», 2008.
7. *Karimov I.A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitlarida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T., «O'zbekiston», 2008.
8. *Karimov I.A.* Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T., «O'zbekiston», 2010.
9. *Boboyev H.* O'zbek davlatchiligi tarixi. – T., 2005.
10. *Gaunov H.* Научные духовные мысли Центральной Азии: некоторые направления и вклад в мировую цивилизацию. – T., 2009.
11. *Zohidiy A. va boshqalar.* O'zbekiston milliy mustaqilligi mafkurasi. – Farg'ona. 2006.
12. *Mamatov X.* Huquqiy madaniyat va O'zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining muammolari. – T., 2009.
13. *Musayev F.* Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – T., 2007.
14. *Nazarov K.* G'oyalar falsafasi. – T., 2011.
15. *Saidov A.X., Juzjoniy A.Sh.* Sharq sivilizatsiyasi: inson va qonun. – T., 2005.
16. *Soifnazarov I.* Sotsial demokratiya nazariyasi va amaliyoti. – T., 2011.
17. *Soifnazarov I.* Ko'p partiyaviylik jamiyat taraqqiyotining asosi. «Xalqaro munosabatlar» jurn. – T., 2008.
18. *Tuychev B.* Huquq falsafasi. – T., 2008.
19. Fuqarolik jamiyati institutlarining shakllantirish masalalari: nazariya va amaliyot. – T., 2007.
20. *Sharifxo'jayev M.* O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T., 2003.
21. *Ergashev I.* Taraqqiyot falsafasi. – T., 2005.
22. *Erkayev A.* Tafakkur erkinligi. – T., 2012.
23. *Qirg'izboev M.* Fuqarolik jamiyati. Nazariya va xorijiy tajriba. – T., 2009.

---

---

## ***IX bob.* BARKAMOL AVLODNI VOYAGA YETKAZISH VAZIFALARI**

### **IV.9.1. Davlat va jamiyatning yosh avlodining muammolarini hal etishidagi vazifalari**

*«Yoshlar» nima? Yoshlarning rol tavsifi va kichik madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari nimada? Davlatning yoshlar siyosati mazmuni qanday? Yoshlarda «ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlariga qarshi immunitet qanday shakllanadi?*

***Yoshlar – ijtimoiy guruh.*** O'zbekistonda hozirgi vaqtda 31 milliondan ortiq aholi yashaydi. Jami aholining qariyb 65 foizini yoshlar tashkil qiladi. Ulardan 40 foizini 18 yoshgacha bo'lganlar, 30 yoshgacha bo'lgan esa 20 millionga yaqin. Mustaqillik yillarida to'laqonli yangi avlod yetishib chiqdi. Ular nafaqat son jihatdan, balki, sifat tomonidan ham Vatan kelajagini ta'minlashida hal qiluvchi kuch hisoblanadi. Shunga ko'ra hal etilishi zaruriyati bo'yicha mamlakat taqdirini belgilaydigan muammolar sirasida yoshlarning muammolari ham doimo e'tiborda bo'lib kelmoqda. Xususan, yoshlarning zamonaviy bilim olishlari salohiyatini to'la namoyon qilish Vatan ravnaqi va o'z hayoti sifatlarini yuqori ko'tarish yo'lida fidokorona mehnat qilishi uchun asosiy vazifalar belgilanib muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Kishilik jamiyatining istagan bosqichida aholi tarkibi ko'plab obyektiv farqlar bilan tavsiflanadi. Bular ichida dastavval aholining turli avlodlari o'rtasidagi guruhiy farqlarini aytish lozim. *Guruh* – bu kishilarning muayyan bir belgisiga ko'ra farqlanadigan birligi (umumiyligi)dir. Har biri o'ziga xos, turli yoshdagi guruhlar *ijtimoiy guruh* sifatida muhim ahamiyat kasb etib, turli fanlar tomonidan

demografik (yunoncha, demos – xalq) – iqtisodiy obyekt sifatida o‘rganiladi.

Aholi tarkibida yoshlar alohida ijtimoiy guruh sifatida Yevropa yangi tarixi davomida shakllana boshlandi. Bunga qadar an‘anaviy jamiyatlarda esa yoshlar o‘smirligidayoq, ya‘ni 12–13 yoshdan boshlab qabul qilingan, o‘rnatilgan tartibda kattalar bilan baravar hayot tarziga ega bo‘lganlar. Hozirgi davrda shakllanayotgan va yoshlarni integrativ o‘rganishiga kirishgan yuventologiya (*juventus* – yoshlik, *logos* – bilim, ta‘limot) o‘smirlikda 15–16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlarni yoshlar, deb hisoblash qabul qilingan.

Yoshlarning alohida guruh sifatida ijtimoiy o‘ziga hosligi shundaki, – *birinchidan*, ular o‘zlarining tegishli yosh chegaralarida uzluksiz shakllanishi, ijtimoiy – salohiyatini namoyon qilishi ya‘ni, yoshlar bo‘lib shakllanadilar;

– *ikkinchidan*, ularning xiyla katta qismi, masalan, o‘quvchilar va talabalar o‘zlarining aniq maqomiga ega bo‘lmay, ota-onalari ijtimoiy ahvoliga to‘liq bog‘liqdir;

– *uchinchidan*, ular shakllanish jarayonida kattalardan farqli o‘laroq ravishda ko‘pincha o‘zlari uchun muhim bo‘lgan turli harakatchiliklarga, siyosiy, diniy va boshqa tashkilotlar faoliyatiga qaratilgan bo‘ladi;

– *to‘rtinchidan*, yoshlar o‘zlariga bo‘lgan turli ta‘riflarga beriluvchanligi bilan xatti-harakatida anchagina noizchil hisoblanadi;

– *beshinchidan*, istalgan jamiyatda uchraydigan yoshlar to‘q-nashuvida yoshlar faol tomon hisoblanib, mavjud voqelikka munosabatda ota-onalari, maktab, mahalla va umuman, kattalar bilan ma‘lum konfliktda bo‘ladilar;

– *oltinchidan*, tashqi qiyofalari – yurush-turushi, kiyinishi va hokazolari bilan ham yoshlar o‘zlarini kattalardan ajratadilar.

Ijtimoiy maqomiga ko‘ra yoshlar, yana bir tushunchada – «*yoshlik*» tushunchasida ham tavsiflanadi. Bunda «yoshlik» bosqichi inson biologik hayoti muayyan davrini ifodalashi bilan bog‘liq holda ijtimoiy-ruhiy holatlarni ifodalaydi va «*o‘smirlik*» (16–19 yosh) dan boshlanib *voyaga yetganligi* (20–25 yosh) bilan nihoyalanaadi. Chunki, qator obyektiv va subyektiv omillarga ko‘ra yoshlarning ijtimoiylashuvi cho‘zilishi mumkin. Ana shu hol



«yoshlik» tushunchasi doirasida tushuntiriladi. Xususan, oʻtmish jamiyatlardan farqli oʻlaroq hozirgi jamiyatlarda yoshi *16 dan 30 gacha* boʻlganlarni *yoshlar*, deb hisoblash qabul qilingan. Buning sabablaridan biri yoshlarning maʼlumot darajasi, ega boʻlgan malaka koʻnikmalariga yuksak darajada tashkil topgan jamiyatlarda katta talab qoʻyilganligidadir.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga koʻra yoshlarga 16 yoshdan *passport* beriladi. Ular 19 yoshdan qonun bilan belgilangan, majburiy taʼlimni tugatib, hayotlarida yangi bosqichga oʻtadilar. Erishilgan natijalar inson keyingi hayoti pallalarida hal qiluvchi ahamiyotga ega. Masalan, bu davrda zarur kasb-hunar egallash, tegishli maʼlumot olish va hayotda oʻz oʻrnini topishga erishiladi: umr yoʻldoshini tanlash va oila qurish ham hal etiladi, iqtisodiy mustaqillikka erishiladi; ijtimoiy maʼsuliyatli qarorlar qabul qilish layoqati shakllanadi va h.k.

***Yoshlarning turli rollarni bajarishi.*** Yoshlarning «katta odam» boʻlishi jarayoni ular *ijtimoiy rolining* oʻzgarib borishini oʻz ichiga oladi. *Ijtimoiy rol* deganda odatda yoshlar xatti-harakatining meʼyoriy maʼqullanadigan namunalari yigʻindisi tushuniladi.

Yoshlarning ijtimoiy roli *oila* (farzand – ota-ona), *maktab* (oʻquvchi-oʻqituvchi), *poliklinika va shifoxonalar* (bemor – tibbiyot hodimi), *muhabbat* (yigit-qiz) va hokazolar doirasida koʻrinadi. Har bir rol atrofdegilarning muayyan talablari va xohishlariga javob berishi lozim. Konkret sharoitlarda bir kishi qator rollarning bajaruvchisi boʻlishi mumkin. Bu rollardan ayrimlari (masalan, farzand – ota-ona, fuqaro – davlat) doimiyligini saqlab qoladi.

Yosh xususiyatlaridan kelib chiqilsa, bu rollarning bajarilishi har doim ham bekam-u koʻst boʻlavermaydi: ayrimlari jamoatchilik noroziligiga uchraydi.

Fuqarolik roli yoshlarning kichikligidan ilk siyosiy xatti-harakatlarini shakllantirilishidan, davlat ramzlarini bilishi, gimni yod bilishi, kuylash va hokazolar, mamlakat Konstitutsiyasini bilishda namoyon boʻladi. Yoshlarning *passport* olishi, 18 yoshdan esa davlat bilan barqaror aloqasining oʻrnatilishi inson asosiy huquqlari va erkinliklariga asoslangan majburiyatlari, masʼuliyati

qaror topadi. Endi fuqarolik roli ijtimoiy faoliyatda, saylovlarda, davlat organlari va jamoat tashkilotlari ishlaridagi ishtirokida namoyon bo'ladi.

O'quvchi va talabalar yoshlarning katta qismini tashkil etadi. Ularning rollari quyidagilarga asoslanadi:

– *birinchidan*, davr taqozosi bilan ta'limga qo'yiladigan talablarga;

– *ikkinchidan*, bozor munosabatlari sharoitida talab etilgan ixtisosliklarni egallash zaruriyatiga;

– *uchinchidan*, hozirda nafaqat moda talabi, balki ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarga ko'ra ham chet tillarini bilish, kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirish;

– *to'rtinchidan*, gumanitar sohada chuqurroq bilimga ega bo'lishga.

Yoshlarda mehnat faoliyatining boshlanishi tegishli ijtimoiy rolni shakllantiradi: bu yoshlarda mustaqil hayotning boshlanishidirki, har ishda ham boshlanish oson bo'lmaydi; bozor munosabatlari sharoitida fuqarolarning ishchi kuchi mulk ekanligi rasman huquqiy tan olinadi. Va ular mehnat bozorida ishtirok etib turli ish beruvchilar (xususiy sektor, aksiyadorlik jamiyatlari, davlat korxonalarini) bilan shartnomaviy munosabatga qo'shiladilar; tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochilgan hozirgi sharoitlarda yoshlarning bu sohaga kirib kelishi o'ziga xos guruh shakllanishini bildiradi.

Xo'jalik subyekti sifatida yoshlar tajribali menenjerlardan farqli o'z faoliyatining natijasi o'laroq yangi, sifatli mahsulot, texnologiya yaratishi, xaridor (bozor)lar topishi zarur bo'ladi. Bu endi ijodkorlikka undamasligi mumkin emas.

O'zbekistonda aholining yarmidan ko'prog'i *xotin-qizlar* bo'lib, ular ichida esa yoshlarning salmog'i baland ekanligidan *gender* munosabatlarni ham yoshlarning rol ta'sirida muhim o'rin tutadi. Olimlarning aniqlashicha xotin-qizlarning nikohga kirishi o'rtacha 20 yoshdan boshlanadi. Taxminan 40 % i 24 yoshgacha turmush quradilar (32 % i da farzandlar shu davrda tug'iladi). Majburiy ta'limning keyingi bosqichda xotin-qizlar soni sezilarli kamayadi.

***Yoshlar kichik madaniyatining xususiyatlari.*** Yoshlarning ijtimoiy guruh sifatida xususiyatlari ular madaniy olamining barcha jihatlarida namoyon bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda bu xususiyatlar madaniyatning yoshlarga tegishli qismini tashkil etadi.

Yoshlar madaniyatida ular hayotning o'ziga xos uslubi, xatti-harakat stereotiplari, qadriyatlari va me'yorlari aks etadi. Albatta, mulkiy, ta'limiy, hayotiy mo'ljallarida yaxlitlikning yetishmasligi bilan bog'liq holda yoshlar madaniyatining xilma-xil ko'rinishlarini nazardan qochirmaslik kerak. Shuningdek, bu madaniyatning jinsiy, etnik jihatlari ham bo'ladi. Masalan, yigitlar bilan qizlarning madaniy ehtiyojlari muayyan o'rinlarda mos kelmasligi mumkin. Yigitlar odatda erishgan muvaffaqiyatlar tanloviga katta ahamiyat beradilar.

Jamiyatning umummadaniyatiga nisbatan yoshlarning kichik madaniyatga avtonom mavjudligi va xiyla biqlikligiga ko'ra fundamental, umumqadriyatlarga qarshi turishi mumkin.

Yoshlarda tengdoshlari bilan muloqotga kirishish odatda erta boshlanadi. Ular orasida asta-sekin o'ziga xos noformal, ya'ni amaldagi rasmiyliklardan farqli guruhlar ham paydo bo'la boshlaydi. Bularda ishtirokchilar o'zlarining yurish-turishi, kiyinishi, bo'sh vaqtlarining qanday o'tkazayotganligi bilan ajralib turadi.

Agar biron joyda o'qish yoki ishlash kattalar tomonidan belgilangan qat'iy tartiblarga ko'ra bajarilsa, bo'sh vaqtdan foydalanish yoshlarda odatda, o'z xohishlariga binoan (masalan, musiqaga havas qo'yish yoki sport-texnika o'yinlari bilan shug'ullanish va hokazolar) amalga oshadi. Nazarda tutish kerakki, bo'sh vaqtlarini yoshlar har doim ham o'zlari uchun va ijtimoiy foydali bo'lgan maqsadlarga yo'naltiravermaydi. Bunda, ayniqsa, madaniy qadriyatlarga passiv iste'molchi sifatida yondashish ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, ommaviy kommunikatsiya vositalaridan televideniya, radio, matbuot, kino kabilar tufayli standartlashtirilgan ma'naviy ne'matlarni sanoat usulida ommaviy ishlab chiqarish global miqyosda taqsimlash va iste'molchilarga yetkazishning yo'lga qo'yilishi natijasida yaratilgan «*ommaviy madaniyat*» mahsulotlari yuqoridagi holni keltirib chiqaradilar.

«Ommaviy madaniyat»ning seriali ishlab chiqariladigan mahsulotlarida «yaxshi» va «yomon» kishilarning shaxsiy baxtga erishish yo'lida qiziqarli to'qnashuvlarni, o'yin-kulgu, zo'rvonlik

va seks, milliy va irqiy xurofotlar, kuchli shaxslarga sig'inishi, shartlilik oldinga suriladi. Bir qarashda bezarar ko'ringan «ommaviy madaniyat» yoshlar fikr-o'yiga katta mafkuraviy ta'sir kuchiga ega. Shuning uchun ham yoshlarning bunday ta'sirha tushmasligi uchun yetarli immunitet zarur bo'ladi. Prezident I. Karimov ko'p marta takrorlaganidek, «ommaviy madaniyat niqobi ostida axloqsizlik, zo'rvonlik va egosentrizm» g'oyalarini tarqalishi xatarli tahdidlar sirasiga kiradi. Yoshlar ongida murakkab va tahlikali hayot hamda uning shafqatsiz o'yinlari to'g'risida bir yoqlama va soxta tasavvur bo'lmasligi kerak.

***Davlatning yoshlar siyosati.*** Yoshlarning murakkab dunyosini ilmiy-maqsdali o'rganish, ularning hayotiy mo'ljallarini ratsionallashtirish zaruriyati O'zbekistonda Davlat istiqloli qo'lga kiritayotganidan keyin markaziy o'ringa chiqdi. Zero, milliy o'zlikni yetarli anglagan, barkamollikka erishgan yoshlarga istiqlolning qat'iy va barqaror ijtimoiy tayanchi bo'la oladi.

O'zbekiston davlati avval boshdan yoshlarning barcha toifalari – o'quvchilar, talabalar, ishchilar, mutaxassislar, ilmiy va ijodiy ziyolilar hamda tadbirkorlar uchun manzilli yo'naltirilgan siyosatni ishlab chiqdi.


1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida davlat yoshlar siyosatlari asoslari to'g'risida» Qonunda birinchi navbatda sovet davridan davom etib kelayotgan an'anaga – maktabdan oliy ta'limgacha barcha bo'g'inlaridagi yoshlarni qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinishiga chek qo'yilib, ularning asosiy vazifasi bilim olish, yetuk fuqaro bo'lib shakllanish ekanligi belgilandi. Jumladan, jamoat ishlariga o'qish vaqtida jalb qilinmasligi qat'iy ko'rsatildi. Istisno tariqasida egallanayotgan mutaxassislik talabi bilangina o'quv – amaliyot shaklida o'quvchi va talabalarning o'qishdan bo'sh vaqtlarida qishloq xo'jaligi ishlarida ishtiroki aytiladi. Shuningdek, 30 yoshgacha bo'lgan ishlovchilar soni 75 % idan kam bo'lmagan korxonalar yoshlar korxonalari sifatida qaralib soliq imtiyozlari belgilandi. Yoshlarga mehnat faoliyatida boshqa yengilliklar ham berildi.

Qonun talablari Konstitutsiyaning 37, 41, 45, 56, 64, 66-moddalarida kafolatlandi. Istiqlolning dastlabki 15 yili davomida,


birinchi navbatda qabul qilingan qonunlarda hamda, mamlakat Prezidenti va Hukumatining shu vaqtdan boshlab chiqargan farmonlari, qarorlarida aniqlashtirilib va to'ldirilib borildi. Bularda yoshlarning ijtimoiy holati, o'qishi (shu jumladan chet ellarda ham ta'lim olishi) kasb tanlashi, sog'lig'i, sportga jalb qilinganligi, yalpi ma'naviyati va, ayniqsa, siyosiy-huquqiy, axloqiy rivojlanishi masalalari e'tibor markazida bo'ldi.

Yoshlar muammolari shu davrda qabul qilingan Jinoyat Kodeksi (22.09.1994) ning 5-bobi oila, yoshlar manfaatlari, ota-onalar va farzandlarining o'zaro majburiyatlarga hamda axloqni himoya qilishga qaratilgan. Mehnat Kodeksi (21.12.1995)ning 24 ta moddasi yoshlarga tegishlidir. Fuqarolik Kodeksi (21.12.1995)ning 27, 29 va boshqa moddalarida 14 dan 18 yoshgacha bo'lgan yoshlarning huquqlarini turli sharoitlarda himoya qilinishi ko'rsatilgan. Yoshlar ta'limini tubdan isloh qilish vazifalari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» Qonuni (29.08.1997)da o'z ifodasini topgan. Oila Kodeksi (30.04.1998) nikohga kirish yoshlari, ota-onalarning voyaga yetmagan bolalari oldidagi majburiyatlari aks etgan.

Ko'rsatilgan vaqt davomida mamlakat Prezidentining 60 dan ortiq farmonlari, va Vazirlar Mahkamasining 50 ortiq qarorlari yoshlar hayotining turli dolzarb jihatlariga bag'ishlangan. Keyingi yangi 10 yilda ham yoshlar masalalari mamlakat rahbariyati diqqat markazida bo'lib keldi.



57-sxema



58-sxema

## Asosiy tushunchalar



- *Yoshlar* – deb kishilarning biologik-ijtimoiyligi bilan ajralib turadigan alohida guruhga aytiladi.
- *Yoshlarning ijtimoiy rollari* – bu ular fe'l-atvori, xatti-harakatining qabul qilingan me'yorlarga muvofiqligidir.
- *Yoshlarga xos madaniyat* – bunda o'ziga xos hayot uslubi, xatti-harakat namunalari, qadriyatlari mo'ljallari va hokazolar xilma-xilligi yig'indisi tushuniladi.
- *Davlatning yoshlar siyosati* – O'zbekistonda davlat istiqloli yillarida aholining bu guruhi obyektiv manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan vazifalarning belgilab olinishi va amalga oshirilishini qamraydi.

## Savollar va topshiriqlar



1. Alohida ijtimoiy guruh sifatida yoshlarning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?
2. «Yoshlik» tushunchasi salmog'ini izohlang.
3. Yoshlarning ijtimoiy rollari doirasida *yigit-qiz munosabati* har doim muhabbatni anglatadimi? Bu savolga o'qigan adabiyotingizga asoslanib javob yozing.
4. Fuqarolik roli nima?
5. Yoshlar kichik madaniyati chegaralari qanday aniqlanadi?
6. Davlatning yoshlar siyosatida ta'lim masalalari qanday o'rin tutishini o'zingiz o'qiyotgan ta'lim muassasasi misolida tushuntiring.

## IV.9.2. Ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar

*«Ta'lim» institutining maqomi qanday aniqlanadi? «O'zbek ta'lim modeli» nima? O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tishning sabablari nimada? Kasb qanday tanlanadi? Ta'lim tizimi va sog'lom turmush tarzi qadriyatlari aloqasi qanday?*

**Ta'lim instituti.** Jamiyatning asosiy tashkiliy qismlari tizimida ta'lim sohasi o'tgan 100 yillikning dastlabki 10 yilliklaridan boshlab davrni tavsiflaydigan omillar ichida birinchi o'ringa chiqdi.

Insonning yoshligidan kim bo'lib yetishishi faqat tabiatgagina bog'liq bo'lmaganidan uning ta'limga bo'lgan ehtiyoji obyektiv zarurdir. «Ta'lim» atamasi arabcha «ilm» so'zidan yasalgan bo'lib «o'qish», «o'qitish», bilimlar tizimi ma'nolarini anglatadi. Bu ta'limning

tor ma'noda boshqa malaka va ko'nikmalarni egallashi bilan bog'liq tushunishdir. Ammo uning tushunchaviy maqomi mazmunan keng bo'lib, madaniy-axloqiy ijtimoiylashuvni ham qamraydi.

Ta'lim har doim kishilik dunyosi tadrijining yo'ldoshi hisoblanadi. Unda ijtimoiy ehtiyojga javob sifatida jamiyat miqyosida erishilgan yutuqlar va tajribalar umumlashgan tarzda ifodalanadi. Sharq va G'arbning barcha sivilizatsiyalarida ta'limga qo'yiladigan asosiy talablar, mezonlar, ideallar va muammolarni o'rganib borish alohida o'rin tutadi.

Ta'lim tizimida, dastavval bu institutni nazariy asoslashda insonning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan qonuniyatlar va omillar aniqlanadi. Inson har doim va hamma joyda tabiatan o'ziga berilgan ehtiyojlar, orttirilgan manfaatlarni tevarak-atrofni o'zlashtirish orqali tartibga soladi. Uning turmush faoliyati tarzi tegishli muayyan yo'nashda o'zgaradi. Ta'lim ham turmush faoliyatining barcha tarzlari singari muayyan dunyoqarash va mantiqiy tafakkur tiplariga tayanadi. Bularda xalqning ko'p asrlik donoligi, izchil va professional ishlab chiqilgan zarur tamoyillar o'z ifodasini topadi.

Ko'rinadiki, Sotsium davomiyligi ta'lim tufayli ham ta'minlanadi. Ya'ni ta'limning funksional vazifalari ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonlari orqali amalga oshadi. Bunda ta'lim kishilar o'zaro munosabatlarining barcha jarayonlarida shahxsning ijtimoiy maqomi ko'rsatkichlaridan biri va jamiyatning tegishli tarkibiy tuzulmalarini qayta, takror yaratish, ularning doimiy amalda bo'lishi omillaridan hisoblanadi.

Ta'lim maxsus yo'lga qo'yilgan jarayonlar sifatida ijtimoiy institutlar, birinchi navbatda turlicha bosqichlar va darajalardagi maktablar, pedagogik kasblar tomonidan amalga oshiriladi. Oila, davlat va diniy tashkilotlarning funksional vazifalariga ta'limni bevosita amalga oshirish kirmasa-da, bilvosita ularning, ayniqsa davlatning roli alohidadir.

***Ta'limning o'zbek modeli.*** Davlat istiqlolini mustahkamlash yo'lida yangi, ilg'or sivilizatsiyaviy sifat holatiga o'tish zarurati, xususan, iqtisodiyot va axborot-texnologiyalarini rivojlantirish sur'atlari aholining mutlaqo ko'pchiligi yoshlardan iboratligi bilan

qoʻshilib taʼlim sohasi islohotini alohida vazifa etib kun tartibiga qoʻydi. 1997-yilda qabul qilingan «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonunning 2-bandida belgilanganidek, davlatning siyosati «har kimning bilim olishidan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini taʼminlashga qaratilgan». Uning asosiy tamoyillari (2-band) quydagilardan iborat:

- taʼlimning insonparvar, demokratik xarakterdaligi;
- taʼlimning uzluksizligi va izchil boʻlishligi;
- 12 yillik (umumiy oʻrta va oʻrta-maxsus, kasb-hunar) taʼlimning majburiyligi;
- soʻnggi uch yillik – oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishini oʻqitishda bepul, teng huquqli va majburiy ixtiyoriyligi;
- taʼlimning dunyoviyligi;
- davlat belgilagan standartlar doirasida taʼlim olishning hamma uchun ochiqiligi;
- bilimli boʻlish va isteʼdodni ragʻbatlantirilishi;
- taʼlimda davlat va jamiyat boshqaruvining uygʻunlashtirilishi.

Taqozo etilganidek, yoshlar taʼlimning barcha zarur shakllari, darajalari bilan qamrab olinganligi va uzluksiz shaklga oʻtishni taʼminlangan. Yaʼni har bir kishi, birinchi navbatda, yosh avlodning taʼlim olishi va tegishli saviyasini har doim takomillashtirib borishga erishildi. Uzluksiz taʼlimda kadrlar tayyorlash tizimining asosi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taʼminlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarni qondirish ustuvor sohadir. Bunda davlat taʼlim standartlari, tasdiqlangan taʼlim dasturlari bajarilishining zarur izchilligi (maktabgacha taʼlim; maktab-umumiy oʻrta taʼlim; oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi; oily taʼlim; oliy oʻquv yurtlaridan keyingi taʼlim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari taʼlim) asosida taʼminlanadi.

Taʼlimning «Oʻzbek modeli» nafaqat Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi doirasida balki undan tashqarida ham noyob hisoblanadi. Bu model hozirgi taʼlimiy jarayonlarning eng yuksak talablariga javob beradi. Unda eng ilgʻor qonunchilik asoslarida taʼlimning barcha bosqichlarida bajarilishi lozim boʻlgan vazifalar aniqlab berilgan:

- birinchidan, oʻsib kelayotgan yosh avlod, jamiyat va davlat manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishga qaratilganlik;



– ikkinchidan, kelajakda zarur bo‘ladigan barcha faoliyat turlarini tayyorlash;

– uchinchidan, ta‘lim oluvchini tarixan o‘zini oqlagan ilmiy va umuminsoniy qadriyatlarni egallashga yo‘naltirilganlik;

– to‘rtinchidan, yoshlarda ijtimoiy-madaniy taqozolangan va yosh xususiyatlarni nazarda tutilgan holda real voqelikdagi muhim hodisalar to‘g‘risida ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga erishtirish.

Ushbu model yetarli darajada moliyalashtirilgan – davlat byudjetining katta qismi ajratilgan. Shuningdek, moddiy jihatdan ham ta‘minlashga katta e‘tibor berilgan va yigirma yilga yaqin vaqt davomida tashkiliy-amaliy tomondan yo‘lga qo‘yilgan.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta‘limining O‘zbek modelida alohida o‘rin tutadi. Bularda fanlarning o‘qitilishi zarur darajada ta‘minlangan. Yuksak kasbiy ta‘limga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash va so‘ngra oliy ta‘lim muassasalarida o‘qishni davom ettirish mo‘ljallarining shakllanishi masalalari hal etilgan.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchinchi bosqichi vazifalari hal etilmoqda.

Mamlakat oliy ta‘limi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi bazasida ikki bo‘g‘inda – bakalaviryatda va magistraturada amalga oshirilmoqda. Barcha fanlar o‘qitilishi va tadqiqot ishlari yo‘lga qo‘yilgan, jahon maqomidagi 13 ta universitet faoliyat ko‘rsatmoqda. Poytaxt Toshkentning o‘zida ixtisoslashtirilgan 3 ta akademiya, 9 ta universitetda xalq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va ma‘naviyat sohalarini bo‘yicha 8 ta institutda yuqori malakali kadrlar tayyorlanmoqda. Viloyatlarda turli sohalar bo‘yicha 20 ta institutda mutaxassislar yetishtirilmoqda. Shuningdek, mudofaa, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmatlari uchun 8 ta oliy ta‘lim muassasalari ishlab turibdi. Toshkentda Angliya, Italiya, Singapur, Janubiy Koreyaning qator universitetlari va Rossiyaning uchta oliy o‘quv yurti filiallarida kadrlar tayyorlanmoqda.

Mamlakatning iqtisodiy, ma‘naviy va ijtimoiy-siyosiy rivojlani-shida erishilgan tajribani umumlashtirish asosida kadrlar tayyorlash tizimi izchil ravishda takomillashtirilmoqda. Kun tartibiga kasbiy ta‘lim muassasalarining mustaqil faoliyat ko‘rsatishi va elitar oliy ta‘lim muassasalarining shakllantirish masalalari qo‘yilgan va hal qilinmoqda.

O'zbekistonda qobilyatli va iste'dodli yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ta'sis etilgan «Iste'dod», «Ulug'bek», «Kamolot» va boshqa jamg'armalar tomonidan katta ishlar qilinmoqda. Shuningdek, bu yo'nalishda qator mamlakatlarning yordamini ham ko'rsatib o'tish mumkin. Xususan, Yaponiya hukumati ta'sis etgan «JAIKA» tashkiloti 15 yildan beri O'zbekiston yoshlari uchun gumanitar fanlar, axborot-texnologiyalari va muhandisligi sohalarini bo'yicha magistratura o'rinlari ajratib keladi.

**Kasb tanlash masalalari.** Zamonaviy ta'lim jamiyat qiyofasini belgilaydigan muhim omillardan sanalib nafaqat bilimlarni va kasbiy ko'nikmalarni beradi, balki O'zbekistonning ertangi kuni – taqdiri uchun mas'ul shaxsni hayotning barcha asosiy talablari asosida tayyorlaydigan ijtimoiy institut hisoblanadi. Uning oldida turgan vazifalarni yanada aniqlashtirganda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- barkamol insonni shakllantirish;
- yangi sivilizatsiya asosida yaratilayotgan sharoitlarga moslashish;
- yosh avlodning jamiyat, davlat va oila oldida mas'ulligi.

O'zbekiston davlati maorifi tizimida umumiy o'rta ta'lim fan asoslarini o'qitishga, yosh avlodga bilim berish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'zaro mutanosibligida madaniyat asoslarini, axloqiy tamoyillarni singdirish ham talab etiladi. Ayni vaqtda ularning ijtimoiy maqomiga mos malaka va ko'nikmalarni, nazariy tafakkurni shakllantirish va albatta, kasb tanlashga yo'naltirish muhim hisoblanadi.

Vatan ta'limi tizimida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mustaqil bosqich bo'lib yangi tipdagi *akademik litseylar* va *kasb-hunar kollejarida* amalga oshiriladi. Bu bosqichda o'qishning *majburiyligi* doirasida bilim oluvchi tomonidan o'zi qiziqqan hamda layoqatiga mos yo'nalishni tanlash *ixtiyoriydir*.

Oliy ta'lim muassasalari qoshida faoliyat ko'rsatayotgan akademik litseylarda o'rta maxsus ta'lim beriladi hamda bilim oluvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlariga ko'ra aqliy salohiyatni rivojlantirish uchun tegishli darajada tabaqalashtirib ixtisoslashtirilgan o'qitish yo'lga qo'yiladi. Bularda *bir o'quvchiga*

*sarflanayotgan davlat mablag'i oliy ta'lim muassasalari talabasiga qilinadigan xarajatdan besh baravar ko'pdir.*


Akademik litseylarda fanlarni chuqur o'rganish bilan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish ham belgilanganki, bitiruvchilar oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish yoki mehnat faoliyatini boshlay oladilar. Buning uchun o'z vaqtida ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilgan va joriylashtirilgan edi.

Kasb-hunar kollejlari o'rta maxsus ma'lumot olish bilan birga tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir nechta ixtisosni egallash imkoniyati mavjud. Bunda ta'lim oluvchilarning muayyan kasb-hunar turiga moyilliklari muhimdir. Bularda ishchi kadrlar tayyorlash emas, balki keng ixtisoslikni o'zlashtirgan kichik mutaxassislar tayyorlanadi. Bunda, albatta, geografik va demografik taqozolangan mahalliy ehtiyojlar hisobga olinadi.


Ta'limning bu tipdagi muassasalarida jihozlanishning darajasi, ta'lim beruvchilar tarkibining tanlanganligi va o'qitish jarayonlarining tashkil etilishi yuqoridir. Shunga ko'ra ham kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirishlari yoki egallagan ixtisosliklari va kasb-hunarlari bo'yicha mehnat faoliyatini boshlashlari mumkin.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari 350 ta mutaxassislik, 840 ta kasb bo'yicha kadrlar tayyorlash belgilangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bosqichida umumiy bilimlar berish orqali yoshlarning shakllanayotgan dunyoqarashida mustaqil davlatga sodiqlik, Vatan sha'ni-shavkati bilan faxrlanish belgilovchi o'rin tutishi lozim. Ularning zamon talablariga javob beruvchi, har tomonlama rivojlangan mutaxassis bo'lib yetishishi talab etiladi.



59-sxema



*60-sxema*

### **Asosiy tushunchalar**



1. *Ta'lim* deganda tor ma'noda o'qish-o'qitish va bilimlar tizimi, keng ma'noda esa, madaniy-axloqiy ijtimoiylashuv tushuniladi.
2. *Ta'lim modellari* – turli mamlakatlarda qabul qilingan tizimlar bo'lib, konkret shart-sharoitlar talablarini ifodalaydi.
3. *O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi* – O'zbek ta'limi modelida umumta'lim va oliy ta'lim o'rtasidagi tizim bo'lib keyingi bosqichda tegishli fanlar bo'yicha o'qishni davom ettirishga tayyorlanadigan akademik litsey va kasb-hunar beradigan kollejlarni o'z ichiga oladi.

### **Savol va topshiriqlar**



1. Nega ta'lim tizimi davlat istiqloli yillarida tubdan yangilandi?
2. «O'zbek ta'limi modeli»ning noyobligi nimada?
3. O'zingiz o'qiydigan o'rta maxsus ta'lim muassasasining asosiy tavsifiy belgilarini ayting.
4. Umumta'lim va kasbiy ta'lim fanlari o'qitilishi bo'yicha mustaqil xulosalar chiqarishga harakat qiling.

### **Amaliy ish**



1. O'zingizning yosh xususiyatlaringizni tengdoshlaringizniki bilan solishtiring. Qanday umumiylikka egasiz?
2. Yoshlarning ijtimoiy rollari to'g'risidagi masalaning ahamiyatini egallamoqchi bo'lgan kasbingiz bilan bog'lab tushuntiring.
3. Tadbirkorlik rolini bajarishga tayyormisiz? Bu rolda qanday sifatlar muhimligiga e'tibor bering.

4. Amerikalik qo‘shiqchi Maykl Jeksonning disklari millionlab nusxada tarqatilganligining yoshlar kichik madaniyatiga aloqadorligini o‘ylab ko‘ring.
5. O‘zbekiston yoshlari oldida turgan vazifalar to‘g‘risida yozma ish tayyorlang.
6. O‘zbekistonda otalar va bolalar muammosi bormi? Bu xususda pozitsiyangizni himoya qilib munorazaga kirisha olasizmi?
7. Mamlakat aholisi tarkibida yoshlarning ko‘pligini qanday baholashingiz haqida yozma ish tayyorlang.
8. Ta‘limning institutsional maqomini mulohaza qiling.
9. Ta‘limning milliy modelini tavsiflang.
10. O‘zbekistonda ta‘lim bosqichlari to‘g‘risida yozma ish tayyorlang.
11. Akademik litseyning o‘quv muassasasi maqomini tushuntiring.
12. Kasb-hunar kollejlari tavsiflang.

### **Ma‘ruza va referatlar uchun mavzular**



1. Yoshlar – ijtimoiy guruh.
2. «Yoshlar» va «yoshlik» tushunchalari nisbati.
3. Yoshlar madaniyati.
4. Yoshlarning ijtimoiy rollari.
5. Gender farqlanishning ijtimoiy ifodalanishi.
6. O‘zbekiston davlati yoshlar siyosatining maqsadi.
7. Yoshlarda yot («ommaviy») madaniyatning zararli ta’sirlariga qarshi immunitetni shakllantirish vazifalari.
8. O‘zbekistonda yoshlarning ta‘lim olish huquqi va imkoniyatlari.
9. O‘zbekistonda ta‘lim islohotining amalga oshirish bosqichlari.
10. Akademik litsey – MDHdan tashqarida ham noyob muassasa.
11. Kasb-hunar kollejlari – alohida tipdagi o‘quv muassasasi.
12. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining keyingi bosqich ta‘limi uchun fundamental ahamiyati.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., «O‘zbekiston», 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi 1997-yil 29-avgustdagi 461-1-Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to‘g‘risidagi 1997-yil 29-avgustdagi 461-2-Qonuni.
4. *Karimov I.* Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma‘naviyat», 2008.

## **BESHINCHI BO'LIM**

### **HOZIRGI DUNYO: CHUQUR SIVILIZATSIYAVIY O'ZGARISHLAR**

---

---

#### **X bob. LIBERALIZM, MODERNIZATSIYA, GLOBALLASHUV VA UMUMSAYYORAVIY MUAMMOLAR**

##### **V.10.1. Liberalizm va modernizatsiya: hozirgi bosqich**

*Liberalizm nima? Liberalizm qadryatlarining hozirgi ahamiyati nimada? Hozirgi mazmunda modernizatsiya nima? Hozirgi davrning sivilizatsiyaviy turli-tumanligi va postmodernizm qanday aloqada?*

**Liberalizm: ta'limot va ijtimoiy harakat.** Hozirgi jahoniy jarayonlar kechishi tahlilida ma'naviy tamoyillarga, xususan, *liberalizmga* katta e'tibor berilmoqda. Bu jarayonlarning ijtimoiy yo'nalganligi va sivilizatsiyaviy yangi bosqichga o'tishning ifodasi sifatida *modernizatsiya* to'g'risida ko'p gapirilmoqda. Umuman olganda dunyoning G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika kabi rivojlangan qismlarida so'nggi to'rt asrcha vaqt davomida liberalizm (lot. *liberalis* – erkin) hurfikrlilik, tenglik singari qadriyatlarni ifodalagan.

Liberalizm eng umumiy tomondan asosan, quyidagi ikki ma'noda tushuniladi:

*Birinchidan*, jamiyat rivojlanishining zarur sharti sifatida insonning maksimal (lekin mutlaq emas!) erkinligi uning individual huquqlarini real ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy mo'ljal hisoblanadi. Jamiyat hayoti sohalariga monand liberalizm tarzlari farqlanadi: a) iqtisodiy liberalizmdagi mo'ljal asosida xususiy tadbirkorlik erkinligi, bozor erkinligi, shaxsiy tashabbusga asoslangan erkin savdo, mehnatga haq to'lash erkinligi, raqobat erkinligi va hokazolar bo'lishligiga qaratiladi; b) siyosiy liberalizm – huquqiy davlat, parlamentarizm, hokimiyatlarning bo'linishi, siyosiy va fuqarolik huquqlari hamda

erkinliklari (soʻz, matbuot, eʼtiqod, majlislar oʻtkazish va boshqalar) ni kengaytirish; v) axloqiy liberalizm – foydali faoliyat (neʼmat, zavqlanish) bilan shugʻullanish erkinligi; g) dunyoqarash liberalizmi – bagʻrikenglik va insonparvarlik.

*Ikkinchidan*, liberalizm tafakkur tarzi sifatida muqobil qarashlar, anʼanalar va hokazolarga mustaqil munosabatni ifodalaydi.

Liberalizm nazariyalarida Sotsiumning shunday tashkiliy shakli, yaʼni muayyan jamiyat sifatidagi tashkiliy tarzi targʻib qilinadiki, unda inson erkinligi eng koʻp darajada taʼminlanishi lozim. Ayni vaqtda mustaqil va erkin kishilarning oʻzaro raqobati ular jamiyatini kuchsizlantirmay, balki ijtimoiy rivojlanishga koʻmak berishi kutiladi. Yaʼni oʻz manfaatlarini taʼminlashda maqsadga muvofiq eng maʼqul yoʻlni tanlashlari, oxir-oqibatda ularning jamoaviy kuch-gʻayratlari jamiyatni izchil rivojlanishiga kuchli turtki hisoblanadi.

Erkinlik sharoitida koʻpchilikning kuch-quvvati yaratuvchilik maqsadlariga yoʻnaltiriladi. Bunda davlat umumiy maqsad yoʻlida toʻsiqlar qoʻymasligi lozim. Davlatning roli «tungi posbon»likdir. Chunki liberalizmga koʻra xususiy mulkchilik davlat hokimiyatiga nisbatan avtonom holatdadir. Davlatning iqtisodiy hayotga aralashuviga faqatgina favqulodda holatlardagina yoʻl qoʻyilishi mumkin.

***Neoliberalizm.*** Liberallar tomonidan ilgari surilgan va amalga oshirilib kelingan tamoyillar, bundan 100–120 yilcha avval qayta koʻrib chiqilishi zarur boʻldi. Xususan, iqtisodiyot sohasida erkin raqobat sharoitida maʼlum sohadagi kishilar qoʻlida kapitalning toʻplanishi va markazlashuvi roʻy berdiki, bu bozor erkinligining cheklanishini bildirar edi. Natijada sanoat va moliya yirik guruhlarining oʻrni va roli keskin oshib fuqarolar erkinligi asoslarining torayishi va hatto, yemirilishi xavfi tugʻildi. Bunday sharoitlarda kapitalning toʻplanishi jamiyat aʼzolarining boylar va kambagʻallar sifatida keskin qutblanishiga olib keldi. Fuqarolar teng huquqliligi tamoyilining buzilishi jiddiy toʻqnashuvlar tugʻdirishi ravshandir.

Bular liberalizmning muayyan inqirozini koʻrsatadi. Lekin bu inqiroz liberalizmdek uzoq tarixga ega boʻlgan ijtimoiy hodisaning

yoʻqolib ketishini bildirmas edi. Yangi vaziyatlarda liberalizm ham mazmunan, shaklan zamonaviy xususiyatlar kasb etishi lozim boʻldi.

Maydonga kelgan neoliberalizm (yangi liberalizm) tarafdorlari erkin bozor mexanizmining samarali iqtisodiy rivojlanishda, ijtimoiy jarayonlarni tartibga solib turishda va boshqa qator sohalaridagi faoliyat uchun zamin boʻlishi masalalarida oʻtmishdagilaridan farq qilmasa-da, lekin ular erkin raqobat mexanizmining qoniqarli amal qilishiga ishonmas edilar. Chunki Gʻarbning yetakchi mamlakatlarida, ayniqsa, AQSHda yuz bergan iqtisodiy inqirozlar avvalgi liberalizm yondashuvlarining yetarli darajada yaroqli emasligini koʻrsatdi.

Ingliz iqtisodiyotshunosi *J.M. Keyns* (1883–1948) va uning tarafdorlari mumtoz liberalizm tamoyillarini tanqid ostiga olib, Yevropada bozor iqtisodiyotini jonlantirish va rivojlantirishda davlatning iqtisodiyot sohasiga aralashishini asosladilar. Olim milliy daromad, kapital mablagʻ, ish bilan bandlik, isteʼmol jamgʻarmasi, hukumat xarajatlari, soliq tizimi, tashqi qarz kabi koʻrsatkichlarini tahlil qilgan edi. Oʻtgan asrning 30-yillarida Keyns tavsiyalari AQSH prezidenti *F.D. Ruzvelt* tomonidan qabul qilinib mamlakatni inqirozdan chiqarishda muhim rol oʻynadi. Xususan, ishsizlarga, fermerlarga yordam berilib, ijtimoiy ishlar yoʻlga qoʻyildi. Mehnat konfliktlarida davlatning vositachiligi, nafaqaxoʻrlarga yordam berish, yetimlar, nogironlar va boshqalarga yordam berish uchun davlatning tegishli tizimi yoʻlga qoʻyildi. Faol ijtimoiy siyosat biznes uchun ham foydali ekanligi maʼlum boʻldi. Qator demokratik mamlakatlarda II-jahon urushidan keyin biznes, iqtisodiyotning boshqarishning inqirozga qarshi dasturlari, ijtimoiy ehtiyojlarga xarajatlar oshdi.

Hozirgi vaqtda liberalizm roliga boʻlgan munosabatda tarixan oʻzini oqlagan ijtimoiy nazariyalar tizimi jamiyat hayotining muhim sohalarida amalga oshgan, oshayotgan voqelik sifatida avtoritar-kommunistik mafkuraga qarshi turadi.

***Modernizatsiya va uning modellari.*** Liberalizm oʻzining moddiylashuvini sanoat rivojlanishining ifodasi sifatida modernizatsiya (inglizcha *modernization* – zamonaviylashganlik)da topgan. Umuman, modernizatsiya ham Yevropaning yangi zamon



tarixi ilk davridan boshlanadi. «Modernizatsiya nazariyalarida xronologik «*yangi zamon*» tushunchasidan «*hozirgi jamiyatlar*» tushunchasi farqlanadi. Soʻnggi tushunchada yuksak sanoatlashganlik hamda anʼanaviylikdan innovatsiyalarning ustunligi, ratsionalizm, aniq hisob-kitob olib borish, urbanizatsiya, ijtimoiy hayotning erkinlashganligi, uzluksiz rivojlanish, hokimiyatning meʼyoriy-demokratik xarakterdaligi, kishilar feʼl-atvorida faollikning ustunligi va hokazolar ifodalaniladi.

Hozirgi vaqtda modernizatsiya bosqichining yuqorisida turgan Gʻarbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada jarayon tadrijiy kechib bir necha asrni qamraydi. Qariyb bir asr davomida sanoat inqilobi yuz berdi. Soʻngra tegishli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlarning yetilib borishi bilan ommaviy, konveyerlashgan sanoat rivojlanishi kechdi. Bu, oʻz navbatida, ichki va tashqi bozorni kengaytirdi. Kompaniyalarning qoʻshilishi tufayli kapitalning turli yoʻllar bilan toʻplanishi va markazlashuvi tezlashdi. Aksioner jamiyatlarining koʻplab yaratilishi bank kapitalining sanoatga kelishiga imkoniyatlar ochdi. Natijada Gʻarb mamlakatlarida barcha sohalarda olamshumul yutuqlarga erishildi.

Yevropaning qolgan mamlakatlarida anʼanaviy manufaktura ishlab chiqarishiga va kapitalni savdo sohasiga yoʻnaltirilishining keng tarqalganligi sanoat rivojlanishi va umuman, modernizatsiyaga toʻsiq boʻldi. Shuningdek, Italiya va Germaniyada milliy davlat birlashishi keyinroq yuz berganligi ham bunga sabab boʻlgan edi. Bu mamlakatlarda davlat rahbarligida modernizatsiya amalga oshirildi.

Yevropadagi modernizatsiya jarayonlarini ikki xil modelda talqin etish mumkin. *Birinchi*da organik yoki birlamchi modernizatsiya tarzida madaniyatdan boshlanib, xususan, turmush ukladi, anʼanalardagi oʻzgarishlar, liberalizm va ilmiy-texnik muvaffaqiyatlar natijasi oʻlaroq kechgan. Bu modeldagi modernizatsiya toʻligʻicha oʻz asosiga koʻra, jumladan, protestantizm etikasiga koʻra ham rivojlangan Gʻarbga tegishlidir.

*Ikkilamchi*, noorganik yoki ikkilamchi modernizatsiya sifati da avval modernizatsiyalashgan davlatlar taʼsirida ular tomonidan boʻlgan xavfga javob tariqasida kechgan. Masalan, Yaponiya AQSH, Yevropa va Rossiyaning taʼsiriga tushib qolmaslik uchun 20 yil

ichida siyosiy-huquqiy va ilmiy-texnika sohalarida modernizatsiyalashgan mintaqalar yutuqlari va tajribalarini o'zlashtirib, chuqur o'zgarishlarni amalga oshirdi. Natijada mamlakat Osiyo-Sharqda birinchi bo'lib mo'jizaviy modernizatsiyaga erishgan va o'z asosiga ko'ra rivojlangan G'arb mamlakatlari darajasiga yetgan.

Rossiya XVIII asrning boshidan beri modernizatsiyani amalga oshirish yo'lida harakat qilsa ham jarayon bosqichlarining birontasi oxiriga yetmagan. Bularga misol tariqasida Pyotr I, Aleksandr II, Stalin, Xrushchev, Kosigin, Gorbachyov, Yelsin (1991–1993-yillar) boshlagan islohotlarning bir tomonlamaligi yoki natijasiz tugaganligini keltirish mumkin. To'g'ri, stalincha sanoatlashtirishda bir-muncha ilgari ketilgan bo'lsa-da, bunga millionlab kishilarning ochlikdan o'lib ketishlari, millionlab oilalarning yashash joylaridan surgun qilinishi, millionlab kishilarning qatag'on qilinishi va hokazolar tufayli erishilgan edi. Shuningdek, jamiyatning siyosiy va iqtisodiy qurilishida G'arb liberalizmiga qarama-qarshi boriladigan totalitarizm va boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik shakli qaror topgan edi. Darhaqiqat, bolsheviklar tomonidan hokimiyatni zo'rlik bilan bosib olish, fuqarolar urushi, bitta partiyaning diktaturasi, demokratik huquq va erkinliklarning cheklanishi bilan bog'liq yo'l qurilgan jamiyat kelajagini boshi berk ko'chaga kiritib, ich-ichidan yemirilishiga olib keldi.

O'zbekiston hududi Rossiya-Sovet davlati tarkibida bo'lganida Markaz (metropoliya)ning mustamlakalarga munosabati doirasida, muayyan ikkilamchi modernizatsiyaga tortildi. Markscha-lenincha ta'limotga ko'ra, kapitalizmni chetlab amalga oshirish lozim edi. Lekin amalda qishloq xo'jaligidagi paxta yakkahokimligi va uning xomashyosigagina dastlabki ishlov beradigan korxonalariga erishildi. Buning salbiy oqibatlari ayniqsa milliy davlat istiqloli davrida yaqqol ko'rindi.

***Hozirgi modernizatsiya.*** Yuksak sanoatlashgan jamiyatlarda bundan 50 yilcha oldin yangi sifat holatiga o'tishi boshlandi. Bu hayotning barcha asosiy sohalarida postmodernizmni amalga oshirishni kun tartibiga qo'ydi. Zero, shakllanishi boshlanib, konturlari ko'rina boshlagan axborot-texnologik Sotsiumga tegishli modernizatsiya muvofiq keladi.


O'zgargan shaklda ham neoliberalizm davlatning modernizatorlik rolini mustahkamlashga qaratilgan yo'lini davom ettirdilar. Ularga qarama-qarshi shakllangan neokonservativizm tarafdorlari G'arb dunyosi uchun belgilovchi erkin bozor va demokratik ideallarini an'anaviy, diniy, milliy, siyosiy-madaniy qadriyatlar bilan aloqadorligi zarurligiga e'tiborni qaratdilar.

Neokonservatorlar davlatning rolini qisqartirishni yoqlab, ishlab chiqarilgan mahsulotni qat'iy taqsimlarsh emas, balki uning to'xtovsiz ko'paytirishni ta'kidladilar. Garchi neokonservatorlar ijtimoiy maqsadlar uchun xarajatlarni qisqartirishni ilgari surgan bo'lsa-da, ularning talablariga yirik mulkdorlar bilan birga o'rta sinfning bir qismi ham qo'shildi.


Neokonservatorlar modernizatsiyada ijtimoiy-siyosat isloh qilindi. Xususan, ilgari kambag'allarga berilgan yordam ularga o'z biznesini, kichik korxonasini ochish uchun kredit sifatida rasmiylashtiriladigan bo'ldi.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda neokonservativ kuchlar tomonidan 1980–1990-yillarda axborotlarga asoslangan jamiyat shakllanishi sari hal qiluvchi ishlar amalga oshirildi.


Umuman modernizatsiya jahon miqyosida muayyan qonuniyat – yo'nalganlikni ifodalab, an'anaviy o'tmish jamiyatlaridan hozirgi jamiyatlarga o'tishda uchta bosqichni bosishdan iborat bo'ldi: sanoatlashish; demokratiya g'alabasi; ta'lim sohasi inqilobi.



61-sxema



62-sxema



63-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Liberalizm* – jamiyat hayotining asosiy sohalarida kishilar amal qilishiga mo'ljallangan, umuminsoniy tamoyillarni asoslaydigan ijtimoiy-siyosiy ta'limot va harakatchanlik.
- *Modernizatsiya* – ratsionalizm, aniq hisob-kitob olib borish, sanoatlashuv, shaharlar sonining oshuvi orqali kechadigan ijtimoiy rivojlanish yo'nalishi bo'lib, oxir-oqibatda jahon iqtisodiy tizimiga kirish yo'li, hozirgi ilg'or mintaqalarda esa yangi sifat holatiga o'tish jarayoni.

## Savol va topshiriqlar



1. Liberalizm qaysi sivilzatsiyaviy tipga mansub?
2. Neoliberalizmni hozirgi liberalizm ko'rinishi ekanligini dalillang.
3. Modernizatsiyada an'anaviylik qadriyatlarini rad etiladimi?
4. Mustaqil O'zbekistonning o'z rivojlanish yo'lining tanlanganligini modernizatsiya nazariyalari doirasida izohlang.

### V.10.2. Globallashuv: mohiyati, mazmuni, yo'nalishlari va oqibatlari

*Globallashuv qachon kelib chiqdi? «Umumiy uy» «umumiy taqdir» «umumiy tashvish» muammolari nima? Jahon yagona tarixi qachon boshlangan? Antiglobalizm nima?*

**«Hozirgi dunyo» tushunchasi.** Insoniyat tarixida I jahon urushidan hozirgacha o'tgan davr yaxlitligi, ko'lami va ahamiyatiga ko'ra alohida tavsifga ega. *Birinchi*dan, XX asrda, ingliz mutafakkiri A.Toynbi isbotlaganidek, jahon tarixi yagona jarayon sifatida boshlandi va kechmoqda. *Ikkinchi*dan, bu davrda ta'siri davomli bo'lgan omillar paydo bo'ldi, masalan fan-texnika inqilobi yuz berdi. *Uchinchi*dan, o'tgan davrda yashab ijod etgan o'nlab buyuk mutafakkirlarning mutlaqo yangi tamoyillardagi falsafiy-nazariy faoliyati natijasida betakror ma'naviy vaziyat yuzaga keldi. *To'rtinchi*dan, kishilar hayoti barcha sohalarini qamragan bemisil ko'lamlil o'zgarishlar yuz berdi. *Beshinchi*dan, xalqlarning o'zaro ta'siri alohida omil sifatida ko'p marta o'zini namoyon etdi. Bular, o'z navbatida, dunyo qiyofasida chuqur izlar qoldirmasligi mumkin emas edi. Endi xalqaro sohadagi keskin, hayot-mamot darajasida qarama-qarshi turishlar, qirg'inbarot urushlarga sabab bo'lgan sharoitlar o'zgarib, yangi jahoniy tartibot yangicha tamoyillarga asoslangan tarzda vujudga kelmoqda deyish mumkin. Bunda quyidagilarni alohida qayd etish lozim:

1. Fan, texnika va texnologiyadagi rivojlanish yuksak bosqichga chiqqanligi bilan ishlab chiqarishning yangi tipiga o'tildiki, buning ijtimoiy-siyosiy oqibati g'oyat salmoqlidir.

2. Jahon xo'jalik aloqalarining chuqurlashuvi va intensivligi oshdi.

3. Xalqlar va davlatlar turmush faoliyatining asosiy sohalarini qamragan global aloqalari maydonga keldi.

**Globallashuvning boshlanishi.** Soʻnggi 20 yilcha vaqt davomida globallashuv masalalari faylasuf-u olim, siyosatchi-yu oddiy fuqarolar eʼtiborini tobora keng tortmoqda. Zero, nafaqat mintaqalar, davlatlar yoki turli-tuman tashkilotlar va, hatto alohida kishilar oʻrtasidagi xilma-xil aloqalar tabiiy bir tarzda yoʻlga qoʻyilmoqda. Bu aloqalar Gʻarb sivilizatsiyasining yalpi ekspansiyasi, uning qadriyatlar va institutlari taʼsiri yoyilishini ifodalab tobora belgilovchi boʻlib bormoqda. Koʻpchilikning fikricha, bular jumlasiga, *birinchi* navbatda, aloqaning elektron vositalari (masalan, internet) tufayli kishilarni ajratib turgan makon va vaqtning tobora torayib borishi, *ikkinchidan*, ishlab chiqarilayotgan (masalan, Makdonald, MTV, Gollivud, va boshqalaring) mahsulotlarining yer yuzi boʻyicha tarqalishini taʼminlovchi texnologik oʻzgarishlar va, *uchinchidan*, global mafkura (masalan, Ekoharakat, inson huquqlari himoyasi uchun kurashuvchilar harakati va boshqalar)ning shakllanib, kengayib borishi va hokazolar kiradi. Kishilar hayot faoliyatining asosiy sohalarini qamraganiga koʻra, bu jarayon global miqyosda namoyon boʻlmoqda.

Umuman olganda, xalqlar va ularning davlat tuzilmalari oʻrtasida har doim maʼlum aloqalar boʻlgan. Lekin ayrim olimlarning fikricha, globallashuv buyuk geografik kashfiyotlar natijasida va Yevropa madaniyati taʼsirida XVI asrdan boshlangan. Lekin bu jarayon koʻpchilikning hisoblashicha, XX asrda dunyoviy koʻlam kasb etdi.

Agar uning *birinchi* davri (XVI–XVII asrlar)da mamlakatlar oʻz-oʻzicha yetarli holatda boʻlgani uchun ular oʻrtasidagi jarayonlar kuchsiz kechgan. *Ikkinchi* davrda, XIX asrda esa dunyoviy yaxlitlikka erishilmagan boʻlsa-da, davlatlar oʻzaro keng aloqalarga kirishganki, bularning natijasi globallashuvni kuchaytirmasligi mumkin emasdi. *Uchinchi* davr – XX asrda yuz bergan tarixiy voqealar globallashuv koʻlamini yaqqol koʻrsatdi: 1) 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy krizisi; 2) II jahon urushi; 3) davlatlar valuta aloqalaridagi oltin standartning tanazzuli; 4) Isroilning qoʻshni arab davlatlariga navbatdagi tajovuziga javoban neftga boy arab davlatlarining yoqilgʻi narxini oshirgani natijasida 1973–1974-yillardagi inqiroz; 5) Sovet davlatining barham topishi, uning taʼsirida boʻlgan «sotsia-

listik hamdo'stlik» mamlakatlarining ko'pchiligida tinch, Ruminiya va Yugoslaviyada esa keskin to'qnashuvlar bilan kechib, tuzum tabiatini o'zgartirgan voqealar va boshqalar.

Ko'rinadiki, globallashuv – Yer yuzining katta qismini yagona iqtisodiy-moliyaviy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tuzilmalarga birlashtirgan obyektiv jarayondir. Uning ishtirokchilari o'z manfaatlaridan kelib chiqib tegishli harakatlarni ham sodir etadilar. Bu anglatadiki, globallashuv ziddiyatli jarayondir. Uni har qanday sharoitda ham tegishli tarzda bajarish lozim bo'ladi.

**Siyosiy globallashuv.** Siyosiy sohada bu jarayon davlatning ishtirokisiz kechmasligi tushunarli. O'tmish an'anaviy-agrar jamiyatlardan farqli o'laroq industrial jamiyatlarda mintaqadagi kuchli mamlakat tevarak-atrofga belgilovchi ta'sir ko'rsatib muayyan davlat birlashmalarini vujudga keltiradi. Siyosiy omil sifatida bular iqtisodiy va boshqa sohalardagi o'zgarishlarga katta imkoniyatlar ochadi. Natijada faqat iqtisodiyot sohasining o'zida, masalan, savdo, keltiriladigan xomashyo ustidan nazorat o'rnatadi. Hamda tegishli tarzda foyda olish ta'minlanadi.

Siyosiy globallashuv hozirgi maqomini XX asrning o'rtalaridan oladi. *Birinchidan*, bu vaqtda davlat ko'magida yuz bergan texnologik inqilob moddiy ishlab chiqarish, transport, informatika va telekommunikatsiya vositalari rivojlanishiga jiddiy turtki berdi. Bu bilan esa davlatning ta'sir doirasi yanada kengaydi.

*Ikkinchi* tomondan davlatning bevosita yo'naltirilib iqtisodiyotning milliy chegaradan tashqariga chiqishi sodir bo'lgan. Shundan e'tiboran davlatning ham avvalgi monopol holati o'zgarib bormoqda, deyish mumkin. Endi xalqaro munosabatlarning to'la qonli subyektlari bo'lib transmilliy kompaniyalar bilan bir qatorda nohukumat tashkilotlari, alohida hududlar va, hatto, alohida fuqarolar ham hisoblanadi.

*Uchinchidan*, globallashuv natijasida davlatlarning o'zaro, bir-birlarining manfaatlari bilan tobora hisoblashishi zarur bo'ladi. Negaki, bu sohadagi xudbinlik aks ta'sirini ham keltirib chiqaradi.

**Iqtisodiyot sohasidagi globallashuv.** Bu sohada, *birinchidan*, milliy xo'jaliklarning boshqa mamlakatlar xo'jaligi bilan integratsiyaga kirishib rivojlanishi uchun qo'shimcha yo'l ochilganini bildiradi. *Ikkinchidan*, savdo ehtiyoji bu jarayonni tezlashtirishga turtki

bo'ladiki, bu maqsadda hatto *Jahon savdo tashkiloti* ham ta'sis etilgan. *Uchinchidan*, tabiiy resurslarning notekis joylashganidan zarur xomashyoga ega bo'lishga undaydi. *To'rtinchidan*, mehnat taqsimoti ustunliklaridan, milliy iqtisodiyotlarni o'zaro bog'liqligidan foydalanib oldinga o'tib olish mumkin. *Beshinchidan*, harbiy va boshqa sohalar ehtiyojlari global aloqaga ega bo'lishga undaydi. *Oltinchidan*, – bu aholi migratsiyasi jarayonlarini boshqarish zaruriyatidir.

Konkret davlat nazoratidan xoli faoliyat ko'rsatadigan *transmilliy korporatsiyalar* iqtisodiyotning muayyan sektorini nazorat qilishi ma'lum hudud, millat yoki madaniyat doiralari bilan cheklanmaganligi tegishli globallashuvning ko'rsatkichi hisoblanadi. Xalqaro valuta jamg'armasi, Xalqaro rekonstruksiya va taraqqiyot banki va boshqalar pul oqimlarini yo'naltirishga doir siyosatni belgilaydi. Ularning moliyaviy imkoniyatlari bir qancha mayda va o'rtacha mamlakatlar budjetlaridan ortiqdir. Shunga ko'ra Jahonga chiqmoqchi bo'lgan istagan mamlakat bularning sharti bilan hisoblashishga majbur.

Transmilliy korporatsiyalar, Xalqaro valuta jamg'armasi va boshqa tuzilmalarda ishlash uchun saylanma xodimlar tayyorlanadi. Bu menejerlar tegishli tarzda global miqyosda turli qarorlar, shu jumladan, kambag'al mamlakatlardan ishchi kuchlarini rivojlangan mamlakatlarning qaysisiga qancha jalb qilishigacha bo'lgan qarorlar qabul qiladi.

Iqtisodiy globallashuvda G'arbdan tashqari qator mintaqalarga sarmoya va texnologiya kiritish uchun davlat suverenitetining bir qismidan voz kechishga ham majbur bo'linadi. Buning oqibatlarida esa ko'pdan ko'p salbiy jihatlarni keltirib chiqarmasligi mumkin emas.

***Madaniyat sohasida globallashuv jarayonlari.*** Mazmuni va yo'nalishiga ko'ra, amerikacha madaniyatni ifodalagan bu jarayon, muayyan o'rinlarda uni mahalliy sharoitlardan kelib chiqib o'zlashtirishni ham ifodalaydi. Bunda globallashuv jarayoni duragaylashuv orqali namoyon bo'ladi.

Yuqorida ham aytilganidek, globallashuv G'arb ta'sirining dunyoga yoyilishi bilan boshlangan. Lekin keyingi davrlarda, boshqa jihat – Sharq madaniyatining ham G'arbga muayyan ta'siri ko'zga tashlanmoqda. Masalan, Yevropa va Amerikadagi



millionlab kishilarga *individ bilan tabiat o'rtasidagi mistik aloqalar, meditatsiya, yoga, jangovar san'at* va hokazolarning ta'sirini aytish mumkin.

Globallashuvning madaniyat sohasidagi ko'rinishida *birinchidan*, texnologik munosabatlar tobora ko'zga tashlanmoqda, *ikkinchidan*, *kichik madaniyatchilik* (multikulturalizm) yuzaga kelib, «individual madaniyat»ni ifodalamoqda, *uchinchidan*, madaniyatning axloqiy, diniy va etnik boshqaruvchilari kabi muhim qadriyatlarining ahamiyati pasaymoqda ham, *to'rtinchidan*, ommaviy madaniyat va maishiy industriya keng tarqalmoqda.

Bulardan ko'rinadiki, globallashuv jarayoni ziddiyatli. Hozirgi jamiyatda bu jarayon jiplashuvga olib kelmasligi, balki, shaxslararo an'anaviy aloqalarning yo'qolib borishi, begonalashuvni, berilgan imkoniyatlardan qoniqmaslikni ham keltirib chiqarishi mumkin.

**Antiglobalizm.** Globallashuv jarayonining ziddiyatli kechishi, unga qarshi harakatni – antiglobalizmni yuzaga keltirishi tabiiydir. Uni quyidagicha tarzda ifodalanishi mumkin: insoniyat sivilizatsiyasiga bo'lgan jiddiy xavfni yaqqol tushungani uchun kishilar tomonidan hamma joyda, inson, uning hayoti ma'nosi va maqsadi to'g'risida zamonaviy va ilg'or qarashlarni keng yoyish;

– inson shaxsi manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi maqsad sari barchani birlashtirib yuzaga kelayotgan xavfga e'tiborni qaratish;


– har bir kishi va insoniyat manfaatini ta'minlashda jamoatchilik fikriga ta'sir eta oladigan taniqli siymolarni jalb etish orqali mavjud xavfga qarshi ijtimoiy-siyosiy tUSDagi tadbirlarni, shu jumladan, turli mitinglar va namoyishlarni o'tkazish;

– yuz berayotgan xavf va undan chiqish yo'llari to'g'risida ommaviy axborot vositalari, maxsus nashrlar, INTERNET orqali keng axborot kompaniyasini doimiy tarzda olib borish;

– manfaatdor bo'lgan barcha kuchlar sa'y-harakatini muvofiqlashtirib doimiy ravishda anjumanlar, munozaralar, uchrashuvlar o'tkazib turish.

Albatta, globallashuv tug'dirayotgan salbiy oqibatlarni bartaraf qilishda jamoatchilik harakati qanchalik muhim bo'lmasin, unda

davlatning ishtirokisiz uzoqqa borib bo'lmashligi aniq. Ko'pgina antiglobalistlar mavjud davlat buni bartaraf qilishga qodir emas desalar-da, insonning shaxsi, uni himoya qilishni ko'zlagan davlatgina bu vazifaning uddasidan chiqa oladi. Lekin hozircha bunday davlatning qachon amalda bo'lishi xususida esa faqat nazariy fikr yuritish mumkin.



64-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Globallashuv* – sivilizatsiya asosiy jihatlarini qamragan jarayon sifatida ko'proq G'arb industrial jamiyatlari yutuqlarining keng miqyosda yoyilishini ifodalaydi.
- *Antiglobalizm* – globallashuv jarayonlari tug'dirgan salbiy jihatlarini bartaraf qilish bo'yicha ko'pgina mamlakatlardagi harakatchilik.
- *Transmilliy kompaniyalar* – rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyot, moliya, texnologiya sohalaridagi xalqaro birlashmalari.

### Savollar va topshiriqlar



1. Globallashuv davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qiloladimi?
2. Globallashuvning xalqlar ma'naviyati uchun tug'diradigan xavfini mulohaza qiling.
3. Globallashuv jarayonida INTERNET qanday o'rin tutadi?

### V.10.3. Hozirgi umumsayyoraviy (global) muammolar

*Global muammolar qachon paydo bo'ldi? Global muammolar qaysi tamoyillarga ko'ra guruhlashtiriladi? Global muammolar qanday shart-sharoitlarda hal etiladi?*

**Global muammolarning mohiyati va tasnifi.** Jahon miqyosida yuz berayotgan global jarayonlar soʻnggi yarim asrdan beri davom etib kelayotgan global muammolarni chuqurlashtirdi va, hatto, yangilarini paydo boʻlishiga turtki berdi.

– inson uchun eng zarur soha – atrof-muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammo);

– Yer yuzida yalpi tinchlikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro munosabatlarni yoʻlga qoʻyish;

– aholi soni va tarkibi bilan mutanosiblikda moddiy boyliklar va maʼnaviy qadriyatlar yaratishga erishish (demografik muammo);

– Yer yuzi aholisini zarur oziq-ovqat va quvvat manbalari bilan ishonchli taʼminlash;

– ochlik, qashshoqlik va qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va ulardan keyinda qolgan mamlakatlar oʻrtasidagi keskin farqlarni bartaraf etish;

– xavfli kasalliklarni tugatish, yangilari kelib chiqmasligining oldini olish;

– inson maʼnaviy muhiti sofligini taʼminlash (etikologiya muammosi) va boshqalar.

Kelib chiqishi, mavjudligi va hal etilishi jihatlariga koʻra, global muammolarni uch guruhga ajratish mumkin:

*Birinchi* – bu mavjud jamiyatning tabiati, turli mintaqalar davlatlarining (masalan, Sharq-Gʻarb, Janub-Shimol, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar) xilma-xil manfaatlarini majmuasi bilan bogʻlangan, boshqacha aytganda, baynal-ijtimoiy jarayonlar, tugʻdirgan muammolardir.

*Ikkinchi* guruhga inson va jamiyat tizimida yuzaga kelgan munosabatlarni ifodalaydigan muammolar kiradi.

*Uchinchi*, oʻz ichiga «jamiyat-tabiat» tizimi doirasidagi munosabatlar tugʻdirgan muammolarni oladi.

Global muammolarning muhim jihatlaridan biri fan-texnika taraqqiyoti bilan aloqadorlikdaldigidir. Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnika vositalari yaratishni taʼminlasa, oʻz navbatida, texnik rivojlanishi ham fanda yangi oʻzgarishlarni sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. Agar insoniyat ajdodlari yozuv ixtiro qilgunga qadar taxminan 3 million yil ogʻzaki aloqa qilgan boʻlsa, undan 5 ming yil keyin-

gina kitob bosishni o'rgandi. Undan 500 yil o'tib *telefon, radio va televideniye*ga ega bo'ldi, an'anaviy eshituv-ko'ruv vositalaridan *kompyuterlarga* o'tish uchun atigi 50 yilcha vaqt kerak bo'ldi. Bularning natijasi o'laroq, erishilgan kashfiyotlar kim qanday maqsadlarni ko'zlasa, o'shalarga tatbiq etilmoqda. Bu esa global muammolarning yanada o'tkir, dolzarb bo'lib turishiga olib kelmoqda.

**Ekologik muammolar.** Inson ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatining sayyoraviy miqyosdaligi tufayli eng umumiy tarzda tevarak-atrof bilan aloqada quyidagi halokatli ekologik o'zgarishlar sodir bo'lmoqda:

1. Sayyoraning genetik boyligini tashkil etgan o'rmonlar sahni har yili *11 million* gektarga qisqarib bormoqda; bu o'rmonlar biosfera tabiiy vazifalarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega.

2. Yer yuzasining *31 millioncha* gektar qismi «kislotali yomg'irlar»dan zararlangan va bulg'angan. Tuproq eroziyasi tufayli ekin maydonining *26 mln.* gektarida har yili hosildorlik pasayib bormoqda; XX asr ikkinchi yarmida «katta qurg'oqchilik»larning tez-tez bo'lib turishi natijasida cho'llar maydoni yiliga *6 million* gektarga kengayib, o'simlik va hayvonot olamida salbiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

3. Sanoatlashgan Yevropa va Shimoliy Amerikadagi minglab suv ko'llari biologiyaviy o'lik holga tushgan. Har yili jahon suv havzalariga 32 kub kilometr tozalanmagan sanoat oqava suvlari kelib tushmoqda.

4. Yer yuzidagi ekologiyaviy o'zgarishlar oqibatida 2050-yilga borib atmosferadagi o'rtacha harorat 1,5–4,5 darajagacha ko'tarilishi kutilmoqda. Natijada qutblar muzliklarining, Grenlandiya va Antarktida muzlik qatlamlarining erishi, okeanlar sathining ko'tarilishi, qirg'oq bo'ylarida yuzlab shaharlar, unumdor yerlarining suv bosishi xavfi yuzaga kelmoqda.

5. Atmosferada ozon qatlaminin yemirilishi natijasida o'simliklarda fotosintez jarayonining qisqarishi, konserogen moddalar ta'sirida kelib chiqadigan kasalliklarning ko'payishi va h.k. ro'y berishi mumkin.

6. Qator omillar, masalan, minglab radio va teleko'rsatuv stantsiyalari, sanoat va harbiy obyektlardan chiqadigan elektromagnit nur-

lanishi kabilarning insonga salbiy ta'siri ko'lami oxirigacha aniqlanmagan bo'lsa-da, keltirayotgan zarari ayon bo'lmoqda.

**Urush va tinchlik masalasi.** Tinchlik xalqlar uchun bebaho ne'mat bo'lganidek, uning urush ham insoniyatning butun tarixi davomida doimiy yo'ldoshi bo'lib keldi. Yozma yodgorliklarning guvohlik berishicha, so'nggi 6 ming yillik vaqt mobaynida Yer yuzida 15 mingdan ziyod urushlar sodir bo'lgan. Shu davr ichida atigi 300 yilgina urushsiz kechgan. Amerikalik muallif *R.Klarkning «Urush ilmi va tinchlik»* kitobida keltirilishicha, 1820–1859-yillarda 92 ta urushda 800 ming (jami aholining 0,1%i), 1860–1899-yillarda 106 ta urushda 4,6 million (0,4%), 1900–1949-yillarda esa 117 ta urushda 42,5 million (2,1%) odam qirilib ketgan.

Bizning davrimizda ham xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar tarkibi, xalqaro siyosat mexanizmi, ayniqsa urushlarga tayyorgarlik ko'rish mexanizmlari va hokazolar o'zgarishsiz qolgan.

Matematikaning so'nggi yutuqlari asosidagi hisob-kitob – modelashtirish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda to'plangan yadro zaryadlari portlatilsa, Amerika, Yevropa va Osiyodagi asosiy shaharlar yong'in ostida qolib ketishi, bir oydan so'ng yer ustidagi atmosfera harorati 15–20 darajada, Sibir markazi va boshqa ayrim mintaqalarda esa, 40–45 darajagacha pasayib, uning aylanishi (sirkulyatsiyasi) mutlaqo o'zgarishi mumkin. Shimoliy yarim shardan janubga qarab nur o'tkazmaydigan qora qatlam butun sayyorani qoplab oladi. Chuchuk suvning barcha manbalari muzlaydi. Ekologiyaviy aloqalar buziladi, hosil nobud bo'ladi. Yer ustida va okeanlarda hayot tugaydi. Bularning hammasi yadro quroli siyosat vositasi va, hatto, urush vositasi ham bo'lmay, balki insoniyat uchun o'z-o'zini halok etish quroli ekanligini ko'rsatadi.

Global muammo sifatida tinchlikni ta'minlash harbiy xarajatlarni keskin kamaytirishni taqozo etadi. Negaki, insoniyat 1900-yildan beri harbiy ishga ajratilgan mablag'larni *30 martadan* ko'proq oshirdi. U 90-yillar boshiga kelib *500 milliard* dollarga yetdi. Harbiy va aslahanoatida *60 million* kishi faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, muntazam qo'shinlarda *25 milliondan* ortiq shaxsiy tarkib, *10 millionlik* yarim harbiy muassasalarda ishlovchi *5 million* fuqaroviy kasb egasi bor. Bu sohalarida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ish-

larida 500 ming kishi bandki, bu dunyodagi olim va muhandislarining qariyb 40% ini tashkil etadi. Fan rivojlanishiga har yili ajratiladigan xarajatlarning beshdan ikki qismi yoki 30 milliard dollardan ortiqrogʻi harbiy tadqiqot maqsadlariga ketgan<sup>1</sup>.

Hozirgi vaqtda taqiqlanganiga qaramay yaratilishning afzalligi va nazoratning imkonsizligiga koʻra ximiyaviy va bakteriologik qurollar bilan bogʻliq xavf ham jiddiydir. Shuningdek, oddiy qurol-yarogʻlar keltirishi mumkin boʻlgan ziyon yadro quroli darajasiga yaqinlashib qolmoqda. Jahonda qurollanishga ajratilgan mablagʻlarning 80%i shu sohaga sarflanmoqda.

Hozirgi vaqtda urush va tinchlik, xususan, raketa yadro quroli masalasida «sovuq urush»ning tugashi bilan maʼlum ijobiy qadamlar qoʻyildi, qator shartnomalar imzolandi. Albatta, bular yetarli emas.

Urush va tinchlik masalalarida AQSHning oʻrni hozirgi vaqtda hal qiluvchi darajaga yetdi.

***Rivojlanayotgan mamlakatlar muammolari.*** «Rivojlangan millatlar» iborasini ham rivojlangan mamlakatlar oʻrnida ishlatish qabul qilingan. Bu unchalik aniq atama emas, chunki rivojlanish barcha mamlakatlarga xosdir.

Sayyorada umumbashariy tinchlikni taʼminlash ehtiyojlari bilan Gʻarbning sobiq mustamlaka yoki vassali boʻlgan 130 dan ortiq mamlakat ijtimoiy rivojlanishini jadallashtirish vazifalari oʻzaro bogʻliqdir.

Bu mamlakatlarda oʻtmishda xoʻjalik hayoti zoʻrlik bilan oʻzgartirilgani tufayli koʻpincha turgʻun holda boʻlgan, qoloq siyosiy munosabatlar saqlab qolingan edi. Aksariyat rivojlangan davlatlar bularga xomashyo manbasi, salmoqli bozor va kapital chiqarish uchun qulay makon sifatida qaraydilar. Ularning qoloqligini tugatish global muammo hisoblanadi. Buning uchun hozirda ham amal qilayotgan xalqaro iqtisodiy tartibotni oʻzgartirish zarur boʻladi.

Yangi xalqaro iqtisodiy tartibot nafaqat rivojlanayotgan davlatlar uchun, balki sovetlardan keyingi hududlar davlatlari va sobiq

---

<sup>1</sup> Bu raqamlar 90-yillar boshigacha boʻlgan davrni ifodalaydi. Hozirgi bir qator yirik harbiy davlatlarda konversiya jarayoni boshlangan boʻlsa-da, lekin qurollanish xarajatlari kattaligicha qolmoqda.

sotsialistik mamlakatlar uchun ham zarurdir. Chunki ularning oʻrtacha rivojlanganligi darajasi Gʻarbning ilgari ketgan industrial mamlakatlariga yetib olishini taʼminlamaydi.

**Maʼnaviyat sofligini asrash.** Hozirgi vaqtda insoniyat maʼnaviyati, uning sofligini asrash ijtimoiy rivojlanishning ichki jarayonlari tugʻdirgan yana bir global muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Gap shundaki, zoʻravonlik va nafrat kishilar oʻrtasidagi munosabatlarda chuqur ildiz otib, maʼnaviy muhitni tobora zaharlamoqda. Buni toʻxtatib qolish va keskin kamaytirishga erishish vazifalari dunyo miqyosida kuch-gʻayratlarni birlashtirishni taqozo etmoqda.

Maʼnaviy muhitni bulgʻashda keyingi vaqtlarda ayniqsa ichkilikbozlik va bangilikning oʻrni katta boʻlmoqda. Koʻpgina mamlakatlar bu xil moddalarni tarqatganlik uchun ogʻir jazo (masalan, Eron Islom Respublikasida – oʻlim, Fransiyada – 10 yil, AQSHda – 15 yil, voyaga yetmaganlarga bangilik moddalarini sotgani uchun – 30 yildan umrbod muddatgacha qamoq jazosi) belgilanganiga qaramay, aholining muayyan qismida bangilikka ruju qoʻyish avj olgan. Shuning uchun ham BMT darajasida tegishli tashkilotlar tuzilib, bu ijtimoiy illatga qarshi ommaviy kurashilmoqda. Lekin bangilik moddalarini tayyorlash va sotishdan gʻoyat katta foyda olayotgan korchalonlar, bu ogʻudan oʻlayotganlar soni yildan yilga oshib borayotganligiga qaramay, barcha imkoniyatlardan foydalanmoqdalar.

«Eng qadimiy kasb» vorislari ham axloq-odob muammosini keskinlashtirishda oʻz «hissalarini» qoʻshishmoqda. Fahsh sindromi koʻp mamlakatlarda rivojlanib bormoqda. Shimoliy Yevropada behayo filmlar, adabiyotlar chiqarishdan olinayotgan foyda oʻnlab milliard dollarga yetadi.

Axloqiylik muammosi tarkibida va undan tashqariga chiqadigan hollarda ham terrorchilikning oʻrni alohidadir. Ijtimoiy antagonizm shakllaridan biri sifatida kelib chiqqan terrorchilikning xillari tobora koʻpayib bormoqda.

**Demografik muammo.** Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham iqtisodiy qoloqlik bilan bogʻliq aholi soni ham oʻshmoqda: (milod

boshlarida Yer yuzida 230 mln., 1830-yilda 1mlrd, 1910-yilda – 2, 1960-yillar boshida – 3, 1975-yilda – 4, 1985-yilda – 5 va 1999-yilning iyulida 6-milliardlik inson tug‘ildi. Aholini tegishli moddiy vositalar bilan ta‘minlash<sup>1</sup>, zarur ma‘lumot darajasi, tibbiy va huquqiy xizmat, tegishli ijtimoiy muhofaza, yosh avlod tarbiyasi va hokazolar bilan bog‘liq bo‘lgan jiddiy va ko‘lamli vazifalarni kun tartibiga qo‘yadi. Darhaqiqat, insoniyat XXI asrni aholining 1 milliard ochlikdan qiynalayotgan, 1 milliard savodsiz, 1 milliard ishsiz va yana 1,5 milliard kambag‘allik chegarasida turgan nochor holda kutib oldi.

Hozirgi vaqtda jahon aholisining 20% (1 milliarddan ortiq) ni tashkil etgan 70 mamlakatda demografik o‘shish agrar va sanoatdagi o‘shishdan ortiqdir. Bularda yaratilayotgan milliy mahsulot jami aholi jon boshiga 300 dollardan iboratki, bunda pasti esa jismoniy hayotni ham ta‘minlay olmaydi. Buning ustiga ularning ko‘pchiligida resurslarning cheklanganligi va beqaror siyosiy vaziyat tashqaridan investitsiya kiritilishiga to‘sqinlik qiladi. Ko‘rinadiki, bu muammo o‘z navbatida boshqa muammolarini – atrof-muhit softligi, tabiiy resurslar, quvvatlar hosil qilish va hokazolarini keltirib chiqarishi, boshqa mavjudlarini esa keskinlashtirishi mumkin.

**Xavfli kasalliklarning ko‘payishi.** Aholi ko‘payishini boshqarish va tashkil etish yo‘lga qo‘yilmagan mamlakatlardagi ochlik, oziq-ovqatlar tarkibida oqsillarning kamchilligi ko‘pgina xavfli kasalliklarni keltirib chiqargan.

Ma‘lumki, Yer yuzida global miqyosdagi ochlik mavjudligi birinchi marta BMT tomonidan 1950-yilda tan olingan edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga (yetarli miqdordagi mablag‘larning ajratilmasligi, malakali kadrlarning yetishmasligi va h.k.) ko‘ra jahon aholisining 40% i vodoprovod suvi, kanalizatsiya va sanitariya xizmatidan foydalanmaydi. O‘z-o‘zidan ravshanki, bularning hammasi epidemiyalar tarqalishiga olib keladi. Rivojlanayotgan

---

<sup>1</sup> Ingliz iqtisodchisi *R.T. Maltus* bundan 200 yil avval shunday degan edi: «Ota-onasi farzandining yashashini ta‘minlashi uchun zarur kapitalga ega bo‘lmasa, bu farzandning yashashga qanday haqqi bor? Bunday farzand xayr-ehsonga ko‘z tikishi mumkin».



mamlakatlarda sil, bezgak kabi kasalliklar keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda bularning yoniga OITS (SPID) ham qo‘shilmoqda.

Kasalliklarning global muammo bo‘lib qolganligi yana shunda ko‘rinadiki, sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlarda yurak-tomir, asab-ruhiy, allergik, rak va h.k. xastaliklar ko‘payib bormoqda. Masalan, bu mamlakatlarda yurak qon-tomir kasali birinchi o‘rinda, rak – ikkinchi o‘rindadir.

Tevarak-atrof muhitning bulg‘anish muammosi tabiiy resurslar, birinchi navbatda, oziq-ovqatlar sifatlarining manbalari muammosiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

### ***Oziq-ovqat xomashyo va quvvatning yangi manbalarini topish.***

Barcha mamlakatlar quvvatning yangi manbalarini topish zaruriyati oldida turibdi. Ma‘lumki, quvvat resurslari ikki xil – qayta tiklanmaydigan (neft, gaz, ko‘mir) va tiklanadigan (suv quvvati, yog‘och va h.k.) bo‘ladi. Shuningdek, quvvat manbalarini tashqi (Quyosh) va ichki yerosti resurslari (masalan, atom yadrosi) tarzida ham ta‘riflash mumkin.


Hozir dunyoda 30 dan ortiq mamlakatlarda jahon elektr quvvati ishlab chiqarishining 15% i atom reaktorlari hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Atom quvvati hosil etish xarajatlari yuqoriligicha qolmoqda. Uning xavfsizligi xususida xilma-xil va qarama-qarshi fikrlar aytilmoqda.

Quvvat muammosining kun tartibida jiddiy turganligi olim va mutaxassislarning quyosh nuridan, yerosti issiqlik manbalaridan foydalanishga yana ham ko‘proq e‘tibor berishlarini taqozo etmoqda.

Global muammolarning eng asosiylari tavsiflaridan ham ko‘rinib turibdiki, bunday bo‘hronlarni bartaraf etish nafaqat murakkab, balki bir xil yechimga ham ega emas. Insoniyat bularni hal etish choralarini tinimsiz izlamog‘i lozim. Hozirgi zamon tafakkuri darajasida mulohaza yurituvchi ko‘pgina mutaxassislarning hisoblashicha, global bo‘hronlarni bartaraf etishning dastlabki sharti – bu ma‘naviy yuksaklik, uning insoniylashgani bo‘ladi. Zamonaviy insonparvarlik eng kamida uchta asosga: globallashuvni anglashga, zo‘ravonlikdan voz kechishga va adolatlilikka tayanadi. Bularning hammasi inson huquqlarini tan olishga va insoniyatning yaxlit ma‘naviy-axloqiy takomili tizimini yaratishga borib taqaladi.

Xalqaro kuch-g'ayratlarni birlashtirish global muammolarni hal etishning muhim omili hisoblanadi. Shu yo'l bilan savdoni rivojlantirish, barcha sohalarida aloqalarni mustahkamlash mumkin.

Global muammolar xalqlar, mamlakatlarning xususiy va umumiy manfaatlari bilan aloqador Rio-de-Janeyroda 1992-yili bo'lib o'tgan xalqaro anjumanda ham alohida ta'kidlangan edi. Davlatlar va hukumatlar boshliqlari ishtirokida o'tgan bu anjumanda «*barqaror rivojlanish konsepsiyasi*» qabul qilinib, unda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimini atrof-muhitni himoya qilish, hozirgi avlod hayotiy ehtiyojlarini qondirishni kelajak avlod uchun ham shunday imkoniyatlar qoldirish bilan qo'shib olib borish ko'rsatib o'tildi.



65-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Baynal ijtimoiylik – insoniyatning asosiy ijtimoiy birliklari o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.*
- *Etikologiya – kishilar ma'naviyati sofligini saqlash va uni tanazzuldan asrashni anglatadi.*
- *Rim klubi – bir qancha mamlakatlar olimlari, siyosiy va jamoat arboblari tomonidan 1968-yilda italiyalik olim, biznesmen va jamoat arbobi Apechchel rahbarligida tuzilgan xalqaro nohukumat tashkilot. Rim klubi qator umuminsoniy muammolar yuzasidan anjumanlar o'tkazib kelmoqda. Klub a'zolari dolzarb mavzularda kitoblar e'lon qilgan.*

## Savollar va topshiriqlar



1. Global muammolar qachon paydo bo'lgan?
2. Global muammolarni qaysi tamoyillarga ko'ra tasnif etish mumkin?
3. Raketa-yadro urushi xavfi oldini olish uchun nimalar qilish kerak?
4. Ekologiyaviy muammo nimadan iborat?
5. Demografik portlash nima?
6. Xomashyo muammosi mazmuniga nimalar kiradi?
7. «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi» haqida nimalarni bilasiz?

## Amaliy ish



1. Liberalizm qaysi sivilizatsiya doirasida shakllangan? Buni Yevropa tarixiga oid bilimlaringizga tayanib mulohaza qiling.
2. Modernizatsiyani G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika misolida tushuntiring.
3. Neoliberalizm va Neokonservatizm tarafdorlarining iqtisodiyotda davlatning roliga munosabatlari to'g'risida yozma ish tayyorlang.
4. Hozirgi an'anaviy jamiyatlarda modernizatsiya nimalarga bog'liqligini tushuntiring.
5. Globallashuv boshlangan sohani tushuntiring.
6. Globallashuv barcha mamlakatlarga birday foydalimi? Bu to'g'rida mulohaza yuriting.
7. Ma'naviy globallashuv jarayoni kechyaptimi? Buni tushuntiring.
8. Globallashuv internetni keltirib chiqardimi yoki internet globallashuvnimi? Bu to'g'rida yozma ish tayyorlang.
9. Antiglobalistlar pozitsiyasiga munosabatingizni yozma bayon eting.
10. Global muammolar insoniyat «peshonasiga bitilgan» kulfatmi? Buni mulohaza eting.
11. Global muammolar hal etilishi nimaga bog'liqligini tushuntiring.
12. Orol falokatining global miqyosi to'g'risida yozma ish tayyorlang.
13. Insoniyat global muammolarni qachon bartaraf etadi? Fikringizni bayon eting.

## Ma'ruza va referatlar uchun mavzular



1. Liberalizm: tamoyillar va ta'limot.
2. Modernizatsiya bosqichlari.
3. Neoliberalizm va Neokonservativizm.
4. Globallashuv nima?
5. Globallashuvning ijobiy jihatlari.
6. Globallashuvning salbiy jihatlari.
7. G'arb texnologiyasi sivilizatsiyasining jahondagi global ta'siri.
8. Global muammolarning mohiyati.
9. Global muammolarning turlari.
10. Global muammolar hal etilishining shart-sharoitlari.
11. Orol fojiasi – global muammo.
12. Global muammolarni tug'dirgan asosiy sabablar.

### Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. *Karimov Islom*. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
2. *Karimov I.A.* Mamlakatimizda demokratik islohotlarini yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T., «O'zbekiston», 2010.
3. *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O'zbekiston», 1997.
4. *Адилходжаева С.М.* Глобализация и стратегия государства. – Т., 2009.
5. *Умаров Б.* Глобализация и вызовы. – Т., 2009.
6. Milliy istiqlol g'oyasi. Darslik, – T., «Akademiya», 2006.
7. Falsafa. Darslik. M. Ahmedova tahriri ostida. – T., 2013.
8. Falsafa. O'quv qo'llanma. E. Yusupov tahriri ostida. – T., 2005.
9. Глобальные проблемы и перспективы цивилизации. – М., 2004.
10. Многоликая глобализация. Под. ред. П. Бергера, С. Хантингтона. – М., 2014.
11. Кравченко А.И. Обществознание. – М., 2009.

---

---

## **XI bob. SHAKLLANAYOTGAN YAGONA JAHONIY SIVILIZATSIYANING ASOSIY BELGILARI**

### **V.11.1. Hozirgi jamiyatlar – jahoniy tizim**

*Jamiyatlarning jahon tizimi nima? Markaz, Markazdan yarim uzoq va Uzoqdagi jamiyatlar o'rtasida qanday aloqa mavjud? Hozirgi agrar jamiyatlardagi o'zgarishlar ko'lami qanday? Hozirgi jamiyatlarda yangi jahon tartiboti shakllanyaptimi?*

**«Tizimiylik» tushunchasi.** Istagan narsa, hodisa yoki jarayon tarkibiy tuzilishga ega, yani qaysidir va qanchadir qismlar, ular esa unsurlardan tashkil topgan. Bulardan hosil etilgan yaxlitlik shunchaki mexanik yig'indi bo'lmay, sifat jihatdan yangi tizimiy hodisa hisoblanadi. Hozirgi bilimda voqelik ko'rinishlariga tizimiylik tarzida qarash belgilovchi o'rin tutadi. Zero, ko'p tarmoqli sanoat, xilma-xil manfaatlarni jamuljamini ifodalagan siyosat, murakkab tarkibli ma'naviyat va hokazolarni tizimiylik tamoyilidagina olib qarash lozim.

Tizimiylikda tashkillanganlik va funksional mavjudlik muammolari yechimi muhim hisoblanadi. Bunda, ayniqsa, tizimiy modellashirishning ahamiyati kattadir. Kishilik dunyosiga tizimiylik tamoyilida yondashish orqali tuzilmalarning ichki aloqadorliklari, unsurlarining o'zaro ta'siri, turli iyerarxiya va subordinatsiyalarga doir ilmiy bilimlar hosil etiladi.

**Hozirgi jahon hamjamiyati.** Hozirgi vaqtda Yer yuzida Birlashgan millatlar tashkilotiga a'zo bo'lgan 185 ta suveren davlat mavjud bo'lib, BMTga kirmagan davlatlarni ham qo'shganda ularning soni 193 tadir. Umuman olganda, dunyoda 220 tacha mamlakat va 240 tacha muayyan mustaqillikka ega hududiy tuzilma bor. Bularning barchasiga tatbiqan umumiylik shundaki, ular hozirgi jamiyatlarga xos *jahoniy tizim* doirasidir.

Kishilik dunyosiga tizimiy yondashish XX asr ilmida o'zining an'anasiga ega. Masalan, marksistlar o'zlari amalga oshirmoqchi bo'lgan ijtimoiy inqilob maqsadlaridan kelib chiqib o'tgan asr boshlaridayoq Yevropa va Shimoliy Afrikadagi mavjud ijtimoiy tuzumni dunyo miqyosida tizim – kapitalizmning asosiy qismi hisoblab ijtimoiy to'ntarishni amalga oshirishga uringan. Leninning imperializm nazariyasiga ko'ra kapitalizm tizim sifatida Yer yuzini qamragan. Uning so'nggi bosqichi «imperializm shundoqqina sotsialistik inqilob arafasidir». Lekin nazariyaning dastlab dunyoning 1/6 qismida, keyinroq qator mamlakatlarda amalda qo'llanishi insoniyatga dahshatli zarar keltirgan eksperiment bo'lib tarixga kirgani hozirda hammaga ma'lum.

Hozirgi vaqtda amerikalik olim *E.Vallerstaynning* jahon tizimi nazariyasi xiyla asosli, deb qabul qilingan. Unga ko'ra bular: insoniyat tarixining paydo bo'lganidan agrar jamiyatlargacha bo'lgan «*minitizm*»; bir qancha avvalgi «*minitizm*»lardan tashkil topib agrar ishlab chiqarishga asoslangan «*jahoniy saltanatlar*»; Yevropada XVI asrdan boshlangan «*jahon iqtisodiyoti*» davrida bozor munosabatlari yo'li bilan boshqaruv birinchi o'ringa chiqqan «*jahoniy tizim*».

«*Shimol*», «*G'arb*», «*Sharq*» va «*Janub*». *E.Vallerstayn* nazariyasida yana ko'rsatiladiki, kapitalizm o'zining barcha imkoniyatlarini namoyon etib rivojlanishi ketma-ketligiga ko'ra uchta – «*Markaz*» (*yadro*), «*Markazdan yarim uzoqlikda*» va «*Markazdan uzoqda*»gi qismlardan iborat bo'ladi. Agar dastlab Yevropada va, umuman, Jahonda *Gollandiya* «*Markaz*»ni tashkil etgan bo'lsa, bu rolni XVIII–XIX asrlarda *Angliya*, XX asrda esa *Amerika Qo'shma Shtatlari* bajardi. Bu mamlakatlarda tegishli tarzda sanoat rivojlanishi darajalari va ularning dunyoda tutgan o'rni belgilovchi bo'lgan.

Hozirgi vaqtda «*Markaz*»ga mansub davlatlar turkumida o'ta rivojlangan Shimol (Yevropa markazi, g'arbi va shimoli hamda Shimoliy Amerika) va yuksak rivojlangan *G'arb* (Yevropaning qolgan davlatlari) hamda *Sharqdagi Yaponiya*, *Janubiy Koreya*, *Singapurni* farqlash lozim. Bulardan tashqari *Sharqda* intensiv rivojlanayotgan yangi davlatlar – *Malayziya*, *Tailand*, *Indoneziyani* ko'rsatish mumkin. Bularning birinchilarida sarmoya yetarli bo'lib

jon boshiga ko'p va sifatli mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish eng yangi va juda murakkab texnologiyalarga asoslangan. Shunga ko'ra ular mahsulotlariga dunyoning istagan joyida talab kattadir.

Bundan tashqari, hozirgi xalqaro hamjamiyatning asosini *transmilliy korporatsiyalar* (TMK) va *transmilliy banklar* (TMB) tashkil etadi. Ularning soni 40000 ta bo'lib, 200000 ta filiali bilan 150 ta mamlakatda faoliyat ko'rsatadi. Ular eng yuksak rivojlangan mamlakatlarga tegishlidir. «Ekson», «IMB», «Djeneral motorz», «Ford» (AQSH), «Xitachi», «Mitsui», «Mitsubishi», «Sumitomo» (Yaponiya) eng katta TMKlar sifatida g'oyat kuchli ta'sir vositalariga egadir. Ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar yuzlab milliard dollarni tashkil etadi.

Yuqorida keltirilib dunyo tomonlari nomlari bilan ataluvchi mintaqalardan tashqari xomashyo manbasi «Janub»ni ham ko'rsatib o'tish lozim. Sobiq Sovet davlati va «sotsialistik hamdo'stlik» o'rnida paydo bo'lgan davlatlar *o'tish holatidagi mamlakatlar* deb qaraladi. To'g'ri, ulardan ba'zilar, masalan, *Litva, Polsha, Chexiya* kabi davlatlar Yevropa Ittifoqidan tashqari NATOga ham a'zo bo'lib kirishgan.

*E. Vallersteynning* ta'limoti industrial jamiyatlar nazariyalari asoschilari *R. Aron, D. Bell, Z. Bzejinskiy, J. Gelbrejt, U. Rostou* ta'limotlari bilan umumiylikka ega bo'lganidan «Markaz»ni asosiy konturlari ko'rinib qolgan axborot-texnologik, «Yarim uzoqdagilarni – sanoatlashgan, «Markazdan uzoqdagilar»ni esa *an'anaviy – agrar* jamiyatlar deb qarash mumkin.

«*Uchinchi dunyo*». Jahonda bir-biriga yaqin «Uchinchi dunyo», «kam rivojlangan davlatlar», «rivojlanayotgan mamlakatlar» degan nomlardagi davlatlar farqlanadi. «Uchinchi dunyo» mamlakatlari o'z davrida birinchi dunyoga mansub AQSH va sobiq Sovet davlati boshqargan harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaganlikdan tashqari mustamlakachilik asoratlarini yo'qotish bo'yicha milliy-demokratik yo'lni tanlaganlari bilan ham tavsiflanadi.

«Uchinchi dunyo» «Markaz» davlatlari uchun xomashyo manbasi hisoblangan «uzoqlikda»gi davlatlardir. Ulardan ko'pchiligi hozir ham shunday. Umuman olganda, «Markaz» «Uzoqda»gi davlatlarni

yaratadi, nazorat qiladi va boyliklaridan o'z maqsadlarida foydalanadi. «Markaz»ning aholisi 1,2 mlrd. kishi bo'lsa, «Uzoqlikda» 2,3 mlrd. aholi yashaydi. «Uzoqlikda» qazilma boyliklar qayta ishlanmaydi, balki to'g'ridan to'g'ri eksport qilinadi. Kam sonli sarmoyadorlar o'z mablag'larini mamlakatlaridan chetda ishlatadilar. Mahalliy ziyolilar ham asosan chet el kapitali xizmatiga o'tgan bo'ladi. Davlat hokimiyati uchun turli qabila guruhlari o'rtasida keskin kurash borganidan tez-tez davlat to'ntarishlari bo'lib turadi. Bunday sharoitda ijtimoiy va milliy totuvlik, diniy bag'rikenglik amalda bo'lmaydi.

Bu guruh mamlakatlar chetdan keltiriladigan mablag' va texnologiyalarga bog'lanib, kelayotgan yordam belgilangan joyga ko'pincha yetib bormay davlat amaldorlari o'rtasida taqsimlanadi. Bularning hukmron doiralari «Markaz» guruhidagi tegishli davlat bilan bog'liq bo'ladi. U davlatdagi o'zgarishlar bu yerda ham aks-sado beradi. To'g'ri, muayyan sharoitlarda u yoki bu yordam oluvchi davlat oldinga o'tib ketishi mumkin. Mustamlakachilikdan ozod bo'lib davlat istiqlolini qo'lga kiritgan mamlakat dastlab «Uzoqlikda»gi guruhga kirgan bo'lsa, keyinroq «Yarim uzoqlikda»gilarga yaqinlashganligiga misollar yetarli. Masalan, *Hindiston* harbiy sanoatda, hisoblash texnikasi ishlab chiqarish va yengil sanoatda ancha ilgarilab ketgan bo'lsa, *Koreya Respublikasi* (Janubiy Koreya) «yadro» davlatlari turkumiga kirib ulgurdi.

***Jahonning yangi tartiboti.*** Hozirgi vaqtda yangi sivilizatsiyaviy sifat holatiga o'tilayotganligi tashkiliy jihatlardan tegishli jahoniy tartibotlarning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Bularning iqtisodiyot sohasida shakllanishi II jahon urushidan keyin boshlangan edi, deyish mumkin. Masalan, 1947-yilda imzolangan *Tarif va savdo to'g'risida Bosh shartnoma* (keyinroq *Jahon savdo tashkilotiga* aylantirilgan), bir yil o'tib ta'sis etilgan *Yevropa iqtisodiy hamkorlik* tashkiloti (1960-yilda kengaytirib *Iqtisodiy Hamkorlik va rivojlanish tashkiloti*, deb atalgan), avvalboshdan mintaqa miqyosida bo'lgan huquqiy, ilmiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda siyosatni muvofiqlashtirishni ko'zlagan *Yevropa kengashi* (1949-y.), *Yevropa po'lat va ko'mir uyushmasi* (1950-y.) olti yildan so'ng uning asosida *Yevropa iqtisodiy*



*kengashi va Yevropaning atom energiyasi bo'yicha hamjamiyati* tuzilgan. Angliya boshchiligida Shimoliy Yevropa davlatlarining bularga muqobillikdagi *Yevropa erkin savdo integratsiyasining* (1960-y.) keyinroq (1991-y.) EIKga qo'shilishi bilan Yevropaning iqtisodiy makoni tuzilishiga olib keldi. O'z navbatida, bularning natijasi o'laroq Qit'a g'arbida barcha sohalarda keskin o'sish ro'y berdi. 1993-yilda Yevropa yagona fuqaroligi kelishildi va XXI asrga yangi valuta – yevro bilan kirildi. Ko'rinadiki, mintaqaning ilgari bo'lmagan yangi tartiboti amal qila boshladi va o'zining hayotiyiligini ko'rsatdi.


Jahon tartibotining boshqa bir varianti Shimoliy Amerikada AQSH, Kanada va Meksika ishtirokida shakllanmoqda. Bu ikki mintaqa XX asrda, ayniqsa, uning ikkinchi yarmida Jahon miqyosida sivilizatsiyaviy sifat o'zgarishlari uchun ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda zarur shart-sharoitlarni yaratdi.

II jahon urushidan keyingi davrda dunyoning ko'p joylarida konkret sharoitlar vazifalarini hal etish yo'lida anchagina tashkilotlar tuzildi: *Afrika birligi tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti, Islom anjumani tashkiloti, Arab davlatlari ligasi, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi tashkiloti va boshqalar.*

Sobiq Sovet davlati va unga qaram mamlakatlar o'rnidagi davlatlar ham Jahonning amaldagi tartibotiga qo'shib va o'zaro yangi tuzilma – *Mustaqil davlatlar hamdo'stligi* (MDH) tuzib ko'pgina masalalarni hal qilmoqchi bo'ldilar. Sharqiy Yevropa davlatlarining ayrimlari *YEK* va *NATO*ga kirdi.

Ma'lumki, XX asrda Jahon tartibotini bir necha o'n yilliklar davomida AQSH va sobiq Sovet davlati belgilab *ikki qutbli* manzarani vujudga keltirgan edi. Hozir esa jahoniy yetakchi davlat AQSH bo'lib qoldi. Ayni vaqtda, hozirgi jahoniy tartibotni ko'p qutbli, ya'ni, xilma-xil manfaatlarini amalga oshirishda turlicha imkoniyatlar va vositalarga ega bo'lgan katta-yu kichik, kambag'al-u boy, yadro quroliga ega yoki ega bo'lmagan davlatlarning yonma-yon mavjudligi tashkil etadi degan nuqtayi nazar ham o'ziga tobora yo'l ochmoqda. Zero, *yangi jahoniy tartibot* davlatining hududi va imkoniyatlariga bog'liq bo'lmagan holda *partnyorlik munosabatlarini insoniy lashtirish, harbiy to'qnashish*

*xavflarini kamaytirish, eng muhimi, demokratiyalashtirish* orqali shakllanganida obyektiv ehtiyojlarga mos tushadi.



66-sxema

### Asosiy tushunchalar



- *Tizimiylik* – hodisa va jarayonlarning muayyan tarzda tarkibiy tuzilishga egaligi.
- *Jahoniy tartibot* – Yer yuzi turli siyosiy qutblari o'rtasidagi muvozanatga asoslangan munosabatlar tavsifi.
- «*Uchinchi dunyo*» – rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy nomi.

### Savollar va topshiriqlar



1. Hozirgi jahon hamjamiyati tarkibi tavsifini bering.
2. E. Vallersteynning jahon tizimi nazariyasida jahon davlatlari qaysi asoslarga ko'ra tasnif qilinadi?
3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi Jahon yangi tartiboti shakli hisoblanadimi?

### V.11.2. Axborot-texnologik jamiyat

*Hozirgi texnika va texnologiyaning fan sig'impliligi qanday? Axborot inqilobi nima? Ma'naviy-madaniy va siyosiy sohalarda axborotlashuvning roli qanday? Axborot-texnologik jamiyat nazariyalarining ochiqligi nima?*

«*Axborot*», «*axborotli jamiyat*» tushunchalari. Global muam-molarning kelib chiqishi, mavjudligi va hal etilishi zarurati insoniyat jamiyati yangi sivilizatsiyaviy sifat o'zgarishini taqozo etmoqda. Bu jarayon mohiyatini anglash uchun uning jadalligiga, chuqurligiga va miqyosiga e'tibor berish lozim. Zero, o'nlab va, hatto, yuzlab yillar davomida o'zgarimas bo'lib ko'ringan ijtimoiy munosabatlar g'oyat qisqa vaqtda tubdan o'zgarimoqda. Bu hol kishilar hayoti qatlamlarining barcha bo'g'inlarida ko'rinmoqda. Ko'lamiga ko'ra bu jarayon biron mintaqani chetlab o'tmagan.

Xo'sh, bu qanday sivilizatsiya bo'ladi? Hozirgi dunyoda G'arb qadriyatlarining barcha sohalarda ahamiyati tan olingan va qabul qilayotganini o'rgangan *futurolog-mutaxassislar axborot-texnikaviy* yoki *axborot-kompyuter sivilizatsiyasi* haqida bashorat qilmoqdalar.

Ma'lumki, «*axborot*» tushunchasi dunyoqarashni ifodalaydigan bilimlarda qadimdan mavjud bo'lgan. Kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi bu tushunchani «aloqa» va «boshqaruv» tushunchalari bilan birga keng qo'llanishiga olib keldi. Hozirgi vaqtda axborotlarni hosil qilish, qayta ishlash, saqlash, ko'paytirish va tarqatish alohida ilmiy sohani – *informatika* (lotincha: *tanishtirish, tushuntirish*, sharq tillarida: «*xabar*», «*axborot*») sohasini tashkil etadi. *Bu so'z 1964-yilda Fransiyada muomalaga kiritilgan*<sup>1</sup>.

Axborotlar sohasining tez sur'atlar bilan o'sishi, uni avtomatlashtirish usullarining rivojlantirilishi kompyuterlarning yaratilishiga va kishilar hayotining turli sohaslarini kompyuterlashtirishga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, kelajakdagi «*axborotli jamiyat*» nazariyasini maydonga keltirdi.

Hozirgi vaqtda texnika va texnologiya ko'p jihatlardan fan mahsuli hisoblanadi. Fan esa inson yaratgan ma'naviy qadriyatlardan eng oliysi bo'lib, unga berilgan baholar hamisha bir-biridan keskin farq qilishiga qaramay, tegishli axborotlar ifodasi

---

<sup>1</sup> XX asrning 60-yillari boshida tabiiy resurslar yetishmayotgan Yaponiya oldida «qaysi yo'ldan borish masalasi» turgan edi. Xalqning moddiy farovonligini yanada oshirish yo'lidanmi, axborotli-intellektual rivojlanish, jamiyatni axborotlashtirish, informatiologiyaviy resurs va texnologiyaviy yo'lidanmi, – degan savolga axborotlashuv yo'lidan, deb javob berildi va tegishli yo'l tanlandi. Yaponcha axborot rivojlanishi tizimini 1970-yillar boshida AQSH ham qabul qildi.

sifatidagi ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. Texnologiya fanning uskunaviy vositasi hisoblanadi.

***Axborot inqiloblari.*** Axborot texnologiyasi iqtisodiyot rivojlanishida qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasidan keyingi to‘rtinchi bosqichni egallaydi. Agar kapital va mehnat kishilik jamiyatining sanoatlashish davri mobaynida zarur tashkil etuvchilardan bo‘lsa, axborot va bilim esa kelajak jamiyati asoslarini tashkil etadi.

Yuqorida aytilganidek, tushunchaviy maqomiga ko‘ra «axborot» atamasi qadimdan qo‘llaniladi. Xususan, *axborotlashuv* sohasidagi (buni hozir *informatsiologiya* – axborot ta‘limoti deb atash qabul qilingan) *dastlabki jahon inqilobi* milodiy birinchi mingyillik boshida yashagan Ptolomeyning dunyoning geotsentristik tizimi, *ikkinchi inqilob N.Kopernikning* (XVI asr o‘rtalarida) geliotsentristik nazariyasi bilan vujudga kelgan edi. Bular axborotning ilmiy va ma‘naviy ravnaqini ifodalagan edilar.

*Uchinchi inqilob* 1964-yildan boshlanadi. 80-yillar o‘rtalariga kelib ko‘pgina mamlakatlar axborot rivojlanishi yo‘liga – Internet, multimedia, kosmonavtika, radio va sun‘iy yo‘ldosh aloqasiga asoslangan axborot tizimiga o‘tdilar.

Tabiiyki, bunday sharoitda axborotlarni tegishli tarzda to‘plash va uzatishning avtomatizatsiya vositalari, kompyuter texnikasi va hokazolarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Hozirgi vaqtda (o‘rtacha, taqribiy hisob) AQSHda po‘latning bir kilogramm bahosi *7 sent*, mashinaning bir kilogrammi *4 dollar*, samolyotning bir kilogrammi *700 dollar*, bir kilogramm integral sxema esa *7000 dollar* turadi.

Sifat jihatdan ham axborot texnologiyasida juda muhim o‘zgarishlar yuz bermoqda. Agar *birinchi* kompyuterlar 30-yillarda elektromexanik rele asosida hisoblash maqsadida foydalanilgan bo‘lsa, 60-yillardagi *ikkinchi* avloddan boshlab kompyuterlar yarim o‘tkazgichli tranzistorlardan foydalanib tayyorlanmoqda. Kompyuterlarning beshinchi avlodi hatto intellektual vazifalarni ham yechishga qodir. *Kompyuterlarning oltinchi va yettinchi avlodlari har birining protsessorida 80–100 million tranzistor bo‘lib, har soniyada 2 milliardgacha vazifani bajara oladi.*

***Axborot-texnologiya tayanchlari.*** Axborot texnologiyasi qator tayanch jihatlariga ega. Ulardan *birinchisi* inson faoliyatini maqsadga muvofiq yo'lga qo'yish bilan bog'liq.

*Ikkinchi* tayanch – bu turli tabiatga ega bo'lgan obyektlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni bildirib, EHMga tatbiqan uning inson miyasi bilan funksional umumiylikni anglatadi.

Axborotlashganlikning *uchinchi* tayanchi texnika hisoblanadi. Darhaqiqat, jiddiy texnikaviy rivojlanishsiz kompyuterlarning o'zi ham yaratilmagan bo'lar edi.

Axborot texnologiyasining *to'rtinchi* tayanchi shundaki, uning kelib chiqishi uchun iqtisodiy boshqaruv – siyosiy va ma'naviy sohalarida asosiy manba bo'lishi lozim.

Masalan, demokratiya va ozodlik ideallari rivojlanmagan joyda axborotlashganlik texnologiyasi yuz bermagan bo'lar edi.

Ko'rinib turibdiki, hozirgi zamonda jamiyatning kompyuterlashganligi – bu aniq dalil. Xo'sh, bu dalil jamiyatning aniq olingan sohalarida qanday namoyon bo'lmoqda?

Iqtisodiyot sohasida ishlab chiqarish bilan xizmat ko'rsatish nisbatida birinchisining hisobiga ikkinchisining kengayishi ro'y bermoqda. Og'ir sanoat salmog'i pasayib, uning tobora maydalanib borishi kuzatilmoqda. Avvaldan mavjud tuzilmalar hududiy tarqoq tarmoqlarga bo'linib bormoqda. Bunda mintaqalarning o'zida xomashyolarga har tomonlama ishlov berish va tayyor mahsulotlar almashuvi yuz beradi. Bu almashuvda turli-tuman iste'mol ehtiyojlarini qondirish ustun hisoblanadi. Aholi migratsiyasi ratsional tarzda yo'lga qo'yiladi.

*Axborot-texnikaviy kelajak nazariyotchilari* fikriga ko'ra bu davrda jamiyatda boshqariladigan bozor iqtisodiyoti amalda bo'ladi. Busiz yangi sivilizatsiya qaror topishi, sanoatlashganlik kamchiliklarini bartaraf etish mumkin bo'lmaydi.

Yuksak mehnat unumdorligi, samarali iqtisodiyot ijtimoiy ta'minot yo'li bilan tegishli siyosat olib borishni kafolatlaydi. «*Hech qanday sivilizatsiya, – deb yozadi O.To'ffler, – barcha kasb egalarini bir xil siylamagan va shunday bo'lmog'i lozim. Qishloq xo'jaligi sivilizatsiyasi yoki birinchi to'lqin muayyan sifatlar va qobiliyatlar, ayniqsa, sof muskul kuchi uchun siylagan. Sanoat sivilizatsiyasi yoki*

*ikkinchi to'liq turli kasblar uchun haq to'lagan. Uchinchi to'liq sivilizatsiyasi ham muayyan xususiyatlar va qobiliyatlar uchun boshqalariga qaraganda yaxshiroq haq to'laydi».*

**Ma'naviy-madaniy o'zgarishlar ko'lami.** Ma'naviy-madaniy sohadagi tub o'zgarishlar ommaviy ruhiyatda, ta'lim tizimida, har bir inson saviyasida o'z ifodasini topmoqda. Odatda, bu sohadagi o'zgarishlar boshqa sohalar o'zgarishlariga zamin tayyorlaydi.

Kompyuterlashtirish kishilik jamiyati dinamikasining navbatdagi yo'nalishi sifatida madaniyatning qator sohalarida bo'lgani kabi *san'atda* ham yuksak ravnaqni taqozo etadi. Bu haqda sivilizatsiya rivojlanishi ushbu bosqichi nazariyotchilaridan bo'lgan *J.Nesbitt* va *P.Eburdin* san'atni 90-yillarda jahon miqyosida o'nta yo'nalishning ikkinchisi sifatida ko'rsatadi. Agar sanoatlashgan davrda harbiylar boshqalarga namuna bo'lsa, sport – metafora (majoz)ni anglatgan bo'lsa, endi alohida kishilar, korporatsiyalar, katta yo kichik shaharlar o'z taqdirlarini san'at asarlaridagi shaxslar, obrazlar, hayot uslubi ta'sirida tobora aniqroq belgilab boradilar.

San'at iqtisodiy tushuncha maqomida ham qaralishi obyektiv zaruriyat bo'lib bormoqda. Buni rivojlangan mamlakatlar bozorida foyda keltirayotgan resurs sifatida *muzeylarga* boruvchilarning tobora ko'payib borishida va ko'plab qurilayotgan muzeylar sonida ko'rish mumkin. Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyada madaniyat va san'at sohasi keltirayotgan foyda avtomobilsozlikdagi darajada – har yili o'rtacha 17 milliard dollar bo'lmoqda.


Ma'naviy hayotda san'atning o'rnini sanoatlashgan davrning standartlash yo'nalishidan farqli holda uning *milliyligini* to'la namoyon qilish orqali va muntazam xalqaro almashuv yo'li bilan millatlarning madaniy yaqinlashuviga hissa qo'shishida ham ko'rish mumkin. Zero, san'atning tili (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik, musiqa, raqs) tarjimasiz tushunarli bo'lganidan beba'ho umuminsoniy aloqa vositasidir.

*Maorif* sohasida jiddiy o'zgarishlar kutilmoqda. Jumladan, kechayotgan fan inqilobi va *axborotlashuv* tufayli o'qish, o'qitish ishlarining samaradorligini yanada oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Buning natijasida rivojlangan mamlakatlar AQSH va Yaponiyada XXI asrda *yalpi oliy ta'limga o'tish* vazifasi kun tartibiga qo'yilgan.

*Siyosiy sohada* ham axborotlashuv inqilobi tufayli jiddiy o'zgarishlar kutilmoqda. Chunonchi, davlat hokimiyati markazlashganligi barham topib, uning o'rniga shaxs erkinligi salmog'i oshib boradi. Natijada fuqaro ular har birining demokratik qarorlar qabul qilinishida bevosita ishtirok etishi ta'minlanadi. Boshqa tomondan qaraganda davlat markazlashganligining kuchsizlanishi axborotlarga egalik qilish natijalari bilan ham bog'liq. Masalan, hozirgi ko'pgina mamlakatlarda davlat tashkilotlari fuqarolar to'g'risida axborotlar to'plaganki, zarur bo'lganda ulardan totalitarizm maqsadlarida foydalanishi mumkin. Yana bir hol: davlat hokimiyatini muayyan darajada cheklash axborotlardan turmushning turli sohalarida foydalanish zaruriyati bilan ham bog'liq. Iqtisodiyot sohasidagi axborotlarni tartibga solish, ulardan lozim darajada foydalanishni siyosiy hokimiyatni total aralashuvisiz ham bozor munosabatlari yordamida yo'lga qo'yish mumkin.

*Axborotlashayotgan jamiyat* belgilari tashqi siyosat sohasida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda. AQSHdan tashqari qator mamlakatlar, jumladan, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Rossiya jahon miqyosida mustaqil yetakchi o'ringa da'vogarlik qilmoqda. Ayni vaqtda, mintaqalararo ittifoqlarning (masalan, G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika) o'rni kuchaymoqda. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Albatta, axborotlashgan-texnikaviy sivilizatsiyaning qaror topishi ko'plab noma'lum jihatlariga ham ega. Uni tushuntiradigan ta'limotlarda utopiyalar hissasi kichkina emas.



66-sxema

## Asosiy tushunchalar



- *Informatsiologiya* (lotincha – tanishtirish, tushuntirish va yunoncha – soʻz, taʼlimot soʻzlaridan tuzilgan) tirik hamda notirik tabiatdagi va, umuman, olamdagi barcha jarayonlarni axborotlar asosida umumlashtirib oʻrganuvchi fan hisoblanadi.
- *Postindustrial sivilizatsiya* – sanoatlashgan jamiyat oʻrniga keladigan axborotli sivilizatsiya anglanadi.
- *Totalitarizm* (lotincha – yaxlit, toʻliq) – oʻziga sodiq guruhlar yordamida uning siyosatini qoʻllab-quvvatlamaydiganlarni bostirib turadigan hokimiyatni qoʻlida toʻplagan diktatorning siyosiy boshqaruv shakli.

## Savollar va topshiriqlar



1. Kompyuter tafakkurida axborot qanday oʻrin tutadi? Axborotli-texnikaviy jamiyatning asosiy tavsiflari nimadan iborat?
2. Iqtisodiy sohada yangi sivilizatsiya belgilari qanday namoyon boʻlmoqda?
3. Ijtimoiy-siyosiy sohada kompyuter sivilizatsiyasi boshlanishi qanday natijalarga olib keldi?
4. Ijtimoiy-siyosiy sohada kompyuterlashgan sivilizatsiya boshlanishi qanday natijalarga olib keladi?
5. Maʼnaviy sohada yuz berayotgan oʻzgarishlar nimalardan iborat boʻlmoqda?
6. Siyosiy sohadagi axborotlashuv inqilobi va oqibatlari haqida fikringiz?

## Amaliy ish



1. Taraqqiyot darajasiga koʻra hozirgi davlatlarning tavsifini bering.
2. «Markaz» davlatlari qaysi mintaqalarda joylashgan? Buni tushuntirib bering.
3. «Markazdan yarim uzoqlikdagi» davlatlar tavsifini bering.
4. «Markazdan toʻla uzoqlikda» qaysi davlatlar turadi? Bu toʻgʻrida mulohaza yuriting.
5. «Axborot inqilobi» asosiy belgilarini mulohaza qiling.
6. Axborotlashtirish imkoniyatlarini tushuntiring va yozma ish tayyorlang.



7. Axborotli jamiyat nazariyalari to'g'risida fikringizni yozma bayon qiling.
8. Siyosiy sohadagi axborotlashtirish inson huquqlari bilan qanday sig'isha oladi? Buni tushuntirib bering.
9. Axborotlashtirish madaniyat sohasida qanday kechmoqda? Bu to'g'rida mulohaza yuriting.
10. Axborot-texnikaviy sivilizatsiya nazariyalaridagi utopiyalarni tavsiflang.

### **Ma'ruza va referatlar uchun mavzular**



1. «Hozirgi global muammolar» tushunchasi.
2. Global muammolar tasnifining asosiy tamoyillari.
3. Inter-ijtimoiy munosabatlar tug'dirgan global muammolar.
4. «Inson – jamiyat» tizimida paydo bo'lgan global muammolar.
5. «Jamiyat – tabiat» tizimi doirasida kelib chiqqan global muammolar.
6. Global muammolar hal etilishining asosiy shart-sharoitlari.
7. Axloqning sofligini saqlash – global muammo.
8. «Rim klubi» faoliyati.
9. Quvvat resurslari va oziq-ovqat mablag'lari muammosi.
10. Axborotlashganlik – hozirgi davr belgisi.
11. Axborotli jamiyat nazariyalari to'g'risida.
12. Iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlar ko'lami to'g'risida.
13. Ma'naviy-madaniy sohadagi tub siljishlar to'g'risida.
14. Siyosiy sohadagi axborotlashuv inqilobi.
15. Axborot-texnikaviy sivilizatsiya nazariyalaridagi utopiya.
16. Hozirgi jahoniy tizimning umumiy tavsiflari.
17. E.Vallersteynning jahon tizimi nazariyasi.
18. «Uchinchi dunyo» – rivojlanayotgan davlatlar.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. *Karimov Islom*. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.
2. *Karimov Islom*. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekistonda uni bartaraf etishning yo'llari va chegaralari. – T.: «O'zbekiston», 2010.
3. *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997.
4. Falsafa. Darslik. M. Ahmedova tahriri ostida. – T., 2013.
5. Falsafa. O'quv qo'llanma. E. Yusupov tahriri ostida, – T., 2005.
6. *Валлерстайн И.* Анализ мировых систем и ситуация в современном мире. – С-Пб. 2001.
7. *Торффлер О.* Третья вольна. М., 1999.
8. *Уэбстер Ф.* Теория информационного общества. М., 2004.

---

---

## XOTIMA

Siz o'rgangan o'quv predmeti darsligida insonshunoslik va jamiyatshunoslik masalalarini yoritishda ijtimoiy dunyoqarashni ifodalagan umumnazariy yaxlit bilimga ega bo'lish maqsadi qo'yilgan edi. Bunda, *birinchidan*, inson va uning jamiyatining ilgari maxsus o'rganilmagan jihatlari qarab chiqildi. *Ikkinchidan*, bu jihatlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'zlashtirilgan umumta'lim bilimlari bilan bog'liqlikda o'rganildi.

Xo'sh, darslikni o'zlashtirish davomida olingan bilimlardan qanday xulosalarga kelish mumkin? Bular eng umumiy tarzda quyidagilardir:

1. Insonning noyob mavjudot ekanligidan uning to'g'risidagi bilimlarni doimo to'ldirib, chuqurlashtirib borish zarurdir. Bunda insonshunoslikdagi ilmiy yo'nalishlarning o'zaro muqobilligiga alohida e'tibor berish, hamda noilmiy va hatto, ilmga zid bo'lgan nuqtayi nazarlarning ham yashashga haqqi borligi tan olinishi lozim.

2. *Kishilarning, insoniyat olami – sotsiumda* ijtimoiy jihatdan o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi qoidadan kelib chiqib jamiyatning birlamchiligini tamoyil darajasiga ko'tarish bir tomonlamalik bo'lur edi. Binobarin, jamiyat – bu Olamning alohida sohasi, deyish shartli. Unga sotsiumning tashkiliy shakli sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

3. *Insoniyat dunyosini* ijtimoiy-madaniy sifatlarda olib qarashdan unga sivilizatsiyaviy yondashish lozimligi kelib chiqadi. Bunga ko'ra, jamiyat rivojlanishi to'g'ri chiziqli kechadi, deyish bir yoqlama bo'lib marksistik ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya to'g'risidagi qarashlar o'z qiymatini yo'qotdi.

4. *Tarixiy jarayon* – bu sivilizatsiyalarning kelib chiqishi va rivojlanishidan hamda umrini yashab, so'ng sahnadan ketishidan iboratki, bundan insoniyat yashash makonining istagan joyida zarur sharoitlarda taraqqiyot boshlanishini istisno etib bo'lmaydi.

5. *Sivilizatsiyaviy yondashish* mantiqiy ravishda *Sharq* va *G'arb* tiplarini, so'ngra tegishli kichik tiplarini farqlashni taqozo etadi. Masalan, *Sharq* sivilizatsiyasi tarkibida hind, xitoy, turkiy, arab musulmon va boshqa kichik tiplari farqlanadi.

6. O'zining sivilizatsiyaviy tavsifiga ko'ra *Turon – Movarounnahr–Turkiston* tarixi ayniqsa, e'tiborlidir. Bundan uch ming yilcha avval ilk davlatlar shakllandi, zardushtiylik dini maydonga keldi, shaharlar qurildi, sug'orma dehqonchilikka asoslangan qishloq xo'jaligini cho'l-u sahro chorvachiligi o'zaro to'ldirdi va hokazo.

7. *Jahoniy jarayonlarning kechishi* ko'rsatadiki, buddaviylik, nasroniylik va islomiy dinlarning hamda tegishli sivilizatsiyalar beshigi bo'lgan *Sharqda* axloq-odobning o'ziga xos qoidalari, urf-odatlar va an'analarning barqarorligi qayd etiladi. Shunga ko'ra, kishilar taqdirida, tabiat, sotsium jihatidan esa Davlat belgilovchi rol o'ynagan. Bu yerda islomiy bag'rikenglik, halollik, tasavvufda targ'ib qilingan antropotsentrizm, aql bilan qanoatlanmay ruhni chiniqtirish orqali poklik va kamolotga erishish g'oyalari hozirgi davr sharoitlarida ham ahamiyatga molikdir.

8. *G'arb sivilizatsiyasi jarayonlari kechishidagi antik, nasroniylik o'rta asrlari va renessans davrlari* qanchalik o'z zaminlari bilan tavsiflanmasin, *Sharq sivilizatsiyalari ta'sirida bo'lgan*. Xususan, islomiy sivilizatsiya Renessansga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

9. *Reformatsiya va ma'rifatparvarlik ratsionalizmi va fan-texnika* o'zgarishlari asosida sanoat inqilobi shaklida namoyon bo'lgan Yevropa sivilizatsiyasi, ayni vaqtda, mustamlakachilikni berdi, o'zining Shimoliy Amerika variantida qulchilik mehnatidan keng foydalandi.

10. *Movarounnahrning Arab-islom xalifaligiga* qo'shib olinib musulmon dinining tarqalishi hududiy tarqoqlikka (yigirmatacha beklikka) barham berib, uyg'onish (renessans)ning birinchi davrini ta'minladi. Natijada Amudaryo va Sirdaryo mintaqasi umumiy islomiy sivilizatsiya miqyosida yetakchi o'ringa chiqdi. Movarounnahrdan chiqqan olim-u fozil, donishmand-u ilohiyotchilar xalifalik markazida ham peshqadamlik qilganlar.

11. *Mo'g'ullar hukmronligiga chek qo'yib, yurtda davlat mustaqilligini tiklagan Amir Temur* va uning yetuk izdoshlari o'z yaratuvchilik faoliyatlari bilan bu yerda renessansning ikkinchi

bosqichini ta'minladilar. Lekin Dashti qipchoqdan temuriylar sulolasi o'rniga kelgan ko'chmanchilar hozirgi O'zbekiston hududini ma'lum yillarda bir davlat ostiga birlashtirgan bo'lsa-da, sivilizatorlik rolini bajara olmadilar. Hudud uchta mustaqil xonlikka bo'lindi, ijtimoiy turg'unlik chuqurlashdi va uzoq davom etdi.

12. *Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlaka qilinishi* mavjud ijtimoiy turg'unlikni chuqurlashtirdi. Olib borilgan muayyan ishlar (masalan, temiryo'llar qurilishi) Metropoliya maqsadiga eng ko'p darajada mos kelgan. Rossiyadagi inqilobiy o'zgarishlar ham Turkiston ahvolini yaxshi tomonga o'zgartirmadi. Sovet hokimiyatining zo'ravonlik bilan o'rnatilishi esa chinakamiga falokatni eslatadi. O'zbekiston bolsheviklar boshlagan eksperimentdan dahshatli zarar ko'rdi.

13. Davlat mustaqilligini tiklash O'zbekistonda milliy-tarixiy, mintaqaviy va jahoniy qadriyatlarni o'zlashtirish asosida ijtimoiy rivojlanishga keng imkoniyat berdi. «*O'zbek modeli*» konsepsiyasi hayotiyligini to'la namoyon etib ko'pchilik tomonidan tan olingandir.

14. Insoniyat XXI asrga jahon tarixining yagona, ayni vaqtda global jarayon sifatida kechishi bilan kirib keldi. Globallashuv shiddatli kechayotganligi holda xalqlarni va mintaqalarni yaqinlashtirdi. Ammo qator global muammolar ham kelib chiqdi. Bularni hal etishda yangi jahonni tartibotni qaror toptirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, yuksak rivojlangan davlatlar bilan «uchinchi dunyo» mamlakatlari o'rtasidagi tobora chuqurlashib borayotgan tafovutlarni kamaytirishga ko'mak berish ham dolzarbdir.

15. *Shakllanib kelayotgan axborot-texnikaviy jamiyatda* insoniyatning umumsayyoraviy taqdirini ifodalash imkoniyatlari oshib borishini bashorat qilish mumkin. Bu jarayon ikki tomonlama – salbiy va ijobiy kechayotgan globalizatsiyadan iborat. Xususan, uning ratsional-texnikaviy asoslarida ma'naviyat yetarli darajada o'z ifodasini topmagan.

Bunda salbiy jihatlarning o'rnini mumkin qadar qisqartirish, ijobiy, bashariyat istiqboliga daxldor jihatlarni ko'paytirish muhim vazifa hisoblanadi.

***ILOVA***

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

# **SHAXS VA JAMIYAT**

*(ijtimoiyot asoslari)*

*Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun*

**O‘QUV DASTURI**

(30 soat)

TOSHKENT

2016

Oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishlari boʻyicha muvofiqlashtiruvchi kengashning 2016-yil 8-avgustdagi 3-sonli majlis bayonnomasi

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim Vazirligining 2016-yil 25-avgustdagi 355-sonli buyrugʻi bilan tasdiqlangan

### **Tuzuvchilar:**

**Ismoil Saifnazarov** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Shodmonqul Azizov** – falsafa fanlari nomzodi, professor

### **Taqrizchilar:**

**R. Ubaydullayeva** – «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi rahbari, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi  
**K. Tulenova** – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti, falsafa kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor  
**A. Nafasov** – Toshkent Soliq kolleji «Ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar» kafedrasi mudiri

---

---

## UQTIRISH XATI

«Shaxs va jamiyat» dasturi ilgari akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oʻrta umumtaʼlim maktablarining 11-sinflari uchun tobora takomillashtirilib, oʻn martaga yaqin nashr qilingan edi. Uning asosida yozilgan «Ijtimoiyot asoslari» oʻquv qoʻllanmasi qayta ishlandi va «Shaxs va jamiyat» darsligi sifatida 2004–2005-yillarda nashr etildi. Oʻtgan davr tajribasi umumlashtirilib 2010-yilda predmetning ancha yangilangan dasturi va uning asosida yozilgan darsligi nashr qilindi. Ularni tayyorlashda tegishli fanlar sohaslarida erishilgan yutuqlar hamda taniqli ijtimoiyotshunos olimlarning matbuotdagi ijobiy taqrizlarida bildirilgan istaklari hisobga olingan edi.

Dastur ustida ishlar davom ettirildi, materiallar tahriri kuchaytirildi, uslubiy taʼminlanishiga eʼtibor berildi.

«Shaxs va jamiyat» oʻquv predmeti integrativ kurs boʻlib, uning mazmunini bayon qilishda asosiy jihatlariga koʻra hozirgi umumgumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy bilimlar sohasida qabul qilingan sivilizatsiyaviy yondashishga tayaniladi. Tegishli tarzda dasturda xalqlar tarixiy tajribasidan oʻtib, barcha tomonidan eʼtirof etilgan axloqiy-qadriyatiy moʻljallar asoslanadi. Bu tajribadan kelib chiqilib dasturda ilmiy bilishda kishilik hayoti hodisalariga tor sinfiy-mafkuraviy dogmalar va streotiplar, konyukturaviy sharhlar kabi obyektivlikka zid keladigan pozitsiya rad etiladi.

Dasturda hozirgi zamon bilimlari pozitsiyasida turib, inson va uning jamiyatini oʻrganishda umuminsoniy jihatlarining ustuvorligi hisobga olingan. Shuningdek, inson oliy qadriyat ekanligi, uning erkinligi va erkin fuqarolik jamiyati davlati asosiy tayanchlarining mustahkamligiga, qonunchilik va masʼuliyatga asoslanishning lozimligi taʼkidlanadi. Dastur mazmunining zarur minimumi quyidagi tarkibiy bloklardan iborat:

1. Inson, uning antroposotsiogenetik tadriji. Shaxs maqomi, hayoti, o'lim va undan keyingi manguilik masalalari.

2. Sotsiumning tashkiliy shakli sifatida jamiyatning nazariy modeli, hayotining asosiy sohalari. Ijtimoiy jarayonlar va ularning yo'nalganligi muammolari. Jamiyatning funksional holati.

3. Ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida sivilizatsiyalarning Sharq va G'arb tiplari, Turon–Movarounnahr–Turkistonning – tarixiy-sivilizatsiyaviy O'zbekistonning zamonaviy sivilizatsiyaviy tavsifi.

4. Hozirgi dunyo, undagi globallashuv jarayonlari. Global muammolarning mohiyati va bartaraf etilishining shart-sharoitlari hamda hozirgi jahoniy miqyosda umuminsoniy sivilizatsiya shakllanishi masalalari.

Real o'quv jarayonida mavzularning ketma-ket, izchil o'rganib borilishi mualliflik dasturlarida predmet o'qitilishining tanlangan konsepsiyasiga muvofiq ham belgilanishi mumkin.

Kurs mazmunining o'zlashtirilishi qator jihatlariga ko'ra tarix, geografiya, atropologiya sohalari bilimlarining, sivilizatsiyalarga oid mavzular esa davlat va huquq asoslari hamda boshqa predmetlarning tegishli qismlariga tayangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Dasturda o'quv predmetining maqsadlari va vazifalari belgilanib hamda ta'lim va tarbiyaning birligi doirasidagi umumiy yo'nalishi ko'rsatib berildi:

***Birinchi***dan, ijtimoiy bilish yutuqlariga asoslangan holda Shaxs axloqiy madaniyatining, uning hozirgi maqomdagi tafakkur tarzi va ijtimoiy xatti-harakatining shakllanishi, o'zining taqdirini o'zi belgilashi va o'zini o'zi namoyon etishini shakllantirish.

***Ikkinchi***dan, inson shaxsi, jamiyat, sivilizatsiya to'g'risida umumgumanitar hamda ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning bundan keyingi o'qitilishi, mustaqil ta'lim yoki kasbiy faoliyat uchun zarur bilimlar tizimini o'rganish.

***Uchinchi***dan, turli millat va elatlar konfessiyalarning yonmayon yashashi sharoitida milliy g'oyaga sodiqlikni, insonparvarlik ideallariga, O'zbekiston Respublikasidagi bag'rikenglik, konstitutsiyaviy, demografiya qadriyatlarini hurmat qilishni tarbiyalash.

***To'rtinchi***dan, inson va jamiyat hayoti to'g'risidagi axborotlarni to'plash, tizimlashtirish va tanqidiy mulohaza qilish malakalarini egallash.



***Beshinchidan***, shakllanayotgan fuqarolik jamiyati va demokratik, huquqiy davlat hamda oilaviy turmush sohasida zarur bo'lgan kommunikativ faoliyat usullarini o'rganish.

Dastur namunaviy bo'lganidan «Shaxs va jamiyat» predmeti mazmunida qaysidir bir zamonaviy nazariy konsepsiya boshqalariga zarar keltiriladigan darajada afzal ko'rilmaydi. Uning belgilangan majburiy qismi uchun 40 soat ajratilgan. Uning doirasida variantlilik imkoniyatlari mavjudligidan o'qituvchi dars jarayoniga mustaqil yondasha oladi, xususan, hozirgi pedagogik texnologiyalarni joriy etish maqsadida ikki soat zaxira vaqt (umumiy soat miqdorining 5% i) ajratilgan.

Yoshlarda tegishli bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilganligiga ko'ra dastur yetarli darajadagi nazariy saviyaga erishishni va oliy maktab ta'limi tizimida o'qishni davom ettirishni ta'minlashga qaratilgan. Jumladan, unda talabalarga quyidagi umumta'lim malakalari, ko'nikmalari va faoliyat tarzlarini shakllantirishni nazarda tutiladi:

- o'rganilayotgan obyektning umumiy tavsifini belgilash, uni boshqa bahosi va tavsifi bilan qiyoslash, solishtirish;
- egallangan bilimlarni konkret misollarda oydinlashtirish;
- tipik ijtimoiy vaziyatlarda amaliy bilish vazifalarini hal etish malakalarini egallash;
- to'g'ri hukmni asoslash, dalillar keltirish, ta'riflar berish;
- zarur axborotni izlashdan tortib, ularning natijalarini tekshirish, baholash va ulardan foydalanish;
- loyiha tuzish ishlarida ishtirok etish, izlanish faoliyatida oddiy ko'nikmalarni egallash;
- matnni tushunish va uning tili o'ziga xosligini farqlash;
- ommaviy axborot vositalarining «Shaxs va jamiyat» mazmuniga doir materiallar tilini aynan bir xil tushunish;
- axborotlarni to'plash, qayta ishlash, uzatish va saqlash bo'yicha kompyuter texnologiyalaridan foydalanish malakasini egallash;
- xalq oldiga chiqib so'zlash usuli (monolog, dialog, bahs, munozara) va nutqda axloqiy me'yorlarga rioya qilishni egallash.

**O'quv rejasida «Shaxs va jamiyat» faniga ajratilgan va ularning dars turlari bo'yicha taqsimoti**

Tartib raqami	Fan bo'limlari, boblar va fasllar	Umumiy yuklama (soatlar)				
		Dars turlari bo'yicha soatlar taqsimoti				
		Jami	Dars soatlari	Ma'ruzalar	Seminarlar	Mus-taqil ish
<b>0.I00</b>	<b>INSON VA UNING SHAXS TAVSIFI</b>	<b>14</b>	<b>10</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>4</b>
0.I01.	INSON – JONLI MAVJUDOTNING ALOHIDA TURI	3	2	1	1	1
1-§	Inson fenomeni		1	1	1	
2-§	Insonning o'zini o'zi va tashqi dunyoni bilishi zarurligi va imkoniyatlari		1			1
01.II.	INSON KELIB CHIQISHINING TABIIY-BIOLOGIK VA IJTIMOY-TARIXIY SHART-SHAROITLARI (antroposotsiogenez)	4	3	2	1	1
1-§.	Insonning kelib chiqqanligi (dinga ko'ra yaratilganligi) to'g'risidagi nazariyalar		1	1		
2-§.	Sotsiogenez. Ruhiyat		2	1	1	1
01 III.	SHAXS	7	5	3	2	2
1-§.	Individ va shaxs		2	2		1
2-§.	Shaxs: erkinlik va demokratiya		1		1	
3-§.	Buyuk shaxs: asosiy tavsiflar. O'lim va undan keyingi barhayotlik		2	1	1	1
<b>II.00</b>	<b>JAMIYAT – KISHILIK DUNYOSI (sotsium)ning tashkiliy shakli</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>2</b>
II.01	KISHILIK DUNYOSI	5	4	2	2	1
1-§.	Jamoa va jamiyat		2	1	1	
2–3-§§.	Jamiyat hayotining asosiy sohalari		2	1	1	1
II.II.	IJTIMOY-TARIXIY JARAYONLAR	3	2	1	1	1
1-§.	Ijtimoiy tarix: ma'nosi va kechishi		1	1		
2-§.	Tarixni bilishga yondashishlar		1		1	1
<b>III.00.</b>	<b>SIVILIZATSIYALAR – IJTIMOY-MADANIY YAXLITLIK</b>	<b>8</b>	<b>4</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>4</b>
III.01.	JAMIYAT VA SIVILIZATSIYA	3	2	1	1	1
1-§.	Sivilizatsiya: mazmuni va shakllanish bosqichlari		1	1		
2-§.	Madaniyat va qadriyatlar		1			1
III.II.	SIVILIZATSIYALAR TASNIFI	5	2	1	1	3

1-§.	Sharq va G'arb: sivilizatsiya tiplari		1	1		
2-§.	Islomiy sivilizatsiya		1			1
3-§.	Turon – Movarounnahr – Turkiston: sivilizatsiyaviylik mezonlari va bosqichlari					1
4-§.	Mustamlakachilik va Turkistonda ijtimoiy-madaniy turg'unlikning chuqurlashuvi					1
<b>IV.00.</b>	<b>MUSTAQIL O'ZBEKISTONNING ZAMONAVIY SIVILIZATSIYAVIY MO'LJALLARI</b>	<b>7</b>	<b>5</b>	<b>3</b>	<b>2</b>	<b>2</b>
IV.01.	DAVLAT ISTIQLOLI VA IJTIMOYIY RIVOJLANISH YO'LINING TANLANISHI	4	3	2	1	1
1-2-§§.	Demokratik-huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurilishining zarurligi va shart-sharoitlari		2	1		1
3-§.	Barpo etilayotgan va rivojlana-yotgan iqtisodiyotning ilg'or sivilizatsiyaviy mo'ljallari		1	1	1	
IV.II.	BARKAMOL AVLODNI VOYAGA YETKAZISH VAZIFALARI	3	2	1	1	1
1-§.	Davlat va jamiyatning yosh avlodining muammolarini hal etishidagi vazifalari		1			
2-§.	Ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar		1			
<b>0V.00.</b>	<b>HOZIRGI DUNYO: CHUQUR SIVILIZATSIYAVIY O'ZGARISHLAR</b>	<b>7</b>	<b>5</b>	<b>3</b>	<b>2</b>	<b>2</b>
0V.01.	LIBERALIZM, MODERNIZATSIYA, GLOBALLASHUV VA UMUMSAY-YORAVIY MUAMMOLAR	4	3	2	1	1
1-§.	Liberalizm va modernizatsiya: hozirgi bosqich		1	1		
2-§.	Globallashuv: mohiyati, mazmuni, yo'nalishlari va oqibatlari		1	1	1	1
3-§.	Hozirgi umumsayyoraviy (global) muammolar					1
0V.II.	SHAKLLANAYOTGAN YAGONA JAHONIY SIVILIZATSIYANING ASOSIY BELGILARI	3	2	1	1	1
1-§.	Hozirgi jamiyatlar – jahoniy tizim		1	1		1
2-§.	Axborot-texnologik jamiyat		1		1	
		44	30	16	14	14

## **DASTURNING ASOSIY MAZMUNI**

XX va XXI asrlar marrasida jahonda va O‘zbekistonda yuz bergan buyuk o‘zgarishlarning nomuayyan va muqobil kechishiga integrativ yondashishda falsafiy dunyoqarash mo‘ljallarining ahamiyati. Falsafiy bilimlar bilan insoniyat jamiyati to‘g‘risidagi fan bilimlarining hamda diniy qarashlarning umumiyliigi va farqlari. Inson shaxsi va jamiyat hamda ular aloqadorligini o‘rganishda sivilizatsiyaviylik tamoyilining zarurligi. Shaxs kamolotining jamiyatga va ijtimoiy jarayonlar mazmunining inson yetukligiga bog‘liqligi. «Shaxs va jamiyat (ijtimoiyot asoslari)» o‘quv predmetining ta‘limiy maqsad va vazifalari. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimidagi ijtimoiy-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning yakunlovchi qismi sifatida «Shaxs va jamiyat (ijtimoiyot asoslari)» predmetida umuminsoniy va milliy-hududiy qadriyatlarining birligi.

«Shaxs va jamiyat (ijtimoiyot asoslari)» o‘quv predmeti bilimlarining O‘zbekiston yoshlari ong-shuurida milliy g‘oya, istiqloq mafkurasini qaror toptirish va mustahkamlashdagi o‘rni va ahamiyati.

### ***BIRINCHI BO‘LIM*** **INSON VA UNING SHAXS TAVSIFI**

#### ***I bob.* INSON – JONLI MAVJUDOTNING ALOHIDA TURI**

##### **1-§. Inson fenomeni**

Hayot tadriji va inson. Bilimlar tizimida insonning turlicha tavsiflanishi; Koinotning noyob hodisasi; barcha mavjudotlarning o‘lchovi; ochiq tizim sifatida alohida ustunliklariga ega mavjudot; tadrijiylikning boshi berk tarmog‘i; tabiiy patologiya va h.k. Hozirgi bilimda insonning tabiiy-biologiyaviy, ijtimoiy-tarixiy va ruhiy-ma‘naviy jihatlarini o‘rganilishi.

##### **2-§. Insonning o‘zini o‘zi hamda tashqi dunyoni bilishi zarurligi va imkoniyatlari**

Bilish – insonning xos ehtiyoji. Bilishning turlari va darajalari. Ilmiy bilimlar, haqiqat muammosi: mutlaqlik, nisbiylik va konkretlilik jihatlarini. Fanlar tasnifi. Ma‘naviyat tarkibiy qismlarining o‘ziga xos bilish salohiyatlari. Falsafa – bilishning oliy tarzi. Hozirgi bilimlar tavsifi. Ilmiy ijod.

## **II bob. INSON KELIB CHIQISHINING TABIIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIIY-TARIXIY SHART-SHAROITLARI (ANTROPOSOTSIOGENEZ)**

### **1-§. Insonning kelib chiqqanligi (dinga ko‘ra yaratilganligi) to‘g‘risidagi nazariyalar**

Dinda insonning yaratilganligi to‘g‘risida. Antropogenezga doir ilmiy bilimlar va dalillarning to‘planib borganligi. Hayot tadriji va inson. Homo turining kelib chiqishi va keyingi tadriji to‘g‘risidagi hozirgi zamon bilimlari. Tadrijiylik nazariyalarining ijobiy jihatlari va kamchiliklari. Koinotiy nazariyalar va ulardagi kamchiliklar. Anomal hodisalar nazariyasi va uning dalillanganligi muammosi. Antropogenezning noan‘anaviy nazariyalari. Inson kelib chiqishining sinergetik tushuntirilishi.

### **2-§. Sotsiogenez. Ruhiyat**

Antroposotsiogenez nazariyalarni umumgumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy bilimlar hamda mantiq kuchi bilan to‘ldirish zarurligi. Inson kelib chiqishining ijtimoiy omillari. Qurollar yasash va ulardan foydalanishning ahamiyati to‘g‘risidagi ta‘limotlarning ishchifaraziy roli.

Miya va asab tizimi – ruhiyatning moddiy tashuvchilari. Anglash hodisasi. Ong va til. Ruhiyat tafakkur unsurlarining shakllanishi. Nutq. Axloqiy tasavvurlarning shakllanishi. Diniy amallarning boshlanishi. Sotsiogenezda tanlovning roli. Moddiy-ashyoviylik yodgorliklarida saqlangan ma‘naviylik. Insoniyat tarixining bosqichlari. Inson ajdodlari hayotida jinsiy tabuning roli. Oilaviy munosabatlar tadriji.

## **III bob. SHAXS**

### **1-§. Individ va shaxs**

Individ va bilimlarning turli tarmoqlarida uning har xil tavsiflari. Jismoniy mavjudligini ta‘minlash – individ faoliyatining maqsadi. Individuallik. «Shaxs» tushunchasi. Inson umumiy sifatlari bilan uning shaxs maqomi nisbati. Shaxsning ichki dunyosi va ijtimoiy atrof-muhit. Shaxsning umummadaniy ideali. Shaxs «MEN»ining

tarkibi. Shaxs yaxlitligining bo'linishi va uning oqibatlari. O'z o'zini anglash. Ijtimoiylashuv. Insonga bo'lgan global ta'sirlar, ularning tasnifi va natijaliligi.

## **2-§. Shaxs: erkinlik va demokratiya**

«Erkinlik» tushunchasida shaxs tarixiy-madaniy ehtiyojlarining ifodalanishi. «Men» va «o'zga men» muvozanati – erkinlik asosi. Sihat-salomatlik – erkinlikning biologik ifodasi. Berilgan imkoniyatlardan yaxshisini tanlash – erkinlik mezon. Shaxsning jamiyat va uning siyosiy hokimiyati tashkiliy darajalariga bog'liqligi. Demokratiya – shaxs qadriyatlarini ta'minlash vositasi.

## **3-§. Buyuk shaxs: asosiy tavsiflar. O'lim va undan keyingi barhayotlik**

Buyuk shaxs maqomi. Buyuk shaxslar tomonidan kun tartibiga qo'yilgan muammolar va bajarilgan ishlar nisbati. O'zbekiston tarixida Zardushtdan Islom Karimovgacha bo'lgan shaxslar faoliyatining alohida jihatlari. Buyuk shaxs hayotining ma'nosi va mazmuni, maqsadi va vositalari nisbati. O'limini anglash – insonni ajratuvchi belgi. O'limni ma'naviy vositalar bilan barqaror qilish imkoniyatlari. Barhayotlik – mazmunli o'tgan umrning o'limdan keyingi davom etishi. Evtanaziya muammosi.

## ***IKKINCHI BO'LIM***

### **JAMIYAT – KISHILIK DUNYOSI (SOTSIUM)NING TASHKILY SHAKLI**

#### ***I bob. KISHILIK DUNYOSI***

##### **1-§. Jamoa va jamiyat**

Sotsium – keng ma'noda Universumning (Olamning) alohida qismi. «Jamo» tushunchasi. «Jamiyat» tushunchasi. Jamiyat – o'z-o'zidan tashkillangan, o'z-o'zicha yetarli dinamik-murakkab tuzilma.

Jamiyatning nazariy modeli va unda sezgilar bilan bilib bo'lmaydigan, tekshirilmaydigan ijtimoiy voqelikning ifodalanishi. Mav-

humlikdan konkretlikka qarab borish. Jamiyatni modellashtirishda tamoyillar va tushunchalarning ahamiyati.

### **2-3 §§. Jamiyat hayotining asosiy sohalari**

*Inson ichki dunyosi – ma’naviyat sohasi.* Axborotdorlik. Ziyolilar – ma’naviyat tashuvchilari. Axloqiy hayot. Ta’lim va fan. Badiiy-estetik hayot. Din, uning hozirgi jamiyatdagi o‘rni.

*Moddiy-iqtisodiy hayot.* Moddiy ishlab chiqarish jarayoni. Mehnat unumdorligi. Inson, texnika va texnologiya. Mulkchilikning turli xillari. Turmush darajasi. Iqtisodiyot va jamiyat hayotining boshqa sohalari.

*«Ijtimoiy (sotsial) soha»* tushunchasining tor va keng ma’nolari. Ijtimoiy-hududiy birliklar. Etnik birliklarning tarkibi. Kichik ijtimoiy guruhlar. Irqning ijtimoiy maqomi muammosi.

*Boshqaruv – jonli tizimlarning ajralmas jihati.* Hokimiyat. Siyosiy soha. Davlat – sivilizatsiyaviy fenomen. Siyosiy partiyalar. Demokratiya va davlat tizimlari shakli.

*Ijtimoiy institutlar va ularning tasnifi.* Tashkilot va muassasalar, ularning xillari. «Byurokratiya» hodisasi.

## **II bob. IJTIMOIIY-TARIXIIY JARAYONLAR**

### **1-§. Ijtimoiy tarix: ma’nosi va kechishi**

«Tarix» atamasining ko‘p ma’noliligi. O‘tmishni hozirgi davr orqali idrok etishning maqsadi va mazmuni. Sharq (an’anaviy) va G‘arb-Yevropa (dinamik) jamiyatlarida tarix kechishining xos jihatlari hamda ularni turlicha tushuntirilishi. Ijtimoiy taraqqiyot muammolari.

### **2-§. Tarixni bilishga yondashishlar**

Ijtimoiy jarayonlarini bilish, diniy va dunyoviy yondashish. Tarixga monistik qarashning mohiyati. Turli obyektiv va subyektiv omillarning monistik talqini. Plyuralistik yondashish, uning mohiyati va asosiy komponentlari. Jamiyat hayotini barqaror qiluvchi omillar.

## **UCHINCHI BO‘LIM**

### **SIVILIZATSIYALAR – IJTIMOIIY-MADANIY YAXLITLIK**

#### ***I bob.* JAMIYAT VA SIVILIZATSIYA**

##### **1-§. Sivilizatsiya: mazmuni va shakllanish bosqichlari**

«Sivilizatsiya» tushunchasi. Chorvachilik, dehqonchilik, quruvchilik, amaldorlik va ruhoniyyatning kelib chiqishi – sivilizatsiyaning boshlanishi. Politogenez. Ma’naviy shart-sharoitlar. A. Toynbi, A. Shpengler va K. Yaspers nazariyalari. Formatsiyaviy yondashishning yaroqsizligi.

##### **2-§. Madaniyat va qadriyatlar**

Sivilizatsiya tarkibida madaniyatning o‘rni. «Madaniyat» tushunchasi va uning ko‘p ma’noligi. Madaniyatning tarkibi va shakllariga ko‘ra tasnifi. Urf-odatlar va an’alarining madaniyatlik tavsifi.

Qadriyatlar – ne’mat. Ehtiyoj – maqsad – ideal – me’yor – baholash bog‘liqligi. Shaxs hayotining jamiyat qadriyatlaridan ustunligi.

#### ***II bob.* SIVILIZATSIYALAR TASNIFI**

##### **1-§. Sharq va G‘arb: sivilizatsiya tiplari**

Sharq – daryoviy-mintaqaviy sivilizatsiyalar o‘chog‘i. Kishilar turmushida axloq-odob, urf-odatlar va an’alarning barqarorlashib borishi. Falsafiy dunyoqarash va ilmiy bilimlarning qorishiqligi (sinkretikligi). Kishilar taqdirida Tabiat, Sotsium va Davlatning belgilovchiligi.

Sharqning Yevropaga ta’siri. Nasroniy sivilizatsiya. Uyg‘onish, Reformatsiya va Ma’rifatchilik. Fan, sanoat, vakolatli demokratiya – G‘arb yangi sivilizatsiyasining belgilovchi jihatlari. Sharq va G‘arb qadriyatlarining yaqinlashuvi – umumsivilizatsiyaviy jarayon.

##### **2-§. Islomiy sivilizatsiya**

Sharq – barcha jahoniy dinlar beshigi. Islom Qadimgi Sharq, Antik dunyo va Yevropa Yangi tarixi oralig‘idagi davr. Musulmonchilikda jamoa maqomi, oddiy va bajarilishi qat’iy bo‘lgan qoidalarning «Qur’on»da ifodalanishi. Islom dinining keng tarqalishi. Bag‘rikenglik, mahalliy an’analarga hurmat, halollik.

Islomiy madaniyat tarkibiy qismlari rivojlanishining shart-sharoitlari.



### **3-§. Turon – Movarounnahr – Turkiston: sivilizatsiyaviylik mezonlari va bosqichlari**

Qadimgi Turonda sivilizatsiyaning boshlanishi. «Avesto» – ijtimoiy-madaniy yodgorlik. Movarounnahrda islomiy lokal sivilizatsiyaning qaror topishi. Islomiy sivilizatsiyaning turkiy tarmogʻi. Turkistondan chiqqan mutafakkirlarning sivilizatorlik faoliyati.

Amir Temur va yetuk temuriylar davridagi sivilizatsiyaviy koʻtarilish. «Temur tuzuklari». Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburning Oʻzbekiston xalqlari maʼnaviyati tarixidagi oʻrni.

XVI asrdan boshlangan sivilizatsiyaviy orqada qolishlik sabablari va oqibatlari.

### **4-§. Mustamlakachilik va Turkistonda ijtimoiy-madaniy turgʻunlikning chuqurlashuvi**

Turkistonda Rossiya mustamlakachiligining ijtimoiy-madaniy oqibatlari. Maʼrifatparvarlik harakatida aql-idrokning roli va ahamiyatining asoslanishi. Jadidchilikning umumturkiy zaminlari. Davlat istiqloliga erishish – bosh maqsad.

Marksizm-leninizmning sivilizatsiyaviy yaroqsizligi. «Milliy-hududiy boʻlinish» – Turkiston tarixiy-madaniy, til, diniy, maʼnaviy yaxlitligining buzilishi va uning oqibatlari. Metropoliya uchun xomashyo bazasi boʻlgan Oʻzbekistonda totalitar tuzum sharoitidagi maʼnaviy yoʻqotishlar koʻlami.

## ***TOʻRTINCHI BOʻLIM*** **MUSTAQIL OʻZBEKISTONNING ZAMONAVIY SIVILIZATSIYAVIY MOʻLJALLARI**

### ***I bob. DAVLAT ISTIQLOLI VA IJTIMOIIY RIVOJLANISH YOʻLINING TANLANISHI***

#### **1–2 §§. Demokratik-huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurilishining zarurligi va shart-sharoitlari**

Oʻzbekistonning davlat istiqloli va ijtimoiy tanlov («Qayoqqa?», «Qanday tarzda?», «Qaysi vositalar bilan?») shart-sharoitlari va imkoniyatlari. Istiqlool va siyosiy jarayonlar. Yaratilgan va rivojlanayotgan davlatning nazariy konsepsiyasi. Davlat hokimiyatlarining boʻlinganligi. Koʻppartiyaviylik. Qonun ustuvorligi. Shaxs va davlatning oʻzaro masʼulligi.

Davlat funksional faoliyati bilan shaxs fuqarolik sifatining bog'liqligi. O'z-o'zidan tashkillanish – fuqarolik jamiyatining xos belgisi. Tarixiy-madaniy qadriyatlar salohiyatidan foydalanish zarurligi. Mahalla instituti. Nodavlat, notijorat tashkilotlar.

### **3-§. Barpo etilayotgan va rivojlanayotgan iqtisodiyotning ilg'or sivilizatsiyaviy mo'ljallari**

Sovet markazlashgan iqtisodiyotidan ijtimoiy yo'naltirilgan va boshqariladigan bozor tizimlariga o'tishning zarurligi. Prezident I. Karimov o'tish davri uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillar to'g'risida. Erkin bozor iqtisodiyoti – erkin raqobat va ko'p sonli o'rta qatlamning mavjudligi. Shaxsiy tashabbus va davlatning ishtirokiga asoslangan iqtisodiyotning asosiy belgilari. Iqtisodiy islohotlarda «o'zbek modeli»ning amalga oshirilishi.

## ***II bob. BARKAMOL AVLODNI VOYAGA YETKAZISH VAZIFALARI***

### **1-§. Davlat va jamiyatning yosh avlodining muammolarini hal etishidagi vazifalari**

O'zbekistan aholisining yosh tarkibi. Yosh avlodning ijtimoiy maqomi. O'smirlar xatti-harakatidagi turli rollarni bajarishga moyilliklar. Yoshlar kichik madaniyatining o'ziga xos jihatlari. Gender-farqlanishning ijtimoiy ifodalanishi. Davlatning yoshlar siyosati. Yoshlarda ommaviy madaniyatning zararli ta'sirlariga qarshi immunitetni shakllantirish zarurligi.

### **2-§. Ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar**

«Ta'lim» institutining hozirgi umumsayyoraviy maqomi. O'zbekistonda yaratilgan uzluksiz ta'lim tizimining jahonda tan olinganligi. «Ta'limning o'zbek modeli» bosqichlari. Mutaxassislikni erkin tanlash va bozor iqtisodiyoti sharoitlarida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining vazifalari. Kasb tanlashdagi tipik yanglishishlar va ularni oldini olish – ijtimoiy vazifa.

Ta'lim tizimi va sog'lom turmush tarzi qadriyatlari. Yoshlar maishiy hayotida zararli odatlarga qarshi kurashning zarurligi.

## ***BESHINCHI BO'LIM***

### **HOZIRGI DUNYO: CHUQUR SIVILIZATSIYAVIY O'ZGARISHLAR**

#### ***I bob. LIBERALIZM, MODERNIZATSIYA, GLOBALLASHUV VA UMUMSAYYORAVIY MUAMMOLAR***

##### **1-§. Liberalizm va modernizatsiya: hozirgi bosqich**

«Liberalizm» tushunchasi. Ma'naviyat, siyosat va iqtisodiyot sohaslarida liberalizm tamoyillarining ahamiyati. Liberal demokratik an'analarning hozirgi jahoniy o'rnini. Liberalizm qadriyatlari va modernizatsiya nazariyalarining rivojlanishi. G'arbcha va sharqona modernizatsiya tiplari. Modernizatsiya va hozirgi dunyoning sivilizatsiyaviy turli-tumanligi.

##### **2-§. Globallashuv: mohiyati, mazmuni, yo'nalishlari va oqibatlari**

«Globalizatsiya» tushunchasi. Sanoat ishlab chiqarishining ko'lamini va salohiyatini hamda transmilliy birlashib borilishi. Internet imkoniyatlari. «Umumiy uy», «umumiy taqdir», «umumiy tashvish» va hokazolar. XX asrda yagona jahon tarixi boshlanishining belgilari. Globalizatsiyaning salbiy oqibatlari. Antiglobalizm harakati.

##### **3-§. Hozirgi umumsayyoraviy (global) muammolar**

Hozirgi global muammolar. Ularning jamiyatning ichki holati, «inson-jamiyat», va «jamiyat-tabiat» tizimlari tug'dirganligiga ko'ra tasniflanishi. Global muammolar hal etilishining umumiy va xususiy, ichki va tashqi shart-sharoitlari.

#### ***II bob. SHAKLLANAYOTGAN YAGONA JAHONIY SIVILIZATSIYANING ASOSIY BELGILARI***

##### **1-§. Hozirgi jamiyatlar – jahoniy tizim**

Hozirgi kishilik jamiyati Sayyora miqyosida – jahoniy tizim. Tizimda yadro, undan yarimuzoq va uzoqlikdagi jamiyatlar (U. Vallersteyn). Texnologiya-industrial sivilizatsiya doirasida G'arb

jamiyatlardagi farqlanishlar. Sharqning izchil rivojlanayotgan mamlakatlari – neoindustrial model tashuvchilari. Postkommunistik davlatlarning o‘tish holatidaligi. Janubdagi an’anaviy – agrar jamiyatlarda ijtimoiy institutlar va kishilar turmush tarzidagi o‘zgarishlar ko‘lami.

Jahon yangi tartiboti muammolari.

## **2-§. Axborot-texnologik jamiyat**

Hozirgi texnika va texnologiyaning fan sig‘imliliigi. Axborot texnologiyasining asosiy miqdoriy va sifat tizimlaridagi belgilovchi jihatlar. Sanoatlashgan jamiyat kamchiliklarini bartaraf etishda axborot inqilobining ahamiyati. Ma’naviy-madaniy sohadagi tub o‘zgarishlar. Siyosiy hayotda axborotlashuv jarayonlari ko‘lami. Axborot jamiyati nazariyalarining munozarali jihatlari.

### **O‘QUVCHILARNING DARS DAN TASHQARI MUSTAQIL ISHLARI**

«Shaxs va jamiyat» o‘quv predmeti bo‘yicha talabalar vaqtining anchagina qismi mustaqil ishlarini bajarishga to‘g‘ri keladi. Bunda ular qo‘shimcha ravishda bilish va amaliy faoliyat tajribasini egallaydi. Bularning minimumi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– mavjud xilma-xil axborotlarni tanqidiy o‘zlashtirib o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifodalash;

– nostandart, pedagogik jihatdan moslashmagan axborotlarni, masalan, Internetni ham o‘z ichiga olgan zamonaviy kommunikatsiya vositalari yordamida turli manbalar ustidan ishlar:

– tevarak-atrofdagi yuz beradigan voqea va hodisalarni zamonaviy ijtimoiy bilish usullariga tayangan holda tahlil etish;

– real voqelik vaziyatlarini moddiylashtiradigan ta’limiy o‘yinlarda va dolzarb ijtimoiy muammolar bo‘yicha muhokama, munozaralarda ishtirok etish hamda o‘z qarashlarini mantiqiy dalillash;

– o‘quv predmetining tegishli qismlari bo‘yicha kasbiy sohalariga bog‘lagan holda referatlar tayyorlash; va h.k.

## **O‘QUV PREDMETINING O‘ZLASHTIRILISHIGA DOIR TALABLAR**

1. O‘quv predmetini umumta’lim fanlari yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitish natijalariga ko‘ra quyidagi talablar qo‘yiladi:

– insonning kelib chiqishidan tortib, uning asosiy fenomenlari sifatlarigacha bo‘lgan bilimlarni, birinchi navbatda ular mohiyatini o‘zlashtirish, tushunish;

– ijtimoiy jarayonlarni hamda ularni tartibga solib turuvchi asosiy institutsional tuzilmalarning tabiatini yetarli darajada mulohaza qilish va tushunish;

– sivilizatsiyalarning ijtimoiy-madaniy jarayonlar sifatidagi tavsiflarini lozim darajada bilish;

– Sharq va G‘arb sivilizatsiyaviy umumiyliklari va farqlari hamda bularning ilgari va hozirgi jihatlarini mulohaza etish;

– mustaqil O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy-madaniy tashkil etuvchilari tizimidagi tub o‘zgarishlarning mohiyati, mazmuni va yo‘nalishlarini tushunish;

– hozirgi dunyo, globalizatsiya va global muammolar hal etilishining shart-sharoitlari hamda shakllanayotgan axborotli-texnologiyaviy sivilizatsiyaning asosiy konturlari to‘g‘risidagi bilimlarni mulohaza etish.

2. O‘quv predmetini o‘zlashtirgan talabalar quyidagilarni uddalashi lozim:

– ijtimoiy hodisa, jarayon yoki fakti zamonaviy ilmiy pozitsiyadan turib qarab chiqish;

– ijtimoiy ma’no va mazmun kasb etgan axborotlarni tegishli ilmiy atama, tushunchalarda tahlil va tasnif etish hamda ularni bir belgi tizimi (matn, sxema, diagramma va boshqalar)dan boshqasiga ko‘chirish;

– ijtimoiy obyektlarning umumiy va xususiy jihatlarini qiyosiy farqlash hamda bularga oid bilimlarni «Shaxs va jamiyat» predmeti tushunchalarida ifodalash;

– o‘rganilayotgan obyektlarni shaxslararo, shaxs va jamiyat, jamiyat va tabiat, har xil kichik tizimlar va hokozolar o‘rtasidagi aloqalarida ko‘rsatish va tushuntirish;

– shaxs, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar va xalqaro subyektlarning turli sohalaridagi xatti-harakatlarini axloqiy meʼyorlar, siyosiy demokratiya va ilmiy ratsionallik nuqtayi nazaridan baholay olish;

– referat, ogʻzaki chiqishlar, ijtimoiy muammolar boʻyicha ijodiy ishlar, taqrizlar va hokazolar tayyorlash.

Egallangan bilimlar va malakalardan amaliy faoliyatda hamda kundalik turmushda foydalanish:

jamiyatda kechayotgan va yuz berishi kutilayotgan jarayonlarga ijtimoiy dunyoqarash pozitsiyasidan oʻz munosabatini aniqlab olishda;

– olingan bilimlarni va bilish faoliyati imkoniyatlarini takomillashtirib borishda;

– kishilar xatti-harakatini axloqiy va huquqiy qadriyatlar mezonlariga koʻra baholashda;

– taʼlimning keyingi bosqichlarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻrganishda egallangan bilimlardan ilmiy moʻljal maqsadida foydalanishda;

– turli maslak va qadriyatlar tashuvchilari bilan oʻzaro maqbul muloqotlarni yoʻlga qoʻyishda; va hokazo.

**Azizov Sh.**

Shaxs va jamiyat: akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. /Sh. Azizov. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: «Niso Poligraf», 2016. – 264 b.

**KBK 60.55я721**

**SHODMONQUL AZIZOV**

**SHAXS VA JAMIYAT**

*(ijtimoiyot asoslari)*

*Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun  
darslik*

Tuzatilgan va qayta ishlangan nashr

Muharrir *T. Nazarov*  
Badiiy muharrir *J. Gurova*  
Texnik muharrir *D. Salixova*  
Musahhih *Sh. Ilhombekova*  
Kompyuterda sahifalovchi *B. Babaxodjayeva*

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.  
Toshkent viloyati, Oʻrta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,  
Mashʼal mahallasi, Markaziy koʻchasi, 1-uy.  
Litsenziya raqami AI №265. 24.04.2015.

Bosishga 2016-yil 14-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>.  
Ofset qogʻoz. «Tayms New Roman» garnituras. Kegli 12. Shartli bosma tabogʻi. 16,5.  
Nashr tabogʻi. 15,34. Adadi 19280 nusxa. Buyurtma №603.

Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligining «Oʻqituvchi» nashriyot-matbaa  
ijodiy uyida chop etildi. Toshkent – 209, Yunusobod dahasi, Yangishahar koʻchasi, 1-uy.  
Shartnoma №109-16. Buyurtma №